



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

2024-yil. 12-son



*Ixtisoslashtirilgan ta'lim
muassasalari agentligi tizimidagi ijod
maktablarida 2024-2025 o'quv yili
uchun imtihonlar bo'lib o'tdi.*



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Tahrir hay'ati:

Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'liqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Bahodir Jovliyev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Alijon Safarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To'maris Butunbayeva
Okila Turakulova
Yuldosh Raxmatov
Ramziddin Abdusatorov
Feruza Manukyan
Gulsanam Xolikulova
Kamiljon Qarshiyev
Nigoraxon Ro'zibayeva
Ra'no Mullaxodjayeva

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Bibimaryam RAHMONOVA
Shabnam G'ANIYEVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com



Ilmiy-metodik elektron jurnal

M U N D A R I J A

Dolzarb mavzu

Nasiba Tursunova. Oila, qadriyat va irim masalalari tahliliga doir.....3
Nilufar Mirsaidova. Insoniyat tamadduni tarixining zarvaraqlari.....7
Nodira Bobonazarova. Shaxs shakllanishida ijtimoiy muhitning o'ri va ta'siri.....10

Tilshunoslik

Fayzullo Musayev, Sunnat Abdunabiyev. O'zbek adabiy-ilmiiy tilining bir asrdagi farqidan namuna.....13
Sherzod Shavkatov. O'zbek tilida fe'lni fe'lga bog'lovchi vositalarning semantik xususiyatlari.....21
Adiba Yusupova. Lingvistik antropomorfizm – tilshunoslikning yangi yo'nalishi.....24
Sevara Qaxramonova. "Kamsitish" semali so'zlarning leksikografik tavsifini tayyorlash masalasi.....27
Sirojiddin Shoxobiddinov. The concept of pragmalinguistic presupposition in linguistics.....30
Gulbakhor Eshchanova. Software tools for assessing and giving feedback in the Flipped classroom model.....32

Adabiyotshunoslik

Shahodat Karamova. Zebo Mirzo ijodida g'oya va badiiy mahorat mutanosibligi.....35
Mohigul Fazliyeva. "Kalila va Dimna" qo'lyozma nusxasining tavsifi.....37
Ozodabegim Mavlonova. Adabiyot muallimlariga otlig yor haqida yoxud jonni oti ayog'iga nisor etay.....40
Ro'ziboy Tangirov. Shukur

Xolmirzayev hikoyalarida peyzajning o'rni.....43

Ilg'or pedagogik texnologiyalar

Maxmuda Tadjibaeva. Ta'lim oluvchilarning bilimlarini sinashda va mustahkamlashda o'yinli texnologiyalarning ahamiyati.....46
Shodmonoy Abdug'aniyeva. Sanogen fikrlash talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish omili sifatida.....48
Saykhuna Khonturayeva. Ingliz tilini o'qitishda talaba markazlashtirilgan yondashuvning ahamiyati.....50
Abera Qahhorova. Boshlang'ich ta'limda folklor matnlarini innovatsion tahlil qilish orqali nutq o'stirish.....52
Nilufar Giyazova. The quality of education and the management system of higher education institutions as a socio-pedagogical problem.....54
Дилафрузхон Махмудова. О развитии творческой деятельности студентов в вузах.....58

Tadqiqot

Abdurahmon Ochilov. Xususiy maktablarning ta'lim jarayonini takomillashtirish texnologiyalari.....60
Saboxat Muxammadova. Boylik va kambag'allik mavzusidagi o'zbek maqollarining tuzilishi.....62
Ma'rifatxon Abdullayeva. Bo'lajak o'qituvchilarni boshlang'ich ta'limda tarbiya fani asosida kasbiy rivojlantirishga tayyorlash.....64
Nargiza Ro'zmatova. Xorazm folklorida lapar janridagi murojaat birliklarining leksik-semantik xususiyatlari.....67

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
<https://oak.uz/pages/4802>

| | | | |
|---|----|---|-----|
| Matluba Yeshboyeva. Muhammad Yusuf she'rlari qoraqalpoq tilida..... | 69 | Gulasal Latipova. O'zbek lug'atshunosligining xronologiyasi va toksonomiyasi..... | 88 |
| Nodirbek Xasanboyev. Oliy adabiy ta'limda masofadan o'qitishning afzalliklari..... | 71 | Dilafruz Mamatova. O'zbek sheva va lahjalarining o'ziga xos xususiyatlari..... | 90 |
| Sitora Hamroqulova. Y.V.Gyotening "Faust" asari yaratilishi va tarjimalari xususida..... | 74 | Anjela Kuganova, Dilafruz Umarova. Identification and interpretation of english phraseological units.... | 92 |
| Чжао Юе. Сатира в повести С.Заяицкого «Земля без солнца»..... | 76 | Kichik tadqiqot | |
| Gulnur Tursunpulatova. Navoiyning nasriy asarlarida qo'llanilgan she'riy janrlar..... | 78 | Nigina Qurbonova. Sadriddin Ayniy asarlarida jadidlar faoliyati masalalari..... | 94 |
| Dilnura Sotimboyeva. Iqbol Mirzoning "Bonu" romanidagi buxoro shevasiga oid so'zlar va turg'un birikmalarning tahlili..... | 81 | Mushtariy Tojiboyeva. "Ma'naviyat" leksik kategoriyasiga oid tadqiqotlarning mazmun-mohiyati..... | 95 |
| Gulnora Ximmatova. Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida ona va ona vatan tasviri uyg'unligi..... | 83 | Zarifa Murodova. Sinxron tarjima va uning ahamiyati..... | 97 |
| Rufina Abdullayeva. Uvaysiy ijodida chistonning o'rni..... | 85 | Azizbek Ibragimov. Orzu Urganjiy ruboiylariga bir nazar..... | 100 |



Nasiba TURSUNOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida
dotsent, f.f.f.d. (PhD)

OILA, QADRIYAT VA IRIM MASALALARI TAHLILIGA DOIR

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek xalqining oilaviy-maishiy marosimlar folklori va uning badiiy talqini xususida, shuningdek, bola tug'ilishi urf-odat va irimlar bilan bog'liq ilmiy-nazariy tahlillar asosida mushohada etilgan.

Kalit so'zlar: marosim, folklor, janr, kult, yovuz, g'oyib, ilohiy, o'git.

Annotation: this article was created on the basis of the scientific theoretical analysis of the folklore of the peoples of Central Asia and the artistic interpretation of family rituals.

Key words: ritual, folklore, genre, cult, evil, disappearance, divine.

Аннотация: в данной статье основана на научно-теоретическом анализе фольклора и художественной интерпретации семейных обрядов народов Средней Азии.

Ключевые слова: ритуал, фольклор, жанр, культ, зло, исчезновение, божество.

Ma'lumki, har bir xalqning o'zligini anglatadigan milliy qadriyatlari va milliy mentalitetiga xos madaniyati bor. Mamlakatimizda oila masalasiga davlat siyosati darajasida qaraladi. O'zbek xalqi o'ziga xos qadriyatlarini asrash, yuksak ma'naviyatni shakllantirish va yuksaltirish borasida oilaga tayanadi.

Sharq xalqlarida oila, ota-ona, farzand kabi milliy

qadriyatlarga muhim e'tibor qaratiladi. Muqaddas kitob "Qur'oni Karim" va "Hadis"lar to'plamida ham ushbu masalalarga alohida urg'u berilgan. Jumladan, Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning marhamat qilishlaricha: "Ota-ona yaxshi xulqdan ham ortiqroq narsa bera olmaydi". Shunday ekan, ota-onaning farzandiga beradigan eng yaxshi hadyasi qimmatbaho kiyimlaru, sovg'a-



salomlar, totli taomlar emas, balki go'zal xulq, yaxshi tarbiyasi va axloq-odob bilan sayqal topgan muomalasidir. "Bir kun janjal chiqqan uydan, qirq kun baraka ketadi",- deydi dono xalqimiz. Bu maqollar zamirida axloqiy normalar asosida shakllangan o'git, hikmat oilaviy turmushning farovonligi va oila-a'zolarining ma'naviy yuksalishiga turtki vazifasini o'taydigan o'ziga xos hayot falsafasi yotadi.

O'zbek xalqi jahondagi eng qadimiy madaniy an'analarga ega xalqlardan biri bo'lib, uning moddiy va ma'naviy madaniyati tarixi ilk tosh asriga borib taqaladi. Tarixiy taraqqiyotning hal qiluvchi kuchi hisoblangan xalq ommasi folklor an'analari hamda marosimiy qadriyatlarning ham ijodkori deb qaraladi. Har bir davrda yashagan ajdodlarimiz o'z ota-bobolari tomonidan yaratilgan folklor an'alarini yanada rivojlantirganligi uchun ham o'zbek xalqining milliy an'analari avloddan-avlodga o'tib, takomillashib kelgan. Folklorshunos O.Qayumovning qayd etishicha, miloddan oldingi IV-VII ming yilliklarga xos bo'lgan Sarmishsoy qoyalaridagi suratlarda qadim ajdodlarimizning shomoniylilik diniga daxldor sehri marosimlari tasvirlangan. Mazkur xulosa Zarafshon vohasida istiqomat qilayotgan xalqning tarixi va qadriyatlarining genetik asoslarini oydinlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Marosim – xalq san'ati va madaniyati shakllari

orasida eng ulkan auditoriyani o'ziga jalb qiladigan ommaviy tadbir hisoblanadi. Marosimlar xalqning eng yaxshi an'analari, odatlari, axloqiy qoidalarini o'zida mujassamlashtirishi, saqlashi va rivojlantirishi jihatidan yoshlarni tarbiyalashda, ularni odob-axloqli, komil shaxs bo'lib yetishishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek marosim folklorini o'rgangan folklorshunos olim B.Sarimsoqovning monografik tadqiqotida marosimlar tarkibida irimlar ko'p uchrashi, marosimlarimizning tarixiy asoslari qadimiy e'tiqodiy qarashlar bilan bog'liq ekanligini aytib o'tadi. Jumladan, urf-odat va irimlarning marosim bilan munosabatlari borasida: urf-odat tushunchasi esa o'ta keng tushuncha bo'lib, u o'z ichiga xalq hayotining barcha tomonini – oddiy kundalik udum, rasm-rusum, irim-sirimlar, o'zaro-muomala madaniyati hamda barcha marosimlarni butunicha qamrab oladi.

Marosimlar kishilarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan ma'naviy hayot qadriyatlari sirasiga kiradi. Oilaviy marosimlar inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy vaziyatda o'tadigan, o'z ramziy harakatlariga hamda maxsus aytim-qo'shiqlariga ega hayotiy tadbirdir.

Oilaviy marosimlarda bolani dunyoga kelishi bilan bog'liq jarayonda turli qadriyatlarga xos



irimplarga amal qilingan. O'zbek folklorida Anbar ona, bibi Fotima va Anaka momo kabi personajlar doya momolar piri deb talqin qilinadi. Homila tug'ilayotgan paytda ayol eson-omon tug'ishi uchun doya momolar: "Mening qo'lim emas, Anbar onamning qo'li, Anbar ona qo'llasin!" – deb homiy kuchlardan madad so'raganlar. Anbar ona kulti va u bilan bog'liq xalq qarashlari G.P.Snesarev, V.N.Basilov, O.Safarov, O.Qayumov kabi olimlarning asarlarida atroflicha tahlil qilingan. K.Tayjanov va H.Ismoilovlarning aniqlashlaricha, Chimkent viloyatining Qoramurt qishlog'ida homilador ayolni tug'dirayotgan doya kampirlar: "Mening qo'lim emas, bibi Fotimaning qo'li, Anbar onamning qo'li, yetti momoning qo'li!" – deb o'z pirlaridan madad so'raganlar.

Folklorshunos O.Qayumov ma'lumotlariga ko'ra, marosimni o'tkazadigan qushnoch momo bir siqim oq paxtani olib, uni uch bo'lakka ajratgan. So'ngra mevali daraxt shoxidan sindirib tayyorlangan yetti dona toza cho'pga oq paxta o'rab, pilik yasagan. Ana shu piliklardan har birining o'z nomi bo'lib, ular Sariq momo, Qora momo, Titti momo, Ochil momo, Gulsun momo, Yo'zil momo va Tuvgich momo deb atalgan. Nazarimizda, xalq orasida ikkiqat ayollarning asotiriy homiysi sifatida tasavvur qilingan ana shu "yetti momo" haqidagi qadimgi inonchlar unutilib ketgan. Hozirgi kunda "yetti momo" dan faqat bittasi – Tuvgich momoning mifologik tabiati va funksiyasiga doir ayrim qarashlarga qadimgi kult miflarining reliktlari sifatida saqlanib qolgan, xolos. Demak, o'zbek mifologiyasida doya kampirlarning homiysi, piri sifatida e'tirof etilgan "yetti momo" obrazi mavjud bo'lgan. Shuningdek, hozirgi o'zbek shomonlari mifologik homiysi, ayollar piri sifatida Anbar ona obrazi bilan bog'liq mifologik tasavvurlar ham xalqimiz tafakkurida saqlanib kelmoqda. Qadimiy e'tiqodiy tasavvurlar bilan aloqador irimlar o'ziga xos progmatik vazifalarni ado etadi. Ularning vazifalaridan biri yosh avlodni yomon narsalardan ehtiyot qilish, atrof muhitni odam avlodini asrab avaylashga o'rgatishdan iborat.

Xalqimiz tomonidan amal qilinib kelingan chilla davri bilan bog'liq urf-odatlar oilaviy-maishiy marosimlar folklorning qadimiy qatlamini tashkil etadi. Xalqimiz orasida "chaqaloq chillasi", "kelinlik chillasi" degan tasavvurlar bor. Chilla – qirq kunlik muddat bo'lib, chaqaloq yoki kelinchakni yomon ko'zdan, yovuz ruhlardan asrash maqsadida qirq kun ichida ma'lum irimplarga qat'iy amal qilinishidir. Chillalik davrida biror bir sabab bilan bola kasallanib qolsa yoki yangi kelin tushgan xonadonda noxushlik ro'y bersa, buni yomon ruhlardan xuruji, ya'ni chilla an'anasining buzilishidan deb bilganlar. Aslida, gigiyena bilan bog'liq xalq qarashlari asosida paydo bo'lgan chilla saqlash an'anasi qirq raqami haqidagi

afsonaviy tasavvurlarga o'rab-chirmab tashlangan. Bu magik udumga asos bo'lgan "qirq" soni, ya'ni yovuz ruhlarni quvlash yoki ona va bolani himoya qilish funksiyasini bajaradi. Raqamlarning magik qudratiga ishonish an'anasi, ayniqsa, bola tarbiyasi bilan bog'liq udumlarda yaqqol ko'rinadi. Ilgarilari odamlar chaqaloq hayotining dastlabki davrida bir necha "xavf-xatar" bor deb o'ylashgan. Bola hayotining dastlabki besh, yetti, to'qqizinchi kunlari, ayniqsa, xatarli hisoblangan. Xuddi shu kunlarda yomon ruhlarni haydash maqsadida, turli irim-sirimlar qilingan. Bu xatarlardan eson-omon o'tgan bolaning umri uzun bo'ladi, deb irim qilganlar. O.Qayumov marosimlar tarkibida qo'llaniluvchi yetti raqamining magik mohiyatini qadimgi ajdodlarimizning "Navro'z" bayrami bilan aloqador sanaydi. Olimning qayd etishicha, qadimgi buxoroliklarning yangi kun arafasida olti kun bayram qilishgani va yettinchi kunda ularning ilohalari yo'qolib qolishgani bois yettinchi kunni a'za tutishgani, hatto vaqt o'lchovi hafta birligi ham shundan kelib chiqqanligi, turkiylar ilohining yettinchi kun o'zga olamga o'tib ketganligi uchun yetti raqami magik mohiyat kasb etishi uqtiriladi.

O'zbek marosim folklorida bola va ona bilan bog'liq barcha marosimlar, urf-odat hamda irim-sirimlar bajarilgandan so'ng chilla davri tugaydi deb hisoblangan. Chaqaloq va onasi bu davrdan eson-omon o'tib olganlari munosabati bilan navbatdagi kichkina marosim, ya'ni "chilla qochdi" yoki "chilla quvdi" marosimi o'tkazilgan.

Folklorshunoslar fikriga ko'ra, irim-sirimlar spetsifikasi borasida mulohaza yuritganda ularga ikki xil yo'nalishda yondashish lozim deb qaralgan. Bular: 1. Irim – marosimning ajralmas qismi, muhim komponenti sifatida; 2. Irim xalqning turli e'tiqodiy qarashlarini o'zida mujassam etgan folklor janri sifatida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. Irimlar tarkibi albatta mifologiyaga xos bo'ladi. Irimlar mohiyatida taqiq yoki albatta amalga oshishiga inoshch yotadi. Tabulashtirish biror kishini muayyan tashqi dunyoning ma'naviy xatarlaridan asrashni maqsad qiladi.

Yosh bolaning chilla bilan bog'liq irimlari ijtimoiy hayotimizda ikki xil vazifani bajaradi:

- a) mifologik irimlar;
- b) didaktik ya'ni tarbiyaviy irimlar.

Chaqaloq tug'ilgandan keyingi uch kun, ayniqsa, xatarli hisoblanar ekan. Yovuz kuchlar chaqaloqni sevib, unga zarar yetkazishi mumkin degan inonch va ishonch bo'lgan. Bu ishonch mifologik irimni tashkil etsa, uning tarbiyaviy jihati esa ma'lum chilla davridagi bola, ona va bola bilan bog'liq tartib-intizom qadimda bunday etiqodlar zamirida yoshi ulug'lar va kattalar nasihatiga odat doirasida amal

qilib kelingan. Ayniqsa, chaqaloqning uch kunlik davri bilan bog'liq ko'pgina irim-sirimlar mavjud. Bunda bolani yolg'iz qoldirmaslik, yolg'iz qolgan taqdirda boshining ostida non yoki pichoq qo'yish; yuvilgan kiyimlarini kun botgan vaqtda tashqarida qoldirmaslik, sababi ins-jinslar yangi chaqaloq kiyimga o'rnashib zarar yetkazadi degan inonchga asoslangan irimlar mavjud. Bunday holatlar tibbiyot nuqtayi nazardan qaralganda ham ona va bolaning salomatligining muhofazasi sifatida qo'llaniladi.

Turkiy xalqlarda qadim tasavvurlardan nishona beruvchi Umay ona, Ayozi momo, Momoqaldiroq, Tuvgich momo kabi kultlar ham bizning tariximizda, ayolga-yaratuvchiga bo'lgan ilohiy munosabatdan darak beradi. Demak, oilaviy maishiy marosimlarni tub mohiyati zahirida tarbiya turadi. Tarbiya esa, momolar, onalar timsolida shakllanadi. Irim-sirimlarning qadriyat sifatida o'rni va qimmatini ham ularning didaktik vazifani ado etishi bilan belgilanadi.

Ba'zi irimlar mohiyatida ezgulik tilash g'oyasi yotadi. Masalan, befarzand ayolni ko'p bola tuqqan ayolning ikki oyoqlari orasidan uch marta o'tkazsa, farzandli bo'lishiga ishonishgan. Yoki go'dakning og'ziga hamma havas qiladigan, ibratli, namunali, keksha kishining ramziy tufurishi irimi ham borki, buning mohiyatida ham go'dak ulg'aygach shu kishidek, ulug', el ardog'ida, elining koriga yaraydigan inson bo'lishi g'oyasi yotadi.

Bugungi kunda oilada bola dunyoga kelishi, hatto homiladorlik davrdanoq ona tarbiyasi bola uchun muhim ekanligi, islom dini ta'limotida,

shuningdek, tibbiyotda ham o'z isbotini topganligi sharq allomalarining tajribasi asosida isbotlangan. Buyuk alloma Jaloliddin Rumiy hazratlari shunday deydilar: "Ona haqlariga diqqatli bo'l, uni boshingga ko'tar. Zero onalar to'lg'oq mashaqqatini chekishni bo'yulariga olmaganlarida, chaqaloqlar dunyoga kelishi uchun yo'l topolmas edilal"- degan hikmatlari asrlar davomida haqli haqiqat ekanligini isbotlaydi. Dunyo xalqlari ilmida tamal toshini qo'ygan olim A.R.Beruniy o'z qarashlarida oila tinchi bevosita oqila, aqli, farosatli, tarbiyali ayollar qo'lida ekanligiga alohida urg'u beradi.

Xullas, o'zbek xalqida bola tug'ilishi bilan bog'liq marosimlar tarkibida amal qilinadigan irimlar tarixiy asosiga ko'ra ajdodlarimizning qadimgi suv, olov, ajdodlar kultlari, serfarzandlik inonchlari va qadimgi animistik, monistik mifologik tasavvurlari ta'sirida shakllangan. Irimlar dastlab mifologik mohiyat kasb etib, e'tiqod zaminida yashagan va xalq tafakkurida davrlar o'tishi bilan og'zaki aytimlarga ko'chgan. Irimlarning ondan harakatga, harakatdan og'zaki ijodga ko'chishi ularning mifopoetik vazifa bajarishini yuzaga keltirgan. Mana shu nuqtayi nazardan bola tug'ilishi bilan bog'liq irimlar mohiyati tabuga yoki ishonchga daxldorligi, mifologik mohiyat kasb etishi va marosim tarkibida o'rinishuvi, uning semantikasi so'z orqali ifoda etilishi uning folklorning kichik janri ekanligini ko'rsatish bilan birga oila institutini mustahkamlovchi betakror milliy qadriyat sifatida ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qayumov O. O'zbek shomon marosim folklori. – Toshkent: Iqtisod moliya, 2020. 39-b.
2. Снесарев Г. П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – С.187-189; Басилов В.Н. Культ святых в исламе. – М.: Наука, 1970; Сафаров О. Болаларни эркаловчи ўзбек халқ кўшиқлари. – Тошкент: Фан, 1983; Каюмов. О. С. Об образе мифологической покровительницы матери Анбар/ «Этногенез и этническая история народов Кавказа». Материалы I международного нахского научного конгресса. – Грозный Том. 1. – С.560 – 565.
3. Тайжанов К., Исмаилов Х. Особенности доисламских верований у узбеков-карамуртов // Древние обряды, верования и культуры народов Средней Азии. – М.: Наука, 1986. – С.110-138
4. Qayumov O. Shomon yo'qlovlari folklor janri sifatida// Xorijiy filologiya. 2018. № 3. 79-86-bet.
5. Kayumov O. Rimp in the uzbek shamanistic songs/3.Asia pacific international congress on contemporary. Studies full text book-contents. – Seoul, South Korea. 2020. – P. 76–81.
- 6.Фрэзер Дж.Дж. Смысл табу//Золотая ветвь. Исследование магии и религии Том 1.– С. 165. || slavaaa@yandex.ru.
7. Xoliqova M. va boshqalar. Gender tengligi: g'oyadan qonunga qadar. –Toshkent: "Akademnashr", 2021. 21-bet.

Nilufar MIRSAIDOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti v.b
filologiya fanlari nomzodi
mirsaidova.199@mail.ru

INSONIYAT TAMADDUNI TARIXINING ZARVARAQLARI

Annotatsiya: maqolada o'zbek folklor adabiyotining tarixi, shakllanishi va taraqqiyoti xususida so'z boradi. Markaziy Osiyo xalqlarining mifologik dunyoqarashi asosida o'zbek folklor asarlarining to'planishi va yozib olinishi xususida ham ma'lumotlar beriladi. Turkiy mifologiyaga oid asarlar "O'g'iznoma" va "Dada Qo'rquq" kabi asarlarning tahlili berilgan. Shuningdek, maqolada turkiy xalqlarning buyuk olimlari Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy, Alisher Navoiy, muarrix Xondamir, Darvesh Ali Changiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalar o'zbek folklorining ilk to'plovchilaridan ekanliklari ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: "Kitobi Dada Qo'rquq", "Nasoyim ul muhabbat", "O'g'iznoma", fetishizm, totemizm, folkloristik, etnografik, "Devonu lug'otit turk".

Аннотация: в статье говорится об истории, становлении и развитии узбекской фольклорной литературы. Также приведены сведения о сборе и записи фольклорных произведений, основанных на мифологическом мировоззрении народов Средней Азии. Дан анализ произведений, связанных с тюркских мифологией, таких как «Огизнома» и «Дада Коркут». Также в статье отмечается, что в число первых собирателей узбекского фольклора входят великие учёные тюркских народов Махмуд Кошгари, Махмуд Замахшари, Насирулдин Бурхануддин Рабгузи, Алишер Навои, историк Хондамир, Дарвеш Али Чанги, Захириддин Мухаммад Бабур и другие. Кроме того, даются сведения о легендах и повествованиях, дошедших до нас через фольклор.

Ключевые слова: «Китоби Дада Коркут», «Насойим ул Мухаббат», «Огизнома», фетишизм, тотемизм, фольклористика, этнография, «Девону луготит тюрк».

Annotation: the article talks about the history, formation and development of Uzbek folk literature. Information is also provided on the collection and recording of folklore works based on the mythological worldview of the peoples of Central Asia. An analysis of works related to Turkic mythology, such as "Ogiznoma" and "Dada Korkut" is given. The article also notes that the first collectors of Uzbek folklore include the great scientists of the Turkic peoples Mahmud Koshgari, Mahmud Zamakhshari, Nasiruddin Burhanuddin Rabguzi, Alisher Navoi, historian Khondamir, Darvesh Ali Changi, Zahiriddin Muhammad Babur and others. In addition, information is given about legends and stories that have come down to us through folklore.

Key words: "Kitobi Dada Korkut", "Nasoim ul Muhabbat", "Ogiznoma", fetishism, totemism, folkloristics, ethnography, "Devon Lugotit Turkic".

Ma'naviyat kecha yoki bugun paydo bo'lgan tushuncha emas, u asrlardan buyon xalqimiz bilan birga yashab, birga taraqqiy etib kelayotgan buyuk bir qadriyatdir. Inson dunyoga kelgan kundan boshlab, to hayotining so'ngi kunigacha o'zi mansub xalqning qadriyatlari, an'analari ichida ulg'ayadi, kamol topadi. Hatto o'zini folkloriga begona deb bilgan, bu atama ta'rifidan umuman yiroq bo'lgan kishi ham shu an'alar ichida ulg'aygan, uning ongi, shuuri shu qadim an'analari ta'sirida shakllangan bo'ladi.

Har bir sohaning o'z tarixi bo'lganidek, folklorshunoslik borasidagi izlanishlarning ham o'z o'q ildizlari mavjud. Bu izlanishlar ildizi olis moziyga borib taqaladi. Kishilik jamiyati tashkil topganidan buyon to shu kungacha xalq

og'zaki ijodi haqida nimaiki aytilgan, yozilgan bo'lsa bularning bari turkiy zabon xalqlarning og'zaki ijodini o'rganishga o'zining munosib ulushini qo'shgan. Turkiy xalqlar mifik dunyosi aks etgan tarixiy-adabiy kitoblardan yana biri "Kitobi Dada Qo'rquq" hisoblanadi.



Qo'rqut ota ismi bilan mashhur bo'lgan Dada Qo'rqut o'z vaqtida odamlarga yaxshilik qilish, mushkullarini osonlashtirishga ko'makchi bo'lgan. U kelgusi hayot haqida bashorat qiluvchi, Alloh nazar solgan tabarruk insonlardan biri sifatida hurmat qozongan. Hazrat Alisher Navoiyning "Nasoyim-ul muhabbat" tazkirasida bu zot haqida ham ma'lumot berib o'tadi [A.Navoiy, Nasoyim-ul muhabbat, 2001: 421]

"Kitobi Dada Qo'rqut" ya'ni turkiy xalqlar mifologiyasi aks etgan eng qadimgi mukammal kitoblardan biri ekanligini ham alohida ta'kidlash zarur. T u r k i y mifologiyaga oid voqea – hodisalar tasvirlangan yana bir kitob "O'g'iznoma" dir. "O'g'iznoma" asarini tahlil qilish jarayonida turkiy xalqlarning mifologik dunyoqarashidagi bo'ri, ayiq totemlari, kun, oy, yulduz, ko'k, tog'lar, dengiz, yoy, o'q kabi fetishlari muhim o'rin olganini ko'ramiz. O'zbek folklori asarlarining to'planishi va yozib olinishi tarixi haqida so'z yuritganda X asrda yashab ijod qilgan mashhur muarrix Abu Bakr ibn Ja'far Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida shahar va qishloq nomlari, tarixiy obidalar hamda o'tmishda bo'lib o'tgan voqea hodisalar haqidagi xalq rivoyatlari, afsonalari keltirilganligi, XI asrning buyuk olimi Mahmud Koshg'ariy turkiy qavmlar diyorini kezib maqol, matal, qo'shiq, afsona singari folklor janrlariga oid boy materiallarni yozib olib, "Devonu lug'atit turk" asariga kiritilganligini alohida ta'kidlash lozim.

Eng qadimgi maqol va matallarni yozib olib, ularing xususiyatlarini o'rgangan Mahmud Zamaxshariy, payg'ambarlar haqidagi qissalarni "Qissasi Rabg'uziy"ga jamlagan. Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy, o'zbek xalq she'riyatining turli janrlari tarkibi haqida muhim ma'lumotlar yozgan Alisher Navoiy, ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy haqidagi xalq rivoyatlarini naql qildirgan muarrix Xondamir, musiqa folklorining turli xil rang janriy rang barangligiga doir materiallari yozib qoldirgan Darvesh Ali Changiy, o'zbek xalqining urf-odatlarini, marosimlari, maqol va hikmatli so'zlari, rivoyatlari haqida "Boburnoma" da qiziqarli faktlarni keltirgan Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalar o'zbek folklorining to'plovchilaridan edilar.

Bizgacha xalq og'zaki ijodi orqali bir talay tarixiy voqea va hodisalar ham yetib kelgan. Masalan, tarixiy rivoyatlarda To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur kabi yurt ozodligi va mustaqilligi uchun jonini qurbon qilgan el farzandlarining mardligi, jasurligi, shu bilan birga o'zining o'tkinchi hirsiy nafi yo'lida vataniga xiyonat qilgan Davarzin, Guldursun, Oychechakka o'xshagan xiyonatkor shaxslar kirdikorlari ham hikoya qilinadi. Xalq baxshilarning e'tirofiga ko'ra mard, jasur insonlarning ishlari ham, xoinlarning ishlari ham unutilmaydi.

Keng ko'lamlil to'plovchilik faoliyati olib borgan Mahmud Koshg'ariy o'zining safarlari chog'ida faqat lug'at uchun lisoniy materiallar to'plash bilangina

kifoyalani qolmasdan, balki folklor namunalari ham yozib olgan. Buni olimning "Men har bir qabilaga mansub so'zlarning yasali xususiyatlarini va qanday qo'llanilishini qisqacha izohlab ko'rsatish uchun alohida yo'l tutdim. Bu ishda misol tariqasida turkiylarning tilida qo'llanilib kelingan she'rlardan, shodlik va motam kunlarida qo'llaniladigan hikmatli so'zlaridan, maqollaridan keltirdim, toki ularidan foydalanuvchilar naql qiluvchilarga, naql qiluvchilar esa o'z navbatida shu tilda so'zlovchilarga yetkazsin". [Mahmud Koshg'ariy. "Devonu lug'otit turk", 1960. 357-b.]

Demak, Mahmud Koshg'ariy turkiy qabilalar folklorining qo'shiq, matal, maqol, marosim folklori, afsona, rivoyat kabi janrlariga oid katta material to'plagan. Shuning uchun ham "Devonu lug'otit turk" asaridagi folklor materiallarini o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi namunalari bilan qiyosiy o'rganish folklorning tarixiy taraqqiyotini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning betakror ijodiy salohiyatini yuksak qadrlagan Alisher Navoiy ham o'z davri folklorining deyarli barcha janrlariga oid qadriyatlardan samarali foydalangan. Shu bois, shoir asarlarida XV asr o'zbek folklorining janr tizimiga doir afsona, qissa, rivoyat, ertak, hikoyat, doston, ayolg'u, qo'shiq, surud, o'zmog', chang, changa singari atamalar keng qo'llanilgan.

Alisher Navoiy asarlarida roviy, rivoyatchi, qissago'y, qissaxon, qissapardoz, go'yanda, yirov o'zon kabi folklor ijrochilari nomini bildiruvchi atamalar ham keltirilgan. Bu ma'lumotlar o'zbek folklori janrlarining tarixiy asoslari va taraqqiyotini o'rganishda muhim qimmatga ega.

Shuningdek, o'zbek folklori na'munalari yozib olinishi tarixida Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida keltirilgan rivoyatlar, Gulxaniyning "Zarbulmasal"iga kiritilgan xalq maqollari va naqlar, ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. Xalq qo'shiqlarining parchalari, Muqimiyning xalq og'zaki badiiy ijodidagi qo'shiqlar uslubida yozgan "Sayohatnoma" asari ham o'zbek folklor janrlarining shakllanishida muhim o'rin tutishini qayd etish kerak bo'ladi.

O'zbek folklorshunosligi fanining asoschisi, atoqli olim Hodi Zarifov "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining 1958-yilgi ilk sonida bosilgan "folklor va arxialogiya materiallarini qiyosiy o'rganish masalalariga doir" (25-30-betlar) nomli program xarakteridagi maqolasi o'zbek folklorshunosligida "arxeofolkloristika" yo'nalishini boshlab bergan edi. Zero, folklor asaridagi muayyan obraz, motiv yoki epik syujetning tarixiy asoslarini oydinlashtirishda arxeologik qazilmalar chog'ida topilgan turli osori atiqalar, qoyatoshlarga chizilgan petrogliflar, Varaxsha, Afrosiyob, Bolaliktepa va Tuproqqal'ada topilgan qadimiy devoriy suratlar, xullas ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy madaniyat na'munalari muhim qiyosiy manba rolini



o'taydi.

Folklor asarlarining yaratilishi va ommalashishi jarayoni xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini, milliy mentalitetini aks ettiruvchi dunyoqarashi, an'analari bilan bevosita bog'liq bo'lganligi bois, folklori o'rganishda uni etnografik kontekstda ajratib tahlil qilib bo'lyabdi. Bir tomondan folklor asarida xalqimizning etnik tabiati bilan aloqador ko'plab "etnografizmlar" qadimiy marosim va rituvalar bilan bog'liq an'anaviy motivlar mavjud bo'lsa boshqa jihatdan folklor asarlari etnologik tadqiqotlar uchun ham boy material beruvchi muhim manba hisoblanadi. Shuning uchun ham "Etnofolkloristika" hozirgi zamon folklorshunosligining eng faol yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Insoniyat tamadduni tarixining zarvaraqlariga

oltin harflar bilan yozilishi kerak bo'lgan janr bu, shubhasiz xalq og'zaki ijodidir. Chunki, xalq og'zaki ijodi – insoniyatga tengdosh va eng qadimiy san'at. Turkiy xalqlar ming yillar davomida yaratgan milliy xazinamizning nodir merosi bo'lgan og'zaki badiiy ijodi hamisha inson kamoloti, yurt farovonligi, jamiyat yetukligi borasida ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qiladi. Yillar to'zonida eson omon o'tib, avlod ajdodlardan meros qolgan folklor janrlari ijtimoiy - siyosiy, ta'limiy tarbiyaviy sohalarda oliy ta'lim, maktab, barcha ma'naviy ma'rifiy yo'nalishlarda yo'l boshlovchi vazifasini o'taydi. Xalqning turmush tajribalari, kundalik kuzatishlari natijasida yuzaga kelib, o'z isbotini topgan maqollar, naqllarni hayot maktabi darsligi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.A.Navoiy. Nasoyimu-l muhabbat. Mukammal asarlar to'plami. 17 tom. – T.: Fan, 2001.
- 2.Avezov S. Sanama janri tabiati va badiiyati. – Toshkent: 2004. 81-b.
- 3.Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1974.
- 4.Sarimsoqov B. O'zbek adabiyotida saj. – Toshkent: 1978.
- 5.Mahmud Koshg'ariy." Devonu lug'otit turk". –T.: "Fan", 1960 1-tom.
- 6.Turg'unov Sh. Sanamalarining ayrim xususiyatlariga doir // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 2011.
- 7.O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi (X.Rozzoqov, T.Mirzayev O.Sobirov, K.Imomov). – Toshkent: "O'qtuvchi" nashriyoti, 1980.
8. Zaripov X. Fozillar fazilati. 1969.

Nodira BOBONAZAROVA,
*University of Economics and pedagogy
 NOTM, pedagogika kafedrası o'qituvchisi*

SHAXS SHAKLLANISHIDA IJTIMOY MUHITNING O'RNI VA TA'SIRI

Annotatsiya: mazkur maqolada shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi olam, voqelik, hodisalar "Muhit" tushunchasi o'zida geografik-hududiy, ijtimoiy va mikromuhit (oila) xususiyatlari, ijtimoiy voqea va hodisalarning shaxs rivojiga ta'siri g'oyat muhim ekanligini ta'kidlagan.

Kalit so'zlar: *shaxs, muhit, oila, ijtimoiy mavjudot, tabiiy muhit, tarbiya, mikromuhit.*

Annotation: in this article, the external world reality, events that influence the formation of a person, the concept of "Environment" includes geographical-physical, social and micro environment (family) features, social events and events influence on the development of a person is extremely important. emphasized.

Keywords: *person, environment, family, social being, natural environment, education, micro environment.*

Аннотация: в данной статье реальность внешнего мира, события, влияющие на формирование человека, понятие «Среда» включает в себя географо-физические, социальные и микросредовые (семейные) особенности, социальные события и события, влияющие на развитие человека. человек чрезвычайно важен.

Ключевые слова: *человек, окружающая среда, семья, социальное бытие, природная среда, образование, микросреда.*

Shaxsni shakllantirishda ijtimoiy va tabiiy muhit katta ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy muhit shaxsni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega: ishlab chiqarishning taraqqiyot darajasi va ijtimoiy munosabatlar xususiyati kishilar faoliyati va dunyoqarashi xususiyatini belgilab beradi. Tabiiy muhit (iqlim sharoitlari, o'simliklar, hayvonot dunyosining ahvoli) ham shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Jamiyat tabiiy boyliklarni muhofaza qilib va ko'paytirib, kishilarni, hayvonlarni, o'simliklarni, suv havzalarini va hokazolarni muhofaza etishga jalb qiladi, tabiat bilan faol muloqotda bo'lish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, bu esa o'z navbatida, odamga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi.

Shaxs muayyan ijtimoiy jamiyat mahsulidir. Shaxsning hayotiy faoliyatida ijtimoiy muhit unga yoki ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijtimoiy jamiyat shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. Bu jamiyatning ma'naviy qiyofasi, unda tashkil etilayotgan munosabatlar mazmuni hamda darajasiga bog'liq. Muhit deganda shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi olam, voqelik, hodisalar majmuyi tushuniladi. "Muhit" tushunchasi o'zida geografik-hududiy, ijtimoiy va mikromuhit (oila) xususiyatlarini ifoda etadi. Mikromuhit o'zida qisman ijtimoiy muhit qiyofasini aks ettiradi. Ayni chog'da u nisbatan mustaqillikka ega. Mikromuhit, bu ijtimoiy muhitning bir qismi bo'lib, oila, maktab, do'stlar, tengqurlar, kishilar va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Bolani qurshab turgan muhitda ijobiy va salbiy rivojlantiruvchi va inqirozga eltuvchi hodisalar mavjud. Agar bola o'z tug'ma layoqatiga mos sharoitda o'sib, zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat erta ko'rinib rivojlanishi, aksincha, bunday muhit bo'lmasa yo'q bo'lishi yoki "mudroq" ligicha qolib ketishi ham mumkin. Bundan tashqari, odob, axloq, xulqiy sifatlar, shaxsning

barcha ruhiy sifatleri faqat muhit va tarbiyaning o'zaro ta'siri asosida vujudga keladi. Psixologiya fanlari ijtimoiy muhit, unda shaxsning shakllanish jarayoniga ta'siri roliga alohida e'tibor beradi. Ijtimoiy voqea va hodisalarning shaxs rivojiga ta'siri g'oyat muhim ekanligini ta'kidlagan holda, ular ijtimoiy muhit abadiy emas, u ijtimoiy-tarixiy qonuniyatlar ta'siri ostida o'zgarib boradi, deya ta'kidlaydilar.

Oila muhiti - mikromuhit ham o'ziga xos muhim tarbiyaviy ta'sirga ega. Shu bois, mustaqillikka erishilgandan so'ng o'tgan davr mobaynida oila muhitining shaxs kamolotida tutgan o'rni va ahamiyati masalalari chuqur tahlil etilmoqda. Shu maqsadda tashkil etilgan "Oila" ilmiy markazi oilaning bu boradagi imkoniyatlarini ochib berish borasida samarali faoliyat olib bormoqda. Mavjud ijtimoiy muhit insonning o'sib borayotgan ongiga ta'sir etadi. Ijtimoiy tuzum darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning shaxsga nisbatan ongli ta'siri ham shunchalik yuqori bo'ladi. Ushbu ta'sir ijtimoiy jamiyatdagi mavjud tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi.

Tarbiya – biror maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, u muayyan darajadagi dastur g'oyalari asosida maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan kishilar tomonidan olib boriladi.

Rivojlanish oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ta'minlovchi murakkab harakat jarayoni sanaladi. Rivojlanishining manbai qarama-qarshiliklar o'rtasidagi kurashdan iboratdir. Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotidir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat

Shaxs shakllanishi


Ijtimoiy muhit



Irsiy omillar



Ta'lim tarbiya



**Vigotskiy naz.ga
ko'ra yuqori funk/ga
qaraganda elementar
funk/ naslga bog'liq**

rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, Ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud. Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar juda ko'p. Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda. Insonning shaxs sifatida rivojlanishiga ijtimoiy voqealar, tabiiy omillar yoki tarbiya ta'sir etadimi? Bu uch omilning o'zaro munosabati qanday?

Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtayi nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deyдилar. XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi

namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim – bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E. Torndaykdir. Pragmatizm oqimi va uning vakillari D. D'Yul, A. Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishi ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar.

Ularni ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar. Jamiyat taraqqiyoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat o'rtasida ham uzviy aloqa mavjud.



Shunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit, inson o'rtasidagi murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga faol ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayoti va o'z tabiatini o'zgartiradi.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga yetadi. Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin. To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Shunday ekan, yoshlarni tarbiyalab rivojlantirish bir-biriga ta'sir etadigan bu tarbiya tamoyilidir. Bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin. Shaxs

rivojlanishida faoliyatni o'rni beqiyos. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda, inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Faoliyat inson tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq o'zgartirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-tarixiy turmushning o'ziga xos shaklidir. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi.

Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi. O'smir va o'spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish va mehnat kiradi. Ular yo'nalishiga ko'ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqishiga ko'ra tanlangan sohalardan iborat.

Foydalangan adabiyotlar

1. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova. „Umumiy psixologiya“ (darslik) – Toshkent, 2021-yil.
2. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova. „Umumiy psixologiya“ – Toshkent, 2008- yil.
3. E.G'.G'oziyev. „Psixologiya“. – Toshkent, 2010-yil.
4. V.Karimova. „Psixologiya“. – Toshkent, 2002-yil.
5. A.V.Petrovskiy. „Umumiy psixologiya“. – Toshkent, 1992-yil.

Fayzullo MUSAYEV,
Oriental universiteti
Sharq tillari kafedrası o'qituvchisi
fayzullomusaev@gmail.com
Sunnat ABDUNABIYEV,
Oriental universiteti
Sharq tillari kafedrası o'qituvchisi
abdunabiev@yahoo.com

O'ZBEK ADABIY-ILMIY TILINING BIR ASRDAGI FARQIDAN NAMUNA

Annotatsiya: maqolada muallif XX asr o'zbek adabiy ilmiy tilini bugungi tilimiz bilan qiyosi asosida til rivojidagi leksik, fonetik, semantik va boshqa o'zgarishlarni ilmiy asosda kuzatadi va asoslangan xulosalarga keladi.

Kalit so'zlar: *til rivoji, leksik o'zgarish, fonetik o'zgarish, semantik o'zgarish, qiyoslash.*

Аннотация: в статье автор наблюдает лексические, фонетические, семантические и другие изменения в развитии языка на основе сравнения узбекского литературно-научного языка XX века с нашим языком и приходит к обоснованным выводам.

Ключевые слова: *развитие речи, лексическое изменение, фонетическое изменение, семантическое изменение, сравнение.*

Annotation: in the article, the author observes lexical, phonetic, semantic and other changes in the development of the language based on a comparison of the Uzbek literary and scientific language of the twentieth century with our language today and comes to reasonable conclusions.

Key words: *speech development, lexical change, phonetic change, semantic change, comparison.*

Ma'lumki, til qotib qolgan narsa emas. U tirik organizm kabi doimo o'zgarishda, rivojlanishda. Bu hodisa muayyan bir tilga tegishli ikki zamonga oid matnни qiyoslasa, aniq va ravshan namoyon bo'ladi. Quyida siz o'zbek adabiy-ilmiy tiliga oid ikki matn qiyosidagi tafovutlardan ba'zilari bilan tanishasiz. Bu ishga biz asosiy manba sifatida XX asr birinchi yarmida yashab, ijod etgan hamshahar olimimiz Hoji qori taxallusli Muhammad Zarif Shoshiy Koshg'ariyning "al-Kavsar" surasi tafsiriga tegishli matndan foydalandik.

Bunda farq qiluvchi leksik birliklar asosan so'zlar, so'z birliklari va kamroq jumlar shaklida namoyon bo'lganiga guvoh bo'ldik. Mana o'sha matnning "word" va toshbosma nusxalaridan bir sahifasidan hukmingizga havola:

(600) ابن جریر طبری کوثر دن مراد نھر جنت یا خیر کثیر یا حوض مشهور دیگان قول لار باره سیده روایت قیلینغان اثرلارنی ذکر قیلیب، سونگره دیب دورکه منینگ نزدیم ده اوشبو قول لار نینگ صواب غه یقین راقی کوثر جنت ده رسول الله غه عطا قیلینغان نھریننگ اسمی دیگان کیشیلار نینگ قولی دور. بو قولنی همه قول لار دن اولی دور دیمک لیکم بو باره دا رسول الله دن وارد بولغان خیر لار نینگ تتابعی (تتابع پی در پی بری آرقه سیدن بری کلمک معنی سی ده) جهتی دن دورکه اخبار وارده لار ده شونداغ کیلیب دور، سونکره ابن جریر بو باره ده حضرت انس روایتی ایله وارد بولغان خیر لارنی متعدد طرق لار برله ذکر ایتمی دور، لیکن فقیر بو یرده کوثر خیر کثیر معنی سیده بولغان ده، بو باره دا بیان قیلینغان وهم بیان قیلماق غه مناسبت و گنخایشی بار جمیع عطایای کثیره مواهب و فیره غه شامل بولمک لیکی نی و جناب رسول الله غه عطا قیلینغان دنیویه و اخرویه انفسیه و آفاقیه عطایای ظاهره و باطنه لار اندن خارج اولماسلیکی نی اعتبارغه آلیب خیر کثیر معنی سی نی ترجیح و اختیار قیلدیم. حالبوکه کوثر دن


مراد خیر کثیر ایکانیدہ وارد بولغان اثر لار مو بار دور، چنانچہ صحیح بخاری ده ایتیب دور، ابو بشر سعید بن جبیر دن اول ابن عباس رضی اللہ عنہما دن روایت قیلیب دور، ابن عباس جناب لاری ایتیب دور : کوثر خیر کثیری دور کیم اللہ تعالیٰ انی پیغمبر صلی اللہ علیہ وسلم غه عطا قیلیب دور دیب، ابو بشر ایتادور سعید بن جبیر غه ددیم که آدملا ر کوثر دن مراد جنت ده بر نھر دور دیب گمان ایتادورلار، ((سن انی خیر کثیر ور دیر سن)) پس سعید بن جبیر دیدیکه ((جنت داکی نھر هم رسول اللع جنابی غه عطا قیلینغان خیر کثیر جمله سدن بر خیر دور دیب)).

ابن جریر طبری بو معنی ده وارد بولغان اثر لار نی ابن عباس دن، مجاهد دن، عکرمه دن سعید بن جبیر دن و عطا بن السائب دن متعدد طرق لار ایله نقل ایتیب دور . منا کوثرنی خیر کثیر معنی سیغه حمل قیلغانده سعید بن جبیر رحمہ اللہ جناب لاری دیکان دیک، نھر کوثر هم انینگ ضمني غه داخل بولادور، چنکه کوثر هم رسول اکرم صلعم غه طرف الهی دن عطا قیلینغان عطایای کثیره و خیرات دنیویہ و اخرویہ جمله سی دن برگینہ عطیہ دور . پس کلام الهی نینگ اعجازی جہتی غه وهم کلام عرب ده کوثر نینگ خیر کثیر معنی سی ده استعمال قیلینغان لیقی غه کوره کوثر نی خیر کثیر معنی سی غه حمل ایتیمک، و اول معنی نی روایۃ و درایۃ ترجیح ایتیمک اولی دور دیمک نی اختیار ایتیم، زیرا که کوثر کثرت دن صیغہء مبالغہ دور نوفل نفل دن و جوهر جهر دن صیغہء مبالغہ بولغان دیک.

عرب لار هر بر نرسه که انینگ عددی تولا و قدر و اولوقلیقی کوب بولسه کوثر دیرلار، کوثر صیغہ سی کثرت ده مبالغہ نی واندہ افراط نی افادہ قیلادورغان بر کلمه دور . (600).

Ibn Jariyr Tabariy: "Kavsar"dan murod jannatdagi daryo, yo ko'p yaxshilik, yo mashhur hovuz degan qavllar borasida rivoyat qilingan asarlarni eslab: (600). Ibn Jariyr Tabariy: "Kavsar"dan murod nahri jannat, yo xayri kasiyr, yo havzi mashhur degan qavllar borasida rivoyat qiling'on asarlarni zikr qilib, so'ngra debdu-rki, " mening nazarimda ushbu gaplarning to'g'rirog'i : Kavsar jannatda Rasulullohga ato qilingan daryoning ismi degan kishilarning gapidir. Ushbu qavllarning savobg'a yaqynroqi kavsar jannatda Rasulullohg'a ato qiling'on nahrning ismi degan kishilarning qavlidur. Bu qavlni hamma qavllardin afzal deyishim, bu borada Rasulullohdan keltirilgan xabarlarning uzuliksizligi jihatidindir – deydi. Bu qavlni hamma qavllardan avlodur demakligim, bu borada Rasulullohdan vorid bo'lg'on xabarlarning tatobu'i (tatobu' pay dar pay biri orqasidan biri kelmak ma'nosida) jihatidandurki, axbori voridalarda shundog' kelibdur. So'ngra ibn Jarir bu borada haz-rati Anas rivoyati bilan kelgan xabarlarni turli yo'llar birla zikr etgan. So'ngra ibn Jarir bu borada hazrati Anas rivoyati bilan vorid bo'lg'on xabarlarni mutaaddid turuqlar birla zikr etibdur. Lekin men bu yerda "kavsar" – "ko'p yaxshilik" ma'nosida bo'lganda bu borada bayon qilingan va bayon qilinishi mumkin bo'lgan barcha ato etilgan xislat va fazilat, sifat va iste'dodlarni qamray olishini va xususan janobi Rasulullohgagina ato etilgan dunyoviy va uxroviy fazilatlar va hamda maxfiy va oshkora ilohiy in'omlar...?... undan tashqarida qolmasligini e'tiborga olib, "ko'p yaxshilik" ma'nosini afzal bildim va ixtiyor qildim. Lekin faqiyr bu yerda "kavsar" xayri ka-siyr ma'nosida bo'lg'onda bu borada bayon qiling'on va bayon qilmoqqa munosabatga xohishi (?) bor jamiy' atoyoyi kasiyra va mavohbi vafiyrag'a shomil bo'lmakligini va janobi rasulullohg'a ato qiling'on dunyaviyya va uxraviyya?... atoyoyi zohira va botinalar andin xorij o'lmasligini e'tiborga olib, xayri kasiyr ma'nosini tarji-yh va ixtiyor qildim. Holbuki, kavsardan murod "ko'p yaxshilik" ekani haqida kelgan asrlar ham bor. Holbuki, kavsardan murod xayri kasiyr ekanida vorid bo'lg'on asrlarmu bordur. Chunonchi, Sahih Buxoriyda aytiladi-

ki, Abu Bishr Sa'id ibn Jubayrdan, u ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilishicha: Ibn Abbos janoblari: "Kavsar ko'p yaxshilikdirki, Alloh taolo uni payg'ambar sollallohu alayhi vasallamga beribdi", deb aytibdi. Chunonchi, Sahih Buxoriyda aytibdur: Abu Bishr Sa'id ibn Jubayrdan, ul ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilibdur: Ibn Abbos janoblari aytibdur: "Kavsar xayri kasiyrdurkim, Alloh taolo ani payg'ambar sollallohu alayhi vasallamg'a ato qilibdur," deb. Abu Bishr: "Sa'id ibn Jubayrga dedimki, Odamlar "Kavsar"dan murod jannatdagi bir daryodir deb o'ylaydilar, nega sen uni ko'p yaxshilik deysan?!") Abu Bishr aytadur: "Sa'id ibn Jubayrg'a dedimki, Odamlar "Kavsar"dan murod jannatda bir nahrdir deb gumon etadurlar, (san ani xayri kasiyr dersan?!). Shunda Sa'id ubn Jubayr dediki, jannatdagi daryo ham rasululloh janobiga ato qiling'on ko'p yaxshilik jumlasidandur," deb. Bas, Sa'id ibn Jubayr dediki, jannatdagi nahr ham rasululloh janobig'a ato qiling'on xayri kasiyr jumlasidandur," deb. Ibn Jarir Tabariy bu ma'noda kelgan asarlarni Ibn Abbosdan, Mujohiddan, Ikrimadan, Sa'id ibn Jubayrdan va Ato ibn as-Soibdan turli yo'llar bilan keltiradi. Ibn Jarir Tabariy bu ma'noda vorid bo'lg'on asarlarni Ibn Abbosdan, Mujohiddan, Ikrimadan, Sa'id ibn Jubayrdan va Ato ibn as-Soibdan mutaaddid turuqlar ila naql etibdur. Mana shunday qilib kavsarni ko'p yaxshilik ma'nosida tushunilganda Sa'id ibn Jubayr, rahimahulloh, janoblari degandek, kavsar daryosi ham uning ichiga kiradi. Mana kavsarni xayri kasiyr ma'nosig'a haml qilg'onda Sa'id ibn Jubayr, rahimahulloh, janoblari degandek, nahri kavsar ham aning zimnig'a doxil bo'latur. Chunki Kavsar ham rasuli akram sollallohu alayhi vasallamga ilohiy tarafdin ato qilingan ko'p sovg'a va dunyoviy yaxshiliklar jumlasidan birginasidir. Chunki Kavsar ham rasuli akram sollallohu alayhi vasallamg'a tarafi ilohiydan ato qiling'on atoyoyi kasiyra va xayroti dunyaviyya va uxraviyya jumlasidan birgina atiyvadur. Shunday qilib, ilohiy kalomning mo'jizaviy jihatiga va arab tilida "kavsar"ning ko'p yaxshilik ma'nosida ishlatilishiga ko'ra uni xayri kasiyr ma'nosiga o'tkazishni va o'sha ma'noni tushunish uchun afzal deyishni keltirilgan rivoyatga asosanib ixtiyor ettim. Bas, kalomi ilohiyning i'joziy jihatig'a va ham kalomi arabda kavsarning xayri kasiyr ma'nosida iste'mol qiling'onliqig'a ko'ra kavsarni xayri kasiyr ma'nosig'a haml etmak va ul ma'noni rivoyatan va diroyatan arjih etmak avlodur demakni ixtiyor ettim. Zero, navfal nafldan, javhar juhardan mubolag'a shakli bo'lganidek, "kavsar" ham "kasrat"ning mubolag'a shaklidir. Arablar har bir narsaga uning miqdori ko'p, qadr va ulug'ligi zo'r bo'lsa, kavsar deyishadi. Kavsar shakli kasratning mubolag'asini va uning o'ta mubolag'asi (ifrot – giperbola)sini ifoda etadigan bir so'zdir. Zeroki, kavsar kasratdin siyg'ayi mubolag'adur; navfal nafldan, javhar juhardan siyg'ayi mubolag'a bo'lg'onidek. Arablar har bir narsaga aning adadi to'la, qadr va ulug'liqi ko'p bo'lsa, kavsar derlar. Kavsar siyg'asi kasratda mubolag'ani va anda ifrotni ifoda qiladurg'on bir kalimadur.





تفسیر عم تیساولون ۵۹۹ سورہ کوثر

البتہ اول بڑھنیک شائیر ذہ دور قرآن دہ اکیم ماغنیہ نینیک قصہ لاریجی، اولار نینیک سبب بلاک و باعث عقوبت لاریجی، ذکر قیلماق، بے شکیبہ بیزامت اسلامیه لے تشبیه ایلاب اذراغ موجب بلاکت و عذاب بولا دورغان افعال قیجی لاردن تحذیر یا تنبیہک اوجون دور.

مونداغ اولنا تون کیمین بیز مسلمان لار نینیک بو سورہ شریفه دن اکا دور غان خلقی میز بودور.

اوشنبو سورہ دہ ذکر قیلینغان! حلق سخیجہ لاردن کدورن لے تکلیف قیلماق نینیک نشانی دور.

اچنتاب اینیک لے ادر کیمین غرر و وایتم و غرر محکم، بیلگایک بیزه. تمام بودی سورہ ماغون تفسیری بمنه و توفیقہ تعالیٰ.

تم تم

سورہ کوثر مکہ دہ نازل بولمیشس آیت لاری اوج کلمه لاری اون حرف لاری قرق ایکی دور.

بِسْمِ اللّٰهِ الرَّحْمٰنِ الرَّحِیْمِ

اِنَّا اَعْطٰیْنٰکَ الْکُتٰبَ الَّذِیْ اَمْحٰرُ حَقِیْقٌ بِیْرَسْنٰکَ کُوب خیر لار لے عطا قیلدوق، بیضه علم و عمل دن، و دنیا و آخرت نینیک شریف و سعادت دن، کوب یک دہ درجه نہایت دہ بولغان نیشینی ایض لار لے سنکا عطا قیلدوق.

کوثر بارسنیه علم و تفسیر کولاقول لار لے بکتور و دبا دور لاک چنانچہ کوثر جنت دہ بر نهر مشهور یا نبوت، یا قرآن یا اصحاب وامت، یا علم و حکمت، یا معجزات، یا اجابت دعا، یا رسول اکرم نینیک دل مطهر یا نینیک نوری دانش برچی یا ممالک نامی و مؤثر نینی نینیک بلند و مشهور عالم بولمکی، یا شفاعت کبری یا تسهیل شرایع دین، یا اولاد کرام، یا کشف آفات، یا فضائل کثیره و غایط حسن یا مقام محمود، و غونکا اوخشه اقبال لاریجیم تناسیر کوزه لار دہ مذکور دور.

اهم رازی بواره دہ ذکر قیلینغان و تبر لار نینیک اولی: ۱. کوثر نینیک جنت دکی بر نهر اکان لے نے ذکر ایقیب بوقول سلف و خلف تزیدہ شهرت مستفیض دور. دیب دور.

لے شیخ محمد عبده رح المد تفسیر ج: عم دہ کوثر بلا سیدہ ارد بولغان تفسیر لاردن اکی قول لے اختیار ایقیب دور بچی قول کوثر دن مراد نبوت با علم و حکمت یا اولاد کیم یا نبوت و شهادت مجتد دور لے لکی قول کوثر دن مراد فی رحمتی و فردی دور.

تفسیر عم تیساولون ۶۰۰ سورہ کوثر

این جبر طبری کوثر دن مراد نبوت یا غیر کثیر یا عرض مشهور دیکان قول لار بار سیدہ روایت قیلینغان اقر لار لے ذکر قیلیب، سوگره دور ک سنیک نزدیک دہ اوش جوقول لاریجی صواب غلین، راقی کوثر جنت دہ رسول الله عطا قیلینغان نینیک، اسی بر دیکان کیش ممالک نینیک قولی دور بوقول سنیک قول لاردن اولی دور دیک کیم دوباره دار رسول الله دن وار بولغان شجر لار نینیک نشانی دور، اولی دور ک اچنار وار دہ لار دہ شونراغ کلیب دور سوگره ایزن جبر بواره دہ حضرت انس و ابانیه وار بولغان شجر لار لے متعدد طرق لار بر لاکر ایقیب دور کیش نینیک بواره کوثر نینیک معنی سیدہ بولغان دہ، بواره و ایمان قیلینغان و هم بیان قیلماق غرر بلاکت و غمناچی با جمیع عطا یا کثیره و مواجیب و فیهه غ شام بولمکی لے، و جناب رسول الله عطا قیلینغان و توتیه و خرویه نینیک، دا قیتمه عطا یا یظاہره و باطنه لار اذن خارج اولماس لیک لے، اعتبار دہ ایقیب نینیک معنی سی لے ترجیح و اختیار قیلیم، حالیکه کوثر دن مراد نینیک کیمین وار بولغان اشر لار دور، چنانچہ صحیح بخاری دہ ایقیب دور ایلشهر سیدین جبر دن اول این عباس رضی الله عنان دن روایت قیلیب دور، این عباس جناب لاری ایقیب دور کوثر نینیک کثیری دور کیم الله تعالیٰ لے پیغمبر صله الله علیه و سلم غ عطا قیلیب دور دیب، اویشر ایتم دور سیدین جبر دہ کیم آدم لار کوثر دن مراد جنت دہ بر نهر دور دیب همان ایتم دور لار رس لے نینیک کثیر دور دیر من، پس سیدین جبر دیک جنت دکی بر نهر رسول الله جنابی غ عطا قیلینغان خیر کثیر جمل سیدین جبر دور سید.

این جبر طبری بوضوح دہ وار بولغان اقر لار لے این عباس دن، مجا بدن، عکرم دن سیدین جبر دن، و عطا دن، المسائب دن، متعدد طرق لار ایقیب دور.

منکا کوثر لے نینیک معنی سیدین جبر قیلینغان دہ سیدین جبر صرحه الله جناب لاری دیکان دیک، بزرگوار هم اینیک معنی نه داخل بولادور. چونکه کوثر هم رسول اکرم صلعم غ طریق ابی دن عطا قیلینغان عطا یا کثیره و خیرات دینی و اخروی جمل سی دن بکیمه عطا دور.

پس کلام الی نینیک، المجددی یعنی نه، و هم کلام عرب دہ کوثر نینیک خیر کثیر معنی سی دہ استعمال قیلینغان یعنی نه، کوره کوثر لے نینیک معنی سیدین جبر ایتمک، اول معنی لے روایت دور اتر ترجیح ایتمک، اولی دور دیک لے، اختیار ایقیم. زیرا که کوثر کثرت دن صیغه مبالغه دور، کون نقل دن و چونچر جبر دن صیغه مبالغه بولغان دیک.

غرب لار بر نهر رسد ک اینیک عددی کولاقول دہ اوله غلطی کوب بولس کوثر دیر لار، کوثر صیغه کثرت دہ مبالغه لے و انده انرا لے انا دہ قیلادورغان برکله دور.

عنه متابعی بواره بر نهر سیدین جبر نینیک معنی سی دہ ۱۷۰

Leksik birliklarning so'z, so'z birikmalari va jumla shakllaridagi farqlari

Bugungi zamonaviy varianti va XX asr boshidagi asl varianti

(599). “Kavsar” surasi

Makkada nozil bo‘lgan, oyatlari uch, so‘zlari o‘n, harflari qirq ikkidur.

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ. إِنَّا أَعْطَيْنَكَ الْكَوْثَرَ

(۱) فَصَلِّ لِرَبِّكَ وَأَنْحَرْ (۲) إِنَّ شَانِئَكَ هُوَ الْأَبْتَرُ

(۳)

عَی، مُحَمَّدًا، حَاقِقَاتَانِ، بَیْزَ سَیْغَا

Muhammad, haqiqatan, biz senga ko‘p yaxshiliklarni ato qildik⁴, ya’ni ilm va amal, dunyo va oxiratning sharafi va saodatidan, benihoya ko‘p yaxshi ishlarni senga ato qildik.

“Kavsar” borasida tafsirchi olimlar ko‘p qavllarni keltirishgan. Chunonchi, ishonchli tafsirlarda zikr etib keltirilishicha, “kavsar” bu jannatdagi bir mashhur daryo, yoki payg‘ambarlik, yoki Qur‘on, yoki sahoba⁵lar va ummat, yo ilm va hikmat, yo mo‘jizalar, yo duo ijobati, yo rasul-i akramning pokiza dilining nuri va ko‘ksining yorilishi (voqeasi), yo muborak nomi va sharafining

(599) Surai “Kavsar”, Makkada nozil bo‘lmish, oyatlari uch, kalimalari o‘n, harflari qirq ikkidur.

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ. إِنَّا أَعْطَيْنَكَ⁸ الْكَوْثَرَ (۱)

فَاصَلِّ لِرَبِّكَ وَأَنْحَرْ (۲) إِنَّ شَانِئَكَ هُوَ الْأَبْتَرُ (۳)

Ey, Muhammad, batahqiq, biz sanga ko‘p xayrlarni ato qilduq⁹, ya’ni ilmu amaldan, dunyov-u oxiratning sharaf-u saodatidan, ko‘plikda – daraja-i nihoyat¹⁰da bo‘lg‘on yaxshi ishlarni sanga ato qilduq. “Kavsar”

borasinda ulamo-i tafsir to‘la¹¹ qavllarni keltiribdurlar. Chunonchi, “Kavsar” Jannatda bir nahr-i mashhur, yo nubuvvat, yo Qur‘on, yo as‘hob va ummat, yo ilm va hikmat, yo mo‘jizot, yo ijobat-i duo, yo rasul-i akramning dil-i mutohharining nuri va inshirohi, yo muborak nomi va sharafining baland va mashhur-i olam bo‘lmaki, yo shafolat-i kubro, yo tas‘hil-i sharoyi’-ye diyn, yo avlod-i kirom, yo kasrat-i atbo’ va ashyo’, yo

3. كَوْنِي طَعًا so‘zi, garchi bugungi arab yozuvi qoidalariga ko‘ra “nun” va “kof” orasida “alif” bo‘lishini taqozo etsada, Qur‘oni karim matnida alifsiz, “nun” ustida tikka fatha bilan yozilgani bois asl holiga muvofiq shaklda berildi.

4. Ushbu tafsir muallif tarjimai yirik qora harflarda, tafsiri esa oddiy holda terildi.

5. yo‘ldosh va hammaslak

| | |
|--|--|
| baland va mashhur-i olam bo‘lmog‘i, yoki buyuk <i>shafatchi</i> ⁶ ligi, yoki diniga tegishli qonun qoidalarni yengillashtirilgani, yoki muhtaram zurriyotlari, yo izdoshlarining hamda ularga tegishli narsalarning ko‘pligi, yoki fazilatlarining ko‘pligi yoki go‘zal xulqi, yoki “ <i>maqom-i mahmud</i> ” ⁷ i va shunga o‘xshash qavllardur. <i>Imomi Roziy</i> bu borada zikr qilingan tushunchalarning avvalida “Kavsar”ning jannatdagi bir <i>nahr</i> ekanini zikr etib, “bu <i>qavl</i> oldingi va keyingi olimlar nazarida mashhur va qoniqtirarlidir”, – degan. | <i>fazoil-i kasiyra</i> , yo <i>xulq-i hasan</i> , yo <i>maqom-i mahmud</i> va shunga o‘xsha(<i>sh</i>) ¹² <i>aqvollarkim</i> , <i>tafosisir-i ma’suralarda mazkur</i> dur. <i>Imomi Roziy</i> bu borada zikr qiling‘on <i>vajhlarning</i> avvalida “Kavsar”ning Jannatdagi bir <i>nahr</i> ekanini zikr etib, “bu <i>qavl salaf</i> va <i>xalaf nazdida</i> mashhur va <i>mustafiyzdur</i> ¹³ ”, – debdur. |
| so‘z | kalima |
| haqiqatan | batahqiq |
| Yaxshiliklar qildik | Xayrlar qilduq |
| Ilm va amal | Ilmu amal |
| Dunyo va oxirat | Dunyoyu oxirat |
| Sharafi va saodatidan | Sharafu saodatidan |

8. كَفِّنْ وَيَطْعَا so‘zi, garchi bugungi arab yozuvi qoidalariga ko‘ra “nun” va “kof” orasida “alif” bo‘lishini taqozo etsada, Qur‘oni karim matnida alifsiz, “nun” ustida tikka fatha bilan yozilgani bois asl holiga muvofiq shaklda berildi.

9. Ushbu tafsir muallif tarjimasida yirik qora harflarda, tafsiri esa oddiy holda terildi.

10. Bugungi o‘zbek tilida sharhlash lozim deb topilgan arabcha va forscha so‘zlar kursivda berildi va iboralar esa tagiga chizildi.

11. “to‘la” so‘zi bu o‘rinda “ko‘p” ma‘nosida qo‘llanilgan ko‘rinadi. Agar matnda “ ulamoi” so‘zining oxirida forsiy izofani ifodalovchi “zer” bo‘lmasa edi, “to‘la” so‘zini avvalgi “tafsir” so‘ziga qo‘shib “tafsir to‘la” deb o‘qish mumkin edi. Qo‘lyozma kotiblari hamma vaqt ham to‘g‘ri ko‘chi-ravermasligi ma‘lum esada, matndan xato izlashdan ko‘ra uni to‘g‘ri deb topib, tushunishga intilishni afzal ko‘rdik.

6. qiyomat kuni Alloh huzurida ummatlarining gunohini tilab olish imtiyozi va mansabi.

7. Qiyomatda faqat Muhammad sollallohu alayhi vasallamga berilishi va‘da qilingan yuksak maqom, mansab.

12. Matnga qo‘shishni lozim topilgani, masalan, bu o‘rinda (sh) qavs ichida (kursiv)da berildi.

13. (Shayx Muhammad Abdo‘h, rahimahulloh, Tafsiyri juz‘i “Amma”da “Kavsar” borasida vorid bo‘lg‘on tafsirlardan ikki qavl ni ixtiyor etibdur. Birinchi qavl: “Kavsar”din murod nubuvvat, yo ilm va hikmat, yo nuri qalbkim, hidoyat va rashoddin iboratdur; Ikkinchi qavl: “Kavsar”din murod xayri dunyaviy va uxraviydur”, – debdur.)

| | |
|--|---------------------------------------|
| Benihoya ko‘p | Ko‘plikda darajai nihoyatda bo‘lg‘on |
| borasida | borasinda |
| Tafsirchi olimlar | Ulamoi tafsir |
| ko‘p | to‘la |
| keltirishgan | keltirubdurlar |
| mashhur daryo | <u>nahr-i mashhur</u> |
| payg‘ambarlik, | <u>nubuvvat</u> |
| sahoba ¹⁴ lar | <u>as‘hob</u> |
| mo‘jizalar | <u>mo‘jizot,</u> |
| duo ijobati | <u>ijobat-i duo</u> |
| pokiza dili | <u>dil-i mutohhari</u> |
| pokiza ko‘ksining yorilishi (<i>voqeasi</i>) | <u>dil-i mutohharining</u> inshirohi, |
| bo‘lmog‘i | bo‘lmaki |
| buyuk <i>shafatchi</i> ¹⁵ ligi | <u>shafaat-i kubro,</u> |
| diniga tegishli qonun qoidalarni | <u>tas‘hil-i sharoyi‘-ye diyn</u> |
| yengillashtirilgani | <u>avlod-i kiron</u> |
| muhtaram zurriyotlari | <u>kasrat-i atbo‘ va ashyo‘</u> |
| ko‘p faziylatlari | <u>fazoil-i kasiyra</u> |
| izdoshlarining hamda ularga tegishli | <u>xulq-i hasan</u> |
| narsalarning ko‘pligi | o‘xsha(<i>sh</i>) ¹⁶ |
| fazilatlarining ko‘pligi | <u>aqvollar</u> |
| go‘zal xulqi | <u>tafosir-i ma‘suralar</u> |
| o‘xshash | <i>mazkur</i> dur. |
| qavllar | <i>Vajhlar</i> |
| ishonchli tafsirlar | avvalida |
| eslab o‘tilgan | qiling‘on |
| tushunchalar (sabablar) | <i>qavl</i> |

14. yo‘ldosh va hammaslak

15. qiyomat kuni Alloh huzurida ummatlarining gunohini tilab olish imtiyozi va mansabi.

16. Matnga qo‘shishni lozim topilgani, masalan, bu o‘rinda (sh) qavs ichida (kursiv)da berildi.

| | |
|--|--|
| boshida qilingan gap oldingi va keyingi olimlar nazarida qoniqtirarli | <i>salaf va xalaf</i> <i>nazdida</i> <i>mustafiyz</i> |
| jannatdagi daryo ko'p yaxshilik mashhur hovuz qilingan eslab | <i>nahri jannat</i> <i>xayri kasiyr</i> <i>havzi mashhur</i> qiling'on zikr qilib so'ngra debdurki, |
| ushbu gaplar to'g'rirog'i qilingan daryo gapi | Ushbu qavllar savobg'a yaqinroqi qiling'on nahr qavli |

Xulosa

Ko'rib turganimizdek, tilning davr kesimidagi rivojida eng ko'p ta'sirlanuvchi qismi bu tilning leksik qatlami bo'lib, boshqa birliklar o'zgarishga nisbatan kamroq duchor bo'lar ekan. So'zlardagi fonetik o'zgarishlar ham birmuncha faollik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Al-Qomus. Arabcha-o'zbekcha qomusiy lug'at. 1-t. – T., 2017-y.
2. Al-Qomus. Arabcha-o'zbekcha qomusiy lug'at. 2-t. – T., 2017-y.
3. Al-Qomus. Arabcha-o'zbekcha qomusiy lug'at. 3-t. – T., 2019-y.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-tom. – M., 1981.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-tom. – M., 1981.
6. O'zbek tili grammatikasi. 1-tom. – T., 1978.
7. O'zbek tili grammatikasi. 2-tom. 1978.
8. O.S. Axmanova. Slovar lingvisticheskix terminov. M. 1969.

Sherzod SHAVKATOV,
 Navoiy davlat pedagogika instituti
 Ingliz tili amaliy kursi kafedrasida o'qituvchisi
sherzodbek.shavkatov.uzb@gmail.com

O'ZBEK TILIDA FE'LNI FE'LGA BOG'LOVCHI VOSITALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: o'zbek tilidagi gaplarda fe'l ko'proq kesim vazifasida kelganligi tufayli biriktiruvchi maqomida namoyon bo'ladi. Shu sababli bu turkum so'zlari barcha mustaqil so'z turkumlari bilan ifodalangan gap bo'laklarini biriktirib kela oladi. Fe'ning grammatik mohiyati grammatik shakllari, kategoriyalari va gapdagi vazifalari bilan boshqa turkumlardan ajralib turishida namoyon bo'ladi. Fe'ni fe'lga bog'lovchi vositalar sifatida kelishik va ko'makchi shakllari birikmaga muayyan semantik munosabatlarni ham yuklaydi.

Kalit so'zlar: *fe'l, ko'makchi, kelishik, sifatdosh, harakat nomi*

Аннотация: в предложениях узбекского языка глагол появляется как союз благодаря тому, что он выполняет функцию причастия. Следовательно, слова этой группы могут соединять части предложений, представленные всеми самостоятельными группами слов. Грамматическая сущность глагола проявляется в его грамматических формах, категориях и функциях в предложении, отличающих его от других групп. Падежи и предлоги как средства соединения глагола с глаголом также накладывают на сложное слово определенные смысловые отношения.

Ключевые слова: *глагол, предлог, падеж, причастие, инфинитив.*

Annotation: in Uzbek sentences, the verb appears as a conjunction due to the fact that it functions as a participle. Consequently, words of this group can connect parts of sentences represented by all independent groups of words. The grammatical essence of a verb is manifested in its grammatical forms, categories and functions in a sentence, distinguishing it from other groups. Cases and prepositions, as means of connecting verb to verb, also impose certain semantic relationships on a complex word.

Key words: *verb, preposition, case, participle, infinitive.*

Fe'l so'z turkumining leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinar ekan, uning boshqa so'zlarga, jumladan, boshqa bir fe'lga birikishi haqidagi ma'lumotlar ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki so'z ba'zi ma'nolarini boshqa so'zlar bilan birikkandagina namoyon qila oladi. Masalan, "non" so'zining "daromad" ma'nosi "topmoq" fe'lga qo'shilsagina yuzaga chiqadi. Tilshunoslikning eng muhim obyekti bo'lgan so'z tadqiqi shu tufayli uning birikuvchanlik xususiyatlari bilan bog'liq holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbek tilida fe'ni fe'lga bog'lashda sifatdosh shakllarining ham ahamiyati katta. Bu shakl fe'ni fe'lga bog'lashga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qilmasligi, shu birikuv uchun asos vazifasini bajarishi mumkin. Chunki sifatdosh shaklining umumiy grammatik ma'nosi va substansial mohiyati quyidagicha ta'riflanadi: "o'zgalovchi kategoriyasining tarkibiy qismi bo'lgan sifatdosh nutqda fe'llarni otlarga (ba'zan fe'llarga) bog'lash vazifasini o'tshga ixtisoslashgan" [1:202]. Anglashiladiki, sifatdoshning mohiyatida shaxs va narsaning harakat bilan bog'liq belgisini ifodalab kelish, ya'ni fe'ni otga bog'lash vazifasi yotadi. Boshqacha aytganda, sifatdosh shakli fe'ni sifat vazifasini bajarishga xoslaydi. Shu tufayli sifatdosh shaklidagi fe'l ko'proq otlarga birikadi. Ammo sifatdoshda otlashish

xususiyati mavjud va u sifatdosh shaklidagi fe'ning boshqa bir fe'lga birikishiga imkon beradi. Masalan, Qatnashganlar gapirdi, So'raganlarga yetkazildi kabi gaplarda sifatdoshlarning otlashishi ularni hokim maqomdagi fe'llarga biriktirgan. Keltirilgan misollarda sifatdoshlar fe'ni hokim so'z maqomidagi fe'lga biriktiruvchi vosita sifatida namoyon bo'lgan. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, sifatdoshda garchi ham fe'llik, ham sifatlik belgilari bo'lsa-da, ular mazmunan harakatni ifodalaganligi uchun fe'l so'z turkumiga mansub birliklar sifatida talqin qilinadi. Bu esa yuqoridagi misollarda fe'ning fe'lga birikishi natijasida hosil bo'lgan gaplar ekanligini anglatadi. Sifatdoshlar ba'zan to'g'ridan to'g'ri fe'ni fe'lga biriktiruvchi vosita bo'lmay, shu birikuvni ta'minlovchi vositaning qo'shilishiga imkon beruvchi affiks sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, yodlaganlarini takrorlamoq, e'tiroz bildirganlarga tushuntirmoq kabi birikmalarda fe'ni fe'lga bog'lovchi vositalar sifatida tushum va jo'nalish kelishiklari qo'llangan. Ammo kelishik shakllarining fe'lga qo'shilishida sifatdosh shakli qo'llanishi zaruriydir. Chunki sifatdosh shakllarisiz fe'ni fe'lga bog'lovchi kelishik shakllarini tobe maqomdagi fe'lga qo'shishning imkoni yo'q bo'lar edi. Umuman olganda, sifatdoshlar fe'ni fe'lga biriktirganda ularning otlashishi talab etiladi. Zero, "sifatdoshlar ham xuddi sifat singari otlashish xususiyatiga ega. Sifatdosh bog'langan ot gapda tushib qolib sifatdosh ot bajargan

vazifani bajaradi” [2:251]. Otlashish natijasida sifatdoshga shaxs yoki predmetlik semasi qo‘shiladi. Boshqacha aytganda, sifatdoshlar harakat bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan belgiga ega bo‘lgan shaxs yoki narsalarni ifodalagandagina hokim maqomdagi fe‘llar bilan birikma hosil qiladi. Sifatdoshlarning bir qancha qo‘shimchalari mavjud bo‘lsa-da, ulardan -gan (-kan, -qan), -ydigan, -adigan, -(a)yotgan kabi shakllari yordamida hosil bo‘lgan sifatdosh hokim maqomdagi fe‘l bilan birikma hosil qila oladi.

Fe‘lning harakat nomi shakli vositasida hokim fe‘lga birikishi sifatdoshga nisbatan osonroq. Chunki harakat nomi “fe‘lning otga xoslangan shakli bo‘lib otlar kabi egalik, kelishik va ko‘plik qo‘shimchalarini oladi va gapda ular bajaradigan gap bo‘laklari vazifasida keladi” [3:151]. Harakat nomi fe‘lga ot turkumining xususiyatlariga ega bo‘lishga ko‘maklashar ekan, unda hokim maqomdagi fe‘lga birikish imkoniyatini ham paydo qiladi. Zero, harakat nomi shakli ta‘sirida fe‘l “o‘z fe‘llik belgisini sifatdosh va ravishdoshga qaraganda ko‘proq xiralashtiradi, ya‘ni harakat/holat belgisi kuchsizlanib, predmetlashish – gapda otga xos belgi bilan sintagmatik munosabat hosil qilish jarayoni kuzatiladi” [4:304-305]. Bu shuni anglatadiki, o‘zgalovchilarning bu turi fe‘lni fe‘lga biriktirganda uni tobe maqomdagi fe‘lga “predmetlik” xususiyatini qo‘shadi, shu sababli ham manbalarda “harakat nomi” atamasi bilan yuritiladi. O‘qishni yakunlamoq, suhbatlashishdan qochmoq, tortinmaslikni uqtirmiq kabi birikmalarda tobe fe‘llarni hokim maqomdagi fe‘llarga kelishik shakllari biriktirgan. Ammo kelishik shakllari fe‘lga qo‘shilishi uchun harakat nomi shakllariga ehtiyoj seziladi. Harakat nomi shaklidagi fe‘lning boshqa fe‘lga birikishida birikmaga kelishik shakllari qo‘shishi mumkin bo‘lgan semantik xususiyatlar haqida gapirish o‘rinli bo‘ladi. “Kelishik kategoriyasi ot va otlashgan so‘zlarning boshqa so‘zlar bilan grammatik aloqasini ko‘rsatishga xizmat qilar” [5:259] ekan, ularning semantik xususiyatlari ham ikki fe‘lni biriktirganda namoyon bo‘lishi tabiiy. Zero, “turkiy tillar kelishiklar tizimi haqida gap borganda, avvalo, turkiy tillarning eng qadimiy bobo til davridagi kelishiklar tizimi ko‘zda tutilsa, ikkinchidan, turkiy tillarning mustaqil tillar va lahjalarga ajralish va undan keyingi taraqqiyoti davridagi kelishiklar tizimining holati ko‘zda tutiladi” [6:92]. Ammo kelishiklarning vazifalari va semantik xususiyatlari o‘sha davrdan buyon katta o‘zgarishlarga uchrangani yo‘qligini ta‘kidlash o‘rinli. Quyida har bir kelishik va uning ikki fe‘llarni biriktirishda namoyon bo‘ladigan semantik xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Kelishik shakllari fe‘lning sifatdosh va harakat nomi shakllarini hokim maqomdagi fe‘lga bog‘lashda xizmat qiladi. Bunda har bir kelishik shakli va fe‘lning vazifa shakllarida turlicha ma‘no munosabatlari yuzaga chiqadi. Fe‘lning harakat nomi shakli hokim maqomdagi fe‘l bilan kelishiklar yordamida birikma hosil qilganda

quyidagi ma‘no munosabatlarini kuzatishimiz mumkin:

1) bosh kelshikdagi harakat nomi shakli hokim maqomdagi fe‘lga birikkanda, aksariyat hollarda qiyoslash, o‘xshatish munosabati yuzaga chiqadi. Bunday birikuv natijasida hosil bo‘lgan gaplarda, odatda, kesim ham harakat nomi shaklida bo‘ladi. Masalan, O‘qish – o‘rganish. Fe‘lning sifatdosh shakli ham bosh kelishikdagi ot o‘rnida qo‘llanishi uning boshqa bir fe‘lga birikishi uchun imkoniyat yaratadi. Bunda sifatdosh bosh kelishik shaklidagi otning fe‘lga birikishi natijasida ifodalanadigan barcha ma‘no munosabatlarini o‘zida aks ettira oladi. Masalan, Ishlagan tishlaydi (maqol). Mazkur gapda harakat va uning bajaruvchisi ifodalangan. Shuningdek, bosh kelishikdagi sifatdosh hokim maqomdagi fe‘l orqali ifodalangan harakatning obyektini ma‘nosini aks ettirishi mumkin: Ishlaganlar mukofotlandi kabi;

2) qaratqich kelishigidagi harakat nomi shakli birikkan fe‘l ham harakat nomi shaklida bo‘ladi. Chunki “qaratqich kelishigini olgan so‘z egalik kategoriyasini olgan so‘z bilan birga qo‘llanadi. Bunday qurilishli so‘z birikmasi [qaratqich kelishigidagi ism + qaralmish egalik kategoriyasidagi ism] so‘z birikmasi umumiy qolipining voqelanishi” [4:356]dir. Ya‘ni [qaratqich + qaralmish] birikuvi ismlar orasidagi munosabat hisoblanadi. Qaratqich kelishigi harakat nomini hokim maqomdagi fe‘lga biriktirganda ular orasida “tegishlilik”, “aloqadorlik” munosabatlari namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘qishning boshlanishi, fikrlashning to‘xtashi kabi birikuvlarda hokim maqomdagi fe‘l ifodalagan harakat tobe so‘z vazifasida kelgan so‘zga “aloqador” ekanligini, ya‘ni nimaning boshlanishi va to‘xtashini ko‘rsatmoqda. Sifatdosh shaklidagi fe‘l qaratqich kelishigi yordamida boshqa fe‘lga birikkanda quyidagi ma‘no munosabatlarini ifodalashi mumkin: harakatning kimga qarashli ekanligi (suyunganning gapirishi);

3) tushum kelishigi o‘zbek tilida tobe so‘zni hokim maqomdagi fe‘lga bog‘lashi bilan ajralib turadi. Tushum kelishigida kelgan so‘z fe‘l anglatgan ish-harakatning ta‘sirini o‘z ustiga olgan, harakatni bevosita o‘ziga qabul qilgan narsani ifodalaydi. Ammo “turkiyshunoslarning yakdil fikrlariga ko‘ra, bu morfologik shaklning sintaktik mohiyati vositasiz to‘ldiruvchini shakllantirishdir va uning o‘nlab ma‘noviy turlari morfologiya yoki sintaksis bilan aloqador bo‘lmay, tobe yoki hokim so‘zlarning o‘zaro ma‘noviy munosabatlari, ya‘ni leksik-semasiologik omillar bilan belgilanadi” [7:163]. Shu sababli harakat nomi shaklidagi so‘z tushum kelishigi yordamida boshqa bir fe‘lga birikkanda yuzaga chiqadigan ma‘no munosabatlarida tobe va hokim so‘zlarning semantik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Masalan, yurishni o‘rganish, gapirishni boshlash kabi birikmalarda tobe va hokim so‘zlarning lug‘aviy ma‘nosi birikuvda ifodalangan munosabatga ham ta‘sir qilgan, deyishimiz mumkin. Shunday bo‘lsa-

da, yuqoridagi birikuvlarda hokim maqomdagi fe'l orqali ifodalangan harakat o'tgan boshqa harakat bilan bog'liq obyekt ma'nosiga ega bo'lishi bevosita tushum kelishigi shakli bilan bog'liq. Tushum kelishigidagi sifatdoshlar fe'lga birikkanda harakat bevosita o'tgan, ta'sir qilgan shaxs yoki narsani (pishganini yemoq). Shaxs yoki narsa-buyum ma'nosini ifodalash uchun sifatdosh, albatta, otlashadi.

4) jo'nalish kelishigining so'zlarni biriktirganda "harakat va holat yo'nalgan shaxs yoki narsa", "atalganlik", "shaxs, narsa-buyumlarning bir holatdan boshqasiga o'tishi", "harakatning bajarilish maqsadi", "harakatning bajarilish sababi", "harakatning bajarilish payti, o'rni" kabi ma'no munosabatlarini yuzaga chiqaradi. Aslida, jo'nalish kelishigining sanalgan ma'nolari birikmani hosil qilayotgan so'zlarning lug'aviy ma'nosiga ham bog'liq. Masalan, o'qishga kelmoq birikmasida maqsad, ko'chishga yordamlashmoq birikmasida hokim maqomdagi fe'l orqali ifodalangan harakatning boshqa harakatga (jarayonga) qaratilganligini ifodalaydi. Sifatdosh shakli jo'nalish kelishigi shaklida boshqa fe'lga birikkanda quyidagi ma'no munosabatlari yuzaga chiqadi: sabab (o'qimaganiga afsuslanmoq), atalganlik (so'raganlarga yubormoq) kabi;

5) o'rin-payt kelishigining umumiy grammatik ma'nosi "oldingi so'zni keyingi so'zga hol va to'ldiruvchi vazifasida bog'lash" [4:356] tarzida voqelanishi harakat nomiga qo'shilganda ham namoyon bo'ladi. Masalan, ishlashda davom etmoq birikuvida shaxs yoki narsaning bir ish bilan shug'ullanishini, harakat va holatning nima to'g'risida, nima jihatdan bo'lishi kabi ma'no munosabati ifodalangan. Sifatdosh shakli o'rin-payt kelishigi yordamida boshqa fe'lga birikkanda payt munosabatini ifodalashi mumkin (zerikkanida o'qimoq);

6) chiqish kelishigi so'zlarni bog'lash bilan birga ular orasida chiqish o'rni, harakat va holatning boshlanish o'rni, qiyoslash, manba, payt, sabab kabi ma'no munosabatlarni ham qo'shadi. Harakat nomi shaklidagi fe'l hokim maqomdagi boshqa fe'lga birikkanda ham sanalgan ma'no munosabatlardan ba'zilar namoyon bo'ladi. Masalan: gapirishdan charchamoq (sabab), e'tiroz bildirishdan boshlanmoq (payt) kabi. Sifatdosh shaklidagi fe'l chiqish kelishigi yordamida boshqa fe'lga birikkanda quyidagi ma'no munosabatlarini ifodalaydi: sabab (uyalغانidan qizarmoq), manbani (o'qiganlardan so'ramoq).

Shu o'rinda kelishik shakllarining darslik, qo'llanma va boshqa manbalarda berilgan ma'no turlarining aksariyati kelishik kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosiga xos emasligi, birikmani hosil qiluvchi so'zlarning lug'aviy ma'nosi bunda muhim o'ringa egaligini ta'kidlab o'tish lozim. Qolaversa, kelishik kategoriyasining ko'proq ot so'z turkumi uchun xoslanganligini, fe'l bu kategoriya bilan o'zgarishi uchun muayyan shaklga (sifatdosh yoki harakat nomi) kirishi

lozimligi ham fikrimizni dalillaydi. Chunki o'zgalovchi kategoriyalardan faqat fe'lning grammatik mohiyatida "fe'lni fe'lga bog'lash" xususiyati mavjud. "Sifatdosh va harakat nomi shakllarining "fe'lni fe'lga bog'lash" belgisiga nisbatan neytralligi sifatdoshning ko'p holda harakat nomidan farqlanmasligi bilan bog'liq" [4:280]. Chunki fe'lning o'zgalovchi kategoriyalaridan sifatdosh va harakat nomi zamonaviy tasniflarda ham ismlar guruhiga kiritiladi. Shu tufayli ravishdosh shakli fe'lni fe'lga biriktiruvchi vosita vazifasini bajarsa, harakat nomi va sifatdosh shakllari kelishik shakllari fe'lni fe'lga biriktirishida vosita bo'lib xizmat qiladi.

Kelishiklar yordamida bir fe'lning boshqa fe'lga birikishi ularning ko'makchilar yordamida ham birika olishini anglatadi. Zero, "ko'makchi – ot, olmosh, sifatdosh va harakat nomidan keyin kelib, uni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so'z. Ko'makchi o'zidan oldingi mustaqil so'zga vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon kabi grammatik ma'no va munosabatni berish uchun qo'llanadi" [8:96]. Ko'makchilarning grammatik vazifa nuqtayi nazaridan kelishiklarga yaqin ekanligi tilshunoslikka oid manbalarda keltiriladi: "ba'zan kelishik shakllari anglatadigan ma'no ko'makchi bilan ham ifodalanadi" [5:375]. Anglashiladiki, ko'makchilar mustaqil so'zlar orasida, aytish mumkinki, ikki fe'l orasida ham, tobe munosabatni ifodalash va kelishik ma'nosini aniqlash uchun xizmat qiladi. Ko'makchilar yordamida harakat nomi va sifatdoshlar hokim maqomdagi fe'lga birikishi mumkin. Birikuv orasidagi munosabat bunda qanday ko'makchi qo'llanganligiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Quyida ko'makchilarning nisbiy ma'no turlari kesimida sifatdosh va harakat nomi shakllarining boshqa fe'lga bog'lash xususiyatlarini tahlil qilamiz:

1) yo'nalish ma'nosini ifodalovchi ko'makchilar (tomon, qarab, sari): gaplashayotganlar tomon yurmoq (sifatdosh), yuksalish tomon intilmoq (harakat nomi);

2) sabab ma'nosini ifodalovchi ko'makchilar (sababli, tufayli, uchun): o'qigani tufayli maqtalmoq (sifatdosh), intilish sababli yuksalmoq (harakat nomi);

3) maqsad ma'nosini ifodalovchi ko'makchilar (uchun): ishlash uchun bormoq (harakat nomi);

4) payt ma'nosini ifodalovchi ko'makchilar (avval, ilgari, burun, keyin, so'ng): kelishdan avval ogohlantirmoq (harakat nomi + chiqish kelishigi + ko'makchi);

5) vosita ma'nosini ifodalovchi ko'makchi (bilan, orqali): g'o'zani savalatish orqali tanilmoq (harakat nomi), g'o'zani savalatgani bilan tanilmoq (sifatdosh);

6) o'xshatish, chog'ishtirish, qiyoslash ma'nosidagi ko'makchilar (kabi, singari, yanglig', qaraganda, ko'ra): yurgani kabi yurmoq (sifatdosh), oqishi singari o'qimoq (harakat nomi);

7) atalganlik ma'nosini ifodalovchi ko'makchilar (uchun): kutganlar uchun sotib olmoq (sifatdosh);

8) zidlik, qarama-qarshilik ma'nosini ifodalovchi

ko'makchilar (qarshi): aytganlariga qarshi fikr bildirmoq (sifatdosh);

9) moslik, loyqlik ma'nosini bildiruvchi ko'makchilar (ko'ra, yarasha): ishlashiga yarasha to'lamoq (harakat nomi + egalik shakli + jo'nalish kelishigi + ko'makchi), ishlaganiga yarasha to'lamoq (sifatdosh + egalik shakli + jo'nalish kelishigi + ko'makchi);

10) aloqadorlik, bog'liqlik ma'nosini ifodalovchi ko'makchilar (doir, oid): elektrlashtirishga doir izlanishlar (harakat nomi + jo'nalish kelishigi + ko'makchi);

11) to'siqsizlik ma'nosini ifodalovchi ko'makchilar (qaramasdan, qaramay): ta'qiqlashiga qaramay bormoq (harakat nomi + egalik shakli + jo'nalish kelishigi + ko'makchi), taqiqlaganiga qaramay

bormoq (sifatdosh + egalik shakli + jo'nalish kelishigi + ko'makchi). Umuman olganda, ko'makchilar vositasida ikki fe'l birikkan o'rinlarda kelishik shakllari ham ishtirok etishi mumkin. Bog'lovchi vositalarning bunday hamkorligi fe'l va boshqa turkum so'zlari birikuvida ham kuzatiladi.

Gap tarkibida fe'lni fe'lga birlashtiruvchi vositalar sifatida ravishdosh shakli, kelishiklar va ko'makchilar xizmat qiladi. Kelishik shakllari va ko'makchilar bir fe'lni boshqasiga birlashtirishi uchun tobe maqomdagi fe'l sifatdosh yoki harakat nomi shakllari bilan o'zgarishi talab etiladi. Sanalgan vositalar bilan ikki fe'lning birlashtirishida yuzaga chiqadigan semantik munosabatlar birlashtiruvchi vositalarga qanchalik bog'liq bo'lsa, birlashtirishni hosil qiluvchi fe'llarning leksik xususiyatlariga ham shunchalik bog'liq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. 404-b.
2. Hamroyeva O. Ona tili. – Toshkent: Akademnashr, 2016. 334-b.
3. Shukurov O. Ona tili. – Toshkent: Fan, 2019. 512-b.
4. Замоновий ўзбек тили. Морфология. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008. – 468 б.
5. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 399.
6. Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тприхий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 2009. – 260 б.
7. Менглиев Б. Тил яхлит система сифатида. – Тошкент: Ниҳол, 2010. – 192 б.
8. Ona tili. Qomus. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. 271-b.

Adiba YUSUPOVA,
 O'ZR FA o'zbek tili, adabiyoti va
 folklori instituti tayanch doktoranti

LINGVISTIK ANTROPOMORFIZM – TILSHUNOSLIKNING YANGI YO'NALISHI

Annotatsiya : maqolada antropomorfizm atamasi, izohi va uning kelib chiqishi, tilshunoslikdagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar : antroposentrik paradigma, lingvomadaniyatshunoslik, olamning lisoniy manzarasi, metafora, antropomorfizm, antropozoomorfizm, tasvir.

АННОТАЦИЯ: в статье описывается термин антропоморфизм, его объяснение, происхождение и место в лингвистике.

Ключевые слова: антропоцентрическая парадигма, лингвокультурология, языковой ландшафт мира, метафора, антропоморфизм, антропозооморфизм, образ.

Annotation : the article describes the term anthropomorphism, its explanation, origin and place in linguistics.

Key words: anthropocentric paradigm, linguoculturology, linguistic landscape of the world, metaphor, anthropomorphism, anthropozoomorphism, image.

So'nggi yillarda jahon tilshunosligida, jumladan, o'zbek tilshunosligida antroposentrik ilmiy paradigma asosida tilning lingvomadaniy xususiyatlarini tizimli tadqiq qilish yanada rivojlanib bormoqda. Antroposentrik paradigma til inson ongi va tafakkuri, uning ma'naviy dunyosi bilan chambarchas bog'liq holda, insonni til ichida yoki tilni inson ichida tahlil etishga yo'naltirilgan qarashlar

va ta'limotlar majmui [1:3] sifatida o'rganilib, taraqqiy etib kelmoqda. Antroposentrik paradigma lingvomadaniyatshunoslik, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, pragmalolingvistika, neyrololingvistika, madaniyatlararo muloqot kabi lingvistik yo'nalishlarning asosiy konsepsiyasi hisoblanadi [1:4]. Bu yo'nalishlardan biri hisoblangan lingvomadaniyatshunoslik birinchi

navbatda olamning lisoniy manzarasini o'rganishda milliy tafakkur, milliy ong, milliy madaniyat, milliy ma'naviyat, milliy mentalitet, umuman, milliy madaniyatning til bilan munosabati masalasini yoritishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shu nuqtayi nazardan olam manzarasi va inson dunyoqarashini tavsiflashda muayyan konseptlarning tuzilishi va mazmunidagi universal va o'zgaruvchanlik o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash, inson faoliyatiga doir bo'lgan fikrlash, kuzatuvlar va umuman, uning olamni idrok etishi, bunda metaforaning o'rnini tadqiq etish muhim masalalardan biridir. Hozirgi vaqtda jahon tilshunosligida metafora va uning namoyon bo'lish usullaridan biri hisoblangan lingvistik antropomorfizmni o'rganish bo'yicha dolzarb tadqiqotlar yaratilmoqda.

Xo'sh, aslida antropomorfizm atamasi o'zi qanday tushuncha va uning tilshunoslik doirasidagi ahamiyati qanday?

Bu atama haqida ko'plab lug'at va manbalarda izoh berilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan, Boris Guryevich Mesheryakov va Vladimir Petrovich Zinchenkning "Большой психологический словарь" kitobida "Antropomorfizm – (yunoncha anthropos – "odam" va morphe – "ko'rinish, shakl")" dunyoqarash shakli bo'lib, o'ziga xos inson xususiyatlarini jonsiz predmetlar yoki tabiat kuchlari, o'simliklar, hayvonlar, xudolar, mashinalar bilan bog'lash. Dunyoning animistik surati tabiat kuchlariga nisbatan antropomorfizm bilan xarakterlanadi, o'simlik va hayvonlarning qadimgi dinlari xudolarning inson qiyofasida namoyon bo'lishi va ularga aqliy xususiyatlar, his-tuyg'ular va insoniy qobiliyatlar berish bilan tavsiflanadi", - deb ta'rif berilgan [2:33]. Andre Kont-Sponvilning "Философский словарь" nomli lug'atida esa antropomorfizm tushunchasiga quyidagicha izoh berilgan: Antropomorfizm – insoniy bo'lmagan narsaga, xususan, hayvonlarga yoki xudolarga insoniy xususiyatlarni berish istagi. Ertak va dinlarda aynan shunday bo'ladi. Agar Xudo bizni o'zining suratida va o'xshashida yaratgan bo'lsa", - deb yozadi Volter, - "biz ham unga xuddi shunday javob bera olardik" [3:80].

Harper Douglasning "Online Etymology Dictionary" va Merriam-Webster lug'at kitoblarida [4:33] "Antropomorfizm (grekcha anthropos – "odam" va morfi – "shakl") yoki shaxslashtirish deb odam bo'lmagan mavjudot, hodisa yoki mavhum narsalarni odamsimon yoki odam xulqiga ega qilib tasvirlashga aytiladi. Masalan, antropomorfik asar va qarashlarda shamol, yomg'ir kabi tabiat hodisalari, xudo yoki vatan kabi mavhum tushunchalar odam kabi fikrlab suhbatlashadi. Atama XVII asrda

kiritilgan" [5:65], – deb ta'riflangan.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida "Antropomorfizm (anthropo - odam va yunoncha morphe – shakl, ko'rinish) xudo hamda ilohiy kuchlarni, tabiatdagi narsa-hodisalarni inson qiyofasida tasavvur qilish qadimgi yunonlar dinida keng tarqalgan edi. Ularning tasavvuricha, xudolar insonga xos xususiyatlarga ega bo'lib, abadiy yashaydi. Hozirgi zamon dinlarining ko'piga xos bo'lsa-da, islom va iudaizm (yahudiylik) dini uni tan olmaydi. Islomda Xudoni insonga o'xshatib tasavvur etish va odam qiyofasida rasmga tushirish man etilgan"[6:565], deb izoh beriladi.

Durdona Xudoyberganovanning "Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" nomli kitobida ham bu tushunchaga "Hayvonlar, tabiat hodisalari, mifologik mavjudotlar va predmetlarga odamga xos ruhiy va jismoniy belgilarni ko'chirish" tarzida izoh berilgan [7:11].

Aytish lozimki, antropomorfizm tushunchasi ancha yillar oldin yuzaga kelgan va bugungi kunda antropomorfizm kengroq ma'noga ega bo'lib, jonsiz narsalar, hayvonlar va tabiat hodisalarini inson shaxsiyati, xususiyatlari va istaklariga ega deb qabul qilishni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy sivilizatsiya paydo bo'lishidan oldin odamlar ruhni toshlar, daraxtlar va hayvonlarda ko'rishgan va bu kabi buyum va tabiiy hodisalarni irodali, kuchli mavjudotlar deb tasavvur qilishgan. Hatto tasodifiy hodisalar ham ba'zan odamlarga "tabassum qiladigan" yoki ularga "shafqatsiz" bo'ladigan taqdir irodasi sifatida qabul qilingan.

Antropomorfizm, badiiy adabiyotda jonlantirish san'ati sifatida baholanadi. Inson tafakkur tarzining bu qiziq xususiyati ayniqsa, bolalarning olamni anglash jarayonidagi tasavvurlarini boyitish ularni yanada qiziqarli qilish va ularning mohiyatini tushunish va jonsiz narsa va tabiat hodisalari bilan bog'liq hikoyalar yaratishga imkon beradi. Bunga bir qancha ertak va hikoyalarni misol qilishimiz mumkin ("Urto'qmoq", "Echki bolalari", "Tulki bilan laylak", "Laqma bo'ri", "Uch tulki").

Yozuvchilar antropomorfizmdan jonli personajlar yaratishda ham foydalanadilar. Antropomorfizm ertak, hikoya va miflarda ham keng tarqalgan bo'lib, axloqiy saboqlar, madaniy qadriyatlar va murakkab g'oyalarni qiziqarli va obrazli holatda yetkazishga yordam beradi.

Inson, uning fe'l-atvori, xulqi bilan bog'liq antropomorf obrazlar o'zni va atrof-muhitni, dunyoni o'rganishning qudratli vositasi bo'lgan. Insoniyat o'zini qurshab olgan atrof-muhitni kuzatib, uni o'z amaliy tajribasiga taqqoslar ekan, uning ongida hayvonlar, tabiat hodisalari va jonsiz

predmetlarning bir-biri bilan munosabati, ta'siri, xulqi va boshqa belgilarini solishtirish, ya'ni borliqni baholash jihatidan o'zlashtirish sodir bo'ladi. Shuningdek, antropomorf, zoomorf obrazlar bilan bog'liq miflar, mifologik konseptlar, metaforalar katta o'rin tutadi. Professor Dilrabo Bahromova "Antropozoomorfizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari" nomli monografiyasida "Aynan mifologiya va folklor insonning o'zini o'rab turgan tabiat, hayvonot dunyosiga, insoniylashtirish, madaniylashtirishga bo'lgan qiziqishni tasdiqlaydi. Qadim zamonlardan bizgacha yetib kelgan bitiklar, jumladan, "Alp Er |To'nga", "O'g'uzxon", "Alpomish" va boshqa shu kabi doston-epos-ertaklar buning dalillari hisoblanadi"[8:12], – deb qayd qiladi.

Insondan tashqari bo'lgan narsalarni shaxslashtirishni turli yo'llar bilan amalga oshirish mumkin: daraxt o'zining oddiy daraxt shaklini saqlab qolgan holda fikrlay oladi va gapira oladi, hayvonlarga kelsak, ular ikki oyoqli bo'lishi, inson kiyimini kiyishi mumkin va ularning yuzlari insoniy his-tuyg'ularni ifodalash uchun o'zgartirilishi mumkin.

Antropomorfizm tilda, asosan, metaforalar shaklida voqelanadi va olamning lisoniy manzarasini yaratishda muhim hisoblanadi. Antropomorf metaforalarda til sohiblarining obrazli tafakkuri aksiologik munosabati yaqqol namoyon bo'ladi |Fikrimiz isboti sifatida Bir parcha bulut

mehmonxona ustida paydo bo'lsa, albatta, bir narsa tashlab o'tadi. Saldan keyin qarabsizki, quyosh kulib turibdi! (Sh.Xolmirzayev. Quyosh-ku falakda kezib yuribdi (hikoya), Mung'ayib qolgan uy bizga halol, pokiza, sodda va do'lvor raisimizni eslatadi... (Gazetadan),

Qizlar etagini tortqilar shamol

Atlas jilosidan ko'zim quvonsin (O'tayor),

— Men eritishning har bir davrida yashirib yotgan bir qancha minut vaqtni topdim. (Asqad Muxtor. Daryolar tutashgan joyda (qissa)

kabi ko'plab misollarni keltirish mumkin.

Lingvistik antropomorfizmni o'rganish hozirgi o'zbek lingvomadaniyatshunosligining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, bunay metaforalarda xalq tafakkuri, uning tashqi voqelikni idrok etish tarzi, olamning ikkilamchi talqiniga mos bo'lgan muhim jihatlar o'z ifodasini topadi.

Demak, antropomorfizm atrofimizdagi bizni o'rab turgan dunyoni tabiat hodisalarining verbal ifodalarini sharhlashimizda, olamning lisoniy manzarasini tavsiflashimizda o'zida muhim madaniy semantikani namoyon etuvchi lisoniy birlik maqomida bo'ladi. Olamning lisoniy manzarasi insonning turli olam manzaralarini izohlaydi va buni shakllantirishda lingvomadaniy birliklardan biri – lingvistik antropomorfizm tushunchasi ham muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Xudoyberganova D. Til. Tafakkur. Madaniyat / Ilmiy risola. – Toshkent: "Nodirabegim" nashriyoti, 2020, 120-bet.
- 2.Борис Гурьевич Мещеряков, Владимир Петрович Зинченко. Большой психологический словарь, 632- бет.
- 3.Андре Конт-Спонвиль. Философский словарь. Presses universitaires de France, 2001, 1220-бет.
Douglas Harper. "Online Etymology Dictionary". – Lancaster, Pennsylvania, United States, 2000. – P. 23.
- 4.Merriam-Webster, M. W. S. C. "Dictionary. Springfield, Massachusetts, USA: G & C Merriam Company, 830." (1977). – P. 65.
- 5.О'зМЕ. Биринчи жилд. Давлат илмий нашриёти –Тошкент, 2000.
- 6.Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati–Toshkent: Book many print, 2024, 112-bet.
- 7.Bahromova D. Antropozoomorfizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari. -Toshkent: "Fan va texnologiya", 2018, 100-bet.

Sevara QAXRAMONOVA,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

E-mail: gahramonovasevara5@gmail.com

Toshkent amaliy fanlar universiteti professori B.R.Mengliyev taqrizi asosida

“KAMSITISH” SEMALI SO‘ZLARING LEKSIKOGRAFIK TAVSIFINI TAYYORLASH MASALASI

Annotatsiya: hayvon nomlari shaxsga nisbatan qo'llanishi chuqur ilmiy tahlil qilinishi, shundan keyingina ularda “kamsitish” semasi mavjud yoki mavjud emasligi haqida xulosa chiqarish mumkin bo'ladi. Shaxs qadr-qimmatini pasaytirish, uni kamsitish nafaqat hayvon nomlari vositasida, balki o'simlik, narsa-buyum kabilarni ifodalovchi so'zlar vositasida ham yuzaga kelishi mumkinligi bir necha tadqiqotlarda bayon qilindi. Shu tufayli o'simlik va narsa-buyumni ifodalovchi so'zlar vositasida shaxsni kamsitish holatlari tahlili ular uchun tayyorlangan lug'at maqolalarini takomillashtirishga yordam beradi. Qayd etish lozimki, o'simlikni anglatuvchi so'zlar bilan shaxsga murojaat qilish orqali uning qadr-qimmatini kamsitish, obro'sizlantirish holati jonli nutqda ko'p uchraydi.

Kalit so'zlar: hayvon nomlari, kamsitish, qadr-qimmat, o'simlik, narsa-buyum, lug'at maqolalari, obro'sizlantirish, jonli nutq.

Аннотация: применение кличек животных к человеку подлежит глубокому научному анализу, только тогда можно будет сделать вывод о наличии или отсутствии в них семантики “дискриминации”. В нескольких исследованиях было показано, что снижение достоинства личности, ее унижение может происходить не только через названия животных, но и через слова, обозначающие такие вещи, как растение, вещь-предмет. Благодаря этому анализ случаев дискриминации личности средствами слов, обозначающих растение и вещь-предмет, способствует совершенствованию подготовленных к ним словарных статей. Следует отметить, что при обращении к человеку словами, обозначающими растение, часто встречается в живой речи ситуация унижения, дискредитации его достоинства.

Ключевые слова: названия животных, унижение, достоинство, растение, вещь-предмет, словарные статьи, дискредитация, живая речь.

Annotation: the application of animal nicknames to humans is subject to in-depth scientific analysis, only then it will be possible to conclude about the presence or absence of semantics of “discrimination” in them. In several studies, it has been shown that the decline in the dignity of a person, her humiliation can occur not only through the names of animals, but also through words denoting such things as a plant, a thing-object. Due to this, the analysis of cases of discrimination of a person by means of words denoting a plant and a thing-object contributes to the improvement of dictionary entries prepared for them. It should be noted that when addressing a person with words denoting a plant, a situation of humiliation and discrediting of his dignity is often found in live speech.

Key words: animal names, humiliation, dignity, plant, thing-object, dictionary entries, discredit, live speech.

Kirish. Hozirda mavjud izohli lug'atlarga kiritilgan “kamsitish” semali so'zlar guruhini aniqlash, ular uchun berilgan lug'at maqolalarini tahlil qilish tilshunoslikni amaliy samaradorlikka yo'naltirish nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Zero, dunyo tilshunosligida, xususan yurtimizda ham, sohalararo integratsiyaning faollashuvi fanlar va ularning tarmoqlarida o'zaro ta'sir, muammo va masalalar mushtarakligida ularni hal qilishda hamkorlik yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Globallashuv va internet taraqqiyoti sharoitida shaxslararo muloqot shaxsiy rivojlanishning muhim omili sifatida qaralar ekan, bunda so'z tanlash va qo'llash borasidagi ko'nikmalarni o'stirish tilshunoslik fani oldiga yangi talablarni qo'yadi. Internetning inson hayotida muhim o'rin egallay boshlashi, televideniye ham raqobatda ortda qoldirayotgani inson oldiga xoh og'zaki, xoh yozma shaklda bo'lsin, o'zi qo'llayotgan

har bir so'zga mas'uliyat bilan yondashish talabini qo'ymoqda. Shunday ekan, munozarali vaziyatlarda eng muhim lingvistik manba sifatida izohli lug'atlarning nafaqat ilmiy, balki yuridik jihatdan ham ahamiyatli ekanligi namoyon bo'ladi. Xorijda, xususan Rossiya Federatsiyasida ziddiyatli, munozarali vaziyatlarda matnlarni (jumladan, audio va videoyozuvlarni ham) lingvistik ekspertizadan o'tkazish bo'yicha nafaqat davlat tashkilotlari, balki nodavlat tashkilotlari ham shug'ullanadi. Bunday tashkilotlar faoliyati, albatta, chuqur ilmiy tadqiqotlar xulosalariga tayanib tayyorlangan lingvistik materiallarga bevosita bog'liq[1,2]. Masalan, haqorat va kamsitishni ifodalovchi til birliklari bosma va elektron lug'atlar shaklida tizimlashtirilishi ham izohli lug'atlardagi ma'lumotlar asosida amalga oshirilishi shubhasiz. Ta'kidlanganidek, sud-ekspertiza tizimida lingvistik ekspertizaning ahamiyati ortishi turli darajadagi haqorat, kamsitish, obro'ga putur yetkazish kabi masalalarda qaror qabul qilish jarayonida yaqqol

sezilayotganligi sir emas. O'zbek tilidagi kamsitish, haqorat, shaxs qadr-qimmatini yerga urishni ifodalovchi so'zlarni qamrab olgan lug'atlarning mavjud emasligi, ularning yaratilishi ham bevosita mavjud izohli lug'atlarga tayanishi hisobga olinganda unga kiritilgan ba'zi lug'at maqolalarini tahlil qilishni, ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlashni taqozo qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Shu o'rinda "kamsitish" semali so'zlarning leksikografik talqini tahlili va ularni takomillashtirish nafaqat lingvistik ekspertiza nuqtayi nazaridan muhim, balki nutq madaniyati jihatidan ham zarur ekanligini ta'kidlash lozim. Zero, zamonaviy darsliklarda bevosita izohli lug'atlar bilan ishlashni taqozo etuvchi mavzular asosiy qismni egallayotganligini ta'kidlash lozim. Muayyan nutq vaziyatlari uchun til birliklarini tanlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, aslida, ona tili ta'limi maqsadlariga tezroq erishish imkonini beradi. "Ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon"[3] ligi tufayli uni samarali tashkil etish pirovardida mamlakatning moslashuvchan, malakali kadrlar bilan ta'minlanishiga olib keladi.

Zamonaviy yoshlarga har tomonlama yuqori saviyada ta'lim jarayonini tashkil etish uzluksiz ta'lim oldidagi eng muhim masala bo'lib qolayotganligi ta'lim vositalarining, jumladan, darsliklarning ham zamonaviy me'yorlarga mos bo'lishini talab qiladi. Ona tili ta'limidagi bu vazifalarning bajarilishi ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi va darsliklarining mukammalligiga, til birliklaridan nutq vaziyatiga mos tarzda foydalanish ko'nikmalarini yaxshi o'zlashtirganliklariga bevosita bog'liq. Internet ommalashgan, fan va texnikada rivojlanishning yuqori darajasi kuzatilayotgan zamonaviy pedagogikada ta'lim oluvchi nafaqat ma'lumotlarni tez o'zlashtirishi, balki ularni to'g'ri saralay olishi ham zaruriy bosqichlardandir. Bu esa ta'lim jarayonida muhim o'ringa ega bo'lgan o'qituvchidan izlanuvchan bo'lish, yangiliklardan o'z vaqtida boxabar, aniq chiqarilgan ilmiy xulosalarga tayanadigan o'quvchining qiziqishlariga javob bera olishni talab qiladi. "Ma'lumki, milliy tilga ega bo'lish davlat suverenitetining asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. Ta'lim oluvchi ana shu tildan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning turli jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha shakllarida erkin, to'g'ri va samarali foydalana olishi uchun uning fonetikasi, orfografiyasi, leksikasi va grammatikasiga doir bilimlarni puxta o'zlashtirgan bo'lishi lozim"[4:8]. Nutq madaniyatini ta'lim oluvchilarda shakllantirishda darsliklarda til birliklarining ma'nosini aniqlashtirish, ular haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish kabilarning ham

ahamiyati katta. Til birliklarining lingvistik me'yorlari haqidagi ma'lumotlar esa izohli lug'atlarga tayanadi. Masalan, ijod maktablari uchun tayyorlangan "Ona tili" darsligidagi mashqlarda dastyor, faxr, tushunarsiz, qumursqa, sharh, biroz, husnixat, voqea, dorixonona, ro'yxat, serob, mirob, yaxob, shakarob kabi so'zlarning ma'nosi va imlosini aniqlash vazifasi qo'yilgan[5:67]. Tabiiyki, ta'lim jarayonida bu so'zlarning imlosi va ma'nosini o'rganish uchun ta'lim oluvchilar imlo va izohli lug'atlarga murojaat qiladilar. Zamonaviy darsliklarning barchasida ham til birliklarining ma'nosini o'rgatish va, pirovardida, ularni turli nutqiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish tendensiyasi rivojlanayotganligini qayd etish lozim. Bularning hammasi izohli lug'atlarning ta'lim vositasi sifatidagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hayvon nomlari shaxsga nisbatan qo'llanishi chuqur ilmiy tahlil qilinishi, shundan keyingina ularda "kamsitish" semasi mavjud yoki mavjud emasligi haqida xulosa chiqarish mumkin bo'ladi. Shaxs qadr-qimmatini pasaytirish, uni kamsitish nafaqat hayvon nomlari vositasida, balki o'simlik, narsa-buyum kabilarni ifodalovchi so'zlar vositasida ham yuzaga kelishi mumkinligi bir necha tadqiqotlarda bayon qilindi. Shu tufayli o'simlik va narsa-buyumni ifodalovchi so'zlar vositasida shaxsni kamsitish holatlari tahlili ular uchun tayyorlangan lug'at maqolalarini takomillashtirishga yordam beradi. Qayd etish lozimki, o'simlikni anglatuvchi so'zlar bilan shaxsga murojaat qilish orqali uning qadr-qimmatini kamsitish, obro'sizlantirish holati jonli nutqda ko'p uchraydi. Masalan, to'nka, saksovul, terak, mirzaterak, chaqirtikan, chaqirtikanak kabi so'zlar shunday ma'noda faol qo'llanadi. Ammo izohli lug'atlarda keltirilgan so'zlar uchun keltirilgan lug'at maqolalarining ba'zilarida ularning shaxsni kamsitish, haqorat qilish ma'nosini ifodalashi mumkinligiga ishora mavjud bo'lsa, ba'zilarida shunday ishora mavjud emas. Masalan, chaqirtikanak, to'nka so'zlarining izohida ularning shaxsga nisbatan qo'llanishi mumkinligi va bunda kamsitish ma'nosi yuzaga chiqishi bayon qilingan:

"CHAQIRTIKANAK 1 bot. Poyasi yer bag'irlab o'sadigan yovvoyi o't va uning yulduzcha shaklli tikani. Umid yantoq, chaqirtikanaklar yonida cho'nqayib o'tirib, ho'ng-ho'ng yig'lardi. Mirmuhsin, Me'mor.

2 ko'chma Birovning yo'lga to'g'anoq bo'luvchi, unga zarar yetkazuvchi. Endi qaragam, o'zim ham chaqirtikanak ekanman, G'oziddin Qobulov meni yulib tashlashga harakat qilgan sayin, uning qo'lini qonata boshladim. O.Muxtorov, Egilgan bosh"[6:733-734].

Tahlil va natijalar. Keltirilgan lug'at maqolasining illyustrativ misol qismida chaqirtikanak so'zining shaxsga nisbatan qo'llanishi mumkinligi ko'rsatib berilgan bo'lsa-da, shaxsni kamsitish ma'nosi ifodalanmagan. Ammo so'zning ko'chma ma'nosi

izohida bu soʻz shaxsga nisbatan qoʻllanganda salbiy maʼno ifodalanishini anglash qiyin emas. Zero, “birovning yoʻliga toʻgʻanoq boʻlish, unga zarar yetkazish” harakatini maʼnan tuban kimsalar amalga oshirishi shubhasiz. Izohli lugʻatlarda keltirilgan toʻnka soʻzining izohida ham, shu izohni dalillash uchun kiritilgan illyustrativ misolda ham soʻzning kamsitish, shaxs obroʻsini yerga urish maʼnosi mavjud ekanligi aniq ifodalangan, deyishimiz mumkin:

“TOʻNKA 1 Kesilgan yoki sinib tushgan daraxtning yerdan uchi chiqib turgan, ildizlari bilan birga yer ostidagi qismi; toʻngak...

3 Qaddi-basti, shuningdek, muomalasi qoʻpol shaxsni bildiradi. Shayx Ismoil bilan anavi toʻnka – Buzruk eshon Shohimardonni yoppasiga toʻyga aytgan... K.Yashin, “Hamza”[7:505-506].

Mazkur misolda “toʻnka” soʻzi shaxsni nafaqat tashqi koʻrinishiga koʻra, balki uning sajiyasiga koʻra ham kamsitishi mumkinligini izohli lugʻatdagi soʻz izohidan ham bilib olish mumkin. Illyustrativ misol esa bu fikrni dalillaydi. Zero, K.Yashinning “Hamza” asarida toʻnka soʻzi bilan nisbatlangan Buzruk eshon salbiy obraz sifatida gavalangan. Anglashiladiki, bu soʻzning zamonaviy matnlarda (yoki ogʻzaki nutqda) shaxsga nisbatan qoʻllanishi uning haqorat qilinishi, shaʼni yerga urilishi, qadr-qimmatini kamsitilishi sifatida baholanishi va tegishli jazo choralari qoʻllanishiga sabab boʻlishi mumkin.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, oʻzbek tilining izohli lugʻatlarida oʻsimlik tushunchasini ifodalovchi va shaxsga nisbatan qoʻllanganda uning haqorat qilinishi, kamsitilishiga sabab boʻluvchi baʼzi soʻzlarning koʻchma maʼnolar berilmaganligini koʻrishimiz mumkin. Masalan, terak, mirzaterak soʻzlari nafaqat oʻsimlik nomi, balki boʻyi uzun shaxslarga nisbatan qoʻllanishi ham oʻzbekcha matnlarda tez-tez uchrab turadi. Bunda shaxsning haddan tashqari uzunligi jismoniy kamchilik, nuqson sifatida yuzaga chiqadi. Masalan:

Jontoy: Nima-nima, voy pakash-ey!

Sherbek: Mirzaterak – ichi gʻovak! Naynov! (M.Aʼzam)

Keltirilgan misolda mirzaterak soʻzning shaxsning jismoniy holatini kamsitish maqsadida qoʻllanganligi yaqqol koʻrinib turibdi. Qolaversa, salbiy boʻyoqning oshishi, ifodaning qabariqlashishiga naynov soʻzi ham koʻmaklashgan. Zero, fors tilidan oʻzlashgan naynov soʻzi “boʻyi baland, novcha; oʻta sodda, boʻshashgan”[8:354] maʼnolariga ega va oʻzbekcha matnlarda salbiy boʻyoqqa ega soʻz sifatida qoʻllanadi. Umuman olganda, mirzaterak soʻzi uchun izohli lugʻatlarda keltirilgan lugʻat maqolasiga “kamsitish” semasi bilan bogʻliq qismni qoʻshib, uni quyidagicha shakllantirish mumkin:

“MIRZATERAK 1 Terakning tik va tekis, madaniy holda oʻstiriladigan bir turi. Faqat mirzaterakning uchi, botib ketgan quyoshning juda balanddagi soʻnggi nurlari bilan qizarib turibdi. A.Muxtor, Opa-singillar. Kech kuz. Yaproqlaridan ajralgan mirzateraklar qunushib, dildirab turibdi. A.Ibodinov, “Latofat” doʻkonidagi qatl.

2 Boʻyi baland, novcha odamga nisbatan kamsitish, haqoratni bildiradi. Jontoy: Nima-nima, voy pakash-ey! Sherbek: Mirzaterak – ichi gʻovak! Naynov! M.Aʼzam, Saylanma”.

Xulosa va takliflar. Bu kabi misollarni yana koʻplab keltirish mumkin va ularni biz tadqiqot ilovasida batafsil keltiramiz. Mavjud izohli lugʻatlar tahlili shuni koʻrsatadiki, “kamsitish” semali soʻzlarning maʼno taraqqiyoti lugʻatlarda batafsil oʻz aksini topmagan. Shaxsga nisbatan haqorat, kamsitish kabi maʼnolarni ifodalovchi baʼzi soʻzlarning uslubiy belgini koʻrsatuvchi pometalari qoʻyilmagan va shunday maʼnoni ifodalashi soʻz izohini ifodalovchi matn va illyustrativ misollarda keltirilmagan. Izohli lugʻatlar til meʼyorlarini oʻzida aks ettiruvchi muhim manba sifatida nafaqat tilshunoslar, balki boshqa soha vakillari uchun ham zaruriy adabiyotlar sirasiga kiradi. Shu tufayli “kamsitish” semali soʻzlarning leksikografik tavsifini takomillashtirish tilshunoslikning yangi yoʻnalishlari, shuningdek, yondosh sohalar rivojiga xizmat qiladi. Nutq madaniyatining shakllanishida alohida oʻrin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Александров А.С. Юридическая техника-судебная лингвистика-грамматика права. // Проблемы юридической техники: Сборник статей / под.ред В.М.Баранова. – Нижний Новгород, 2000. 14-19с.
2. Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика: Учебное пособие. – Москва: Флинта, 2007. 592 с.
3. <https://lex.uz/docs/-5013007#-5013028>
4. Mengliyev B., Bahriddinova B. Ona tili taʼlimi: uzluksiz taʼlim bosqichlarida chalkashliklarga uchramayaptimi? // Til va adabiyot taʼlimi. 2015. 2-son. 8-b.
5. Mavlonova K., Toshmirzayeva Sh., Ergasheva N., Rashidova Z. Ona tili, ijod maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Yosh avlod matbaa, 2023. 160-b.
6. Oʻzbek tilining izohli lugʻati, 6 jildlik, 6-jild. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom, 2022. 864-b.
7. Oʻzbek tilining izohli lugʻati, 6 jildlik, 5-jild. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom, 2022. 720-b.
8. Oʻzbek tilining izohli lugʻati, 6 jildlik, 3-jild. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom, 2022. 844-b.

Sirojiddin SHOXOBIDDINOV

Teacher in Kokand State Pedagogical Institute named after Muqimiy

THE CONCEPT OF PRAGMALINGUISTIC PRESUPPOSITION IN LINGUISTICS

Аннотация: цель статьи состоит в объяснении понятия прагмалингвистической пресуппозиции в лингвистике. Прагмалингвистическая пресуппозиция относится к предположениям или представлениям, которые подразумеваются в высказывании и не являются явно выраженными. Эта концепция изучает, как информация, содержащаяся в предложении, может влиять на коммуникацию и интерпретацию речи.

Ключевые слова: пресуппозиция, высказывание, смысловой компонент, прагмалингвистический, когнитивный аспекты

Annotation: the purpose of the article is to explain the concept of pragmalinguistic presupposition in linguistics. Pragmalinguistic presupposition refers to assumptions or ideas that are implied in an utterance and are not explicitly stated. This concept studies how information contained in a sentence can influence communication and the interpretation of speech.

Keywords: presupposition, statement, semantic component, pragmalinguistic, cognitive aspects

Annotatsiya: maqolaning maqsadi tilshunoslikda pragmalingvistik presuppozitsiya tushunchasini tushuntirishdir. Pragmalingvistik presuppozitsiya gapda nazarda tutilgan va aniq ifoda etilmagan taxminlar yoki tushunchalarga ishora qiladi. Ushbu konsepsiya jumladagi ma'lumotlar nutqning aloqasi va talqiniga qanday ta'sir qilishi mumkinligini o'rganadi.

Kalit so'zlar: presuppozitsiya, bayonot, semantik komponent, pragmalingvistik, kognitiv jihlatlar

Introduction

In linguistics, pragmalinguistic presupposition refers to the assumption that is made by the speaker or writer about what their audience already knows or believes. It is a pragmalinguistic inference based on shared background knowledge between the speaker and the listener. Pragmalinguistic presuppositions are implicit assumptions that are not directly stated but are conveyed through the use of language.

Pragmalinguistic presuppositions play a crucial role in communication as they help convey meaning efficiently and allow for effective understanding between the speaker and the listener. They can be influenced by cultural norms, contextual factors, and the shared knowledge between participants in a conversation.

Pragmalinguistic presupposition in the broadest sense is understood as the relationship between the speaker and the appropriateness of the utterance in the context. This definition already contains a significant element of intersubjectivity.

The set of all presuppositions of the speaker in a given context defines the class of possible worlds in which these pragmalinguistic presuppositions are relevant, which, in fact, determines the boundaries of the phenomenological situation. At the same time, pragmalinguistic presuppositions do not have to be true; they are usually considered as such: "are at least believed to be true". "A proposition is a presupposition in the pragmalinguistic sense if the speaker takes its truth to be self-evident and assumes that other participants in the context do the same... It seems that presuppositions are best thought of as complex dispositions that manifest themselves in speech behavior."

Pragmalinguistic presupposition, determining the

appropriateness and/or success of an utterance, is based on information given in the context and cognitively mastered by the communicants. For the success of communication, a common cognitive fund is required, in other words, the participants in the phenomenological field must have a common set of propositions of the context - a common presuppositional fund, without which their joint activity of generating and understanding discourse is difficult or simply impossible due to a violation of the principle of intersubjectivity.


But one should not understand the general fund of knowledge mechanically as some amount of information that is equally available to all participants in communication.

Materials and methods

Certain types of presuppositions in linguistics are distinguished depending on the aspect of consideration - cognitive-pragmatic, cultural-linguistic and logical. Some linguists in their classifications are based on only one of the aspects, while others define this phenomenon from the point of view of a cumulative approach.

The cognitive-pragmatic aspect allows us to consider presupposition as those "conditions that must be satisfied before a sentence can be used in any communicative function". This aspect is included in the classification, that distinguished presuppositions "from the correspondence of the content of an utterance to the conditions of an extra-linguistic situation... to the satisfaction of conditions not related to the content of the utterance, but necessary for the implementation of a speech act. From the position of the same aspect, also can be considered presupposition depending on the relationship with a certain cognitive space (individual, collective space or cognitive base), actualized in a

certain type of communication, three main types of presupposition are distinguished:



That is, this is a kind of “macrocognitive layer”, located in the area of mental knowledge of communication - an operational structure of consciousness created at the intersection of the cognitive spaces of communicants and representing a zone of general knowledge and ideas. The cultural-linguistic aspect

allows us to distinguish types of presuppositions based on the proposition of the sentence. This classification of this phenomenon is proposed, considering it as a certain given, expressed “in a sentence in an implicit form”, this is “a judgment derived from it. At the same time, these researchers identify the following main features of a presupposition: deducibility from a sentence, implicitness, “insensitivity” to the negation of a sentence and pragmatic content.

Discussion

Based on the proposition of content, these linguists distinguish the following types of presupposition: 1) “factual”, which are introduced by a certain class of verbs of “mental activity and mental processes”, present mainly “in the content of sentences with subordinate parts, as well as with impersonal forms”, while such a sentence is perceived “as true, reflecting reality, in other words, as a fact”; 2) “emotive presuppositions” are expressed through emotive predicates, suggesting “a certain subjective emotional attitude of the author of the sentence to the complement, which can be defined as compliance/inconsistency with the desires and expectations of the speaker”.

The logical aspect is decisive in the classification of presupposition, based on “their formal definition in terms of the basic concepts of mathematical logic - truth and logical consequence”. At the same time, scientists distinguish two types - logical and pragmatic presuppositions: “a logical presupposition is ultimately determined on the basis of the relationship between basic structures and the world. Pragmatic presuppositions are determined on the basis of the relationship between utterances and their context”. Among logical presuppositions, nine subtypes of logical implication are distinguished. While for pragmatic presuppositions the concept of “the appropriateness of coordinating a sentence with certain presuppositions” becomes relevant. However, it is quite difficult to consider presupposition in only one aspect due to the versatility of this phenomenon. Therefore, some linguists propose a cumulative approach to its interpretation and classification. Thus, in line with the semantic-pragmatic approach, presupposition that is interpreted

this concept “from a text-centric point of view... as a special case of inference - as a judgment derived from a given statement according to the rules of truth/relevance. On the other hand, by their definition, these judgments relate to the preconditions for the implementation of the utterance, which is closer to the communicator-centric approach of

discourse analysis”.

Results

This implies the identification of two types of presuppositions:

1) semantic presupposition as “a special type of semantic consequence” with two subtypes: potential presuppositions of a sentence in a zero context and actual presuppositions of a statement in a real context; and

2) pragmatic presupposition, understood as the relationship between the speaker and the appropriateness of the utterance in the context”.

A similar point of view on the problem of presupposition is defining the fact “how the fund of extra-linguistic knowledge is used by participants in communication when forming the meaningful coherence of the text,” that is, it is a certain “component of the general knowledge of the speaker and the listener”. At the same time, K.A. Filippov distinguishes two types of presuppositions: situational or pragmatic, associated with human knowledge about typical situations of communication occurring “in the material and spiritual spheres, in objective and intellectual communication”; and linguistic, which in turn are divided into referential and semantic. Referential or existential presuppositions refer “to the level of the sentence”, and semantic ones are determined by the semantics of individual words and expressions. Classifying presuppositions within the framework of the logical-semantic approach, who considers presuppositional relations as the formula “X presupposes Y, where Y is what is assumed in the sentence and is not affected by the content, and X is what presupposes.

Conclusion

In linguistics, pragmatic presupposition refers to the assumption that is made by the speaker or writer about what their audience already knows or believes. It is a pragmatic inference based on shared background knowledge between the speaker and the listener. Pragmatic presuppositions are implicit assumptions that are not directly stated but are conveyed through the use of language.

Pragmatic presuppositions play a crucial role

in communication as they help convey meaning efficiently and allow for effective understanding between the speaker and the listener. They can be influenced by cultural norms, contextual factors, and the shared knowledge between participants in a conversation. presenting a fairly extensive classification of presuppositions, in addition to those indicated, also names 1, a) communicatively irrelevant elements of the meaning of a sentence (existential presuppositions); 1, b) communicatively irrelevant components of the word meaning, ensuring the correct assignment of the word to the denotation; 2) semantic determination of one word or statement by another word or statement in the text (syntagmatic presuppositions); 3) the speaker's ideas about the degree of awareness of the addressee of the speech (communicative presuppositions).

REFERENCE:

1. Greenfield P.M. Informativity, presupposition and semantic choice in one-word utterances In the book: Psycholinguistics. M., 1984, pp. 208-220.
2. Didenko A.S. Semantic pre- and post-suppositions of phrase derivatives and their interaction with the categories of temporality, non-positivity and modality. In: Structure and semantics of superphrasal units in the Germanic languages. Pyatigorsk, 1983, pp. 148-160.
3. Dobraev L.P. Logical-psychological analysis of the text. Saratov. Publishing House of Saratov University, 1969. 171 p.
4. Zarubina N.D. Text: linguistic and methodological aspects. M.: "Russian language", 1981. 112

Gulbakhor ESHCHANOVA

PhD student, EFL teacher

*Department of English language and literature
Urgench State University Urgench, Uzbekistan*

SOFTWARE TOOLS FOR ASSESSING AND GIVING FEEDBACK IN THE FLIPPED CLASSROOM MODEL

Annotation: this article is mainly about software tools that support teachers in assessing and evaluating students' knowledge. The flipped classroom model has revolutionized traditional teaching methods by shifting the focus from instructor-led lectures to student-centered learning. In this model, students engage with instructional content outside the classroom and participate in interactive activities during class time. Effective assessment and feedback mechanisms are crucial to the success of this approach. This article explores a range of software tools designed to enhance assessment and feedback in flipped classrooms. We review tools that facilitate formative and summative assessments, provide real-time feedback, and support peer evaluation. Additionally, we examine the integration of these tools with learning management systems (LMS) and their impact on student engagement and learning outcomes.

Key words: *Flipped Classroom, Assessment Tools, Feedback Mechanisms, Student Engagement, Educational Technology*

Аннотация: эта статья в основном посвящена программным инструментам, которые помогают учителям оценивать знания учащихся. Модель «перевернутого класса» произвела революцию в традиционных методах обучения, сместив акцент с лекций под руководством преподавателя на обучение, ориентированное на учащихся. В этой модели учащиеся изучают учебный контент вне класса и участвуют в интерактивных мероприятиях во время занятий. Эффективные механизмы оценки и обратной связи имеют решающее значение для успеха этого подхода. В этой статье рассматривается ряд программных инструментов, предназначенных для улучшения оценки и обратной связи в перевернутых классах. Мы рассматриваем инструменты, которые облегчают формативное и итоговое оценивание, обеспечивают обратную связь в режиме реального времени и поддерживают коллегиальную оценку. Кроме того, мы изучаем интеграцию этих инструментов с системами управления обучением (LMS) и их влияние на вовлеченность студентов и результаты обучения.

Ключевые слова: *перевернутый класс, инструменты оценки, механизмы обратной связи, вовлечение учащихся, образовательные технологии*

Annotatsiya: ushbu maqola asosan o'qituvchilarga talabalar bilimni baholash va baholashda yordam beradigan dasturiy vositalar haqida ma'lumot berilgan. Teskari sinf modeli asosiy e'tiborni o'qituvchi boshchiligidagi ma'ruzalardan talabalarga yo'naltirilgan ta'limga o'tkazish orqali an'anaviy o'qitish usullaridan tubdan farq qiladi. Ushbu modelda talabalar sinfdan tashqari ta'lim mazmuni bilan shug'ullanadilar va dars vaqtida interfaol mashg'ulotlarda qatnashadilar. Samarali baholash va qayta aloqa mexanizmlari ushbu yondashuvning muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Ushbu maqola teskari sinflarda baholash va fikr-mulohazalarni yaxshilash uchun mo'ljallangan bir qator dasturiy vositalarni o'rganadi. Biz formativ va summativ baholashni osonlashtiradigan, real vaqtda fikr-mulohazalarni taqdim etadigan va

tengdoshlarni baholashni qo'llab-quvvatlovchi vositalarni ko'rib chiqamiz. Bundan tashqari, biz ushbu vositalarning ta'limni boshqarish tizimlari (LMS) bilan integratsiyalashuvini va ularning talabalarning faolligi va ta'lim natijalariga ta'sirini ko'rib chiqamiz.

Introduction

The flipped classroom model has gained significant traction in educational settings over the past decade, challenging the traditional paradigm of teacher-led instruction. This innovative approach inverts the conventional classroom structure by delivering instructional content outside of class, often through video lectures or other digital media, while dedicating in-class time to interactive, hands-on activities that foster deeper learning. The shift from passive reception to active engagement aims to enhance student understanding and retention of material. A critical component of the flipped classroom model is the continuous assessment and timely feedback that guide students through their learning journey. Traditional assessment methods, often reliant on periodic testing, fall short in addressing the immediate needs for feedback that this model demands. Consequently, a variety of software tools have been developed to address these needs, providing platforms for formative and summative assessments, facilitating real-time feedback, and supporting peer evaluation.

Literature Review

The flipped classroom model, which shifts the traditional teaching paradigm by having students engage with instructional content outside of the classroom and participate in interactive activities during class time, has been the subject of extensive research over the past decade. This literature review examines the theoretical foundations of the flipped classroom model, the role of technology in supporting this approach, and the specific software tools used for assessment and feedback. The flipped classroom model is grounded in several educational theories, including constructivism, active learning, and student-centered learning. Constructivist theory posits that learners construct knowledge through experiences and interactions, making the active, participatory nature of the flipped classroom an ideal environment for learning (Brame, 2013). Active learning, a key component of the flipped classroom, emphasizes student engagement and interaction, which have been shown to improve comprehension and retention (Prince, 2004). Additionally, student-centered learning shifts the focus from the instructor to the learner, encouraging students to take responsibility for their own education (Hannafin & Land, 1997).

Software Tools for Assessment and Feedback

We can suggest numerous software tools have been developed to support assessment and feedback in the flipped classroom model. These tools can be categorized into several types, including formative assessment tools, summative assessment tools, real-time feedback tools, and peer evaluation tools.

1. Formative assessment tools are designed to

monitor student learning and provide ongoing feedback that can be used to improve instruction and student performance. Tools such as Google Forms, Kahoot!, and Quizizz allow instructors to create quizzes and surveys that can be completed by students outside of class. These tools provide immediate feedback to students and enable instructors to identify areas where students may be struggling (Sotiriou & Paraskeva, 2010).

2. Summative assessment tools are used to evaluate student learning at the end of an instructional unit by comparing it against a standard or benchmark. Learning management systems (LMS) like Canvas and Blackboard offer built-in assessment features that allow instructors to create and administer exams and assignments. These systems also provide analytics and reporting features that help instructors assess overall class performance and identify trends (Alamri et al., 2019).

3. Real-time feedback tools facilitate immediate communication between instructors and students during class activities. Tools like Socrative, Nearpod, and Mentimeter enable instructors to pose questions and gather responses from students in real time. This immediate feedback allows instructors to address misconceptions and adjust instruction as needed (Beatty, 2004).

4. Peer evaluation tools support collaborative learning by allowing students to assess each other's work. Platforms such as Peergrade and Turnitin's PeerMark enable students to provide feedback on their peers' assignments, fostering a deeper understanding of the material and developing critical thinking skills (Liu & Carless, 2006).

Results and Discussion

The implementation of various software tools for assessment and feedback in flipped classrooms yielded significant insights into their effectiveness in enhancing student engagement, performance, and satisfaction. The findings from multiple case studies and empirical research are summarized as follows:

Increased Student Engagement: Tools such as Kahoot! and Socrative were reported to significantly boost student engagement during in-class activities. Surveys conducted among students revealed that the interactive nature of these tools made learning more enjoyable and stimulating. Real-time feedback tools like Nearpod and Mentimeter enabled instructors to maintain high levels of student participation throughout the lessons. Students appreciated the immediate responses to their inputs, which kept them actively involved in the learning process. **Improved Learning Outcomes:** Formative assessment tools, including

Google Forms and Quizizz, were found to positively impact student performance..

The results highlight the transformative potential of software tools in the flipped classroom model. The increased student engagement and improved learning outcomes observed across multiple studies underscore the effectiveness of these tools in fostering a dynamic and interactive learning environment. One of the key strengths of these tools is their ability to provide immediate and actionable feedback. Real-time feedback tools like Nearpod and Socrative play a crucial role in keeping students engaged and addressing misconceptions promptly. This aligns with the constructivist theory, which emphasizes the importance of timely feedback in the learning process (Brame, 2013). Formative assessment tools have

shown to be particularly effective in helping students identify and address their learning gaps.

Conclusion

The integration of software tools for assessment and feedback in the flipped classroom model offers significant benefits in terms of student engagement, learning outcomes, and feedback quality. While challenges such as technical issues and increased workload for instructors exist, the strategic use of these tools, supported by robust technical infrastructure and professional development, can greatly enhance the effectiveness of the flipped classroom approach. Future research should continue to explore the long-term impact of these tools and identify best practices for their implementation to maximize their potential in enhancing student learning.

References

1. Alamri, H. A., et al. (2019). The effectiveness of summative assessment in higher education: A review of literature. *International Journal of Educational Technology in Higher Education*, 16*(1), 39.
2. Beatty, I. D. (2004). Transforming student learning with classroom communication systems. *EDUCAUSE Research Bulletin*, 3*, 1-13.
3. Black, P., & William, D. (1998). Assessment and classroom learning. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 5*(1), 7-74.
4. Brame, C. J. (2013). Flipping the classroom. Vanderbilt University Center for Teaching.
5. Fisher, M., & Baird, D. E. (2006). Online learning design that fosters student support, self-regulation, and retention. *Campus-Wide Information Systems*, 23*(5), 329-340.
6. Hannafin, M. J., & Land, S. M. (1997). The foundations and assumptions of technology-enhanced student-centered learning environments. *Instructional Science*, 25*(3), 167-202.
7. Herreid, C. F., & Schiller, N. A. (2013). Case studies and the flipped classroom. *Journal of College Science Teaching*, 42*(5), 62-66.
8. Liu, N. F., & Carless, D. (2006). Peer feedback: The learning element of peer assessment. *Teaching in Higher Education*, 11*(3), 279-290.
9. Prince, M. (2004). Does active learning work? A review of the research. *Journal of Engineering Education*, 93*(3), 223-231.
10. Sotiriou, S., & Paraskeva, F. (2010). Google forms and applications for formative assessment. *Proceedings of the 14th Panhellenic Conference on Informatics**.
11. Berrett, D. (2012). How 'flipping' the classroom can improve the traditional lecture. *The Chronicle of Higher Education*, 58*(25), A16-A18.
12. Bishop, J. L., & Verleger, M. A. (2013). The flipped classroom: A survey of the research. *Proceedings of the 120th ASEE Annual Conference and Exposition**.
13. Chen, Y., Wang, Y., Kinshuk, & Chen, N. S. (2014). Is FLIP enough? Or should we use the FLIPPED model instead? *Computers & Education*, 79*, 16-27.
14. Lage, M. J., Platt, G. J., & Treglia, M. (2000). Inverting the classroom: A gateway to creating an inclusive learning environment. *The Journal of Economic Education*, 31*(1), 30-43.
15. McLaughlin, J. E., Roth, M. T., Glatt, D. M., Gharkholonarehe, N., Davidson, C. A., Griffin, L. M., ... & Mumper, R. J. (2014). The flipped classroom: A course redesign to foster learning and engagement in a health professions school. *Academic Medicine*, 89*(2), 236-243.
16. O'Flaherty, J., & Phillips, C. (2015). The use of flipped classrooms in higher education: A scoping review. *The Internet and Higher Education*, 25*, 85-95.
17. Roehl, A., Reddy, S. L., & Shannon, G. J. (2013). The flipped classroom: An opportunity to engage millennial students through active learning strategies. *Journal of Family & Consumer Sciences*, 105*(2), 44-49.
18. Strayer, J. F. (2012). How learning in an inverted classroom influences cooperation, innovation and task orientation. *Learning Environments Research*, 15*(2), 171-193.
19. Tucker, B. (2012). The flipped classroom. *Education Next*, 12*(1), 82-83.
20. Vaughan, M. (2014). Flipping the learning: An investigation into the use of the flipped classroom model in an introductory teaching course. *Education Research and Perspectives*, 41*, 25-41.

Shahodat KARAMOVA,
"Turon" universiteti, "Sharq tillari"
kafedrası o'qituvchisi

ZEBO MIRZO IJODIDA G'OYA VA BADIY MAHORAT MUTANOSIBLIGI

Annotatsiya: ushbu maqolada hozirgi adabiy jarayonda faol ijod qilayotgan Zebo Mirzo she'rlari tahlilga tortilgan. Shoiria ijodida xalqparvarlik, xalq og'zaki ijodidan o'rinli foydalana olishi, she'rlaridagi falsafiylik masalalari haqida to'xtalishga harakat qilingan. Zebo Mirzoning she'rlaridagi vatanparvar insonning ilohiy sadolari samimiylik, ohangdorlik, tiniq bir ravonlik, shakl va mazmunning o'ziga xos mutanosibligi she'rlari misolida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: xalqparvarlik, xalq og'zaki ijodi, falsafiylik, vatanparvarlik, samimiylik, ohangdorlik, ravonlik, shakl va mazmun.

Аннотация: в данной статье анализируются стихи Зебо Мирзо, активно творящего в современном литературном процессе. В творчестве поэтессы предпринята попытка остановиться на вопросах патриотизма, уместного использования народной поэзии, философских вопросах в ее стихах. Божественные звуки патриота в стихах Зебо Мирзы иллюстрируются на примере его стихов искренности, мелодичности, ясной беглости, неповторимого соотношения формы и содержания

Ключевые слова: патриотизм, фольклор, философия, патриотизм, искренность, мелодичность, беглость, форма и содержание

Annotation: this article analyzes the poems of Zebo Mirzo, who is actively creating in the modern literary process. In the poetess's work, an attempt is made to dwell on issues of patriotism, the appropriate use of folk poetry, and philosophical issues in her poems. The divine sounds of a patriot in the poems of Zebo Mirza are illustrated by the example of his poems of sincerity, melody, clear fluency, unique relationship between form and content

Key words: patriotism, folklore, philosophy, patriotism, sincerity, melody, fluency, form and content.

Hozirgi adabiy jarayonda faol ijod qilayotgan ayol ijodkorlardan H.Ahmedova, Z.Mirzayeva, Farida Afro'z kabi shoiralarni ko'rish mumkin. Ayniqsa, bu ijodkorlar orasida Zebo Mirzo o'ziga xos ovozga ega, she'riyatida tasavvuf ohanglariga alohida urg'u berishi bilan boshqa shoirlardan ajralib turadigan shoiralardandir.

Zebo Mirzo ijodi adabiyotshunoslar tomonidan ko'p e'tirof etilgan. Jumladan, adabiyotshunos B.Yo'ldoshev o'zining "Qashqadaryo badiiyati" kitobida shoiria haqida o'zining ijobiy fikrlarini aytib o'tgan.

"Men hamon Zeboning "Tun malikasi"ni varaqlayman, o'qiyman va yana qaytadan nigohdan o'tkazaman, yana o'nga tolaman. Buyuk shoirlarni dunyoga yetkazib bergan muqaddas tuproqda Tangrining xohishi bilan ovozi aslo hech kimga o'xshamaydigan benazir bir iste'dodga ega bo'lgan hassos shoiria ko'z o'ngimda tobora bo'y cho'zmoqda. Darhaqiqat, shoiraning shodligu xurramlik ham, g'am-u hasrat ham, baxt-saodat ham, fojia ham barcha-barchasi yurakka payvand. Shu boisdan ijodkorni qalb tarjimoni deb atashadi. Haqiqatdan ham, yurak tafti ko'chmagan, qalb nuriga yo'g'rilmagan, dil iztirobini ifodalagan asar

hech kimni hayajonlantirmaydi, hech kimga zavq-shavq bag'ishlamaydi. Yurak haroratisiz, xususan, she'riyat yashay olmaydi.

Zebo Mirzoning she'rlarini o'qigan kishini ta'sirlantirmay, hayratlantirmay qolmaydi. N a z m i y o lamda tabiiy va notabiiy she'rlar bor. Tabiiy she'rlarda qalbni hayajonga solgan tuyg'u, dard, iztirob tasvirlanadi. Ya'ni: holat, iztirob, haqiqat she'rga aylanadi.

Sizdan ham pok edim, oq gullar,
Har tong tushim nega yo'ydingiz:
Nega uni qari afsungar
Muhabbatga berib qo'ydingiz?

ZEBO
MIRZO

UMRIMNI O'TKINCHI
SABOGA BERDIM...



Sizdan ham pok edim , oq gullar...

Ishqning “kechikkan” og‘ir dard...” Kechikkan ishq”da vujud omonsiz olovda kuyadi. Lekin rashkdagidan farqli – bunda azob chegara bilmaydi. Agarda, azobini vujudning yog‘siz tovarda bir muddat kuyishiga o‘xshatsak, “kechikkan ishq”da bu azob tuganmasdir.

Zebo Mirzayeva she‘riyatida mavzular rang-barang, ayni vaqtda umuminsoniy, xalqchil mavzularda jiddiy ijod qila oladi. Fikrimizning dalili uchun birma-bir qarab chiqsak.

Birinchiidan, shoira ijodida xalqparvarlik ustunlik qiladi. O‘z Vatanini jonidan ortiq sevgan, Inson so‘zining tub zamiriga yeta olgan, ma‘naviy kamoloti yuksak kishigina xalqparvar bo‘la oladi. Zebo Mirzo ijodida xalqparvarlik g‘oyasi me‘yoriga yetkazib yoritib berilgan. U xalq uchun, insoniyat uchun, Vatan uchun yonib yozadi. Uning she‘rlarini o‘qib, ko‘z o‘ngimizda To‘maris, Nodirabegim kabi shijoatli, mard ayol namoyon bo‘ladi.

Shoira el-yurt tinch, xotirjam yashashini orzu qilib, “Inqilob” she‘rini yozadi. Afg‘oniston urushiga bo‘lgan nafrati va yorining vafo sadoqatini “Tillo uzuk” she‘rida ifodalaydi. XII asrda Chingizxon boshchiligida mo‘g‘ullar O‘rta Osiyoga bostirib keldi. Bu urushda ancha xalq qiriladi. Faqat sotqin va xoinlar omon qoladi. “Chingizxon” she‘rida yozadi:

Xalq qirildi,
Tirik qoldi faqat xoinlar.
Xoinlarning harom qonidan
Tarqab ketdi bezot la‘inlar
Xalq qirildi. Fotihlar ketdi,
Tug‘lar sindi, tindi takbirlar.
Qay millatni qaro yer yutdi.
Sotdi uni fohish, makrlar!
... Quv! Quv!

Xalqda birlik kuchli bo‘lmagan, ayrim sotqin va xoinlar bo‘lganligidan nafratlangan shoira dardlari mujassam etgan.

Ikkinchiidan, shoira xalq og‘zaki ijodidan ham o‘rinli foydalana olgan. U o‘z orzu umidlarini go‘zal, ta‘sirchan ifodalash uchun xalq og‘aki ijodiga murojaat qiladi:

Bor ekan-da , yo‘q ekan...
Bir malika bor ekan.
Shahzodasi uzoqda,
Bir ko‘rmoqqqa zor ekan,
Bor ekan-da yo‘q ekan...

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida omon yor, yor-yorlar juda ko‘plab yaratilgan.

Zebo Mirzayeva bu usuldan muvaffaqiyat bilan foydalanib, ta‘sirchan, go‘zal she‘rlar bitdi:

Asl yoring bo‘lsa-yo, omon yora do‘st yor
Umr bo‘yi kutolsang, omon yora do‘st yor,

Eng so‘nggi nafasingda yetib kelganida ham

“Sevmayman” deb aytolsang, omon yora do‘st yor.

Shoira “Xalq qo‘shiqlariga muxammaslar” tarzida yozilgan she‘ri ham juda tili ravon, chiroyli chiqqan.

Shoira “Qadimiy alla” she‘rini falsafiy jihatdan kuchli she‘r desa bo‘ladi. Shoira bunda o‘z Vataniga bolam deb murojaat qiladi. Odam uchun dunyoda eng shirin narsa boladir. Shoira ham Vatanini o‘z bolasini sevgan kabi sevadi.

Uchinchiidan, Zebo Mirzayeva hayotda ko‘p qiyinchiliklar ko‘rgan, o‘zbekning ayanchli hayoti va tarixi bilan yaxshi tanish , ya‘ni shoira bu haqda juda ko‘p o‘qigan, ko‘p eshitgan.

Zebo Mirzayeva o‘z atrofiga, insoniyatning yashash tarziga teran ko‘zlar bilan boqadi, u nopoklik-u razilliklardan, sotqinlar ishidan nafratlanadi, dunyoning poklanishini istab faylasufona she‘rlar bitadi.

Shoira (“Tazarru)Va‘da” she‘rida Xudoga murojaat qilib, yashab turgan zaminimiz, unda istiqomat qilayotgan osiy bandalarning poklanishini, shaytonlar yo‘qolib, yurt – hurlar yurti bo‘lishini tilaydi.

Xudoyim, poklanmas bu vujud, bu tan-
Ming bor yuvgan bilan, behishtiy osmon!

Tomirlarda harom qonlar bor yana,
Payg‘ambar dunyoga kelmog‘i gumon!

Umuman, Zebo Mirzayeva she‘riyatining inson qalbi va tafakkuriga ta‘sir etuvchi o‘ziga xos ilhombaxsh katta bir kuchi bor. Bu kuch odamlar qalbida o‘z qadriyatlarini e‘zozlashga sevgi-muhabbat bobida faqat mardlik va oliyanoblikka o‘rin bo‘lishi, vafosizlik va xoinlikka esa mutlaqo o‘rin bermaslikka chaqiruvchi bir nidodek yana baland jaranglaydi.

Shoira ijodi bilan tanishib, yaqinlashib borar ekanmiz, uning she‘riyatida badiiy mahorat, bokira qalbning pokiza tuyg‘ulari, eliga dardkash farzandning achchiq nolalari, vatanparvar insonning ilohiy sadolari qalbimizni tobora o‘ziga rom eta boradi. Uning she‘riyatidagi samimiylik, ohangdorlik, tiniq bir ravonlik, shakl va mazmunning o‘ziga xos munosibligi adabiyot ne ekanligini she‘riyatni chuqur tushunib yeta olgan qalblarni, tafakkurni hayajonga, titroqqa soladi.

Shoira o‘z tili bor, u she‘riyatda o‘z ovozini topa olgan. U hech kimda yo‘q gaplarni, yangi fikrlarni yangi so‘zlar bilan beradi. Uning tashbehlari o‘zgacha ohang, joziba kasb etadi.

Zebo Mirzo ijodida g‘oya va badiiy mahorat mutanosibligi boshqa shoirlarnikiga o‘xshamagan, faqat o‘zigagina xos bo‘lgan jihatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev B. Qashqadaryo badiiyati. – Toshkent: Sharq, 1998.
2. Mirzayeva.Z. Nur kukunlari. – Toshkent: Sharq, 1999.
3. Mirzayeva. Z. Ajr. “Yangi asr avlodi”, 2002.
4. Mirzayeva.Z. Tun malikasi. “Sharq”, 1996.

Mohigul FAZLIYEVA,
ToshDO'TAU O'zbek filologiyasi fakulteti
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik magistranti
mohigulfazlieva@gmail.com

“KALILA VA DIMNA” QO'LYOZMA NUSXASINING TAVSIFI (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qoshidagi qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan 5807 inventar raqami ostidagi nusxa)

Annotatsiya: mazkur maqolada hind xalqi yozma durdonalaridan biri bo'lmish “Kalila va Dimna” asari o'rganilishi va nusxalari haqida ma'lumot berilgan. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qoshidagi qo'lyozmalar fondida 5807 inventar raqami ostida saqlanayotgan nusxa tavsifi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: qo'lyozma nusxalar, xattot, asliyat, hamd, na't, odobi ta'lif, sababi ta'lif, nasta'liq, poygir, unvon, kollofon, ichki unvon

Annotation: this article describes the study and copies of “Kalila and Dimna”, one of the masterpieces of Indian folk writing. The manuscript fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhon Beruniy of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan talks about the description of the copy, which is kept under the inventory number 5807.

Keywords: manuscript copies, calligraphy, originality, praise, na't, etiquette, cause of praise, nastaliq, race, title, colophone, domestic title

Аннотация: в этой статье представлена информация об исследовании и копиях одного из шедевров Индийской народной письменности “Калила и Димна”. Описании экземпляра, хранящейся под инвентарным номером 5807 в фонде рукописей Института востоковедения имени Абу Райхана Беруни академии наук Республики Узбекистан.

Ключевые слова: рукописные копии, каллиграфия, благородство, похвала, нат, этикетное описание, причина похвалы, насталик, раса, титул, коллофон, внутренний титул

Kitob o'qish inson tafakkurining ozuqasidir. Har bir shaxs o'z ma'naviyatining takomili uchun kitob o'qimog'i hamda o'zidan keyingi avlod uchun ushbu bilim sarchashmasini meros tarzda qoldirmog'i lozim. Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida bir necha bor ta'kidlaganidek: “Har qaysi davlat, har qaysi xalq intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir”[1]. Yuqoridagi fikrning isboti sifatida, davlat rahbari tomonidan noyob va qadimiy kitoblar qo'lyozma asarlarni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash maqsadida turli qaror va farmonlar qabul qilindi. Prezident 2020-yil 20-fevral kuni Anqara shahrida Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xalq kutubxonasi ochilish marosimida ishtirok etdi. Shavkat Mirziyoyev ushbu kutubxonaga dunyoda o'ta noyob bo'lgan “Usmon mus'hafi”ning xattotlarimiz tomonidan ko'chirilgan nusxasi, Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy” asari hamda Abu Bakr ar-Roziyning “Kasalliklar tarixi” asari qo'lyozmalarining facsimile nusxalari kabi nodir kitoblarni tuhfa qildi[1]. Bundan ko'rinib turibdiki, inson doimo o'zi uchun qadrlil yoxud yangilik bo'lgan o'tmish namunalarni ardoqlab e'zozlagan va uni o'qib o'rganishga ishtiyoq bilan harakat qilgan.

Ma'lumki, “Kalila va Dimna” asarining nafaqat o'zbek tilida, balki dunyoning qator mamlakatlari, jumladan, arab, fors, fransuz, nemis, rus, ingliz, turk tillarida tarjima

qilinishi va o'rganilishi bu asarning qanchalik yuksak qadrlanganligining yaqqol namunasidir. Asarning bu darajada jahonshumul ovozga ega bo'lishining asosiy sabablaridan biri unda inson tuyg'ularining psixologiyasi tadqiq etilgan bo'lib, unda do'stlik va g'arazlik, yaxshilik va yomonlik, ishonch va shubha, sadoqat va xoinlik kabi tuyg'ular tahlil qilingan. Lekin manbada ko'tarilgan masalalar bevosita didaktik uslub bilan emas, balki majoziy shakl va vositalar bilan ifoda etilgan. Buni asar qahramonlari obrazida ham ko'rish mumkin. Kitobning bosh qahramonlari insonlar emas, balki Kalila (soddadil) va Dimna (quv) degan ikki qashqirlar bo'lib, ular ongli jonzotlar singari fikrlash va his qilish qobiliyatiga ega[5].

Kitobning eng qadimiy va mashhur arab tarjimalaridan birining muallifi Ibn al-Muqaffa bo'lib, uning oddiy tarjimondan ajralib turadigan eng asosiy qobiliyati shunda ediki, u asarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilib qolmasdan, balki uni islom olamiga, ijtimoiy-siyosiy an'analarga moslashtirishga ham harakat qilgan [3;70]. Buning dalili safatida uning “Kalila va Dimna” asari nafaqat tarjima, balki mustaqil asar sifatida qadrlanib dunyo olimlari nigohini o'ziga qaratib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kutubxonasi qo'lyozmalar fondida “Kalila va Dimna”ning turli asrlarga mansub o'ndan ortiq qo'lyozma nusxalari,

yigirmadan ortiq toshbosma va nashr variantlari mavjud bo'lib, bular tadqiqotchi uchun asarning asliyatini aniqlash hamda barcha variantlarini chog'ishtirib, kerakli nusxalarni saralab, ularning qadimiyligi, to'liqlik, husnixat va saqlanish sifatining yaxshiligi jihatdan mukammallikka da'vogar nusxasini aniqlashga yordam beradi.

Quyida biz ushbu kutubxona asosiy fondida saqlanayotgan "Kalila va Dimna"ning №5807 inventar raqamli qo'lyozmasi tavsifini ko'rib chiqamiz:

Kitobning toqa(muqova)si to'q qizil rangda bo'lib, tayaki(toqalarni birlashtirib turuvchi yon qismi)si ko'k mato bilan o'ralgan. Ammo lobaki (muqovani urinib qolishdan saqlaydigan kitob burchagida charmdan ishlangan ochqich) yo'q [6;85]. Muqova markazida romb shaklidagi sariq rangda naqsh tushirilgan bo'lib, uning ichida yozuvlar bitilgan. Kitobning ichini ochgandan keyingi ilk betda kotib tomondan bitilgan quyidagi ma'lumotlar yozilgan: "Anvori Suhayliy" tarjimasi. Mutarjim: Mullo Muhammad Temur Koshg'ariy. Tarjima yili: hijriy 1130" [2;2]. Shuningdek, ko'pchilik qo'lyozmalarda bo'lgani kabi ushbu sahifada ko'chiruvchining ismi tushirilgan qora kichik dumaloq hamda kattaroq qizil rangli muhrlar bosilgan. Bu xildagi muhrlar deyarli barcha qo'lyozmalarga xos bo'lib, bundan biz ushbu asar qaysi xattotning mehnati ekanligini bilib olamiz.

Qo'lyozmaning tashqi holatidan yaxshi saqlanganligi ma'lum bo'lib, faqatgina ba'zi sahifalarining chetlari qayrilib yirtilgan, birinchi sahifaning ko'rinishi qoniqarli emas. Shuningdek, oxirgi ayrim betlariga suv tegib namlangan. Ammo bu holat yozuvni bemalol o'qishimiz uchun to'sqinlik qila olmaydi.

Kitobning ikkinchi sahifasida berilgan unvon (ilk sahifaning uchdan biriga zarhal rangda ishlangan bezakli naqsh)da ko'k, qizil va zarhal rangdagi gullar bilan bezatilgan naqshlar mavjud. Qo'lyozmaning boshlanishida jadval keltirilmasa ham oxirgi boblarda ba'zi baytlar ikki va uch ustunli jadval asosida berilgan. Bundan tashqari, hoshiya (qo'lyozma matn tevaragidagi bo'sh joy) mavjud bo'lib, unda ba'zi tushib qoldirilgan so'zlar qayd qilingan. Shuningdek, matn ichidagi ma'nosi murakkab so'zlarning izohi gloss (matn ichidagi ba'zi so'zning hoshiyadagi izohi) ko'rinishida hoshiyada bitilgan. Har bir sahifaning pastki chap burchagida poygir (sahifa pastida chap tomonda keltiriladigan so'z. Qo'lyozmalar beti raqamlanmagan holatda poygilar sahifa ketma-ketligini aniqlashga yordam bergan) berilgan bo'lib, bu keyingi betni adashmay topib olishimiz uchun qo'l keladi [6;83]. Kitobda ichki unvonlar (bob, bo'lim yoki qandaydir qismning alohida rangda yoki shaklda ajratib yozilishi) ham aniq va ravshan tarzda qizil rangli yozuvlar orqali ajratib berilgan. Bular orqali biz asar boblarini va uning tarkibidagi hikoya, ruboiy, bayt, masnaviy, misra va qit'alarini osongina ajratib olamiz.

Yuqoridagi tarjimon hamda xattot haqidagi qayddan

tashqari kitob oxirida kolofon (asar xotimasi)da ham muallif va ko'chirilgan yili haqidagi ma'lumotlar o'zbek, fors tillarida berilgan. Mulla Temur ushbu qo'lyozmani juda chiroyli yozuvda nasta'liq xatida bitgan bo'lib, qo'lyozmaning umumiy hajmi 336 varoqdan tashkil topgan. Yozuvlar qatori 17 tadan bo'lib, sahifa 26/30 o'lchamidadir.


Kitobning ichki tavsifiga nazar tashlasak, asar qadim qo'lyozma kitoblari boshlanmasi kabi بسم الله الرحمن الرحيم ya'ni, "Mehribon va rahimli Allohning nomi bilan boshlayman" kalimalari bilan ochilgan [2;2-a].

Ushbu unvondagi basmala deb nomlanadigan bu kalima odobi tasnif qoidasiga ko'ra barcha asarlarda asosiy matn boshlanishidan avval arab tilida berilgan [6;86]. Basmaladan so'ng, odatdagidek, asar Allohga hamd bilan boshlanib, bunda yaratuvchini ulug'lash



va yolg'iz Ugina maqtovga munosib Zot ekanligi e'tirof etilgan. Bunda adablik salohiyatiga ko'ra hamdlar asar (bob, fasl)ning mazmunidan kelib chiqib ham bayon etilishi mumkin. "Kalila va Dimna"da ham asarning boshlanishida berilgan hamddan tashqari ba'zi boblar boshi va o'rtalarida ham bu holni kuzatish mumkin.


Asar quyidagi jumlar bilan boshlanadi:



Mazmuni: "Hazrat hakim mutlaqkim, hikmati ravshandur, aning hamd-u sanosi latifalarining vazifalari Va in min shayyin illa yusabbihu bihamdih hukmi (Isro surasi, 44) birla jami' balohat mavjudotlari tillarig'a joriy va doyr, benihoyatlari foydalari Va a'to kulla shayin xolqoh (Toha surasi, 52) qoidasi birla yer-u ko'k maxluqotlarining axborlarig'a sori va soyirdurur" [2;2-a]. Ushbu asar boshlanmasidan ko'rinib turibdiki, asarning hamd va na't qismida deyarli har bir sahifada fikrning izohi sifatida Qur'on sura va oyatlaridan parcha keltiriladi.

Hamdda kelgan xoliq, maxluqot, tasvir, hazrat hakim, mutlaq, masnu'ot kabi atamalarning barchasi yaratish fe'li bilan bog'liq tushunchalardir. Hamddan so'ng Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom

eslanib, u zotga solavot aytilgan. Adabiy matnlardagi bunday bag'ishlovlarga na't, sano, durur degan nomlar berilgan. Odobi tasnif qoidalari yana biri hamd va na'tdan so'ng kitobning yozilish sababini bayon qilish bo'lib, bu sababi ta'lif deyiladi [6;89]. Asarning ushbu qismida "Kalila va Dimna"ning yozilish sababi va Mulla Temurgacha qilingan tarjimalar hamda ularning mualliflari xususida bayonlari mavjud. Asar muallifi hind faylasufi Beydaboning shogirdlarini yig'ib, bir necha yillar davomida asarni yozishganidan boshlab, uning shoh Anushervon tomonidan Eronga keltirilishi-yu, Ibn Muqaffaning mashhur arab tilidagi tarjimasi, Nizomiddin Abul Maoliy Nasrulloh va Husayn Voiz Koshifiylarning fors tiliga o'g'irgan nusxalari xususidagi ma'lumotlarga keltirib o'tgan. Shundan so'nggina Mulla Temur o'zining turkiy tarjimaga qo'l urganini bayon qiladi. Masalan, asarda shunday qaydlar bor:



Mazmuni: Bayt. Zihining nomi hamida xasol; Muhammad Imombek sohibi kamol. Bu faqirni bazoat a'ni Mullo Muhammad Temurkim, sohibg'a buyurdikim, Anvori Suhayliy forsiy lug'atidin turkiy tilig'a o'urgoy, to bu Koshg'ar zamin viloyatining xalqikim, tillari turkiydur, ul kitobning ma'nisidin bahra olg'aylar va har om-u xosg'a manfaati tamom etgay[2;8-a].

Ushbu parchadan ko'rinib turibdiki, asli Qashqarlik bo'lgan Mulla Temur "Kalila Dimna"ning Husayn Voiz Koshifiy tomonidan forsiyga o'girilib, "Anvori Suhayliy" deb nomlangan asari asosida turkiy tilga tarjima qilgani va qashqar xalqi bu o'zbek tilidagi asardan zavq olib, uning barcha tabaqa uchun manfaatli bo'lishini niyat qilgani bayon qilingan.


Shuningdek, ijodkor bu tarjima asariga mustaqil ijod namunasi sifatida qaralishini orzu qilib, unga "Osori Imomiya" deb nom qo'yadi[4;8].

Sababi ta'lifdan so'ng, odatda, sarlavhalar (bob, fasl, qismlar) o'rin olib, bunda asarning asosiy voqea bayoni keltiriladi. "Kalila va Dimna" 14 ta katta bobdan iborat bo'lib, unda salmoqli darajada muhim ma'lumotlar bayon qilinadi. Har bir bobning tarkibi – asarning davomiy bayoni, hikoyatlar, qit'a, ruboiy, misra, bayt kabi bo'linmalardan tarkib topgan. Asar boblari quyidagilar:

Avvalgi bob: Sehrgarlar va shakkok so'zlardin parhez qilmoqning bayonida; 2-bob: Badkorlarning sazo topmoqlari ularning oqibatlarini shumlug'ining bayonida; 3-bob. Do'stlar muvofiqlari, ular yori va madadkori bo'lmoqlarining bayonida; 4-bob. Dushmanlar holig'a ogoh bo'lib, ular makr-u hiylalaridin emin bo'lmasliq bayonida; 5-bob. G'ofilliqning zarari nodonliq birla qo'lda


qay matlubni zoye' qilg'onidin keyin darig' va nadomat sud bermasligining bayonida; 6-bob. Oshuqmoqning ofati va betobeliqning zarari bayonida; 7-bob. Tadbir-u andisha va hiyla birla dushmanlar balosidan xalos bo'lmoqliqning bayonida; 8-bob. Dushmanlar tammaluqig'a e'timod qilmasliq va kiynavarlar muloyimatig'a firib etmasliqning bayonida; 9-bob. Afv fazilatining bayonida; 10-bob. Har kishi mukofot tariqa birla o'z amali jazosin topmoqning bayonida; 11-bob. Kishi o'z andozasidin ortuqni tilab jazo topmoqi va bir burung'i beshasidin quruq qolmoq bayonida; 12-bob. Yuvoshliq va og'irliq va sabr tahammul fazilati bayonida; 13-bob. Egri botinlar va xiyonatkorlar so'zlaridin parhez qilmoq baytining bayonida; 14-bob. Zamona havodisig'a iltifot qilmasliq va ishlar binolarin qazo va qadrg'a qo'ymog'liq bayonida.

Yuqorida boblarda asar qahramonlari Kalila va Dimna nomli shoqollar boshchiligida turli masal va hikoyatlarni bayon qilishadi hamda har bir hikoya tarkibida fikrning izohi va to'ldirilishi sifatida baytlar beriladi. Masalan:



Mazmuni: Eranlikdin uzotib qahr ila dast, Qilib dushman boshin tufroqqa past [2;175-a];

Yoki:



Mazmuni: Budurur dushmanning ki hamlasi; Dog' bordur bizga ko'prak hiylasi. Tutsa bo'lg'ay sel oz chog'da yo'lin, To'xtatib bo'lmas ulug' etsa qo'lin. Qil bukun chora balog'akim tilar, Ish vaqtidin o'tib ketar [2;175-a,b].

Yuqoridagi bayt hamda qit'a asar 4-bobidagi dushmanlar holidan ogoh bo'lmoq bayonida berilgan hikoyat tarkibidan olingan bo'lib, bular o'quvchi uchun hikoyaning mazmunini ochib berishga hamda ular tushunchalarining hissiy ta'sir kuchini oshirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, dunyo olimlari va ixlosmandlarining muhabbatiga sazovor bo'lgan "Kalila va Dimna" asari barcha qatlam aholi – xoh u xos bo'lsin, xoh omi uchun bir xil tushunarli bo'lib, insonlarni doimo yomonlikdan qaytarib, yaxshilik sari odimlash kerakligi haqida dars beradi. Chunonchi, bekorga faylasuf olim Beydabo ushbu asarni aynan o'sha zamonning bosartusarini bilmay qolgan shahzoda va amirzodalari uchun darslik sifatida yozmagan[8]. Fikrimizning isboti tariqida kitobning ushbu qo'lyozma nusxasini ham yozilish muddatining nisbatan qadimligi (XVIII asr boshi), ham to'liq va mukammalligi, ham xushxatligi jihatdan boshqa butunlikka da'vogar variantlari qatoriga kiritishimiz mumkin bo'lib, bu "Kalila va Dimna" asarini to'liq

o'rganish hamda uni jamoatchilikka taqdim etishga mo'ljallangan tadqiqot ishlariga poydevor bo'la oladigan manba sifatida qardlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2020-yil 20-fevraldagi Turkiyaning Anqara shahrida Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xalq kutubxonasining ochilish marosimida so'zlagan nutqidan.
2. Kalila va Dimna. Osoriya Imomiya. Mulla Temur ko'chirgan nusxasi. O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Qo'lyozma №AR-5807.
3. Калила и Димна. Абдуллах ибн ал Мукаффа (перевод с арабского Б. Шидфар) – Москва: Художественная литература, 1986
4. Kalila va Dimna. Hind xalq eposi. (S.G'aniyeva tarjimasini). – Toshkent: Istiqlol, 1994.
5. Karimova M. “Kalila va Dimna” tarjimalari. O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 1970. 1-son.
6. Zohidov R. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: Yashil yaproq nashrmatbaa uyi, 2023. 81-85-betlar.
7. Fazliyeva M. “Kalila va Dimna”ning dunyo bo'ylab o'rganilishi tarixi. Results of National Scientific Research International Journal, 2023. – Volume 2, Issue12
8. Fazliyeva M. Ibn al-Muqaffaning hayoti va uning tarjimon sifatidagi mahorati. (“Kalila va Dimna” asari misolida). – O'zA elektron jurnali 2024, 4-son(54)
9. www.google scholar.uz
10. Ziyouz.com

Ozodabegim MAVLONOVA,
 Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani
 faxriy o'qituvchisi

ADABIYOT MUALLIMLARIGA OTLIQ YOR HAQIDA YOXUD JONNI OTI AYOQ'IGA NISOR ETAY...

(Adabiyot muallimlari va muxlislar e'tiboriga taqdim)

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining birinchi devoni “G'aroyib us-sig'ar”dagi 371- g'azali tahlilga tortilgan. Boshqa navoiyshunos ustozlarimizning tahlillariga qo'shimcha tarzda yangi fikrlar ham qo'shildi.

Kalit so'zlar: *takovar, hino bog'la, chobuk, samand, abrash, raxsh.*

Bugungi maqolamizda “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining birinchi devoni “G'aroyib us-sig'ar”dagi 371- g'azal 3- baytining 1- misrasi borasida suhbatlashamiz. Uchinchi baytning birinchi misrasi quyidagicha: **Takovaringg'a bag'ir qonidin hino bog'la.**

Hazrat qaysi mavzuda fikr bildirmaslar uning ichiga chuqur kirib borganliklarini, bu temani atroflicha bilishlarining guvohi bo'lamiz. Bu misrada gap yor oti tulpor haqda bormoqda. Shoir g'azallarini kuzatar ekanmiz otlarning o'sha davrda ma'lum bo'lgan ko'plab nomlarini uchratamiz. Otlar fe'li va rangiga qarab: **tavsan** – sho'x o'ynoqi asov ot; **takovar**- chopqir yurumol ot; **ashhab** – kulrang, ko'k bo'z ot; **samand** – ko'k xolli ot; **abrash** – oq qizil yo oq qora targ'il ot; **ablaq** – qashqa ola bula ot; **raxsh** – olachipor yugurik qizil ot kabi nomlar bilan atalganligining guvohi bo'lamiz. Shoir g'azallarida ot mingan yorga nisbatan **chobuk** – chaqqon, sho'x, chavandoz yoki **chobuksuvor** – otni ustalik bilan boshqara oluvchi suvoriy so'zlari sinonim – ma'nodosh sifatida ko'p qo'llanganligini ko'ramiz. G'azallarda

samand arg'umoqli yor goh ovchi, goh shaddod chavgondoz, goh turktoz mohir suvoriy timsollarida gavdalanirilgan. Navoiy asarlaridagi otliq yor – chobuksuvor timsoliga munosabat bildirilayotganda o'sha g'azal misralarida tasvirlanayotgan holatlargagina emas, balki shoir ijodiga umumiy planda qarab boshqa ko'plab otli tasvirda chizilgan yor obrazlarini ham taxayulda bir **tipiklashtirib so'ng mulohazalar bildirilsa, bizningcha, sharh to'g'ri yechimga olib boriladi.** Aytaylik, shoir shu o'rinda ovchi yorni nazarda tutayotgan bo'lsa, har g'azalda uning ovchiligiga urg'u berib “ovchi yorim” deb yozishi mazmun, mantiq va vazn talabiga muvofiq shart emas... Ovchiligi borasida boshqa biror ishorat: yoy, novak, o'q, nuk, sayd, paykon, it, hina (ramziy qon) so'zi va boshqalar bo'lishi ham mumkin, bunday holatni sinchikov muxlis umumiy tarzda anglab oladi. G'azaldagi umumiy silsilaviy voqebandlik, ishqiy tafsilotlar bayoni sabab muxlis uni **ovga, chavgon maydoniga yoki ko'ngilxushlik azmi sayriga** chiqqanligini xayolan tasavvur etish va tiklashga urinadi. Ikkinchi devonning 83-g'azali “ot”

radifli asar. Ushbu g'azalning matla'si quyidagicha:

Chobukim qatl uchun surdi yana maydong'a ot,
Odame qolmas tirik solg'an zamon javlong'a ot.

Baytlar bo'ylab borar ekanmiz bu otlig' yorni "qatl", "odame qolmas tirik", "qolg'on ekan bir kishi, to oning ham jonin olg'ay" so'zlarini o'qib: "Ne balo qotig' ko'nguldururkim qatl el qonig'a" degan o'y keladi-da, bu bir xunxo'r yor ekan-ku, deysiz. Bu o'rinda badiiyashtirish: **lof, mubolag'a** san'atlarini his qilmasangiz ahvol chatoq. To'g'ri, yorning sochi, yuzi, beli, ter (xay) i, ko'zi shoir g'azallarida xunxo'r, jallodbin chiziladi. Bular barchasi badiiy to'qima, bo'rttirib tasvirlash mahorati. Bu yerda yor o'zining chobuksuvorligi, sho'xligi, shaddodligi, mohir chavandozligi bilan elni lol qoldirib "o'ldirmoqda". Qizning bunday mahorati oshiq qalbida qizg'anish, yorni o'zidan o'zgaga munosib ko'rmaslik tuyg'usini kuchaytirmoqda. Bu qizg'anish – rashk. "Har kishini qatlikim aylar o'larmen rashkidin" misrasini o'qiganingizdan keyingina bular barchasi badiiy mubolag'a ekanligini anglaysiz. Bu rashk oshiqni: "**Kimni "o'lturmoq"qa otsang o'q, mening jonim chiqar**" degan yakunga olib keladi. Bu o'qlar barchasi: noz, nazar, g'amza, ishva, ishqiy chobuklik talanti va mahorati novaklari... Oshiq yigit ularning barchasini o'z qalbiga sanchilmog'ini juda-juda istaydi. Oshiq qizning bu chavandozlik mahorati uchun lol qolib, besh ketib, shoir iborasi bilan aytilganida: "o'larmen rashkidin" deb har on qurbon bo'lishga shayligini ochiqqlamoqda. Hazrat Navoiy ikkinchi devonning 97-g'azalida:

Surdi ko'nglimni buzib **xoki tanim uzra samand**,
Yelga berdi **tufrog'in**, bu uyni vayron aylagach, –

deb yozadilar. Qiz mahorati oshiq qalbini shunchalar hayratga solmoqdaki, yor tulpori ostida qolib bo'lsa-da toptalib ham tanni, ham ko'ngilni tufroqqa aylanishiga ham mone' emas. Shoir g'azallarida otlig' yor tasvirlari:

Chiqib sarkash, chopib **abrash**, kirar maydong'a ul mahvash,

Ajab ermas agar tushsa bori olamg'a rustohez.

O'yla maydon ichra kirmish tund ul **chobuksuvor**,
Kim degaysen charx uza sekretkusidur **ashhabin**.
Ul minmayin hanuz **TAKOVARg'a**, voykim,
Mendin qaror-u sabr-u ko'ngul qildilar vido.

Otlanib boshimni **raxshing** ayog'i ostig'a,
Tig' birla solg'udek masti sarandoz aylading.
Maydong'a chopdi **tavsanin** ul nav'ikim degil,
Kim charx shahsuvori bila qilgusi nizo...

Na'lidin choqilmas o't balkim shararlar ayrilar,
Har taraf maydon arokim o't kibi sursang **samand**.
Xullaski, shoir ijodidan bunday chizgilarga ko'plab misollar topish mumkin. Ayrim g'azallarda bu yor **ishqdan sarxush** holda tasvirlanadi:

Chiqib **sarxush**, chopib **abrash**, qilib javlon, olib

maydon,

Vujud iqlimidan mahv aylasa nom-u nishonimni.

Parivash raxsh uza sarxush pari javlon qilur netsun,

Junun jonig'a qilmay bodapalo ahli taqvi fash.

Chu yana sarxush chiqib ko'nglakcha raxshiga berib javlon,

Bo'lub shaydo ko'ngul behol aqli maslahatbin ham.

Demak, g'azaldagi yor – lirik qahramon kimligi (qiz-yor, ovchi ma'shuqami yo yigit) haqida muxlis qat'iy qarorga kelishi uchun shoir ijodiy laboratoriyasidagi otlig' yorga bag'ishlangan g'azal yoki baytlari turkumidan bir oz kengroq xabardor bo'lmog'i lozim kechadi.

Endi 3-baytning 1-misrasiga qaytsak, oshiq yordan otiga bag'ir qonidan hina bog'lashi so'ralmoqda. Qadimda otlarning salobatini oshirish, ov oldidan irim bilan qon chiqarish o'rniga qizil hina surtish odati ham bo'lgan. "Ey ovchi yorim, takovoringg'a" deyilsa, vazn o'lchoviga sig'maydi. She'riyat sintaksisi o'ziga xos uslub. Bu yerda ishora hina yoki yoy, novak, o'q, kamon, sayd, paykon, otlanib so'zi va boshqa ishoratlar bo'lishi ham mumkin. Shoir ijodida ko'ngil oviga otlangan yor chizgilari ham bisyor:

Magar (sayyod) tavsan minib, sanchib etak, tortib qilich har dam,

Ulus (oshiq el) qatlig'a javlon qilmish ul chobuksuvor anda.

Sekritib (otin) **chiqdi yana** maydon sari ul **turki mast**,

To yana qaysi (oshiq) **ko'ngul mulkiga qilg'ay turktoz**.

CHIQTIOVAZMIGA javlon aylab ul **chobuksuvor**,
Jon nisor ul sayd uchunkim jon ong'a qilg'ay nisor.

Otlig' (qiz) tasvirlaridagi bu umumlashma yor juda ham chavgon o'ynashga mohir va o'ch ekanligi ko'rinadi:

Senga ish javlon qilib **maydonda chavgon o'ynamoq**,

Manga ollingda **boshimni go'y** etib jon o'ynamoq.
Vah, nedur **maydonda** hayron azmi javlon aylamak,

Bizga yetgach o'zga yon ohangi (ila) maydon aylamak.

Go'ydek boshim necha **raxshing ayog'i** zarbidin,
Po'ya qilg'ay goh-gohi yetkur anga **chovgonni** ham.

Bosh ovuchlab egma qomat birla qolmon **raxshidin**,

To tilar **chobuksuvorim** ko'ngli **chavgon o'ynamoq...**

Zulfidin chavgon chekib el **boshini go'y etgali**,
Ko'z yoshimdin go'ydek har sori g'ilton aylamak.

Yor g'amzasidan yuz oshiq o'lib, chuqur (daqiq) ma'noli va shirin so'zlaridan esa yuz xaridor jazmanni tiriltirayotgan bu chobuk ba'zan mast (usruk) holatda ham aks ettirilganining guvohi bo'lamiz:

Ne nav bordi erkin uyga kecha ul **chobuk**,
 Ki tun qorong'u edi, **raxshi** tund, **o'zi usruk**.
 Nechukki yeldin o'lur har taraf niholg'a mayl,
Samand uza **egilar erdi**, ul qaddi nozuk.

Oshiq o'ldurmakka chiqmish **mast**, vah ishqim so'zin,

Ey raqib, etsang ne ul beboki nadonimg'a arz...
 Tun qorongu **mast otlandi**, ko'ngulning shu'lasin

Aylabon mash'al borurmen uyiga yetkurgali .

Mast otlandi ul oy qilmay xabar ahhobqa,
 G'arqa maylik shihsa yanglig'dur ko'ngul xunobqa.

Ham erurkim ofarinishdin chiqarg'aysen domor,
 Bazmdin **o'sruk** chiqib maydong'a chopsang **otlanib**.

Netib o'lmaykim yana ul *sho'x* usruk **otlanib**,
 Ter suvi markab yelidin soldi to'fon har taraf.
 Netib o'z iligida qolg'ay inoni, hush-u xirad.

Ki **boda kuchluku raxshi** inoni ham kuchluk.

Ul quyosh mast o'ldi, go'yokim qilib egri xirom ,
 Yuz jafu jomimg'a aylar charxi kajraftordek.

Yuqorida dalillash uchun keltirilayotgan iqtiboslar misralaridagi: "*ul sho'x*", "*pari*", "*parivash*", "*niholg'a*", "*ul quyosh*", "*sarxush pari*", "*ul oy*", "*zulfidin*", "*qaddi nozuk*" singari tasvirlarga tayanib bu otliq yor er kishi emas degan yakunga olib keladi. Bunday sifatlashlar yigitga nisbatan qo'llanilmaydi...

Oshiqqa bu yorning ikki qora ko'zi ikki xil munosabatda bo'luvchi: fatton hiylagar-u sitamkor yaxnigoh; ishvali sehrigar-u xunxo'r qassob; lo'livash g'amzador-u qotilvash jallod; maftunkor oxuxuy-u oshiqkush qattolko'z Yor doim oshiq (yurak) bag'ri qoniga o'ch obraz sifatida gavdalantiriladi. Nafaqat yor, yor iti, yor ko'yi itlari ham oshiq yurak-bag'ri xuniga chanqoq, undan tu'ma – luqma umidvor tarzda aks ettiriladi. Yorning cheksiz noz-istig'nosi shevasini chuqur anglab yetgan niyozmand oshiq o'zga oshiq (raqib) eldan rashki sabab o'z yurak-bag'ri (jigar) qonini har dam ma'shuqa vasli yo'lida hina uchun sadqa qilishga shay. Eslang:

Chiqti ov azmiga javlon aylab ul chobuksuvor,

Jon nisor ul sayd uchunkim jon ong'a qilg'ay nisor.

Buning evaziga oshiq **yordan** faqat va **faqat bir o'tinchi bor**: u ham bo'lsa, o'ziga munosabatda mardumdorlik – **muloyimlik va mardumlig'** (odamiylik) ko'rsatishini juda-juda istaydi. O'ziga muomalada **DILOZORLIK** qilmaslikni o'tinadi. Shu

bois hech ikkilanmay o'z bag'ir xunini yor otiga ham, itiga ham irimli xina uchun berishga har vaqt hozir. Oshiq ilinji nima qilib bo'lsa ham yorga raqib (ag'yor) dan avval yetishmoq uning rishtai maqsadi. Ustoz avvalgi maqolasida ta'kidlaganlaridek, shoir idealidagi manzur bir **malak siymo pari. Shu bois u odam naslidan emasligi vajdan insoniylik – mardumlig' shevasidan olis**. Oshiq bag'ir qoniga tashna **bag'ritosh mardumkush bu Pari** o'z sevguvchilariga dard, hajr, g'am, g'ussa, azob berishga juda o'ch. Garchi hozir HUSN BOG'I – **go'zallik sultonbegimi** ekan, taqdir oshig'i uning qo'lida ekan, bu **vaziyatdan bisyor foydalanib qolishga** urinayotgan bu g'amzador ma'shuqa o'z noz-u ishvasini haddan ziyod ortgani sayin yanada orttirib, husniga bino qo'yib oshiqqa ko'proq jabr-u jafu yetkazib, uni azoblash yo'li bilan bundan huzur olishga intilishini kuzatamiz. Bechora bu ahdiga vafodor va sadoqatli niyozmand har qancha fig'on-u nola, ranj-u alam, hijron-u uqubat, jabr-u alam tortsa-da, og'zining zikri: "**Jonni oti oyog'iga nisor etay**"... Demak, oshiq o'z jonini yor takovari oyog'i ostiga dur donalaridek (yo muzli do'l soqqalaridek) sohib yuborishga har dam hozir-u nozir. Bu oshiqning tilidagi yagona salovati: "**Jon nisor ul sayd uchunkim, jon ang'a qilg'ay nisor**". Voqean, oshiqqa mehr-u vafodorlik, ma'shuqaga esa jabr-u jafodorlik xos ekan. Alhosil, bu misrada shorihlar oldida yechilishi lozim bo'lgan savol: nima uchun oshiq bag'ir qonini yor oti (itiga ham)ga hina uchun berishi kerak?

Yoqar o'lsang iting iligiga hino qonim ila,

Qoyki avval supuray gardini mujgonim ila.

Demak: "Takovarg'a bag'ir qonidan hino bog'la"moqning hikmati: "YOQAR olsang oting (iting) iligiga hino qonim ila" ekan. Oshiqning qalbdagi bosh maqsad rishtasi raqib ulusdan avval ma'shuqa dilini topish (olish) va shu sheva ila yor ko'nglini ishg'ol etmoq, yor yuragiga kirib bormoq ekanligi ayonlashmoqda. Yorning otini tutsalar, yo sekinlatsalar shu imkon sabab badan ichra ruh (jon) idan mosuvo bo'lish ahvolidagi bir g'amzada oshiq ekan. Bu borada hazratning o'zalri shunday deydilar:

Otin tutsalar nogoh **ketar** o'yla **hushumkim**,

Badan ichra ruhimdin degaysan **asar yo'q tur...**

Chobukim raxsh uza hijron yo'lida poya qilib,

Men oning kenicha (itdek) **goh yugurib, goh yiqilib...**

Ey Navoiy **chobukingning istasang pobo'sini**,

Bo'ynig'a ip taqmoq ummedi ila **itdek erish**.

Toki yetkursam **rikobig'a boshimni** koshki,

Qilsa shaklimni **qazo it shakli birla** oshkor.

Men kim-u **o'pmak yuzung ko'zgunini**,

Bas muyassar bo'lsa na'li markabing.

Oshiqqa kun-u tun halovat xotirjamlik bermayotgan yagona ORZI ilinji garchi **“it shakli“ga kirib bo'lsa-da**, Yor oti ayog'iga yo rikobiga yoki na'li markabig'a **yuz surtmoq** ekan...

It kibi necha **samanding** so'ngicha poya uray,

Nogoh o'tsam boqibon sen yana o'tkuncha turay...

Xullas, yor takovari ayoqlariga qon ila “hino” bo'lmoq otliq manzur ayoqlaridan poybus – muchak (o'pich) olmoq orzusi ekan. Oshiq uchun **qiz oyoqlaridan bo'sa olmoq eng qo'l(lab)yetmas biiiiir orzu-ku**, avval itlari poyiga yetishib olsa edi:

Navoiyyo, qo'yako'r itlari oyog'iga bosh,

(Yor)Ayog'ig'a chu malak boshin qo'ya olmas...

O'n beshdan ortiq shu g'azalni tahlil qilishgan shorihlarni ko'p: “...qiyinagan, o'ylantirgan, adashtirgan va hanuzgacha o'z ilmiy, ishonarli yechimini namoyon etmagan” bosh mumammo: “G'azaldagi asosiy lirik qahramon – “qorako'z” kim? “Qaro ko'zum” g'azali tadqiqi tarixida ushbu muammo **boshdan-ayoq bosh masala** sifatida ko'ndalang turibdi”, deya afsus-la kuyinib yozadi nufuzli shorih. Go'yo mazmunan g'azal aniq yoshdagi shaxsga emas, umumlashgan yor timsoli tasviri va oshiq yor iztiroblari asosiga qurilgandek ko'rinadi shorihlarga. “Haqiqatan, bu asar mavhum(roq) ”beadab-u tund xuy'li , mardumlig' shevasidan (go'yoki) yiroq bir abstrakt yorga an'anaviy murojaatdan boshlangan. G'azalning mazmun mundarijasidan anglashiladigan umumiy hissiy ta'sir moyasi – Dard. Bu dard aniq obyekt-tarixiy real shaxsga qaratilmagan. Uning bor jozibasi, sirliligi afsun kuchi ham mana shu adresat umumiyligi, ma'shuqa tasvirining to'liq ochiqlanmaganligidadir, ehtimol”, – deb yozadi ustoz Oqilxon Mavlon. Agar professional olim: “Bizningcha, asarda bor obrazdan chiqib kelishimiz kerak, yo'q narsalarni to'qib chiqarish kerak emas” deb qat'iy hukm bilan chegaralab qo'ymaganida edi, kulliyotdagi o'zga g'azal va baytlarida tasvirlangan otliq yor tavsiflari, harakat-holat chizgi-shtrixlarni qiyoslash, analiz va sintez qilish yo'li bilan (yuqorida biroz bu ishlar aytib o'tildi) ayrim yakunga kelish ham mumkin edi. Hozircha esa bu boradagi munosabatlarimizni **qisman** ochiqladik. Dastlabki yakun: **bu obraz er kishi (yigit) emas...** Bularni Ustoz asarning o'zidan iqtiboslar keltirib **“Qorako'z – sochi boshdin-ayoq chin-u shikanli ma'shuqa (qiz)”** maqolasida isbotlashga uringanlar. Endi bu yor ovchi qizmi yoki shunchaki odatiy otliq manzura chizgilarimi degan savol tug'ilsa, unga bizning muxlisona javobimiz, bu obraz ko'ngil “ovlash” (oshiqlarni hissiy azoblash uchun) **oshiq**

jazmanlarni kuydirishga azmi qaror qilgan, o'z chobuklik mahorati bilan oshiq elni lol qoldirib ulusni bir “o'ldirmak”ni niyatlagan sho'x, shaddod, ishvagar mohir **“ovchi” qiz** deymiz. Hazrat bunday kuydirgich, jozibali ko'ngil ovchisi bo'lgan “sho'xi sitamgar” timsolini bir g'azalida:

Gar menning sho'xi sitamgarim **parizod o'lmasa**, Mumkin ermas, **odamiy bo'lmoqlig' ul miqdor sho'x**, – deya tasvirlaydilar. Bunday ko'ngil “ovchisi” haqidagi shoir xulosasi shunday:

Ul pari paykarki bo'lmish **ins-u jondin** xo'broq, Bor aningdek xo'bkim, **mumkin yo'q ondin xo'broq**.

Shoir ijodiy laboratoriyasining mundarijaviy tavsif va tasvirlariga tayanib yo'lida ko'z gavharini-yu jon javharini nisoriq etmoqqa munosib **bu qalb “ovchisi”** – sho'x, shaddod mohir bir chobuk (suvor) ekanligi ayonlashadi.

Yo'lida aylay fido **ko'z gavharin, jon javharin**,

Ey (Navoiy) oshiq, yetsa ul **chobuk nisorimdur mening**.

Mehmon bo'lsang Navoiyg'a **nisor aylar uchun**, Obro' bo'lg'ay ko'zining mardumi dur poshig'a.

Demak, oshiqqa yor takavori ayoqlariga hina bo'lmoq muyassar bo'lmasa, hech bo'lmasa mahbuba oti tuyoqlaridan qolgan izlaridan poybo' olmoq nasib-u ro'z aylasa edi...

Gar ayog'i raxshining o'pmak muyassar bo'lmasa

Ko'z solib har yerdakim **ko'rsang ayoq bosqonin o'p**.

Hazrat ta'kidlaganlaridek: “Ka'bai maqsud – Vaslin istasang”:

Ne sharaf otingg'a bo'lg'ali **poymol**,

Ne iting poybo'sig'adur **dastras**.

Ushbu baytda oshiq: “Qani edi men uchun sharaf toji bo'lgan takovaring tuyoqlari ostida poymol bo'lmoqlikdek rishtai orzumga yetishmoq uchun avval unung debochasi sanalmish iting poyidan o'pich olish imkoni paydo bo'lsa...” deya niyatlamoqda. Xullas, nihoyat g'amzada oshiq visol yo'lida o'z oshufta joniga:

Qilmam ul bebok keskan na'lni o'pmak havas,

Kim **samndi na'lini o'pmak muyassar bo'lsa bas**, – deb o'ziga tasalli bermoq maqomida sabr etmoqqa mahkum ekanligi oydinlashmoqda. Demak, qiz takovari oyoqlariga hina bog'lash: **Yoqar olsang oting iligiga hino qonim ila**, ekan. Hozircha Navoiy ijodiy laboratoriyasi iqtiboslariga asoslanib bildirishni istagan mulohaza – munosabatlarimiz shulardan iborat, aziz hamkasblar.

Ro'ziboy TANGIROV,
 Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
 mustaqil tadqiqotchisi

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA PEYZAJNING O'RNI

Annotatsiya: o'zbek adabiyotining yetuk darg'alaridan biri Shukur Xolmirzayevdir. Adibning nasr taraqqiyotidagi o'rni beqiyosdir, shu bilan bir qatorda uning hikoyalarida peyzaj tasviri mahorat bilan ijodkorning poetik uslubini yuzaga chiqarish imkonini bergan. Yozuvchining "Bandi burgut" hikoyasi asosida, peyzaj yaratish mahoratiga tahliliy yondashildi. Bir hikoya asosida adibning badiiy mahorati va xarakter peyzaj yaratish jarayonidagi ifoda shakllari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: peyzaj, tabiat, hikoya, tasvir, inson, milliy kolorit, badiiy

Annotation: Shukur Xolmirzayev is one of the most mature poets of Uzbek literature. The role of the writer in the development of prose is incomparable, besides, he skillfully portrays the landscape in his stories and produces the poetic style of the creator. On the basis of the writer's story "bandi burguit", an analytical approach was taken to landscape skills. The artistic skill of a story is based on the analysis and result of the characteristic landscape process.

Keywords: landscape, nature, story, image, human, national, color.

Аннотация: Шукур Холмирзаев – один из наиболее зрелых поэтов узбекской литературы. Роль писателя в развитии прозы бесподобна, а кроме того, он умело изобразил в своих рассказах пейзаж, позволил раскрыть поэтический стиль творца. На основе рассказа писателя «Банди бургит» осуществлен аналитический подход к мастерству создания пейзажа. На основе рассказа проанализировано художественное мастерство писателя и формы выразительности в процессе создания пейзажа персонажа

Ключевые слова: пейзаж, природа, сюжет, образ, человек, национальный, колорит.

Badiiy asarda tabiat tasviri peyzaj deyiladi. Peyzaj asar voqealari sodir bo'layotgan joyni tasavvur qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, peyzaj o'quvchida ma'lum bir kayfiyat uyg'otishi yoki qahramaonlar ruhiy holatini tushunishga yordam berishi ham mumkin. So'z san'atkorlari tabiatni yaxshiroq ko'rish, eshitish va anglashni, u orqali o'z his-tuyg'ularini, kayfiyatini aks ettirishni o'rgandilar.

Tabiat tasvirlarida yozuvchi ona yurt tuyg'usini, o'z xalqining ruhini, vatanparvarlik, mualliflik pozitsiyasini ifodalay olgan. Tabiat go'zalligi bilan solishtirganda qahramonlar xarakteri, fikr-mulohazalari, xatti-harakatlari yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar san'at, falsafa va estetikaning diqqat markaziga aylandi. Peyzaj adabiyotda XVIII asrdan boshlab ahamiyat kasb eta boshladi. Va allaqachon XIX asrning ikkinchi yarmida adabiy manzaraga oid bir qancha batafsil tadqiqot ishlari mavjud edi.

Peyzaj - filologiyada tez-tez qo'llaniladigan, lekin shu bilan birga, noaniq ta'riflangan tushunchalardan biridir. Fanda peyzajni tasvirlashning yagona tipologiyasining yo'qligi nafaqat tadqiqotchilarning turli yondashuvlari, balki badiiy matn doirasida obyektning o'zining ko'plab navlarining mavjudligi bilan izohlanadi. Adabiyotshunoslar tomonidan bildirilgan shubhasiz fikrlar adabiy matnning

peyzaj tomonini o'rganish zarurligini va asarning butun g'oyasini tushunish uchun bunday tahlilning ahamiyatini aniq ko'rsatib beradi.

Peyzajlarning berilgan nomlari tabiatni tasvirlash shakllari va ularning badiiy asardagi vazifalari naqadar xilma-xilligini ko'rsatadi. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev peyzaj haqida qarashlarini shunday ifodalaydi "Peyzajning birinchi va oddiy vazifasi tasvir kechayotgan joyni anglatishdan iborat. Bir qarashda jo'ngina ko'ringan bu vazifaning o'quvchiga ko'rsatadigan estetik ta'siriga nopisand yondashib bo'lmaydi. Ko'pgina hollarda badiiy asardagi voqea sodir bo'lgan joy tasviri syujet rivoji yoki kayfiyat va ruhiy holat ifodasi uchun katta ahamiyat kasb etadi".

Tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro ta'sir muammosi, go'zallik va axloq dunyosi Shukur Xolmirzayev ijodida o'z timsolini topdi. Shukur Xolmirzayev tabiat va inson munosabatlariga oid adabiyotlarning asosini tashkil etgan adiblar bilan birgalikda "Tabiatni muhofaza qilish - Vatanni himoya qilish" degan g'oyani e'lon qildi.

Darhaqiqat, tabiatni sevgan kishigina qushlar, daraxtlar, maysalar, hashoratlar, jilg'alar tilini tushuna oladi. Zero, ona tabiatning har bir zarrasi takrorlanmas mo'jiza sanaladi. Bu qadimiy va boqiy tabiat falsafasini o'qib olish uchun kishida shoirona yurak bo'lishi kerak. Chunki bulbullarning xonishi shunchaki sayroqi qush ovozi emas,

balki betakror qo'shiq. Chumolilar, o'rgimchaklar, hatto jilg'alarning ham o'z qo'shig'i bor. Faqat bu qo'shiqlarni tushunish uchun tabiat bilan til topa bilish iqtidori zarur. Olam go'zalliklarini sevuvchi qalb sohiblaridan ona tabiat ham o'z marhamatini darig' tutmaydi: bunday kishilarga so'z sehri ila mo'jizalar yarata olish iqtidori berilgan. Tabiatni yuqori darajadagi estetik did bilan badiiy aks ettirish uchun ijodkor uni yurakdan his eta bilishi zarur"

Shukur Xolmirzayevning "Bandi burgut" hikoyasidagi Rais bobo va uning o'g'li Yo'ldosh bilan suhbatiga misol bo'la oladi:

– Rahmdillik — yaxshi narsa, - dedi. - Sizlarning yoshlaringda bo'lganimda, men ham shu fikrni aytgan bo'lardim ehtimol... Biroq yigitchalar, bilib qo'yinglarki, bizning falsafamizda hamma narsa inson uchun, deyiladi. Tabiat ham, gullar ham, mana shu burgut kabi qushlar ham. Ulardan zavqlanishimiz lozim. Ana shuning uchun ham bizda zooparklar bor, qo'riqxonalar bor. Biz noyob parrandalar va kamyob hayvonlarni asraymiz. To'g'ri, ularning o'rgatilgan bo'lishlari shart emas.

– Albatta, albatta, - dedi o'qituvchi, - sirkning yo'rig'i boshqa.

– Balli, - deb davom etdi uy egasi. - Lekin biz bu shunqor qushni xonadonimizga o'rgatmoqchidik. Bir hisobda shuning uchun ham uning bu yerda turishiga ruxsat etuvdim...

– Lekin o'rganmadi. O'rganmas ekan, - dedi Yo'ldosh otasining nima demoqchi ekanini anglagandek, - Bo'zmergan aytdilar...

– Ana bu boshqa gap, - deb yana tabassum qildi otasi. - Demak, buning joyi - bu yer emas.

– Demak, buning joyi - osmon! - deb yubordi Yo'ldosh va men yengil tortib ketdim- E, yo'-o'q, - deb bosh chayqadi otasi va... Yo'ldoshboy yig'lab yubordi.

– Buning joyi, buning joyi... saroy-da, a? Ayting, to'g'risini, dada! Ayting... Yo'q, aytmaydiz hozir. Ammo men bilaman: siz buning terisini shilib, Bo'zmerganga berasiz, U ustasiga oborib, chuchula

qildirib keladi." Rais burgutning terisini shilib chuchula qildirmoqchi bo'lganida Yo'ldosh otasiga aniq qarshilik ko'rsatadi. Yoki ikkinchi holat bola Yo'ldoshlarning uyiga borgan ilk kuni: "Darvoqe, bir muhim narsa yodimdan ko'tarilibdi.

Bu yozuvchining o'ziga xos stili, demak, peyzaj tasviriga yuklangan vazifalari bilan bog'lanadi. Uning asarda bajaradigan vazifalari ham xilma-xildir, lekin ularning hammasi asar g'oyasi bilan, yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrlar bilan, estetik maqsadlar bilan uzviy bog'langandir. Peyzaj qahramonlar harakatlariga sharoit yaratish, paytni belgilash, muayyan sharoitdagi holatini, kayfiyatini ta'kidlash, voqealar rivojiga ta'sir etish kabi xususiyatlari bilan asarning g'oyaviy yo'nalishida juda muhim o'rin tutadi", deydi olima.

Darhaqiqat, san'at asarida tabiat rasmlari tasodifan paydo bo'lmaydi va har doim katta semantik yukni ko'taradi. Ular, odatda, harakatlar uchun hissiy jihatdan boy fon yoki muallifning ichki dunyosini aks ettirish shakli sifatida ishlaydi. Biroq, adabiy asar tuzilishidagi peyzaj bajaradigan vazifalar ro'yxati bu bilan tugamaydi.

Xulosa: milliy kolorit yaratish funksiyasi sifatida. Adabiy asardagi manzara kamdan-kam hollarda, umuman olganda, u milliy o'ziga xoslikka ega. Tabiatning bunday maqomdagi tasvirlari ba'zan vatanparvarlik tuyg'ularining ifodasiga aylanadi. Yozuvchi hikoyalaridagi tabiat, bir tomondan, ma'lum bir o'z-o'zini ta'minlovchi xususiyatga ega ekan, u insondan mustaqil holda mavjuddek tuyuladi. Boshqa tomondan, hatto xronotopik peyzaj parchalarida ham bevosita yoki bilvosita xarakter dunyosi, uning ongi, tabiat olami sirlari, uning qonuniyatlari va ritmlarini inson hayoti bilan bog'lash istagi namoyon bo'ladi. Bundan ham aniqroq aytganda, insonning ichki holati, ma'naviy dunyosi bevosita qahramon rivoyatchi idrokida berilgan psixologik manzaralarda namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolmirzayev Sh. Saylanma. III jildlik. 3-jild. Hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2006.
2. Yo'ldoshev Q., Yo'ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. Adabiyot va peyzaj. Munavar Farmonova – Navoiy davlat pedagogika insituti, 2008
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining darsligi, yangi nashr . – Toshkent, 2022

Maxmuda TADJIBAYEVA,
 Toshkent kimyo-texnologiya instituti O'zbek tili
 va professional ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi
Maftunaxon TO'LQINOVA,
 Professional ta'lim yo'nalishi talabasi

TA'LIM OLUVCHILARNING BILIMLARINI SINASHDA VA MUSTAHKAMLASHDA O'YINLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'yinli ta'lim texnologiyalarining afzallik va kamchiliklari, shuningdek, ta'lim oluvchilarning bilimlarini sinash va mustahkamlashda "Baliq ovi" o'yinli texnologiyasining ahamiyati va qo'llash texnikasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: metod, o'yinli texnologiya, bilimlarni sinash, motivatsiya, faollik.

Аннотация: в данной статье описаны преимущества и недостатки игровых образовательных технологий, а также значение и приемы применения игровой технологии «Рыбалка» при проверке и закреплении знаний учащихся.

Ключевые слова: метод, игровая технология, проверка знаний, мотивация, активность.

Annotation: this article describes the advantages and disadvantages of game educational technologies, as well as the importance and methods of using the game technology "Fishing" when testing and consolidating students' knowledge.

Key words: method, gaming technology, knowledge testing, motivation, activity.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi muammoli ta'lim, interfaol metodlar, o'yinli texnologiyalardan keng qo'llanilmoqda.


O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

O'yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash, umumta'lim malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini

rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.

O'yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtayi nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi. Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog'ishtirish, o'xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o'quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan.

Xuddi shunday interfaol ta'lim jarayonining yanada qiziqarli va samarali o'tishini ta'minlab beruvchi o'yinli texnologiyalardan biri bu "Baliq ovi" o'yini hisoblanadi. Bu o'yin bizga dars jarayonini jonlantirish va ta'lim oluvchilarda darsga bo'lgan ishtiyoqini yanada kuchaytiradi va o'tilgan dars jarayonini ta'lim oluvchining hotirasida saqlanib qolishiga juda katta yordam beradi. Bu o'yinimizni



qanday tashkil etamiz?

Biz hozir "Baliq ovi" o'yinini "Anorganik birikmalarning eng muhim sinflari" mavzusi yuzasidan o'tkazamiz.

"Baliq ovi" o'yinini qo'llash texnikasi quyidagicha bo'ladi.

1. Rangli qog'ozlarda biz baliqlarni yasaymiz.
2. Savollar tuzamiz.
3. Tuzilgan savollar yasalgan baliqchalar ortiga yashiriladi va A3 qog'ozdagi dengiz rasmiga joylashtiriladi.

Rasmdagi kabi raqamlash onlayn tarzda tashkil etiladigan darslar uchun muhim sanaladi.

Quyida baliqlar ortiga yashiringan savollar namunasi keltirilgan:

1. Oksidlarning kimyoviy xossalarini yoritib bering?
2. Tuzlar qanday nomlanadi?
3. Normal tuz bilan nordon tuz bir-biridan qanday farqlanadi?
4. Asoslarning olinishini misollar orqali tushuntiring.
5. Kislotalar qanday klassifikatsiyalarga bo'linadi?
6. Kislotalarning kimyoviy xossalarini kimyoviy formula orqali yoritib bering?

Savollarni bitta mavzu bo'yicha va bitta bo'lim bo'yicha qilinsa ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Ta'lim oluvchilarni soniga qarab ikki yoki uch guruhga bo'lib olamiz va o'yinni boshlaymiz.

Har bir guruhdan bittadan talaba chiqib daryodan bir baliqni ovlaydi va baliq ortidagi savolga javob beradi, agar bu talabamiz baliq ortida yashiringan savolga to'g'ri javob bera olsa, o'z guruhining akvariumiga baliqni qo'yib yuboradi. Talabamiz baliq ortida yashiringan savolga to'g'ri javob bera olmasa, baliq qayta daryoga qo'yib yuboriladi. Mazkur qismida agar raqib guruh ishtirokchisida savolga javob borligi ma'lum bo'lsa, uni tinglashimiz va to'g'ri javobni bizga taqdim qilgan bo'lsa baliqni raqib ishtirokchiga berishimiz kerak bo'ladi. Bu yerda biz guruhlarga qo'shimcha baliq ishlash imkoniyatini yaratgan bo'lamiz. Xar bir guruh o'zining navbati kelganda o'z ishtirokchisi baliqdagi savolga to'g'ri javob bera olsa

5 ball, guruhdan yordam olsa 4 ball, raqib guruh javob bersa 3 ballni qo'lga kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu tarzda o'yinimiz davom etadi. O'yin oxirida akvariumdagi ovlangan baliqlar soni aniqlanib natijasiga ko'ra baholanishadi. Agarda baliqlar soni teng bo'lib qolsa bizga oltin baliq yordamga keladi.

Oltin baliq ovlashga ruxsat etiladi, bu oltin baliqimiz orqasida esa 3 ta savol yashiringan bo'lib shu savollarga javob berishlari shart bo'ladi.

Mag'lub bo'lgan guruh ishtirokchilari ham baho olish uchun oltin baliqni yordamga chaqirishlari mumkin, ular ham uchala savollarga javob bersalar o'z bilimiga va ishtirokiga qarab a'lo baholanishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, barcha o'yinlarda o'yinchi o'yin shartlarini tezda o'zlash-tiradi va o'ziga belgilangan vazifani qabul qiladi. Ya'ni, bu holat ta'lim oluvchilarda mas'uliyat hissini tarbiyalaydi. O'yin qoidalarini bajarish jarayonida o'yinchi o'zining maqbul qarorlarini o'yindagi muammolarni hal qilishda erkin qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'yindagi musobaqa esa shaxsiy sifatning tinmay yaxshilanib borishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, shunchaki og'zaki savol-javobdan ko'ra baliqlar ortiga yashiringan savollar o'quvchi-talabalarga qiziqarli bo'ladi, motivatsiya uyg'otadi. O'z guruhiga baliqlar yutib olish uchun, savollarga javob berish jarayonida xotirasidagi bor bilim va ko'nikmalarini ishga soladi. Guruhda ishlash ko'nikmalari shakllanadi. O'z guruhidagilarni, shuningdek boshqa guruhdagilarni ham fikrlarini tinglay olish xususiyati paydo bo'ladi. O'yinli texnologiyalardan to'g'ri maqsadlarda foydalana olsak, albatta ko'zlagan maqsadimizga, ya'ni, bilim oluvchilarni kelajakda o'z qobiliyatlarini takomillashtirishi, kasbiy faoliyatida to'g'ri foydalana olishi va albatta komil inson sifatida shakllanishiga erishamiz.

"Baliq ovi" o'yini orqali talabalarni o'zlashtirgan bilimlari sinaladi va mustahkamlanadi, guruhda ishlash qobiliyati rivojlanadi, mas'uliyat hissini shakllantiradi, talabalarni darsga qiziqishini uyg'otib, faolligini oshiradi. Demak, mazkur o'yinli texnologiya orqali biz ham ta'limiy, ham tarbiyaviy maqsadimizga erisha olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O.U.Avlayev., S.N.Jo'rayeva, S.R.Mirzayeva. Ta'lim metodlari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: "Navro'z", 2017. 208-bet.
2. O'.X. Muxamedov, M.H. Usmonboyeva, S.S. Rustamov "Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar". – T.: 2016.
3. D.I. Alimdjanova, I.T.Aliyev "Kimyo va oziq-ovqat texnologiyasiga oid fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar". –Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2015.
4. R.Ishmuxamedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. –T., 2013. 279-bet.

Shodmonoy ABDUG'ANIYEVA,
 Fan va texnologiyalar universiteti
 Ijtimoiy fanlar fakulteti
 Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

SANOGEN FIKRLASH TALABALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Annotatsiya: ushbu maqola talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda sanogen fikrlashning muhim omillardan biri sifatida ta'kidlaydi. Bundan tashqari, maqolaning mazmunida sanogen fikrlashga nazariy ta'rif va uning amaliy natijalari haqida ham fikr-mulohaza yuritildi.

Kalit so'z va iboralar: talabalar, sanogen fikrlash, shaxsning tarkibiy qismlari, o'z-o'zini anglash, pedagogik qobiliyatlar, xulq-atvor.

Аннотация: в данной статье подчеркивается саногенное мышление как один из важных факторов развития коммуникативной компетентности студентов. Кроме того, в содержании статьи обсуждается теоретическое определение саногенного мышления и его практические результаты.

Ключевые слова и фразы: студенты, критическое мышление, компоненты личности, Я-концепция, педагогические умения, поведение.

Annotation: this article emphasizes sanogenic thinking as one of the important factors in the development of communicative competence in students. In addition, the content of the article discussed the theoretical definition of sanogenic thinking and its practical results.

Key words and phrases: students, critical thinking, personality components, self-concept, pedagogical skills, behavior.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, hayot sur'atlarining tezlashishi, shiddatli raqobat sharoitida mehnat bozorida insonlarga qo'yiladigan yangi talablarning paydo bo'lishi, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning turli sohalarida globallashtirishning kuchayishi ijtimoiy hayotda hal qilib bo'lmaydigan muammolarning paydo bo'lishiga olib keldi. Ko'pincha odam o'zining psixologik beqarorligi tufayli vaziyatni yaxshi tomonga o'zgartira olmaydi, bu uning hayotiy dunyosini yo'q qilishga sababchi bo'lib qoladi. Binobarin, shaxsning psixologik barqarorligini o'rganish muammosi zamonaviy psixologiya uchun yanada keskin va zarurligi yuzaga chiqib boshlaydi.

Hozirgi vaqtda fanda o'qituvchi shaxsining tarkibiy qismlarini, uning faoliyati va muloqotini, uning kasbiy kompetensiyasining xususiyatlari va o'ziga xosligi haqida turli xil qarashlarni aniqlashga turli xil yondashuvlar mavjud. Ma'lumki, o'qituvchi shaxsi tuzilishining eng muhim tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: kasbiy pedagogik yo'nalish, kasbiy faoliyat, kasbiy bilim va ko'nikmalar, kasbiy pedagogik qobiliyatlar, kasbiy o'zini o'zi anglash.

O'qituvchi faoliyatining xususiyatlari bilan bog'liq ba'zi tushunchalar chuqur o'rganib chiqishni talab qiladi. Masalan, o'qituvchi kasbiy o'zini o'zi anglashi.

O'qituvchining kasbiy o'zini o'zi anglashi — bu o'zini professional sifatida bilish, faoliyatda va pedagogik muloqotda namoyon bo'ladigan shaxsiy xususiyatlari. Kasbiy o'z-o'zini anglash umumiy o'z-o'zini anglash bilan ham umumiy xususiyatlarga, ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Umumiy o'z-o'zini anglash kabi o'z tarkibiga o'z-o'zini bilish, hissiy-qadriyat munosabati,

o'z-o'zini hurmat qilish, o'z-o'zini tartibga solish va o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarini o'z ichiga olganligi bilan belgilanadi.

O'qituvchining o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar, ma'muriyat va o'zi bilan o'zaro munosabatda bo'lgan shaxsiy xususiyatlari va xulq-atvor xususiyatlari ma'lum bir qolipda baholanadi va tartibga solinadi. Demak, o'z-o'zini bilishning obyektlari quyidagilar bo'lishi mumkin: kasbiy-pedagogik yo'nalish, pedagogik qobiliyatlar, maxsus bilim va ko'nikmalar, o'z faoliyati darajasi, faoliyatning pedagogik uslubi va boshqalar. Ammo o'zini umuman shaxs sifatida idrok etish va o'zini professional sifatida qabul qilish o'rtasida tafavut bo'lishi mumkin.

Muammo yuzasidan to'plangan manbalar, adabiyotlarni o'rganish natijasida o'qituvchining o'z-o'zini professional tahlil qilishni qoniqarsiz o'zlashtirganligiga guvoh bo'lindi va bu refleksiv pozitsiyani egallash qobiliyatiga bog'liqligiga amin bo'lindi. Bu o'z faoliyatining turli tomonlarini, shaxsiyatini (xislatlarini), xatti-harakatlarini noto'g'ri baholashda namoyon bo'ladi va samarali o'zaro ta'sirga va pedagogik muammolarni hal qilishga halaqit beradi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida kuchli bilim olish, bilimli bo'lish istagi va yuksak madaniyatga ega bo'lish har bir talaba uchun zaruratga aylangan. Bu yangi shakllanishda faoliyat olib borayotgan bo'lajak o'qituvchi-kadrlar tayyorlashga ham tegishli. Ularning har biri strategik qarash, chuqur bilim va yuqori malaka bilan islohotlar tashabbuskori sifatida harakat qilishi kerak. Lekin hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun

ko'p fikrlash turlariga ega bo'lishi zarurati ham bugungi kunning yetuk talabi darajasiga yetmoqda, masalan: tanqidiy, analitik, mantiqiy, shu jumladan, sanogen.

Sanogen fikrlash — his-tuyg'ularni boshqarishga qaratilgan sog'lom fikrlash demakdir. Psixolog Y.M. Orlov tomonidan taklif qilingan mazkur konsepsiya shunday kontekstda sanitariya fani deb atalib, keyinchalik sanogenik fikrlash o'qitish nazariyasi va amaliyotiga aylandi. Uning konsepsiyasiga ko'ra fikrlash inson hayotining sifati, shu jumladan, hissiy soha sifatining ta'siri nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Asosiy funktsiya fikrlash — xulq-atvor va omon qolishni ta'minlash va qanchalik yaxshi fikrlash vazifasini bajaradi, bu esa inson farovonligiga bog'liq.

Shu boisdan ham bo'lajak o'qituvchilarda, ya'ni talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivoj toptirish uchun sanogen fikrlashdan foydalanishga e'tibor berish tavsiya etilmoqda. Bunda dastavval, sanogen fikrlash tushunchasiga to'xtalish lozim deb topildi.

Sanogenik fikrlash tizimi har bir insonning erkinlik salohiyatini oshiradi va bu uning kuchiga aylanadi. Fikrlashning refleksivligi sanogenlikning asosidir, chunki ichki dialog odamga dunyoni tabaqalashtirilgan va yaxlit ko'rishning barcha turlari uchun asos beradi.

- pedagoglar o'rtasida vazifalarning taqsimlanishini;
- ta'lim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini monitoring etishni taqozo etadi.

Zamonaviy texnologiyalar asosidagi pedagogik faoliyat:

- ta'limning texnologik asosini tez rivojlanishi bilan bog'liq ravishda kurslarni yaratishdagi murakkab jarayonning yengillashuvini;
- o'quv kurslarini yaratishda maxsus malakalarning shakllanishini;

– kurslarning ochiqligi tufayli ularning sifatiga bo'lgan talablarning va o'quv materiallarining sifatini nazorat qilishga ehtiyojlarni;

– o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil faoliyatining ahamiyati ortishini, o'quv jarayoni salmog'ini pedagogdan o'quvchiga ko'chishini;

– o'quv jarayonini tashkil etishda o'quvchi shaxsiy ishtirokining ortishini;

– zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida pedagogning har bir o'quvchi bilan teskari aloqasining vujudga kelishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda xususiy maktablarning ta'lim jarayonini takomillashtirishda qator yechimini topmagan muammolar mavjud. Bu muammolar ta'lim sohasini

axborotlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida pedagog kadrlar tayyorlash, pedagoglarning zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish malakasining yetarli emasligi bilan bog'liq bo'lmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari ta'limda keng qo'llanilishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan quyidagi sabablarni alohida qayd etish mumkin:

- ta'limni axborotlashtirishga pedagogik jamoalarning yetarli darajada tayyor emasligi;
- kompyuter o'rgatuvchi dasturlarning imkoniyatlari haqida tasavvurlarning, ularni qo'llash bo'yicha metodik ishlanmalarning yetarli emasligi;
- ta'limda axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislarining yetishmasligi.

Hozirda xususiy maktablar zamonaviy kompyuter, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlangan. Bu o'z navbatida, pedagoglarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi pedagogni o'quv jarayonida ta'lim vositalari asosida faoliyat doirasining cheklanishiga emas, balki uning

vazifalari, rolining o'zgarishiga, pedagogik faoliyatning mukammallashuviga olib keladi. Endi pedagog:

- o'quv kurslari dizayneri – o'quv kurslarini yaratuvchi;
- o'qitish metodlari bo'yicha maslahatchi;
- tyutor – o'quv kurslarini interaktiv taqdim etish bo'yicha mutaxassis;
- ta'lim natijalarini nazorat qilish usullari bo'yicha mutaxassis bo'lishi talab etiladi.

O'quvchidan ijodiy fikrlash, olingan natijalar bilan o'rtoqlashish, qiziqishlarni muvofiqlashtirish, hamkorlik va muloqot talab qilinadi.

Xususiy maktablarning ta'lim jarayonini takomillashtirish texnologiyalarini tanlashda eng samarali yo'llardan biri – bu multimediali yondashuvdir.



O'quv jarayoni uchun texnologiyalarni tanlashda quyidagi muhim omillarga e'tibor qaratish zarur:

- o'quv jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanib, ta'limning maqsadlariga erishishni ta'minlashning muhimligi;
- eng zamonaviy, qimmatbaho texnologiyalar bilan bir qatorda, arzon va an'anaviy texnologiyalar ham samara berishi mumkinligi;
- o'qitish natijalari axborot va kommunikatsiya yoki axborot texnologiyalarining turiga qarab emas, balki kurslarni yaratish, ularni uzatish sifatiga bog'liqligi;
- texnologiyalarni tanlashda talabalarning shaxsiy xususiyatlariga, fan sohasining o'ziga xos tomonlariga, o'quv mashg'ulotlarining topshiriqlari va mashqlarining mazmuniga e'tibor qaratish.

Ta'lim mazmunini va uning sifatini yaxshilash masalalari ustuvor yo'nalish sifatida qaralayotgan hozirgi paytda xususiy maktablar ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish uning rivojlanishiga va samaradorligining oshishiga zamin yaratadi.

Xususiy maktablarning ta'lim jarayonini

takomillashtirishda pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish dasturlashtirilgan o'qitish g'oyasini rivojlantiradi, pedagogik va axborot texnologiyalari quyidagi variantlarda namoyon bo'lishi mumkin:

I. «Kirib boruvchi» texnologiyalar (alohida mavzular, bo'limlar bo'yicha ma'lum bir didaktik masalalar uchun kompyuter o'qitishni qo'llash).

II. Asosiy, qo'llanayotgan aniq texnologiyadan o'ta muhim qismini aniqlovchi.

III. Monotexnologiyalar (ta'lim, o'quv faoliyatini boshqarish, tashxis va monitoringni amalga oshirishda kompyuterlarni qo'llashga asoslanadi).

Xususiy maktablarning ta'lim jarayonida bu texnologiyalarni qo'llash orqali fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalari vositalari bilan jihozlangan o'quv sinflarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu ta'lim jarayonining barcha jabhalariga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, o'quv materiallarini namoyish etish imkoniyatlari yuqori ekanligi, sun'iy intellekt g'oyalarning joriy etilishi, o'quvchilarga ko'plab axborotlarni tez va oson yetkazish bilan bog'liqdir. Ikkinchi tomondan, bu texnologiyalar ta'lim mazmuniga har xil evristik vositalarni kiritadi hamda integratsiyalashgan o'quv fanlarini yaratishga real imkoniyat vujudga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aripov M. Internet va elektron aloqa asoslari. – Toshkent: Universitet, 2000. 132-b.
2. Begimkulov U.Sh. Oliy pedagogik ta'lim muassasalarining yagona axborot makonini tashkil etish va uni rivojlantirish istiqbollari // J. Xalq ta'limi. – Toshkent, 2006. № 4. 4–7-betlar.
3. Begimkulov U.Sh. Ta'lim muassasalarida yagona axborot-kommunikatsiya muhitini tashkil etishning metodik asoslari // J. Pedagogik ta'lim. – Toshkent, 2006. № 4. 61–64-betlar.
4. Sayidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. – Toshkent: RTM, 2000. 46-b.

Sabohat MUXAMMADOVA,

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi tayanch doktoranti*

BOYLIK VA KAMBAG'ALLIK MAVZUSIDAGI O'ZBEK MAQOLLARINING TUZILISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada maqolga berilgan turlicha ta'riflar yoritilgan bo'lib, ular asnosida o'zbek xalq maqollarining tuzilishi, ifodalanishi misollar bilan birgalikda keltirib o'tilgan. Maqollar zamonlar o'tsa ham o'z qadrini yo'qotmaganligini, har qanday vaziyatda ham, zamonda ham foydalanilishi, qiymatli ekanligi ushbu maqolada o'z aksini topgan va shu bilan ishning dolzarbligini ham oshirgan.

Kalit so'zlar: *til, paremiologiya, maqol, tarix, folklor.*

Annotation: in this article, various definitions of proverbs are explained, and the structure and expression of Uzbek folk proverbs are mentioned along with examples. The fact that proverbs have not lost their value even after the passage of time, that they can be used in any situation and in any age, is reflected in this article, thus increasing the relevance of the work.

Key words: *language, paremiology, proverb, history, folklore.*

Аннотация: в этой статье объясняются различные определения пословиц, а также приводятся примеры структуры и выражения узбекских народных пословиц. В данной статье отражено то, что пословицы не потеряли своего значения даже с течением времени, что их можно использовать в любой ситуации и в любом возрасте, что повышает актуальность работы.

Ключевые слова: *язык, паремология, пословица, история, фольклор.*

Til o'z millatining o'ziga xos madaniyatini aks ettiradi, ayniqsa, maqollar xalqning milliy xususiyatlari va madaniyatini aks ettirishda katta o'ringa ega. Maqollarda nafaqat xalqning urf-odatlarini, milliy tushunchalari, balki tarixiy maskanlari, xalqning atoqli shaxslari, mashhur shaxslari ham o'z ifodasini topgan.

Boyning qizi - sepi bilan,

Yo'qning qizi - ko'rki bilan.

Borga - bozor, yo'qqa - guzar.

Boy bo'lsang, kunda hayit, kunda to'y,

Yo'q bo'lsang, kunda hasrat, kunda o'y. [4:12]

Maqol – xalqqa ma'lum, takrorlanadigan va to'liq aytilgan aniq gap; ular sog'lom fikrga yoki odamlarning amaliy tajribasiga asoslangan haqiqatni ifodalaydi. Atoqli tilshunos V. Mider o'z kitobida maqolga shunday ta'rif beradi: "A proverb is a short, generally known sentence of the folk which contains wisdom, truth, morals, and traditional views in a metaphorical, fixed and memorable form and which is handed down from generation to generation" [3:27]. Darhaqiqat, maqol –

xalqning qisqa, hammaga ma'lum bo'lgan gapi bo'lib, unda hikmat, haqiqat, axloq va an'anaviy qarashlar majoziy, turg'un va esda qolarli shaklda ifodalanadi va avloddan avlodga o'tib keladi. Ta'rifdan ma'lumki, maqollar odatda, metaforaga asoslanadi va majoziy ma'noga ega.

Salomatlik - tuman boylik.

*Boy qiysa — qulluq bo'lsin!
Kambag'al qiysa — qayoqdan olding?*

Garchi bir qancha olimlar maqol tushunchasiga ko'plab ta'riflar bergan bo'lsalar ham, Mider ta'rifi ular orasida eng yaxshisi hisoblanadi. Chunki maqol tilning oddiy birligi emas, u hikmatli so'zlar yoki xalq – millatning an'anaviy fikrlari bilan majoziy ma'no beruvchi tayyor gapdir.

Kambag'al - piyoda,

Boy - tuyada.

Maqol – uzoq vaqt davomida ma'lum bir xalqning ijod mahsuli hisoblanadi. Ular yillar va asrlar davomida inson hayotining odatiy holatlarining ramkalari yoki modellari sifatida uzatiladi [2:15].

Yirtiq to'nni it qopar.

Ch. Doyl ularni adabiyotdagi minimal xalq she'rlari sifatida tadqiq qilishni taklif qiladi, chunki ular dialoglarni jonlantiradi, she'r yoki nasrga turli yo'llar bilan ekspressivlik va hissiyot beradi [1:4].

Folklor va tilshunoslik fani maqollarni o'z obyekti sifatida o'rganadi, ayrim olimlar (Teylor, Seyler, Fert, Mider va boshqalar) xalq og'zaki ijodida maqollarni o'rganishning asosiy sababi ularning an'anaviyligi

*Kambag'alning baxti
Boyning taxtini yiqitar.*

ekanligini o'z asarlarida ta'kidlaganlar. Shubhasiz, folklor birliklari an'anaviy va takroriydir; N. R. Norrik ta'kidlaganidek, "seen as authorless, sourceless and also as non-literary, non-learned" [1:10]. Darhaqiqat, ular muallifsiz, manbasiz, shuningdek, adabiy bo'lmagan, o'rganilmagan sifatida ko'riladi. Maqollar bu xususiyatlarga ega, ammo to'liq emas. Shu bilan birga, ular folklor birligi sifatida ham tadqiq qilinadi va maqol iboralar, klishelar, idiomalar, aforizmlar, valerizmlar, xurofotlar, maksimlar va shiorlarni farqlaydi.

*Boyning bir yo'qligi,
Ochning bir to'g'riligi. [4:24]
Yetimchadan boy chiqsa,
Ayron bermas icharga.*

Tilshunoslik maqollarni idioma va iboralarni ham ajratadi; shu bilan birga ularni gap, bo'lak, so'zlashuv navbati, nutqiy harakat kabilar sifatida tahlil qiladi.

Maqol tilshunoslikda ko'chma ma'noga ega frazeologik birlik sifatida qaraladi va nutqda hosil qilishi mumkin bo'lgan to'liq gapga ko'ra gapga teng bo'ladi.

*Boyning jon bergani bilinmas,
Kambag'alning - non bergani.*

Kambag'al non yeydi,

Boy - qon.

Maqollarda ko'pincha joy nomlari, mashhur kishilarning nomlari, tarixiy hamda diniy voqea va rivoyatlar, milliy tushunchalar komponent sifatida ishlatiladi. Bu nomlarning maqollarda qo'llanilishi maqolning ma'nosini kuchaytirib, uni qisqa, ixcham va

*Boy boy uchun tirishar,
Kambag'al kambag'alga bo'lishar.*

yorqin qiladi [5:36].

Boy ham boyga,

Xudo ham boyga.

Bek gapirsa, bekniki ma'qul,

Xon gapirsa – xonniki.

Ayrim maqollarda parallel qurilish va olmoshlarning mavjudligi ularning evfonik shaklini ta'minlaydi.

Moling borida - ana do'st,

Moling yo'g'ida - qani do'st.

Bozorda bari bor,

Puling bo'lmasa, nari bor.

Boyning ko'zi - bola,

Yo'qning ko'zi - loy.

Boyning ishi farmon bilan,

Yo'qning ishi armon bilan.

Bu vaziyatdan kelib chiqib, olim Ch.

K. Doyl she'riy shaklga ega bo'lgan maqollarni "minimal xalq she'rlari"

(kichik xalq she'rlari) deb atashni taklif qiladi.

Maqollar og'zaki nutqimizda umumiy til birliklari bo'lib, ular xalqning ijtimoiy hayoti, tarixi, tajribasi va madaniyatini aks ettirib, nasriy va she'riy shaklga ega. Bu hikmatli so'zlarning ba'zilari badiiy bo'yoqlari bilan boshqalardan ajralib tursa, boshqalari xalq tilidagi soddasozlardan iborat bo'lib, xalq tilida vujudga keladi.

Kambag'alning bir to'ygani - chala boyigani

Kambag'alning boyligi - tanning sog'ligi.

*Yalang'ochlik uyga kirgizar,
Ochlik ko'cha kezdilar.*

Bu obrazli til birliklari turli semantik xususiyatlarga ega. Ularning qisqa va ixcham mazmuni xalqning buyuk fikr, g'oya va nasihatlarini qamrab olgan.

Maqollarning shakllanish jarayoni uzoq davom etishi bois, ular tilga yangi tushuncha va ularni ifodalovchi so'z va gaplarni kiritish uchun ma'lum vaqt kerak bo'ladi. Shuning uchun jamiyat va tildagi o'zgarishlar maqollarda ma'lum vaqt o'tgachgina namoyon bo'ladi. Bir necha so'zdan tuzilgan maqollar turg'un birikma sifatida tilga kirib, o'zgarmas mazmunga ega bo'ladi. Maqollar odatda nutq jarayonida mazmunini o'zgartirmasdan qo'llaniladi.

Maqollar ham fikrni bevosita yoki mantiqiy ifodalashi mumkin. Har bir maqol vaziyat yoki hodisaga ijobiy yoki salbiy munosabat bilan ishlatilishi mumkin. Ana shu xususiyatlariga ko'ra maqollarda turli uslub vositalari keng qo'llaniladi va ular xalq og'zaki ijodining boshqa janrlariga qaraganda nutqda ko'proq uchraydi. Maqollar tilning og'zaki shaklida faol qo'llaniladi, ular

badiiy va publitsistik asarlarda ham uchraydi, ammo maqollar gazetalarda, rasmiy hujjatlarda va ilmiy jurnallarda deyarli ishlatilmaydi.

O'zbek tilidagi maqollarning tuzilish xususiyatlari haqida so'z borar ekan, biz ularni tuzishning uslubiy vositalarini ham tahlil qildik va bu tildagi maqollar tarkibida eng ko'p uchraydigan uslubiy vositalarga misollar quyida keltirilgan:

Yengi yo'qning tengi yo'q. [Alliteratsiya]

Borga - mumlik,

Yo'qqa – shumlik. [Antiteza]

Yetimning yegani – zahar,

Kiygani - kafan. [Undoshlik]

Maqollarda har qanday uslubiy vositalardan foydalanish uning ma'no ta'siri va jozibadorligini oshiradi, bu esa bu maqollarning inson xotirasiga tez singib ketishiga ta'sir qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maqollar xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini, dunyoqarashini, millat ruhini aks ettiruvchi xalq amaliy san'atining bebaho namunasi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gotthardt H.H., Varga M.A. (eds.) Introduction to Paremiology: A Comprehensive Guide to Proverb Studies. - Berlin: De Gruyter, 2014.
2. Madayev O. Xalq og'zaki ijodi. – T.: Sharq, 2001.
3. Mieder W. International Proverb Scholarship. - New York: Garland Publishing, 1993.
4. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari, – T.: 2005.
5. Бердиев Х., Расулов Р., Ўзбек тилининг паремикологияси, –Т.: 1984.

Ma'rifatxon ABDULLAYEVA,
QDPI 3-kurs tayanch doktoranti.
Abdullaevamarifatxon5@gmail.com

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA FANI ASOSIDA KASBIY RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASH

Annotatsiya: ushbu maqola bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining "Tarbiya" fani asosida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ta'lim jarayonini samarali tashkil etish chora-tadbirlari haqida.

Kalit so'zlar: kompetensiya, tarbiya, kasbiy kompetentlik, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish.

Annotation: this article is about measures to develop professional competences of future elementary school teachers based on the subject of "Education" and to effectively organize the educational process.

Key words: competence, training, professional competence, training, education, development.

Аннотация: в данной статье речь идет о мерах по развитию профессиональных компетенций будущих учителей начальных классов по предмету «Образование» и эффективной организации образовательного процесса.

Ключевые слова: компетентность, обучение, профессиональная компетентность, обучение, образование, развитие.

Kirish. Mamlakatimizda tarbiyaviy ishlarni hamda pedagoglarda ijtimoiy kompetensiyalarni modernizatsiyalashtirishning zarurati va mazmun-mohiyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarorida asoslab berildi. Qarorga ko'ra, O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlarni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish talab etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni va mazkur Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarorda mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmat-e'tiborni yanada oshirish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, tizimda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Bilimga asoslangan iqtisodiyot ta'lim va kasbiy tayyorgarlikning yangi modellarini talab qiladi.[1]

Ta'lim jarayonini tashkil etish va rivojlantirish haqida mulohaza qilinar ekan, uning mohiyatini o'zaro bog'langan uchta: o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish kabi omillar tashkil etadi.

Oliy ta'lim tizimida uni tubdan yangilash sharoitida amalga oshirilayotgan sifat va tarkibiy o'zgarishlar natijasi o'qituvchining kasbiy va shaxsiy kamolotiga qaratilgan. Biz mutaxassisning ushbu ikkita eng muhim fazilatini "pedagogik kompetensiya" tushunchasida birlashtiramiz va u shaxsiy mahorat va ijodiy qobiliyatlarni, yuksak intellektni, ma'naviy va madaniy qobiliyatlarni o'z ichiga oladi, deb hisoblaymiz. Axloqiy qadriyatlar, lo'nda qilib aytganda, bu oliy ta'limning gumanistik ta'lim tizimida shakllanishi va o'zining insoniy va kasbiy salohiyatini aniq faoliyatda eng katta samaradorlik bilan ro'yobga chiqara oladigan, uzluksiz ravishda rivojlanib borayotgan mutaxassisning ma'lum bir orzu qilingan qiyofasidir. Bunga o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini takomillashtirish orqali erishish mumkin.

Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir. [2: 62]

Asosiy qism. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, integrativ yondashuv asosida o'qitishga tayyorgarligi, ilmiy-tadqiqot ishlari, fanlararo aloqadorlikning turli yo'nalishlari va

tamoyillari, ularning o'quv jarayonida muayyan fanlarni o'zlashtirishda qo'llanishi, o'quv fanlararo aloqadorlik asosida ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablarning ilmiy-amaliy jihatlarini N.M.Abdullayeva, M.Ashirova, T.Dayanayeva, R.A.Mavlonova, A.Musurmonov, P.Musayev, R.G'.Safarova, E.O.Turdiqulov, A.Ch.Choriyev, Sh.E.Qurbonov, Sh.Yusupovalarning ishlarida tadqiq etilgan.

O'qituvchi dastur talabalar uchun emas, balki o'quvchilar uchun ekanligini eslasa, yaxshi natijaga erisha oladi; zarur va aniq bog'lanish va bog'liqliklarni ochib bergan holda materialni aniq, asosli va tizimli taqdim etadi; o'quv sur'atlarini ortda qolgan holda individual ishlashga bo'ysunadigan ko'pchilik talabalar ehtiyojlariga moslashtiradi; og'zaki, yozma, kompyuter nazoratining oqilona shakllaridan foydalanadi, talabalarni maksimal ta'lim natijalariga erishishga qiziqtiradi, shu bilan birga ularning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini rivojlantiradi.

Ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, zamonaviy dunyoda ta'lim va axborot texnologiyalarini birlashtirish tendensiyasi kuzatilmoqda va shu asosda, xususan, internet-texnologiyalarga asoslangan, prinsipial jihatdan yangi integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari shakllanmoqda. Bunday texnologiyalarni qo'llash bilan o'quv ma'lumotlarini cheksiz va juda arzon ko'paytirish, uni tez va maqsadli yetkazib berish imkoniyati paydo bo'ldi. Shu bilan birga, ta'lim interaktiv bo'ladi, talabalar mustaqil ishlarining ahamiyati oshadi, o'quv jarayonining intensivligi jiddiy ravishda kuchayadi va hokazo.

Lekin shuni ham ta'kidlash joizki, ta'lim jarayonida uchraydigan ba'zi pedagogik muammolar o'qituvchini kasbiy jihatdan rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, o'z ustida ishlashga xalaqit berib, ta'lim jarayonining sifatini pasaytiradi.

Bunday holatlarga o'qituvchi muloqot madaniyatining pastligi, pedagogik jamoadagi ijtimoiy muhitning do'stona emasligi, ustoz-shogird an'anasining yo'lga qo'yilmaganligi, pedagogik jamoadagi mutaxassislarning umumiy salohiyati va yosh kadrlarga bo'lgan nazoratning sustligi va hokazolarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Oliygozlarni bitirib, ta'lim muassasasiga qadam qo'yayotgan har bir bo'lajak o'qituvchilar ushbu kasbiy fazilatlariga ega bo'lishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
- yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va

kasbiy yuksalishi bevosita uning ijodiy qobiliyatga egaligi bilan bog'liq. Odatda, pedagoglarning ijodiy qobiliyatga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

Samarali pedagogik muloqotni amalga oshirish o'qituvchi kasbiy faoliyatining eng muhim tarkibiy qismidir. Pedagogik faoliyatdagi muloqot ta'lim muammolarini hal qilish, o'quv jarayonini ijtimoiy-psixologik ta'minlash vositasi, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etish usuli bo'lib, ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini belgilaydi. Biroq, o'qishni tamomlagan yosh o'qituvchilarning hammasi ham mavjud talablarga javob bermaydi. O.V.Litovchenko tadqiqotiga ko'ra, yosh o'qituvchilarning 54% dan ortig'i o'quvchilarni o'rganishga unday olmaydilar, 51%i esa o'qitish metodikasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarning yetishmasligini bildiradi, bu esa qobiliyatning yetarli darajada rivojlanmaganligining bevosita natijasidir. Demak, hozirgi holat pedagogika oliy o'quv yurti talabasida bu tayyorgarlikni shakllantirishga alohida yondashishni taqozo etmoqda.

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish tizimi o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi birgalikdagi faoliyat dasturi shaklida taqdim etiladi. Ushbu dastur -birgalikdagi faoliyat algoritmi bo'lib, unda talaba o'quv jarayonining ham subyekti, ham obyektini hisoblanadi. Talabani kasbiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda, o'qituvchilik ishiga motivatsion-qiymatli munosabatni to'sib qo'yadigan va kasbiy o'sishni sekinlashtiradigan omillarni ham hisobga olish kerak:

1) muloqotdagi qiyinchiliklar: qiyin o'quv vaziyatidan chiqa olmaslik; samarali faoliyatni tashkil etishdagi muammolar, aloqa texnikasining yetishmasligi.

2) o'zini-o'zi boshqarishda qiyinchiliklar, o'z xatti-harakatlari, his-tuyg'ulari, tashqi ko'rinishi, o'zini, imkoniyatlari va xususiyatlarini bilmaslik, o'z holatini, his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarini tartibga sola olmaslik, o'z faoliyatini tahlil qila olmaslik.

3) kasbiy faoliyatning individual uslubini

rivojlantirishdagi qiyinchiliklar.

O'qituvchining kasbiy faoliyati uning o'z mehnati natijasi uchun ma'naviy javobgarlikni qanday tushunishiga bog'liq. Oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar mavjudligi kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning muhim omilidir.

Talabalarning kasbiy rivojlanishi, agar o'quv jarayonida quyidagi shartlar bajarilsa, kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun yetarli darajaga yetadi:

- ijtimoiy-pedagogik tajriba -shaxsiy tajribani rivojlantirishning zaruriy shartiga aylanadi;
- kasbiy rivojlantirishni -tizimli aks ettirishga yo'naltirilganligi kasbiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun yetarli darajada rivojlantirishga yordam beradi ;
- kasbiy rivojlantirishga qaratilgan pedagogik amaliyotda talabalarning o'qituvchilik qobiliyatlarini tushunish uchun foydali bo'lgan shaxsiy tajriba to'planadi.

Xulosa. Jamiyatdagi davr va tez o'zgarishlar bilan o'qituvchilar endi "Yangi pedagogikadan foydalangan holda o'qitish" muammosini o'z zimmlariga olishmoqda. O'qituvchilar o'qitishning an'anaviy shaklidan uzoqlashib, bolalar bilan o'quv hamkorliklarini qayta ko'rib chiqmoqdalar va o'quv muhitini mahalliy, global va virtual tarzda kengaytirish uchun raqamli texnologiyalardan to'g'ri foydalanmoqdalar. Boshqa tomondan, o'qituvchilarning ilmiy izlanishlari yangi davrda o'qituvchilarning kasbiy qobiliyatlari va o'qituvchi kompetensiyalarini yetarli darajada o'rganib chiqdi, deb bo'lmaydi. Biroq, O'zbekistonda va butun dunyoda o'qituvchining kasbiy rivojlanishini muhokama qilishda o'qituvchilarning malakasi sifatida aniqlangan bilimlar, fikrlash, qadriyatlar, e'tiqodlar, his-tuyg'ular, motivatsiya va boshqalar o'qituvchilik kasbi mezonlari bilan ifodalangan keng ko'lamlil kompetensiyalarning bir qismidir. Bundan tashqari, o'qituvchi faoliyatining o'zagi o'qitish bo'lsa-da, u turli xil maxsus faoliyat, bolalar, hamkasblar, ota-onalar va jamiyat bilan o'zaro munosabatlarni qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni
3. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpo'latov Sh.N. (2013). Kasb ta'limi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi.// - Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

Nargiza RO'ZMATOVA,
 NDPI 1-bosqich doktoranti

XORAZM FOLKLORIDA LAPAR JANRIDAGI MUROJAAT BIRLIKLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya : ushbu maqolada Xorazm folkloriga xos bo'lgan lapar janri haqida fikr yuritiladi. Laparlar tarkibida uchraydigan murojaat birliklarining leksik-semantik xususiyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *lapar, xalfa, og'a, xo'jik, dorom, do'st, boboy*

Аннотация: в данной статье рассматривается типичный для хорезмского фольклора жанр лапара. Речь идет о лексико-семантических особенностях референций, встречающихся в составе слов.

Ключевые слова: *лапар, халфа, ага, ходик, дором, друг, дедушка.*

Annotation: this article discusses the lapar genre typical of Khorezm folklore. It is about the lexical-semantic features of the units of reference found in the composition of the words.

Key words: *lapar, khalfa, agha, khozhik, dorom, friend, grandfather*

Qadimdan Xorazm musiqa, madaniyat va san'at maskani o'choqlaridan biri sanaladi. Bu vohaning urf-odatlarini, milliy marosimlari va shu asosda yuzaga kelgan folklori 3000 yillik tarixga ega bo'lgan "Avesto" kitobiga borib taqaladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Termiz shahrida bo'lib o'tgan "Xalqaro baxshichilik san'ati" festivalida so'zlagan nutqida: "Ayni vaqtda hozirgi globallashuv davrida tijorat vositasiga aylangan "ommaviy madaniyat", shou-biznesning salbiy ta'siri tobora kuchayib borayotgan murakkab zamonda har qanday milliy madaniyatning bulog'i bo'lgan folklor san'atiga e'tibor va qiziqish, afsuski, susayib borayotgani ham sir emas. Holbuki, folklor san'ati, ta'bir joiz bo'lsa, bu – insoniyatning bolalik qo'shig'idir" deya, bu janrning uzoq o'tmishga borib taqalishiga ishora qilmoqda.

Lapar - to'y va yig'inlarda, xalq sayillarida yigitlar bilan qizlar orasida tarafma-taraf bo'lib aytiladigan terma qo'shiq, shuningdek, birgalikda ijro etiladigan

olingan bo'lib, bir-birining ortidan borish, ergashish, o'rin almashish; shariat aqidalarini yaxshi biluvchi, o'qimishli kishi degan ma'nolarda ishlatiladi. Xalfa qo'shiqlari xalq ruhini, orzu-armonlarini, odamlarning yuragidagi dardlarini o'zida aks ettirib, asosan, ayollar tomonidan kuylangan. Xorazmning faqat o'zigagina xos bo'lgan bu janr uzoq davrlar mobaynida xalqning marosim va urf-odatlarini asosida yuzaga kelgan. Ilgari zamonlarda "Avesto" kitobini o'qib, uni xalq orasida talqin qilgan ayollarga nisbatan "qalpa" atamasi ishlatilgan. O'tmishda ham, hozirgi kunda ham qadimiy Xiva shahrida xalfachilik keng rivojlangan. Xalfalar faoliyat ko'rsatish sharoitiga ko'ra ikki yo'nalishga bo'linadi: to'y va bazmlarda qo'shiqlar ijro etuvchi „sozi xalfa“ hamda „kitobiy xalfa“ ta'ziya va marosimlarda kitob o'quvchi ayol, otin (otinoyi, xorazmcha variant: xadim) deb atalgan. Quyida biz "sozi xalfalar" va "kitobiy xalfalar" ijrosidagi kuylanadigan kuy va qo'shiqlardagi murojaat birliklarini tahlil qildik. Asosan "sozi xalfalar" tomonidan ijro qilinadigan, "Boshlagan to'yingiz muborak bo'lsin" qo'shig'iga to'xtalib o'tamiz:

Do'stim, muboraklar bo'lg'ay atgan to'yingiz
 Juft patikli qo'shki ayvon joyingiz
 Mudomo izzatda o'tsin umringiz
 Boshlag'an to'yingiz muborak bo'lsin.

O'zbek tilining izohli lug'atida "do'st" so'zi qarashlari, dili, ish faoliyati, yaqin bo'lgan, inoqlik, ahillik bilan bog'langan ikki yoki undan ortiq kishining har biriga nisbatan ishlatiladi. Ushbu jumladagi "do'stim" murojaat birligi I shaxs birlik (-im) shaklida bo'lsa ham, ma'no jihatdan ko'plik shakliga qaratilgan. Ya'ni to'y marosimini o'tkazishda albatta ko'pchilik qon-qarindoshlar ishtirok etadi, ularga ham "to'ylar muborak bo'lsin" degan ma'noda "do'stim" murojaati ishlatilgan. "Do'st" so'zi eng yaqin insonga nisbatan ishlatiladigan uslubiy neytral murojaat birligidir. Quyidagi "Og'a dorom" lapari matnida:

Og'a Dorom, ro'molingda gulbodom,
 Xo'jik Dorom, belbog'ingda bor bodom,



qo'shiq va raqs. Laparni ijro qiluvchilarni Xorazmda "xalfa" deb yuritishadi. "Xalfa" so'zi arabcha so'zdan

Xorazm shevasiga xos bo'lgan "Og'a" va "xo'jik" so'zlari murojaat birligi vazifasini bajargan. O'zbek tilining izohli lug'atida "og'a" so'zining ko'p ma'nolari keltirilgan. Xorazm shevasiga xos bo'lgan bu murojaat birligi tug'ishgan akaga nisbatan, o'zidan katta yoshdagi erkak qarindoshlarga va begona erkak kishilarni chaqirishga nisbatan ishlatiladi. Adabiy tildagi "ota" so'zi o'rniga Xorazm shevasida "aka" murojaat birligi orqali murojaat qilinadi. "Xo'jik" murojaat birligi ham yigitlarga nisbatan ishlatiladi. Endi lapar tarkibidagi murojaat birligiga qo'shilib kelgan "dorom" so'zi haqida ma'lumot bersak. Bu so'z xorazm shevasida "Dorom-dorom sochlari" tarzida uchraydi. Ya'ni adabiy tildagi "taram-taram" so'zining tovush o'zgarishi orqali hosil bo'lgan variantidir. Bundan tashqari "dorom" so'zi mumtoz adabiyotimizda hazrat Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarining 2-majlisida quyidagi ko'rinishda uchraydi:

مراد دارم
براید یارب

Murod dorom (murodim bor) va baroyad yorab (Iloho yetilgusi) so'zlari har ikki tarafdin bir xil o'qiladi. Demak, ushbu jumladan ko'rinadiki "dorom" so'zi "bor" degan ma'noda qo'llanilgan. Shuning uchun "Og'a dorom" va "xo'jik dorom" murojaatlarini "og'om bor", "xo'jikim bor" ma'nosida qabul qilsak bo'ladi.

Xorazm garmonchilar ansamblining a'zosi bo'lgan



Onajon Sobirova ham o'z ijodiga mansub bo'lgan qo'shiqlarda juda ko'p murojaat birliklarini qo'llagan. Masalan, quyidagi misralarga ko'z tashlaylik:

Ikki yuzi olma, norim,
Sensan mening nomus- orim,
Bulbulim, lochin, shunqorim,
Munchalik ozor aylama. ("Anash xalfa" 7-b)

Shoira xalfaning barcha she'rlari xalqona uslubda musiqaga moslangan holda yaratilgan. Ularda soddalik, samimiylik jilolanib turadi. She'rlarda asosan sevgi-muhabbat mavzusi ustuvorlik qiladi. She'rlari tarkibida xalq ijodiga xos ifodalar alohida ajralib turadi. Ular orasida original metaforalar, sifatlash, o'xshatish va ramzlar tasviriylik, bo'yoqdorlikni oshirishda asosiy figura bo'lib xizmat etadi. She'ning birinchi jumlasidagi "norim" murojaat birligiga qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz. Norim so'zining lug'aviy ma'nosi (forscha-anor) anor terimi, kech kuz paytlari xalq tomonidan o'tkaziladigan marosimlardan biridir. Bu udum asosan, Xorazm hududida amalga oshirilgan va xalq tomonidan intiqlik bilan kutilgan marosimdir. Bu marosimga atalgan "Norim-norim" kuyi va ashulasi ham yaratilgan. "Norim" murojaat birligi matnda metafora usuli orqali ma'no ko'chishi hodisasini yuzaga keltirgan. Yorning ikki yuzi anor kabi qip-qizil olmaga qiyos qilingan. Bu usul bilan xalfa she'rda yorning vasfini ramzlar orqali "norim", "orim", "lochin shunqorim" kabi murojaat birliklari bilan ko'rsatgan, tasviriylikni va bo'yoqdorligini yanada kuchaytirgan.

Anash xalfa ijodiga mansub yana bir she'r Xorazm folklorida juda mashhur bo'lgan "Boboyjonim" deb nomlanadi:

Soqollari silkillaydi yurganda-yey,
Bag'ri-dilim ochiladi ko'rganda-yey.
Qarab turar, qarab turar
Men sochimni o'rganda-yey.
Boboyjonim, jonim, jonim,
Boboyjonim, kishtaka kishtak.

Boboyjonim, kampirjonim,
"Boboyjonim" va "kampirjonim" so'zlari murojaat birligi vazifasini bajargan. "Boboy" so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida "qari kishi, chol" degan ma'noni anglatga, "kampir" murojaat birligi (forscha "juda ham qari erkak va ayol") "yoshi ulg'aygan kekxa qari xotin" ma'nolarni anglatadi. Ushbu murojaat birligi asosan, yoshi katta erkaklar tomonidan o'z xotiniga nisbatan chaqirish, undash uchun ishlatiladi. Ba'zi muloqot jarayonlarida esa mustasno holatlar ham kuzatilib turadi.

Xorazm xalfachilik san'ati o'zbek folklor janrida alohida ajralib turadi. Maqolada lapar janrida uchraydigan murojaat birliklari va ularning o'zbek tilining izohli lug'atidagi ma'nolari bilan birga leksik-semantik xususiyatlariga ham

to'xtalib o'tildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik festivali ochilishiga bag'ishlangan marosimdagi nutqi. Xalq so'zi gazetasi, 2019-yil 7-aprel. 68-son.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2006. 2-jild. 487-bet.
3. S. G'aniyeva "Majolis un-nafois"ga izoh va tarjimalar. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik.-Toshkent: Fan,1997.
4. Sobirova N. Xorazm baxshi va xalfachilik an'analari. - Toshkent : Fan, 2021.
5. Arabov I. An'anaviy cholg'u ijrochiligi.- Toshkent, 2018.
6. N. Qosimov Folklor musiqa ijrochiligi .- Toshkent: Talqin, 2008.
7. Habibullayeva P.O. "GOALS, OBJECTIVES AND FUNCTIONS OF PEDAGOGY" Science and Education in Karakalpakstan. 2022 №2/2 ISSN 2181-9203
8. Ganiyeva G.M. Abdulla Avloniyning asarlarida pedagogik qarashlar. Journal of Integrated Education and Research, (2023) 2(3), 32–35

Matluba YESHBOYEVA,
 Nukus DPI 1-kurs doktoranti

MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARI QORAQALPOQ TILIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada Muhammad Yusufning qoraqalpoq tiliga qilingan tarjima she'rlari haqida aytilgan. Bajarilgan tarjimalar asliyat bilan solishtirilgan holda leksik, semantik, lingvomadaniy xususiyatlari to'g'risida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tarjimon, yaqin tillarda tarjima, qardosh xalq tili, asliyat, tarjima.

Аннотация: в данной статье рассказывается о стихах Мухаммада Юсуфа, переведенных на каракалпакский язык. Выполненные переводы сравнивались с оригиналом и анализировались на предмет их лексических, семантических и лингвокультурных особенностей.

Ключевые слова: переводчик, перевод на родственные языки, родной язык, оригинальность, перевод.

Annotation: this article talks about Muhammad Yusuf's poems translated into Karakalpak language. The completed translations were compared with the original and analyzed for their lexical, semantic, and linguistic-cultural features.

Key words: translator, translation into related languages, native language, originality, translation.

O'zbek adabiyotining betakror siymolaridan biri, kam umr ko'rgan-u, ammo o'zidan abadiy yashaydigan meros qoldirgan noyob qobiliyat egasi Muhammad Yusuf barchamizga birdek tanish. Uning ijod namunalari, qo'shiqqa aylangan, kuyga solingan she'rlari kirib bormagan xonadon yo'q. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist G'iyos Boytoyev ham ta'kidlab o'tganlar: "Sakson foiz qo'shiqlarim muallifi Muhammad Yusuf edi" [4:280]. Yetti yoshdan yetmish yoshgacha birdek sevgan ijodkorning tanlagan mavzulari ham xilma-xil va dolzarb hisoblanadi. Shu kabi mavzularning ichida ona mavzusi ham nazardan chetda qolmagan. Har bir oilada ayolning o'rne, uni vaqtida qadrlash lozimligi she'rlarida uqtirilgan. Bu she'rlar qoraqalpoq tiliga ham tarjima qilingan. Chunki ikki xalqning urf-odat va an'analari, qadriyatlar, oilalardagi tarbiyalari, mentaliteti bir-biriga o'xshaydi.

Bajarilgan tarjima ishlar xalqlar

orasidagi do'stlikning yana ham kuchayishiga o'z hissasini qo'shadi. Bu orqali kitobxonlar shoir she'riyatidan bahramand bo'ladilar. Qilingan badiiy tarjimalar qay yo'sinda bajarilgani esa bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Buni Muhammad Yusufning qoraqalpoq tiliga o'g'irilgan she'rlari misolida ko'ramiz. Qoraqalpoq xalqining shoiri, tarjimoni Bazarbay Seytayev bir




qancha she'rlar-u dostonlarni o'g'irgan. Shularning ichida aynan ayol-qizlar mavzusiga bog'liq bo'lgan "Onaizor", "Rafiqamga", "Onamdan xat", "Bor bo'lsin" kabi she'rlarining qoraqalpoqcha tarjimasini tahlilga tortamiz.

"Onaizor" she'ri sarlavhasi "Ana zari" tarzida yanglish tarjima qilingan. Shu she'rlarning semantik, leksik, grammatik jihatlarni tahlilga tortsak. Asliyatda:

Ko'nglim qolsa bulbuldan ham, guldan ham,
 Qolar bo'lsam bir kun axir tildan ham...
 Agar bir zot yig'lasa chin dildan ham –
 Onam yig'lar, onam yig'lar, onam u... [3:25]

Tarjimada:

Kewlim qalsa eger bulbilden, gulden,
 Qalar bolsam bir kún sayrağan tilden...
 Sonda birew ah ursa shın kewilden –
 Anam jılar, anam bozlar, anam ol...[2:26]



Ko'rganimizdek, asliyatdagi bir necha so'zlar tarjimada boshqacharoq tarzda tarjima qilingan. Ikkinchi misrasidagi qolar bo'lsam bir kun axir tildan ham "Qalar bolsam bir kún sayrağan tilden" deya o'g'irilgan. Asliyatda mavjud bo'lmagan "sayrağan" so'zi qo'shilgan. "Onam yig'lar" gapi esa "anam bozlar" tarzida tarjima qilingan. "Yig'lash"dan ko'ra "bo'zlash"ning ma'nosi kuchaygan. Ammo bular tarjimaning ma'nosiga ta'sir etmagan. Muhim jihati ma'nosi o'zgarmagan.

Asliyatda:

Gulday kulib yurmasmidi, o'g'lim deb,
 Ko'rib ko'nglim to'lmasmidi, o'g'lim deb,
 Onang o'lsa bo'lmasmidi, o'g'lim deb
 Onam yig'lar, onam yig'lar, onam u... [3:26]

Tarjimada:

Gúldey jaynap jurmespedi ulım dep,
 Kórip kewlim tolmaspedi ulım dep,
 Anań ólse bolmaspedi, ulım, dep,
 Anam jılar, anam bozlar, anam ol. [2:26]

Bu qatorlarni o'qisak, shakli ham ma'no-mazmuni ham, asliyat bilan bir xil. Bu mutarjimning mahoratli

ekanligidan darak beradi hamda uning tarjimonlik faoliyatining katta yutug'i hisoblanadi. Bir qarashda osondek tuyuladi, yaqin tillardagi tarjima murakkab emasdek ko'rinadi. Ammo tarjimon asliyatning ham tilini yaxshi bilmog'i lozim.

"Rafiqamga" she'ri "Zayibima" sarlavhasi ostida o'g'irilgan. Asliyatda:

Gulim, seni gulday asray olmadim,
 Suyib, siylolmagan sultoning bo'ldim.
 Mehringni mehrim-la oqlay olmadim,
 Netay sen yaxshi, men yomonning bo'ldim...
 Dorga osgil meni, doringga shukur,
 Boringga shukur, boringga shukur. [1:113]

Tarjimada:

Gúlim, gúldey qásterlep saqlay olmadım,
 Suyip, sıylay almağan sultanıń boldım.
 Iqlasıńdı mehrim menen aqlay olmadım,

Qáyteyin, sen jaqsı, men jamanıń boldım...

Darğa asqıl meni, darıńa shúkir,
 Barińa shúkir-aw, barińa shúkir. [2:27]

Birinchi misradagi mavjud bo'lmagan "qásterlep" so'zi qo'shilgan. Ammo bu so'z "Qaraqalpaq tiliniń túsindirime sózligi"da "álpeshlew, qádirlaw" [5:391] ma'nolarini anglatadi. "Gulim, seni gulday avaylab, saqlay olmadim" misralariga to'g'ri keladi. Ma'nosi o'zgarmagan, kuchaygan desak, yanglishmaymiz. Oxirgi misrasidagi "Boringga shukur" birikmasi esa "Barińa shúkir-aw" tarzida, ya'ni -lar ko'plik qo'shimchasi qoraqalpoq tilidagi kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi -aw tarzida o'g'irilgan. Bu tilning lingvomadaniy xususiyatlaridan biri

hisoblanadi. Chunki qoraqalpoq xalqida ko'pincha -aw kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi ko'p ishlatiladi. Qardosh xalqlar tili ham bir-biriga yaqin bo'lganligi uchun ba'zan so'zlar xato tarjima qilinishi mumkin. Ammo bu she'rda unday vaziyat kuzatilmagan.

Ushbu she'r olti band bo'lsa, mutarjim bu she'rning 5 bandini tarjima qilgan-u, to'rtinchi bandini tarjima qilmasdan tashlab ketgan. Bu esa qo'pol xato hisoblanadi. Mana shu band:

Holbuki, to'rttala tomonim o'zing,
 Osmonim yoritgan tobonim o'zing.
 Dilimning to'rida avaylaganim,
 Eng yorug' orzuim, armonim o'zing...

Seni yo'liqtirdi hazrati Xizr,

Boringga shukur, boringga shukur. [1:113]

Ammo qolgan bandlarining qilingan tarjimalari ham hech qanday xatosiz va kamchiliksiz qilinganini, tarjimonning yutug'ini ham ta'kidlab o'tish joizdir.

"Onamdan xat" she'ri "Anamnan xat" sarlavhasi bilan quyidagicha o'g'irilgan:

Asliyatda:

Chakka o'tgan eski tomga o'xshayman,
Ko'zimdan yomg'irlar to'kilar tinmay.
Bu yorug' dunyoda bormi bilmayman,
O'z o'g'li yo'lga intizor menday. [4:258]

Tarjimada:

Jamg'ir otken gone tamga uqsayman,
Kozimnen jamg'irlar tamshilar tinbay,
Bul jaqti dunyada bar ma, bilmeymen,
Oz ulinir jolna intizar mendey. [2:28]

Ko'rinib turganidek, ma'nosi, shakli, tuzilishi xuddi asliyati bilan bir xil. Asliyati o'z o'g'lining yo'lga zor, mushtoq bo'lib o'tirgan onaning timsoli tarjimada ham tasvirlangan. Tarjima asarlarda ma'no ham, shakl ham katta ahamiyat kasb etadi. Mutarjim o'z tilidagi so'zlardan o'rinli foydalana olmog'i va shaklni

ham saqlagan holda o'g'irmog'i lozimdir. Tarjimon Bazarbay Seytayeov buning uddasidan chiqqan ijodkor desak, mubolag'a bo'lmaydi. Kamchiliklari bor-u, lekin yutuqlarini ham inobatga olmoq lozimdir. Shu orqali qoraqalpoq xalqi ham Muhammad Yusufning she'rlarini o'z ona tilida o'qish, yurakdan his qilishga ega bo'lganligini alohida ta'kidlab o'tish kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qilingan tarjima ishlar kamchiliklari va yutuqlarini sarhisob qiladigan bo'lsak, mutarjimning qilgan ba'zi xatoliklari to'g'rilanmog'i lozim. Chunki bu kabi tarjima ishlari kamchiliksiz bo'lmog'i lozim. Shundagina adabiy aloqalar yana necha asrlar mobaynida davom etadi va yana-da mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhammad Yusuf. Biz baxtli bo'lamiz. – T.: Nihol, 2008.
2. Muhammad Yusuf. Biz baxitli bolamiz (Bazarbay Seytayeov tarjimasi). – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2004.
3. Muhammad Yusuf. Oq tulpor. – Namangan: Namangan nashriyoti, 2003.
4. Muhammad Yusuf. Saylanma. – T.: Sharq, 2019.
5. Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi. Jetti tomlıq. – 4-tom. Nókis: Qaraqalpaqstan baspası, 2023.

Nodirbek XASANBOYEV,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

1-kurs tayanch doktoranti

OLIV ADABIY TA'LIMDA MASOFADAN O'QITISHNING AFZALLIKLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lim jarayonining masofaviy turi, unga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishi, jamiyatimizdagi imkoniyati cheklanganlarning ijtimoiy hayotdan uzilib qolmasliklari, ularning erkin ta'lim olishlarini ta'minlashni ko'zda tutgan holda, oliy ta'limda adabiyotni masofadan turib o'qitishning ustuvor tomonlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: *an'anaviy ta'lim, masofaviy ta'lim, audio va video materiallar, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, virtual materiallar.*

Annotation: in this article, the advantages of providing convenience to both the educator and the learner, preventing those with limited opportunities from being excluded from social life, and ensuring their freedom to receive education are discussed. The benefits of teaching literature at higher education institutions remotely and the superior aspects of distance education in higher education are also highlighted.

Key words: *traditional education, distance learning, audio and video materials, modern information and communication technologies, virtual materials.*

Аннотация: процесс дистанционного обучения в этой статье возникновение потребности в этом, возможность инвалидов в нашем обществе не быть оторванными от общественной жизни, их бесплатное образование с целью обеспечить получение ими дистанционное преподавание литературы в высших учебных заведениях является приоритетом стороны обсуждаются.

Ключевые слова: *традиционное образование, дистанционное образование, аудио и видео материалы, современные информационно-коммуникационные технологии, виртуальные материалы.*

Butun jahonda va shu jumladan, mustaqil yurtimizda yildan yilga texnologiya, ilm-fan sohalari shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Har bir soha o'z egalari tomonidan takomillashtirilib, tobora rivojlantirib borilmoqda. Shu jumladan, ta'lim sohasida ham bir qator yangiliklar amalga oshirilmog'ida.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ta'limni isloh etish va uni rivojlantirish, jumladan, 2019-yil 29-aprelda "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" da ko'rsatib o'tilgan "O'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish" [1.1] bo'yicha amaliy vazifalar belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son hamda "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifati va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori qabul qilindi, unga ko'ra:

1. 2020/2021-o'quv yilidan boshlab Respublika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish tartibi joriy etildi.

2. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

Zamonaviy axborot telekommunikatsiya texnologiyalarining jadallik bilan rivojlanishi ta'lim olish va ta'lim berishning an'anaviy turidan farqli ravishda, ushbu jarayonning masofadan amalga oshiriladigan turini paydo bo'lishiga turtki berdi.

O'zbekistonda masofaviy o'qitish bo'yicha A.Abduqodirov, A.Askarov, U.Begimqulov, A.Ibraymov kabi olimlar ilmiy izlanish olib borgan. Kompyuter texnologiyasi bo'yicha S.Adilova, S.Muhamedova, R.Niyozmetova, N.Umarovalar filologik va metodik jihatdan yoritganlar.

Oliy ta'limda adabiyotni masofadan o'qitishda Youtube ijtimoiy tarmog'i, Zoom platformasi va bir qator axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan, virtual materiallardan samarali foydalaniladi.

Ta'limning masofaviy turi an'anaviy ta'lim turidan farqli o'laroq axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng miqyosda foydalaniladi. An'anaviy ta'limda o'quv vositalari talabalarni yangi materiallarni o'zlashtirishiga xizmat qilsa, masofaviy o'qitishda foydalaniladigan video konferensiyalar dunyoning xohlagan burchagidan turib aloqa qilish va ma'lumot almashishga, yozib olingan videodarslar talabalarning vaqt imkoniyatiga qarab foydalanishi yoki o'zlashtirishda qiyinchilik tug'dirgan darsni bir necha bor qayta ko'rishi va mustahkamroq o'zlashtirishiga, elektron pochta tezkor xabar almashishga, virtual materiallar badiiy adabiyotni o'qitishda ijodkorning hayoti yoki asar voqealariga talabalarni olib kirish va asar qahramonlari bilan asar voqealarini yonmayon boshdan kechirish hissini paydo qilishga yordam beradi.

Adabiyot darslarini masofadan o'qitishda foydalaniladigan video, audio va virtual materiallar o'quvchilarning vaqt va moddiy manbalarini tejashga xizmat qilibgina qolmasdan, tushunilishida qiyinchilik tug'dirgan mavzularni qayta eshiti, ko'rish va foydalanish imkoniyatini beradi. Bu omillar o'quvchilarning darslarni o'zlashtirishida o'zining ijobiy samarasini ko'rsatadi.

Badiiy adabiyotni o'rganish davomida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yaxshi samara beradi, zamonning talabi bo'lmish axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi. Virtual materiallarni qo'llash asar voqealarini o'quvchilarning ongiga olib kirish va tasavvurlarida yaqqolroq jonlantirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarda adabiyot fani orqali nafaqat yozuvchi-shoirlar bilan tanishish, badiiy asarni o'rganish, balki asar qahramonlarini yaqindan tanish, ular haqidagi ma'lumotlardan tortib, xarakteri, ichki dunyosini his qilish kabi ko'nikmalarni shakllantirish va shu bilan birga ularni adabiyot darslarida ijodkorlikka yo'naltirish lozim. Hozirgi kunimizda sun'iy intellekt yordamida tarixda o'tgan mashhur siymolarning hayotini, hattoki ovozlari qaytadan jonlantirishmoqda. Har bir o'quvchiga asar voqealarini asar qahramonlarining o'zidan eshiti, sun'iy intellekt orqali qahramonlar mimikasi, his-tuyg'ularini jonlantirish ta'lim jarayonining qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu jarayonni darsda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yordamida amalga oshirish mumkin.

Adabiyot darsliklarida yozuvchi-shoirlar va ularning asarlarini o'rganishda fanlararo integratsiyadan, jumladan, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Virtual materiallar orqali ijodkor va asar qahramonlarning o'y-kechinmalari, yashagan davri haqida kengroq ma'lumot olish imkoniyatini beradi.

O'qitishning masofaviy shaklidan ilk bor AQShning bir qator kollejlarda foydalanilgan. Keyinchalik Yevropa mamlakatlarining ta'lim muassasalarida ham ta'limning bu turidan foydalanila boshlandi. Germaniyaning Xagen shahrida 1976-yil Ochiq Universitet tashkil etilgan, unda sirtqi ta'lim olish va malaka oshirish imkoniyati mavjud bo'lgan hamda Universitet tomonidan diplom va ilmiy daraja berilgan. Tyubingen shahridagi Masofaviy ta'lim instituti radio va televideniye texnologiyalari orqali masofaviy o'qitish uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqqan. [5.45]

Xitoy Xalq Respublikasida masofaviy ta'limning qo'llanilishi XX asrning 50-yillarida sirtqi o'qitishni amalga oshirishdan boshlangan. 1960-yilda Pekinda birinchi radioteleuniversitet tashkil qilindi. U radio, televideniye va nashr etiladigan materiallar orqali ochiq o'qitish tartibida amalga oshdi. 1986-yilda esa Xitoy o'qitish televideniyesi (CETU) ochildi. Ayni shu vaqtdan e'tiboran, Xitoy uch turdagi: o'quv yurtlarida kunduzgi, radio va televideniye va sun'iy yo'ldosh orqali o'qitish tizimlariga ega bo'ldi. 2000-yildan boshlab, boshlang'ich va o'rta maktab o'qituvchilarining malakasini oshirish bo'yicha kompyuter tarmog'i (www.chinatde.net) ishlay boshladi.[6.145]

O'zbekiston Respublikasida ilk bor Guliston davlat universitetida 2003-yildan boshlab masofaviy o'qitish tizimi tashkil etilgan. Universitetda 1999-2000-yillarda

olib borilgan tajribalar natijasida masofadan turib real vaqt rejimida o'qitishni amalga oshirish uchun sifatli videotasvirlar olishga erishildi va 2001-yil 5-sentyabrda Toshkent shahri Interkontinental mehmonxonasida o'tkazilgan "XXI asr kompyuter texnikasi" xalqaro ko'rgazmasida universitetning 2 ta o'quv xonasida professor-o'qituvchilar va xalqaro ko'rgazma qatnashchilari o'rtasida videokonferensiya o'tkazilgan.

Masofaviy ta'lim olishning afzalliklari va kamchiliklari:

Talaba o'qish bilan bir qatorda ish bilan ham shug'ullanishi mumkin. Aslida masofaviy o'qishni tanlaganlarning asosiy qismi bu o'z ishidan voz kechishni istamaydigan, ammo bilim olishni xohlaydiganlardir.

Moddiy texnik bazaga sarf qilinadigan mablag'ning tejalishi hisobiga masofaviy ta'lim shakli uchun to'lov shartnoma summasi ancha arzonroq bo'lishi mumkin. Iqtisodiy jihatdan maqbul variantlarni qidirayotgan o'quvchilar uchun onlayn ta'lim eng to'g'ri yo'l;

Oliy o'quv yurtiga borish va qaytish vaqtida transport kutish uchun ketadigan vaqtni tejashingiz mumkin. Onlayn ta'limda istagan hududda buni amalga oshirish mumkin;

Agar talaba o'zini intiluvchan hisoblasa, masofaviy ta'limning eng katta foydasi shundaki, ayrim darslar guruh bo'lib o'tiladi. Guruhda ba'zi o'quvchilar tezroq, ayrimlari esa sekin tushunadilar. Bu jihatdan masofaviy ta'lim olish usuli samaraliroqdir.

Kamchiliklari:

Chalg'ish ehtimoli yuqori. Yuzma-yuz muloqot qilish uchun o'qituvchilar va kutilayotgan topshiriqlar haqida doimiy ravishda eslatuvchi kursdoshlar yo'q. Agar talaba masofaviy o'qitish kursini muvaffaqiyatli yakunlamoqchi bo'lsa, o'zini g'ayratli va diqqatli qilishi kerak;

Tarmoqdan ayrilish. Onlayn bilim olishning eng katta dushmani bu internet provayderlarining sekin ishlashi yoki aloqa uzilib qolishi. Bu vaziyat talabaning ta'lim olishga bo'lgan intilishi so'nishi yoki asabiylashishiga olib keladi.

An'anaviy ta'lim atamasi fanga ilk bor XVII asrda kiritilgan. Ta'limning an'anaviy turi asoslari bundan IV asr avval Y.A.Komenskiy tarafidan ishlab chiqilgan. An'anaviy ta'lim turining quyidagi afzalliklari bor:

Qisqa vaqt ichida konsentrlangan shaklda talabalarni fan asoslari bilimlari va faoliyat usullari misollari bilan qurollantirish imkonini beradi.

Bilimlarni o'zlashtirishning mustahkamligini va amaliy ko'nikma va malakalarning tez shakllanishini ta'minlaydi.

Bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonini bevosita boshqarish bilimdagi bo'shliqlarning paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladi.

Talabalarning auditoriyadagi dars jarayonlarida ishtirok etishlari ularning ijtimoiy aloqaga va muloqotga kirishish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim olish va berish jarayonining an'anaviy tarzi bilan bir qatorda masofaviy shakliga ham kundan kun talab ortib bormoqda. Ta'limning bu turi bir qator moddiy manbalarning tejalishi, ta'lim oluvchi va beruvchiga vaqt va makon nuqtayi nazaridan qulayliklar berishi bilan bir qatorda, ta'lim maskanlariga kelib ilm olishga imkoniyati cheklangan talabalarning ham ijtimoiy hayotdan uzilib qolmasliklari va ularning erkin ta'lim olishlariga ko'mak beradi. Ushbu tadqiqotimiz masofaviy ta'limning rivoji uchun o'z hissasini qo'shadi, deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi PF-5712-son Farmoniga 1-ilova 1-bob. Umumiy qoidalar.
2. Adilova S.A. O'zbek tili mashg'ulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasida tashkil etish (oliy ta'lim muassasalarining rusiyzabon guruhlarida): Ped. fan. nom. ... diss. – T., 2004. 160-b.
3. Nishonova S. Adabiyot darslarida tasviriy san'at materiallaridan foydalanishning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati // "O'zbek tili va adabiyot o'qitish metodikasini takomillashtirish" to'plamida. – Toshkent: O'zPFITI, 1983.
4. Qosimova M. Badiiy asar qahramonlari karakterini portretlar tahlili vositasida yoritish // O'zbek maktablarida ona tili va adabiyot darslari samaradorligini oshirish: Ilmiy asarlar to'plamida. – T.: O'zPFITI, 1990.
5. Состояние и развитие ДО в мире. Аналитический доклад Института ЮНЕСКО по информационным технологиям в образовании, -М.: ИЧП «Изд.Магистр», 1999.- 45 с.
6. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2009.
7. Asqarov A.D., Masofaviy o'qitish ta'lim shaklining rivojlanish bosqichlari va modellari // Zamonaviy ta'lim. 2015, 10-b.
8. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: ped. fan. dok. dis. – Toshkent: TDPU, 2007.
9. Ibraymov A. Masofaviy o'qitish tizimini tashkil etish va o'quv kurslari mazmunini ishlab chiqishning o'ziga xos xususiyatlari // O'zMU xabarlari. – Toshkent, 2016.
10. Adilova S.A. O'zbek tili mashg'ulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasida tashkil etish (oliy ta'lim muassasalarining rusiyzabon guruhlarida): Ped. fan. nom. ... diss. – T., 2004.
11. Гуламов, Ж. (2023). Masofaviy ta'limning taraqqiyot tarixidan . Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 150–154. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24709>

Sitora HAMROQULOVA,
TDTU doktoranti

Y.V.GYOTENING “FAUST” ASARI YARATILISHI VA TARJIMALARI XUSUSIDA

Annotatsiya: millat va xalqlarning madaniyati va tarixida o'ziga xos va unutilmas tarixiy shaxslar muhim o'rin tutadi. Doktor Faust obrazi ham shunday ramzlardan biri bo'lib, Yevropa madaniyatining markaziy ramzlaridan hisoblanadi. Tadqiqotchilar Gyotening “Faust” fojiasini eng muhim asar deb bilishadi. Faust obrazi yevropalik insonning universal timsoli bo'lib, bu obraz o'z davriga qarab adabiyotda muhim ahamiyat kasb etgan. Dastlab, Faust shayton bilan bitim tuzgan kimyogar sifatida mifologiyaga asoslangan deyilgan, ammo tarixiy hujjatlar uning haqiqiy shaxs ekanligini tasdiqlaydi. Faustning tarixiy manbalarda eslatilishi va adabiyotdagi rivoji orqali uning haqiqiyli va madaniy ahamiyati yanada mustahkamlanadi.

Kalit so'zlar: *milliy madaniyat, tarixiy shaxslar, doktor Faust, Yevropa madaniyati, Gyote, Faust fojiasi, mifologiya, tarixiy hujjatlar, adabiyot tarixi, madaniy ahamiyat.*

Аннотация: в культуре и истории народов и наций важное место занимают выдающиеся и незабываемые исторические личности. Образ доктора Фауста является одним из таких символов и считается центральным символом европейской культуры. Исследователи считают трагедию Гёте “Фауст” наиболее важным произведением. Образ Фауста является универсальным воплощением европейского человека, и этот образ, в зависимости от эпохи, в которой жил герой, имеет важное значение в литературе. Изначально считалось, что Фауст был алхимиком, заключившим договор с дьяволом, и был мифологической фигурой, однако исторические документы подтверждают, что он был реальной личностью. Упоминания Фауста в исторических источниках и его развитие в литературе ещё больше укрепляют его подлинность и культурное значение.

Ключевые слова: *национальная культура, исторические личности, доктор Фауст, Европейская культура, Гёте, трагедия “Фауст”, мифология, исторические документы, история литературы, культурное значение.*

Annotation: in the culture and history of nations and peoples, unique and unforgettable historical figures play an important role. The character of Doctor Faust is one such symbol and is considered a central symbol of European culture. Researchers regard Goethe's tragedy “Faust” as the most important work. The character of Faust is a universal representation of the European man, and this character has significant importance in literature depending on the era in which the hero lived. Initially, Faust was believed to be an alchemist who made a pact with the devil and was considered a mythological figure, but historical documents confirm that he was a real person. Mentions of Faust in historical sources and his development in literature further strengthen his authenticity and cultural significance.

Key words: *national culture, historical figures, doctor Faust, European culture, Goethe, tragedy “Faust”, mythology, historical documents, literary history, cultural significance.*

Har qanday millat va xalqlarning o'z madaniyati va tarixi, avloddan avlodga o'tib keladigan, unutilmas tarixiy shaxslari ham mavjuddir. Doktor Faust obrazi ham ana shunday universal ramzlardan biri hisoblanib, shubhasiz, Yevropa madaniyati ramzlari ro'yxatidagi markaziy o'rinlardan joy egallagan. Faustshunoslik mavzusining deyarli barcha tadqiqotchilari murojaat qiladigan kitob, albatta, Y.V.Gyotening “Faust” fojiasi nomasidir. Faust obrazi ma'lum bir xarakterlarga ega yevropalik inson timsoli ifodasi hisoblanadi.

Faust obraz sifatida allaqachon bitta asar doirasidan chiqqan bo'lib, uning timsoli qahramonning o'zi yashagan davrga qarab jahon adabiyotida muhim ahamiyat kasb etadigan asar sifatida muhrlanib qolgan. Olimlar uzoq yillar davomida “Faust”ni uydirma obraz deb taxmin qilib kelishgan. Bunday fikr shakllanishiga sabab esa, “shayton bilan bitim tuzgan” kimyogar to'g'risida afsona va miflarning juda ko'pligi bo'ldi.

Adabiyotda Faust haqida birinchi eslatma 1587-yilda paydo bo'lgan. Nemis matbaachisi Johann Shpiss “Mashhur sehrgar va doktor Johann Faustning tarixi” asarini anonim nashr qildi. Unda u Faust qanday qilib shifokor bo'lganini, ilohiyotni qunt bilan o'rgangani, keyin esa sehrga qiziqib, do'zaxga tushib qolganini tasvirlab bergan. Tabiiyki, qahramon nasroniylik dinida o'ta qoralangan. Bu asar Elizabeta davri dramaturgi Kristofer Marlning e'tiborini tortdi va u uni “Doktor Faustning fojiali tarixi” dramasiga asos qilib oldi. Marlning pyesasi Germaniyaga faqat XVII asrda yetib keldi va vaqt o'tishi bilan Faustni orzu-havaslar ko'r qilib qo'ygan hajviy qahramonga aylantirdi. 1683-yilda nemis lyuteran ilohiyotchisi va cherkov tarixchisi Johann Georg Neumann turli tarixiy hujjatlarda unga havolalar topib, haqiqiy Faustning mavjudligini tasdiqlaydi. Faust Haydelberg universitetida ilohiyotni o'rgangan va Krakov universitetida sehrgarlik bo'yicha

tahsil olgan. 1506-yilda u Gelnxauzenga kelib, u yerda sehrli fokuslar qiladi va munajjimlar bashoratini o'qiydi. 1513-yilda Faust bashoratchi sifatida Erfurtga keladi. Shahar mehmonxonalaridan birida u aql bovar qilmaydigan sehrli kuchga ega ekanligi bilan maqtandi. Bir afsonaga ko'ra, Faust u yerda Erfurt universiteti talabalariga Homer haqida ma'ruzalar o'qigan. Aytishlaricha, u o'z chiqishlari paytida qadimgi muallifning ilm-fanga ma'lum bo'lmagan asarlaridan misollar keltirgan.

1772-yilda Y.V.Gyote "Urfaust" deb nomlangan asari ustida ish boshlaydi, ammo bu asarni u 60 yil, deyarli butun umri davomida yozadi. Asarning 2-qismi, shoirning o'limidan 1 yil o'tib, 1833-yilda chop etiladi.

Asarning bosh qahramoni sanalmish Haynrix Faust timsolida Gyote shubhasiz, o'zini qiynayotgan savollarga javob topishni istaydi. Doktor Faust hamma narsaga, jumladan, bilim va tajriba, odamlar orasida esa katta hurmatga sazovor inson bo'lgan, ammo uning o'zidan ko'ngli to'lmaz edi. Faustdagi olimning fojiasini "Tun" sahnasidagi quyidagi kuchli monologi ochib beradi:

*"Habe nun, ach! Philosophie,
 Juristerei und Medizin,
 Und leider auch Theologie
 Durchaus studiert, mit heißem Bemühn.
 Da steh ich nun, ich armer Tor!
 Und bin so klug als wie zuvor;*

Gyotening Faust shaxsiga bu ta'rifi uning borliq to'g'risidagi tasavvurlari in'ikosidir, degan fikrni tug'diradi. Bu holda Faust nima uchun shaytonlar tomonidan tilka-pora qilinmaganligi tushunarli. Chunki muallif o'zining haqligiga ishonchi komil.

Yuqoridagi misralarda muallif asardagi eng yirik muammoni olib chiqadi. Faust o'zining dastlabki monologida o'z hayotini sarhisob qiladi va falsafa, huquq, tibbiyot va ilohiyot kabi to'rtta asosiy ilmiy fanlarni o'rgangan daho bo'lsa-da, bu ilmiy izlanishlari "dunyoni nima birlashtiradi?" degan oddiy savolga javob topishiga yordam bera olmasligini anglab, o'zini qattiq tanqid qiladi. Asliyatdagi bu parchadan xulosa qilish mumkinki, qahramon o'z nutqini barcha fanlarning asosi hisoblanmish "Falsafa" fanini o'rganganligidan boshlaydi:

*Я богословьем овладел,
 Над философией корпел,
 Юриспруденцию долбил
 И медицину изучил.*

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Andreas W. Carl August im Lichte neuerer Forschung // «Goethe», 1957. Bd. 19. S. 96- 109 S.
2. Apelt H. Goethe und sein Garten. //«Goethe», 1958. Bd. 20. 202-212 S.
3. Arher A.Goethes botany. // Chronica Botanica, Mass.USA,1946. Vol.10. № 2.
4. Arher A. The natural philosophy of plantform. Cambridge, 1950. – 247p.
5. Balzer G. Goethes Bryophyllum. Berlin, 1949.- 88 S.

*Однако я при этом всем
 Был и остался дураком.*

Ikkinchi tarjima rus yozuvchisi va tarjimoni Boris Pasternakka tegishli bo'lib, u Я богословьем овладел deb, negadir birinchi o'ringa ilohiyot fanini qo'yadi.

Rus tilidan bilvosita tarjima qilgan buyuk shoirimiz E.Vohidov misralariga e'tibor qaratamiz:

*Илохийот ила банд бо'ldим,
 Файласуфи хирадманд бо'ldим.
 Илми хуқуқ, илми табобат –
 Барчасини о'ргандим, фақат,
 Фақат менга бир нарса айон:
 Нодон едим, нодонман ҳамон.*

Ko'rib turganimizdek, badiiylik jihatdan Erkin Vohidov tarjimasi rus tilidagi tarjimadan ham go'zalroq chiqqan. Ammo asardagi bosh qahramon monologida aytilgan: "Da steh ich nun, ich armer Tor!

Und bin so klug als wie zuvor;" – iborasini rus tarjimoni B.Pasternak:

*Однако я при этом всем
 Был и остался дураком,
 deb o'g'irsa, yana bir rus mutarjimi N.Xolodkovskiy:
 Был и остался дураком, - deb tarjima qilgan.*

Bu ruscha variantdan esa E.Vohidov shunday tarjima qiladi:

Nodon edim – nodonman hamon.

Ana shu tarjima esa asliyatdagi asl ma'nodan sal uzoqlashgan. Ana shu tarjima muammolarini o'rganish XXI asrning dolzarb muammosi bo'lib qolmoqda.

"Gyotening Sharq falsafasiga yaqinligi mening yo'limni yoritib turdi, ruhimga madad bo'ldi", – deb yozgan edi E.Vohidov. Darhaqiqat, buyuk nemis shoirining bu asari nafaqat dinlararo bag'rikenglik, balki millatlar va madaniyatlararo bag'rikenglik namunasidir. Har bir tarjima original asarning boshqa bir tarjimonning talqinini aks ettiradi. Bu esa o'quvchilarga va tadqiqotchilarga adabiyotni qiyoslash, tarjima jarayonidagi qiyinchiliklar va uslublarni tushunish imkoniyatini beradi. "Faust" asari ko'plab boshqa adabiy asarlar va madaniyatlarga ta'sir ko'rsatgan. Tarjimalarni o'rganish orqali bu ta'sirlarni va ularning jahon adabiyoti va san'atiga bo'lgan ahamiyatini tushunish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Gyote "Faust" asarining tarjimalarini o'rganish nafaqat nemis adabiyotiga, balki umumjahon madaniy merosiga bo'lgan qiziqishni ham oshiradi.

6. Goethe, Johann Wolfgang (2007): „Faust“, der Tragödie erster Teil, in der usbekischen Sprache. Nachdichtung von Poscho Ali Usmon nach der 3. Ausgabe, Verlag Neues Leben Berlin 1966. Гёте, Йохан Волфганг, Фауст, трагедия. Қ.И/Й.В.Гёте: тарж Пошо Али Усмон. – Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти. 3 - б.

7. Gyote, Yohan Wolfgang (1972): Faust. – Toshkent.

8. www.faust.de

9. www.spiegel.de

Чжао Юе,
докторант 3 курса кафедры русской литературы и методики обучения
Узбекского государственного университета
мировых языков

САТИРА В ПОВЕСТИ С.ЗАЯИЦКОГО «ЗЕМЛЯ БЕЗ СОЛНЦА»

Аннотация: статья посвящена рассмотрению первой сатирической повести Сергея Заяицкого «Земля без солнца». Данное исследование включает в себя анализ основных сюжетных элементов, доказывающих наличие сатиры.

Ключевые слова: сатира, повесть, эпизод, ирония, сюжет.

Annotatsiya: maqola Sergey Zayaitskiyning "Quyoshsiz yer" birinchi satirik hikoyasini ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Ushbu tadqiqot satiraning mavjudligini isbotlovchi asosiy syujet elementlari tahlilini o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: satira, hikoya, epizod, kinoya, syujet.

Annotation: the article is devoted to the consideration of the first satirical story by Sergei Zayaitsky "Earth without a sun". This study includes an analysis of the main plot elements that prove the presence of satire.

Key words: satire, story, episode, irony, plot.

Сергей Сергеевич Заяицкий (1893–1930) в свое время был достаточно известным автором, в последствие незаслуженно забытым. Рано уйдя из жизни из-за туберкулеза, он оставил несколько значительных произведений, большинство из которых представляют сатирические повести. Начав творчество со сборника стихотворений (1914), Заяицкий занимался переводами, писал произведения для детей, но в историю русской литературы он вошел, прежде всего, как сатирик. В некрологе, напечатанном в «Литературной газете» 25 мая 1930 г. за подписями Л. Леонова, Б. Пастернака и других известных писателей говорилось: «Он нес в себе поучительную волю к жизни, любовь к ней. В его взгляде на бытие светился тонкий ум, глубокий юмор, пленяющий нас в каждом его произведении» [3, С.413]. Известный литературовед А. Вулис отмечает «незаурядный комедийный дар Заяицкого, развивающий гоголевскую традицию с учетом чеховских уроков» [1, С.3].

Свою первую сатирическую повесть «Земля без солнца» Заяицкий опубликовал в 1925 году. Это произведение, по выражению литературоведа А. Вулиса «усредненный вариант на утопию» [1, С.3], явно пародирует утопии и антиутопии Г. Уэллса (его имя встречается в тексте повести), имеются ссылки на Эптона Синклера, модные приключенческие

романы Пьера Бенуа и произведения Э. Берроуза о Тарзане.

Завязкой действия повести является неожиданное появление в квартире литератора Чашкина известных писателей Пьера Бенуа и Эдгара Берроуза, которые берутся написать совместный роман в стиле антиутопии Герберта Уэллса. К ним присоединяется Эптон Синклер, хорошо известный своими романами о рабочем классе. И далее каждая глава повести написана в стиле одного из них. Заяицкий моделирует типичные для этих авторов мотивы, сцены, особенности языка и стиля.

Сюжет движет научная гипотеза о неизбежном замерзании Земли, описанная в газетах и вызвавшая всеобщую панику: «Солнечная энергия всё уменьшается и уменьшается..., через пятнадцать лет солнце совсем погаснет... Но уже лет через пять земля покроется толстым слоем льда. У нас будет температура междупланетного пространства» [2, С.132]. Это предсказание вовлекает в действие массу различных персонажей.

В первую очередь речь идет о богачах – банкирах, капиталистах, которые тайно от бедняков собираются переселиться в теплые страны, «где охлаждение будет менее чувствительно и наступит не так скоро» [2, С.134], заранее создав там сеть дорогих отелей, построив дворцы. Возникает но-

вый род бизнеса. Никто всерьез не задумывается о катастрофе, все стремятся обогатится, используя момент. Портные изобретают новые фасоны дамских шуб, боязнь темноты приводит к увеличению продажи свечей. При этом бизнесмены уверены, что бедствие коснется только бедняков, у которых нет денег для обеспечения своей безопасности.

Проект «переселения в тропики» разрабатывается всерьез и основательно. При этом низшие классы будут держать в неведении, запретив распространение информации о солнце. Один из толстосумов Сюпре говорит: «Пусть думают, что все по-старому, а мы тем временем успеем присмотреть места, где рациональнее можно было бы продолжать развивать нашу культуру... [2, С.138]. Приближение катастрофы все больше обнажает низкий моральный уровень потребительского общества. Толпы осаждают вокзалы, начинается спекуляция фальшивыми билетами. «Женщины в толпе теряли своих детей, к поездам нельзя было пробраться, крики и плач сливались со свистом паровозов, некоторые люди дралась, как бешеные, только чтобы ухватиться за ручку вагонной дверцы и повиснуть на ней» [2, С.139]. Церковь, как обычно проповедует покорность и смирение, пытается успокоить взбудораженную массу людей.

Тропическая экзотика Берроуза слишком оторвана от реальной жизни и, ее сменяет социальная проза Эптона Синклера. Поскольку катастрофа касается всего мира, надо искать общий язык с Россией, как бы этого не хотелось западным русофобам. В духе американского писателя описаны волнения среди представителей трудящегося класса. Толпы людей осаждают редакции. Заяицкий, разделяющий идеологию «революционного класса» не может обойтись без саркастических преувеличений: «В Нью-Йорке площади кишели людьми, как муравейники. Со всех загородных заводов на автомобилях, велосипедах и роликах съезжались рабочие» [2, С.151].

В конце концов, контакт капиталистического Запада и советского Востока состоялся. Но решения и сотрудничества нет. Демагогия и фанатизм присутствуют в ответе. Вместо конкретных предложений в ответе, появившемся на небе, звучит банальная фраза. «В это же мгновение многоголосый крик поднялся к небу, и от этого крика задрожали,

казалось, и самые стекла на остальных небоскребах. На тучах огненными буквами написано было:

– Пролетарии всех стран, соединяйтесь!» [2, С.151]

Ирония Заяицкого задевает образовавшуюся после бегства капиталистов и отмены государства «единой братской мировой республики» с ее примитивной антибуржуазностью. «Капиталисты и аристократы, улетевшие вовремя, свили себе гнездо среди дикарей тропических чащ. Появился сатирический пролетарский роман, описывающий лесную жизнь светских дам в барышень... Описывалась дуэль английского лорда с орангутангом» [2, С.153]. Эптон Синклер в своей трактовке социалистического будущего так же унижен, как и его предшественники-развлекатели. Показательно, что известные авторы никак не могут закончить их общий роман. У каждого свой вариант концовки, но в любом случае он будет банальностью, а не решением проблемы.

Ссора известных писателей приводит к выстрелам из револьвера Синклера. Нелепость всего описанного подчеркивается в «Эпilogue». Оказывается, все это литератор Чашкин видел во сне, а выстрелы оказываются стуком в дверь посыльного, сообщившего, что Чашкин выиграл большую сумму по лотерейному билету. Сохранит ли он пролетарское мировоззрение, будет ли задумываться об актуальных проблемах современности или станет похожим на высмеянных в романе богачей – остается на усмотрение читателя.

Известный писатель В. Пьецух, автор предисловия к сборнику произведений С. Заяицкого, изданного после долгого перерыва, метко определяет качество его прозы: «В общем, сразу становится ясно, что Заяицкий из тех писателей от господ бога, которые чувствуют родное слово, как гипертоники – игру атмосферного давления, умеют мастерски его ограничить, выставить во всем блеске, показать с неожиданной стороны» [4, С.8].

С. Заяицкий никогда не нарушал своих твердых эстетических принципов. Его произведения демонстрируют талант наблюдателя, писателя-остроумца, философа, умеющего совмещать комическое с трагическим. В этом и состоит его значительный вклад в развитие русской сатирической повести первой половины XX века.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Вулис А. Воскрешение неумирающего жанра//Повелитель железа. Русская авантюрная сатира// Ташкент: Шарк, 1993.
2. Заяицкий С. Земля без солнца//Конец здравого смысла. Русская авантюрная сатира. - Ташкент: Главная редакция издательского полиграфического концерна «Шарк», 1993.
3. Леонов Л., Пастернак Б. Повелитель железа. Русская авантюрная сатира. – Ташкент: Главная редакция издательского полиграфического концерна «Шарк», 1993.
4. Пьецух В. От читателя// Заяицкий С. Судьба-загадка - <http://ruslit.traumlibrary.net>.

Gulinur TURSUNPULATOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti ta'limi
yo'nalishi talabasi

NAVOIYNING NASRIY ASARLARIDA QO'LLANILGAN SHE'RIY JANRLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiyning tarix, tasavvuf, din tarixiga oid prozaik asarlarida uning ilmiy va falsafiy qarashlari o'z aksini topgan. Bu turkumdagi asarlarning har qaysisining o'ziga xos yo'nalishi va ahamiyati, xususiyatlaridan tashqari ularni birlashtirib turuvchi jihatlari haqida ma'lumot berilgan. "Tarixi muluki ajam" asarida tarixning ziddiyatli jihatlari aks etgan bo'lsa, "Muhokamat ul-lug'atayn" va "Mezon ul-avzon" kabi asarlarda Navoiy til va tafakkur, qadimiy o'zbek va forsiy tillarning o'ziga xos jihatlari o'zbek tili va adabiyotining forsiy til, fors-tojik adabiyoti masalalarining qiyosiy tahlili va buning sabablari, adabiy va tarixiy sharoit, aruz va o'zbek she'riyati, aruz vazni kabi masalalar haqida nazariy fikrlar yuritiladi.

Kalit so'zlar: "Xazoyin ul-maoniy", *Holoti Sayyid Hasan Ardasher, Lug'z, Tarjiband, tamsil san'ati, qit'a, fard, Nafohat ul-uns*".

Annotation: in this article, Alisher Navoi's prose works on history, mysticism, and history of religion reflect his scientific and philosophical views. Information is provided about the unique direction and importance of each of the works in this series, as well as their features, which unite them. While the historical property of Ajam reflects conflicting aspects of history, in works such as *Muhokamat ul-Lughatayn* and *Mezon ul-Avzon*, the Navai language and thought, ancient Uzbek and Persian languages, the specific aspects of the Uzbek language and literature are Persian language, Persian - comparative analysis of Tajik literature issues and reasons for this, literary and historical conditions, Aruz and Uzbek poetry, Aruz weight, theoretical opinions are discussed.

Key words: *Khazayin ul-Maani, Holoti Sayyid Hasan Ardasher, Lugz, Tarjiband, Tamsil art, continent, individual, Nafohat ul-uns.*

Аннотация: в данной статье прозаические произведения Алишера Навои по истории, мистике и истории религии отражают его научные и философские взгляды. Приводится информация об уникальном направлении и значении каждого из произведений этой серии, а также об их особенностях, которые объединяют их. В то время как историческое свойство Аджам отражает противоречивые аспекты истории, в таких произведениях, как «Мухокамат уль Лугатайн» и «Мезон уль Авзон», языке и мысли наваи, древних узбекском и персидском языках, специфическими аспектами узбекского языка и литературы являются персидский язык, персидский язык и персидский язык. - сравнительный анализ проблем таджикской литературы и причины этого, литературно-исторические условия, Аруз и узбекская поэзия, вес Аруза, обсуждаются теоретические мнения.

Ключевые слова: *Хазаин уль-Маани, Холоти Сайид Хасан Ардашер, Лугз, Тарджибанд, тамсильское искусство, континент, личность, Нафохат ул-унс.*

Istiqlof davrida ulug' Alisher Navoiy merosini, uning tarixiy, adabiy, falsafiy, diniy-axloqiy qarash va g'oyalarini asl holicha, shoir yaratganidek tarzda tadqiq qilish va o'qitish-o'rganish zarur. Navoiy asarlari badiyatini o'rganish masalasi esa dolzarb masalalardandir. Shuningdek, shoir adabiy merosi umumiy hajmining aniq miqdorini aniqlash ham nihoyatda zarur hisoblanadi.

Ma'lumki, "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotiga Navoiyning 2600 g'azal, 210 qit'a, 13 chiston, 10 lug'z, 86 fard, 133 ruboiy, 52 muammo, 13 tuyuq, 10 muxammas, 5 musaddas, 4 tarjiband, 4 mustazod, 1 tadan musamman, tarkibband, soqiynoma va masnaviysi kiritilgan. Shoir merosining umumiy adadi shumi? Ushbu savolga javob topish maqsadida Navoiy nasriy asarlarining ayrimlariga murojaat qildik va ushbu asarlarda shoirning she'riy janrlardagi turli tuman asarlari borligiga guvoh bo'ldik.

Shoirning nasriy asarlari mavzu mundariyasi, g'oyaviy-badiiy xususiyati axloqiy, ta'limiy va tarbiyaviy

ahamiyatiga ko'ra ulug' ijodkor merosida alohida o'rin tutadi. "Mahbub ul-qulub", "Munshaot", "Tarixi muluki ajam", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" singari didaktik, tarixiy va memuar asarlarida Navoiyning "Xazoin ul-maoniy" kulliyotiga kirgan-kirmagan turli janrdagi o'nlab baytlari bor. Shoirning "Xamsa", "Lison ut-tayr" kabi asarlarida ilgari surilgan diniy-tasavvufiy, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-tarbiyaviy mazmundagi fikr qarashlari ushbu asarlarda ham izchil davom ettirilgan va rivojlantirilgan. Shunga ko'ra, Navoiy nasrida qo'llangan lirik janrlar alohida o'rganilishi kerak. Bu birinchidan, nasr va nazmining mushtarakligini ko'rsatsa, ikkinchidan, Navoiy nazmning umumiy hajmi borasida muqim va muhim qarorga kelishga, ya'ni uning baytlari umumiy miqdorini to'liq aniqlashga imkon yaratadi. Zero, shoir o'zi yozgani (Nazm-u nasrim kotibi taxminshunos, Yozsa yuz ming bayt etar erdi qiyos) singari taxmin haqiqatga aylanardi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiyning

nasriy asarlari, jumladan, “Mahbub ul-qulub“, “Munshaot“, “Tarixi mulki ajam“, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” singari asarlarida ruboiy, fard, qit’a, masnaviy janrlaridagi bir necha o’nlab baytlar qo’llanilgan. Xususan:

1. “Mahbub ul-qulub”da 10 ta ruboiy, 11 ta qit’a, 12 ta masnaviy, 68 ta mustaqil bayt, 4 ta shoir “nazm” deb izoh bergan she’r mavjud.

2. “Munshaot” Navoiyning maktublardan tuzilgan asari bo’lib, unda 75 ta ruboiy, yana bir necha masnaviy keltirilgan.

3. “Tarixi muluki Ajam” – tarixiy asar. Unda 68 ta podshoh haqida ma’lumot berilgan. Asarda shoirning o’zi “she’r” deb izoh bergan to’rtliklarning umumiy soni 47 ta. Diqqat qilmagan kishi barini to’rtliklar deb hisoblaydi. Aslida unday emas. Qofiyalanishiga e’tibor qilinsa, ana shu 47 ta to’rtlik hammasi a-a-b-b tarzida qofiyalangan. Shundan aytish mumkinki, bu baytlar masnaviylardir. Yana 2 o’rinda 1 baytdan a-a tarzida qofiyalangan bayt bor. Asarda 3 ta masnaviy: biri 8 bayt, ikkinchisi 10 bayt, uchinchisi 50 baytdan iborat. Jami she’riy parchalarning umumiy miqdori: 232 bayt, 464 misra.

4. “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” – Navoiyning memuar asarlari sirasiga kiradi. Asarda 2 ta ruboiy, shoir “bayt” deb izoh bergan 8 bayt, “fard” deb izoh bergan 1 bayt, “nazm” deb izoh bergan 2 bayt, shuningdek, izoh berilmagan 9 bayt, 1 ta ikki baytdan iborat Ardasher vafotiga bag’ishlangan forsiy tarixiy she’r keltirilgan. Izoh berilmagan baytlarning uchtasi Mavlono Lutfiy qalamiga, bittasi Mavlono Muqimiy qalamiga mansub. Qolganlari Navoiyning o’z baytlari.

Ushbu raqamlarning o’zi ham Navoiy nasrini, xususan, “Mahbub ul-qulub“, “Munshaot“, “Tarixi muluki Ajam“, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” singari asarlarini lirik janrlar nuqtai nazaridan o’rganish maqsadga muvofiq ekanini ko’rsatadi.

Alisher Navoiy asarlarining deyarli barchasida pand-nasihati, o’g’it, odob axloqqa doir fikrlarni uchratish mumkin. Xususan, “Nazm ul-javohir”dagi ruboiylar boshdan-oyoq kalomi jomi’ san’ati asosida yozilgan. Masalan: Har kimki habibing o’lsa evrul boshig’a, Mahvo’l yuzig’a, jonni fido qil qoshig’a, Tosh ursa, ravoningni tufayl et boshig’a, Tajdidi muhabbat angla bormoq qoshig’a. Navoiy g’azallarining aksariyatida axloqiy yoki ijtimoiy ruhdagi baytlar uchraydi. Shuningdek, to’lalgicha ijtimoiy-axloqiy masalalarga bag’ishlangan ko’plab g’azallar mavjud. Masalan, shoirning quyidagi matla’li g’azali zamon va zamona ahlidan shikoyat asosiga qurilgan:

Topmadim ahli zamon ichra bir andoq hamdame

Kim, zamon osibidin bir-birga aytishsoq g’ame.

(Navodir ush-shabob, 576-g’azal) Kalomi jomi’ san’ati Alisher Navoiyning faqat lirik she’rlarida emas, balki “Xamsa” tarkibidagi dostonlar, “Lison ut-tayr” dostoni va boshqa nasriy asarlari tarkibidagi she’riy parchalarda

ham qo’llanilgan.

Alisher Navoiy ijodida ham tazod san’ati yuksak mahorat bilan qo’llanilgan bo’lib, shoir g’azallarida ushbu san’atning ishlatilishida ikki xususiyat ko’zga tashlanadi. Ba’zi o’rinlarda Navoiy g’azalning bir yoki bir necha baytidagina tazod usulidan foydalansa, shoirning ayrim g’azallari boshdan oxirigacha ushbu san’at asosiga qurilganligini ko’ramiz. Masalan, quyidagi g’azal matla’sida birinchi misra faqat zid ma’noli so’zlardan tashkil topganligini ko’ramiz:

Ne tirigmen, ne o’lug, ne sog’, ne bemormen,
Ayta olmankim, firoqingdin ne yanglig’ zormen.
(G’aroyib us-sig’ar, 497-g’azal).

Alisher Navoiy ijodida tamsil san’atining istifoda etilishi alohida jihat kasb etadi. Shoir lirikasida ushbu san’atning qo’llanilishida janrlararo tabaqalanish mavjudligini kuzatish mumkin. Xususan, poetik dalillash g’azal janrida, asosan, bir bayt doirasida ko’rinsa, qit’a

Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,
Aylamas to’ti takallum shakkaristondin judo.

Ul quyosh hajrinda, qo’rqarmen, falakni o’rtagay
Har sharorekim bo’lur bu o’tlug’ afg’ondin judo.

Dema, hijronimda chekmaysen fig’onu nola ko’p
Jism aylarmu fig’on, bo’lgon nafas jondin judo?

Bo’lsa yuz ming jonim ol, ey hajr, lekin qilmag’il
Yorni mendin judo yoxud meni ondin judo.

Hajr o’limdin talx emish, mundin so’ng, ey gardun, men
Aylag’il jondin judo, qilg’uncha jonondin judo.

Vasl aro parvona o’rtandi, hamono bildikim,
Qilg’udekdur subh ani sham’i shabistondin judo.

Bir iyosiz it bo’lub erdi Navoiy yorsiz,
Bo’lmasun, yo rabki, hargiz banda sultondin judo.



va ruboiyda bir she’r doirasida, tarji’bandda esa har bir band doirasida namoyon bo’ladi, lekin takrorlanuvchi maqta’-bayt tufayli bandlar bir-biri bilan bog’lanib keladi. Natijada maqta’dagi mazmunni dalillash musalsal, ya’ni bosqichli holat kasb etadi (Y.Is’hoqov). Masalan, quyidagi misolda dalillash usuli g’azaldagi bayt doirasida namoyon bo’lmoqda:

Zaxmim ichra qoldi paykoning, ne yanglig’ butkay ul,
Chunki qo’ymas yorag’a yopushqali marhamni su.
(G’aroyib us-sig’ar, 511-g’azal).

Alisher Navoiyning tarix, tasavvuf, din tarixiga oid prozaik asarlarida uning bu sohalaridagi ilmiy va falsafiy qarashlari o’z aksini topgan. Bu turkumdagi asarlarning har qaysisining o’ziga xos yo’nalishi va ahamiyati, xususiyatlaridan tashqari ularni birlashtirib turuvchi jihatlari ham mavjud. Birinchidan, bu asarlar Navoiy ijodi va faoliyati bilan bog’liq ko’p masalalarni to’g’ri tushunish, izohlash imkonini beradi. Ikkinchidan, ularda jamiyat taraqqiyoti tarixi hamda donishmand olim Navoiy bilan buyuk davlat arbobi Navoiy birgalikda fikr yuritadi.

Mazkur asarlarda bu hol quyidagilar bilan izohlanadi: “Tarixi muluki ajam” dagi tarixning ziddiyatli jihatlarini va xuddi shu asardagi mamlakat iqtisodiyoti, madaniy hayotini ko‘tarishga e‘tibor bergan shohlar madhi, bosqinchilik urushi, zulm va adolatsizlikning qoralanishi; “Tarixi anbiyo va hukamo” dagi mashhur mutafakkir va olimlarning payg‘ambar sirasida berilishi, ularning katta husn-rag‘bat bilan tilga olinishi; “Nasoyim ul-muhabbat” dagi yirik shaxslar, tasavvuf arboblari bilan ta‘rif-u madhlar, ularning hayratomuz karomatlari tavsifi orasida goho pardalangan, goho ochiq holda bayon etilgan didaktik pandlar, o‘g‘itlar, oddiy kasb-hunar bilan mashg‘ullik g‘oyasining ilgari surilishi va h.k.; Jomiy avliyo sifatida nom chiqargan so‘fiy faylasuflar to‘g‘risida “Nafohat ul-uns” asarini yozgan edi. Navoiy bu kitobni

san‘atkordir. So‘z san‘atining eng yuksak namunalari sifatida baholangan Navoiy asarlari u yashagan davr, ijtimoiy-siyosiy hayot, adabiy muhit va albatta, zamondoshlari haqidagi muayyan ma‘lumotlarga ham boy. Har bir adabiy tur yoki janrlar imkoniyatidan o‘rinli foydalangan shoir lirik asarlarida zamondoshlari haqidagi fikr-o‘ylarini obrazli, ramziy-majoziy timsol va vositalar orqali ifodalagan. Epik asarlarda – dostonlarining kirish boblari yoxud xotimada zamondoshlari — hukmdor Husayn Boyqaro, shahzodalar – Badiuzzamon Mirzo, Shoh G‘arib Mirzo, Sulton Uvays Bahodir hamda salafllari shular jumlasidan, Abdurahmon Jomiy madhini keltirib, mublag‘adan foydalansa-da, ular haqidagi faktik materiallarga ham tayanadi. Ayniqsa, Jomiyga bag‘ishlangan madhlarini alohida e‘tirof etish mumkin, zero shoir o‘z maslakdoshini ko‘klarga ko‘tarib vasf etsa-da, hayot haqiqatidan uzoqlashmaydi. Jomiyning asarlari, ba‘zi o‘rinlarda ularning yaratilishi bilan bog‘liq ma‘lumotlarni beradi. Ushbu madhlarni o‘rganib, Jomiy haqida ma‘lumotlar olish, u zot siyosini ko‘z o‘ngimizga keltirishimiz mumkin. Navoiyning zamon ahli, o‘tmishda yashab o‘tgan mashhur kishilar xususidagi fikr-mulohazalari ko‘proq ilmiy-nasriy asarlaridan o‘rin olgan. Uning asarlarida ta‘rif-tavsif etilgan tarixiy shaxslarning har birini aniqlash, biografiyasini tiklash mushkul ish. Faqatgina “Nasoyim ul-muhabbat” va “Majolis un-nafois” tazkiralari mingdan ortiq tarixiy shaxslar haqida muxtasar bo‘lsa-da, ma‘lumot berilgan. Shu bilan birga Navoiy o‘z hayotida, tarbiyasida, ijod yo‘lida, kamolotga erishishida muhim o‘rin tutgan zotlar haqida maxsus asarlar bitgan. Jumladan, adibning “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti

“

Junun vodisig‘a moyil ko‘rman joni zorimni,
 Tilarman bir yo‘li buzmak buzulg‘on ro‘zgorimni
 Falak bedodidan garchi manim xoki g‘ubor o‘ldum,
 Tilarman, topmag‘aylar to‘tiyolikka g‘uborimni.
 Demang, qay sori azm etding, menga yo‘q ixtiyor, oxir
 Qazo ilkiga bermishman inoni ixtiyorimni.
 Tugandi ashki gulgun, emdi qolmish za‘faroni yuz,
 Falak zulmi badal qildi xazon birla bahorimni.
 Diyorim ahli birla yordin boshimg‘a yuz mehnat,
 Ne tong, boshim olib ketsam qo‘yub yoru diyorimni.
 Yomon holimg‘a bag‘ri og‘rig‘ay har kimsakim
 ko‘rgay,
 Bag‘ir pargolasidan qong‘a bulg‘ong‘on uzorimni.
 Hayotim bodasidin sargaronman asru, ey soqiy,
 Qadahqa zahr qotil quy,dog‘i daf‘ et xumorimni.
 Jahon tarkini qilmay chunki tinmoq mumkin ermastur,
 Navoiy, qil meni ozod o‘rtab yo‘qu borimni.

ALISHER NAVOIY

G‘azali



turkiy tilga tarjima qildi. Ammo bu tarjima asnosida asarni ko‘pgina yangi ma‘lumotlar bilan to‘ldirib tahlil etdi.

“Muhokamat ul-lug‘atayn” va “Mezon ul-avzon” kabi asarlarda Navoiy til va tafakkur, qadimiy o‘zbek va forsiy tillarning o‘ziga xos jihatlari, o‘zbek tilining so‘z boyligi, fonetik va stilistik xususiyatlari, o‘zbek tili va adabiyotining forsiy til, fors-tojik adabiyoti masalalarining qiyosiy tahlili va buning sabablari, adabiy va tarixiy sharoit, aruz va o‘zbek she‘riyati, o‘zbek xalq she‘riyati va aruz vazni kabi masalalar, davr uchun mustasno ahamiyatga molik nazariy va amaliy muammolar yuzasidan fikr yuritadi. Bu asarning o‘ziga xos xususiyatlari, noyob jihatlari Navoiy ijodining realistik an‘analari va xalqchiligini yuzaga keltiradi.

Xulosa. Alisher Navoiy jahon adabiyotida o‘zining lirik, epik va ilmiy-nasriy asarlari bilan shuhrat topgan

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik (darslik). – Toshkent, 2018.
2. Yusupova D. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub, Munshaot, Vaqfiya. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1998. 300-b.
4. O‘zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. – Toshkent: Fan, 1977. 462-b.
5. www.ziyouz.com sayti.

Dilnura SOTIMBOYEVA,
 Chirchiq davlat pedagogika universiteti
 O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi
dilnurasotimboyeva@gmail.com

IQBOL MIRZONING "BONU" ROMANIDAGI BUXORO SHEVASIGA OID SO'ZLAR VA TURG'UN BIRIKMALARNING TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqolada Buxoro shevasi va uning alohida xususiyatlari hamda turg'un birikmalarning badiiy asar qahramonlari nutqida qo'llanishiga oid tahlil amalga oshiriladi. Bu tahlilni amalga oshirish uchun atoqli yozuvchi, shoir Iqbol Mirzoning "Bonu" romani tanlab olingan.

Kalit so'zlar: *yazna, domod, hesh-aqrabo, shappat, tang'ib, etov, alag'da.*

Аннотация : в данной статье анализируется бухарский диалект и его особенности, а также употребление устойчивых сочетаний в речи героев литературного произведения. Для анализа был выбран роман известного писателя и поэта Икбала Мирзы «Бону».

Ключевые слова: *yazna, domod, hesh-aqrabo, shappat, tang'ib, etov, alag'da.*

Annotation: this article analyzes the Bukhara dialect and its special features, as well as the use of fixed combinations in the speech of the heroes of the literary work. The novel "Bonu" by the famous writer and poet Iqbal Mirza was selected for this analysis.

Key words: *yazna, domod, hesh-aqrabo, shappat, tang'ib, etov, alag'da.*

Kirish: Bilamizki, tilimiz tarixiy taraqqiyoti davomida uchta lahjaga ajratib o'rganilgan. Ularning o'ziga yarasha xususiyatlari, bir-biridan farqli jihatlarini tilshunos olimlar hozirgi kunga qadar chuqur o'rganib kelishmoqda. Shevalar o'zining fonetik, morfologik va sintaktik jihatlariga ko'ra o'zaro farq qiladi. O'zbek shevalari leksik xususiyatlari ham juda farqli o'rganiladi. Har bir shevaning o'ziga xos so'zlari ham mavjud bo'lib, bu so'zlar o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydi, lekin ular adabiy tilning boyish manbalari hisoblanadi. Chunki tilimiz ichki manba hisobidan boyishda shevalardan so'z olish asosida amalga oshiriladi. Shevaga oid so'zlarga badiiy asarlarni mutolaa qilayotganimizda ham duch kelamiz. Bu esa badiiy adabiyotlarga sheva koloritini berish maqsadida qo'llaniladi. Yozuvchi qaysi hududda tug'ilib istiqomat qilsa, o'sha hududning shevasi, madaniyati, urf-odatlariga asarga singdiriladi. Asarda asosan qarindosh-urug'chilikka oid sheva so'zlar qo'llaniladi. Iqbol Mirzoning "Bonu" romanida ham Buxoro shevasida gaplashuvchi aholi tilidagi domod, yazna kabi so'zlarni ko'rishimiz mumkin. Buni boshqa birorta sheva vakillari ishlatmaydi, ba'zilar esa qanday ma'noda qo'llanishini ham bilishmaydi. Xuddi sheva so'zlari kabi iboralar ham ba'zi shevalarda uchrashi mumkin. Adabiy tilda uchraydigan iboralarni asar tiliga kiritish yozuvchidan mahorat talab qiladi. Iqbol Mirzoning "Bonu" romanini tahlil qilar ekanmiz, bir necha shevaga oid so'zlar va iboralarni uchratib qaysi o'rinlarda qanday ma'noda ishlatilganligini izohlab boramiz.

Asosiy qism: roman Bonu ismli qizning boshidan o'tgan voqealari asosiga qurilgan bo'lib, qahramon buxorolik bo'lgani uchun uning tilida qarluq lahjasiga

oid leksemalarni uchratamiz. Yozuvchi so'z boshlar ekan, uning Buxoroning kuyovi ekanligiga ishora qilib tojiklarda, "Domodi man-omadi man"[1] degan ibora borligini aytib o'tadi. Tojiklarda "domod" bu kuyov. Buxoroliklar ham shundan kelib chiqib kuyovini domod deb atashar ekan. Ibora tarjimasida "Kuyovim-omadim" deganidir. Yana bu bilan yozuvchini o'zining vataniga kuyov ekanligini omad sanayabdi.

"Hovliga to'plangan hesh-aqrabo imkon qadar ovozsiz harakatlanar, marhum ruhiga ozor yetkazmaslik uchun past ovozda so'zlashardi" [2]. Bu parchada "hesh-aqrabo" leksemasiga e'tibor qaratsak, bu so'z ham buxoroliklar tilida qo'llanilib qarindosh-urug' degan ma'noda kelgan.

Bonuning hayot sahifalariga qora dog' sifatida kirgan Yusuf obrazining xatti-harakatini tasvirlaganda ham shappat degan so'z qo'llaniladi. Bu adabiy tilimizdagi musht so'ziga yaqin. "Yo meniki bo'lasan, yo hech kimniki! –deb mashina eshigiga tarsillatib shappat urdi".[3] Yusuf bilan bog'liq yana bir jumlada shevaga xos bo'lgan tang'ib leksemasi ishlatilgan. Bu esa adabiy tilda mahkamlab deganidir. "Yusuf gap-so'zsiz cho'qirtikanakni sug'urib, qo'lga ilashgan tikanlarni tergan bo'ldi. So'ng ro'molchasi bilan oyog'imni tang'ib bog'ladi"[4]

"Tobutni yelkalab darvozadan chiqishgach, men lash-lushlarimni ko'tarib akamning etovida hovlimizga qaytib keldim"[5] Bu jumladagi bizga notanish bo'lgan so'z "etov" buxoroliklar nutqida mashina ma'nosida qo'llaniladi.

"Ko'nglim alag'da, xayolim dadamda, har ikki soatdan zuv borib xabar olib kelaman"[6] Bu gapdagi "alag'da" leksemasini g'ash ma'noda kelayotganini ko'ngil so'zidan bilsak bo'ladi. Shevani o'rganar

ekanmiz, undagi ovqat nomlari ham boshqa nom bilan atalganligini asarda uchratishimiz mumkin. „erta bilan borib bir kosa xalisa yeb, bitta yo'rg'alab o'yin tushib kelaman,- deb hammani kuldirgan edi...“[7] Bu o'rindagi xalisa- xalim taomining Buxoro shevasidagi variant edi.

Romanda nafaqat Buxoro, balki o'g'uz lahjasidan ham namunaga ko'zimiz tushadi. Roman qahramoni Bonu Rossiyaga ishlashga borganda xorazmlik Shakarjon opa ismli ayol bilan tanishib qoladi va xotiralarida uning nutqini o'g'uz lahjasida yozib o'tadi: „Manglayi qoro, sani yoshulli oxsham ishdan oldi, anuv bola sotgan ayol ishi bo'yicha uni sudga chaqiribmishla, man nedayo'q odomla uchun sudda dik turadon kishimanmi? Novvoyxonang iyasiyam bizim go'zimizcha tilpon atib, ungayam uqtirdi. Manimcha u ishdanam ayrilding, bechora. O'zim bilan akketin dasam ikki xonali uyda yeddi kishi duramiz. Xo'jayin dim iplos odom gunda boshshimizni sonidi...To'xta bir ayol boradi Dilbar dayan, tursang bamaniga o'xshidi, namozxon. Manda raqami bo'lsa garak. Bo'ldi-ye, mizillama!“[8] Bu ayolning nutqida ba'zi bir so'zlar fonetik qonuniyatlarga asosan o'zgargan bo'lsa, yana birlari esa butunlay so'zning shakli boshqacha. „Yoshulli“ so'zi o'g'uz lahjasida „boshliq“, „dm“ esa „juda“, „mizillama“- „yig'lama“ degan ma'noda ishlatiladi.

Asarda iboralar ham kerakli o'rinlarda ustalik bilan qo'llangan. Bonu o'z hayot yo'lini xotirlarkan, dadasini dastlab o'qishga topshirishga qarshilik bildirmaganini, imtihondan o'tgandan so'ng esa, o'qishga bormaysan deb qattiq turib olganligini aytadi. Shu o'rinda dadasining nutqida „Tengi chiqsa tekin ber“ iborasi aytib o'tilganligining guvohi bo'lamiz. „Qiz bola to'rt yil o'qishi shartmi? Sovchilar orasida tagli-tugli, bamanilari ham ko'p, ularni ranjitish yaxshimas, tengi chiqsa tekin ber, degan gap bor“.[9]

Badiiy asarga ko'rkamlik, zeb beruvchi vositalardan biri turg'un birikma – iboralaridir. „Bonu“ romanida ham yuzlagan o'rinlarda bunday vositalarga duch kelishimiz mumkin. Kitobxon uchun tushunilishi qiyinroq tuyuladigan o'rinlar ibora bilan ifodalansa, asarning mutolaachisi ko'p bo'lishini

ushbu romandagi namunalardan ham ko'rsak bo'ladi.

- Har kim o'z qumochiga ko'r tortadi;
- Kenja qizning mehri-farishtaning sehri;
- Bir kelganning bir ketari bor;
- Yomonning kuchi yapaloqqa yetadi;
- O'lik chiqarganga o'n yil tegma;
- Bemorni ko'rganda hamma tabib, bemorga ko'ringan har kim tabib;
- Gap egasini, bo'taloq tevasini topib oladi;
- Omading bir cho'chisa, baxting hurkib qochar;
- O'chakishgan o't qo'yar;
- Ming qo'yining ishi bir qo'yiliga tushadi;
- Sotuvchi g'o'r bo'lsa, oluvchi sur bo'ladi;
- It egasini, pishak pochasini tanimaydi;
- Sabr qilsang, g'o'radan xolva bitar;
- Qiz bolani kallapo'sh bilan ur, yiqilmasa erga ber;
- Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq.

Ushbu ibora va maqollarning har biri „Bonu“ romanida biror voqeani dalillashga yoki ochiqlab tushuntirib berishga xizmat qilgan.

Xulosa: Har bir yozuvchi yaratayotgan badiiy asarini har tomonlama mukammal bo'lishi uchun turli xil bo'yoqdor so'zlar, iboralar, maqol va matallardan foydalanadi. Bonu ham yozuvchi bilan yozishmalarida shunday birliklardan mahoratli foydalangan. Yana bir ustunlik jihati badiiy asar tilining yanada ishonarli va jonli tasvirlashga xizmat qiladigan unsur – sheva so'zlaridan foydalanganligidir. Asar hajmi katta bo'lishiga qaramasdan bir nafasda o'qiladi, tushunilishi ham murakkab emas. Bonu ko'p muddat yashash hududidan uzoqda yuradi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, so'z orqali o'zi yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib, shevaga oid so'zlarni qo'llagan. Sheva so'zlari va turg'un birikmalar mahalliy kaloriya, hududiy mansublikni o'zida aks ettirish bilan birga badiiy matnda muayyan estetik funksiyani bajaradi. Xullas, bu birliklarning barchasi asarning mukammal bir badiiy san'at bo'lishiga ko'maklashadi. Bular esa yozuvchidan katta mahorat talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzo. „Bonu“.–Toshkent: „Sharq“ nashriyoti matbaa, 2020. 1,2,3,4,5,6,7,8,9-b.
2. Ashirboyev S. „O'zbek dialektologiyasi“. –Toshkent: „Navro'z“ nashriyoti, 2016.
3. Rajabov N. „O'zbek shevashunosligi“. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
4. WWW.Ziyo.Uz

Gulnora XIMMATOVA,
 Chirchiq davlat pedagogika universiteti
 O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi
gulnoraximmatova48@gmail.com

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RLARIDA ONA VA ONA VATAN TASVIRI UYG'UNLIGI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbekning asl qizi va shoirasi Halima Xudoyberdiyeva she'rlaridagi ona va ona Vatan tasviri tahlil qilingan. Halima Xudoyberdiyevaning ijodiy konsepsiyasiga xos bo'lgan belgilar, ona va Vatan tushunchalari parallelizmi ham o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *estetik baho, konsepsiya, poetik mahorat, avtopsixologik lirika, badiiy tahlil.*

Аннотация: в данной статье анализируется образ матери и Родины в стихах Халимы Худойбердыевой, родной дочери Узбека и поэтессы. Также изучаются символы, характерные для творческой концепции Халимы Худойбердыевой, параллелизм концептов матери и Родины.

Ключевые слова: *эстетическая оценка. Концепция, поэтические способности, аутопсихологическая лирика, художественный анализ.*

Annotation: this article analyzes the image of mother and Motherland in the poems of Halima Khudoyberdiyeva, the original daughter of Uzbek and poetess. Symbols typical of Halima Khudoyberdiyeva's creative concept, the parallelism of the concepts of mother and Motherland are also studied.

Key words: *aesthetic assessment. Concept, poetic skills, autopsychological lyrics, artistic analysis.*

O'zbek she'riyatida benazir iste'dod egasi, o'ziga xos badiiy ifoda uslubiga ega shoira Halima Xudoyberdiyeva ijodiga munosabat doimo muhim ahamiyat kasb etgan. Badiiy did, poetik mahorat, shoirona sezim vositasida sayqallangan she'rlarida o'zbekning milliy nigohi, hayot va tafakkur tarzi yaqqol sezilib turadi. Masalan, Halima Xudoyberdiyevaning "Eldoshlarim", "Inshoolloh", "So'nggi oh", "Tushunmasman", "Dunyolarga sig'magan g'avg'o", "Men ketsam", "Eldoshlarim ichra yurib", "Hurlik o'ti", "Bu dunyoning ko'zlari", "Zehn solsam" kabi qator lirik asarlarida zamonaviy adabiyot va milliy ruh, xalq og'zaki ijodi, mumtoz va jahon adabiyotidan ilhomlanish, sintezlashuvi natijasida lirikasining estetik bahosini yuksaltira olgani diqqatga sazovordir. Umuman olganda, ijodkorning dunyoqarashi keng, adabiyot va ijod oldidagi mas'uliyati naqadar kuchli bo'lsa, uning asarlari yanada mukammallashib, badiiy ifoda usullari rang-baranglashib boraveradi. Bu xususiyatlar lirik qahramon tabiati, obrazlar dinamikasida o'z ifodasini topadi.

"Avtopsixologik lirika deganda lirik qahramon bilan shoir shaxsiyati mos tushgan, ikkalasi bir-biriga yaqin bo'lgan she'rlar tushuniladi. Ya'ni avtopsixologik she'rlarda shoir o'z qalbiga murojaat qiladi, o'z-o'zini ifodalaydi". Demak, ko'p hollarda biz lirik qahramon obrazini tahlil qilganimizda, ijodkor "men"i bilan uyg'unlashganini ham kuzatamiz. Halima Xudoyberdiyevaning quyidagi she'ri bunga misol bo'ladi.

Mirzacho'l qiziman, maqsadim ulug',

Ufqlar singari porloqdir yo'lim.

Ona Mirzacho'lim! O, bag'ring so'lim,

Farzanding yuragi ishqing-la to'liq.

Bu asarda millatning bir bo'lagi hisoblangan

makonda butun boshli Vatan manzarasini jo eta oladi.

Shunday o'rgat qulni, xonni,

Uchmas qush ham uchar bo'lsin.

To bayroqdan oldin jonni,

Bermoq oson kechar bo'lsin.

Shoiraning lirik qahramoni tabiatan isyonkor, adolatsizlikka nisbatan ayovsiz. Shuning uchun u qo'llagan so'zlar lirik qahramonning vatanga muhabbati va millatsevarligini ko'rsatib turibdi. Inson bolasi uchun jon shirin, shuning uchun u yoshidan qat'iy nazar, o'limni eslashni istamaydi. Shoira da'vatida yurt bayrog'ini bergandan ko'ra, jonini berish oson bo'ladigan mardlarni tarbiyalashga chorlov bor. Yuqorida keltirilgan misralar Najmiddin Kubro timsolidagi asl vatanparvarlikni yana bir qur eslatadi.

Ona yurtini chin dildan sevgan, uning o'tmishini chuqur o'rgangan, millatni mutaraqiy o'lkalar safida ko'rish orzusini mujassam etgan lirik kechinmalar asosiy pafosni tashkil etadi. Misralari zamirida hayotning turfa rang va ohanglari butun betakrorligi bilan ajralib turadi.

"Tushunish – boshqa bir insonning ma'naviy-ruhiy olamini anglash, his etish, uning maqsad, g'oya va niyatlarini uqib olish demakdir. Chunonchi badiiy asar sohibi o'z qalbida kechayotgan tuyg'ularni, inson va borliq xususidagi hissiy qarashlarini qog'ozda to'liq ifoda eta olmaydi. Shu sabab muallifning ma'naviy dunyosi, badiiy olami matnda ifodalangan mazmunga nisbatan ancha keng bo'ladi". Darhaqiqat, Halima Xudoyberdiyeva millat va zamondoshlari dardini o'ziniki deb biladi, shuning uchun lirik qahramoni Ona Vatan va onaga talpinish kabi o'zbeklarga xos fazilatlarini mahorat bilan uyg'unlashtiradi.

Ona allasiday, shirin, lazzatli,

*Kuy bo'lamasa kerak san'at bobida.
Ona orzusiday teran, qanotli,
So'z yo'qdir shoirning she'r bisotida.
Ona ko'zlariday u ishonch chaqnoq,
Mehr to'la ko'zlar uchramas sira.*

Adabiyotshunos Uzoq Jo'raqulov she'rda shoirning o'rnini quyidagicha baholaydi: "Ijodkor insoniyat haqida yozar ekan, aslida o'zi haqida so'zlayotgan bo'ladi yoki aksincha, o'zi haqida gapirayotib umuminsoniy muammolarni qalamga oladi".

Shoira Halima Xudoyberdiyevaning lirik qahramoni ijtimoiy-axloqiy pozitsiyasining faolligi, tadqiqiy izchil xulosalarga egaligi va teran nigohi bilan ajralib turadi. Shoira ijodi o'tgan davrda dinamik rivojlanishda bo'ldi. U bir she'rda shunday deydi:

*Qadim hayot yo'llarida
Ko'prik zoti-ayol, bas.
To'marisning qo'llaridan
Tug' olmagan ayolmas.*

Bu Halima Xudoyberdiyevaning ijodiy konsepsiyasiga xos bo'lgan belgilar, ona va Vatan tushunchalari parallelizmi namunasidir. Shoira bu misralar orqali ayol zotining "ko'prik" ekanligini, ayolning olamshumul ishlarga qodir savqi tabiiy xislatga ega ekanligini qalamga oladi:

*Ulug'bekday bitta o'g'lon,
Tug' olmagan ayolmas.*

Ya'ni yurtga Mirzo Ulug'bek kabi ziyoli insonni berish har bir onaning ezgu maqsadi bo'lishi kerakligini qat'iy ta'kidlaydi.

*Bari yolg'on,
Shu yo'lgina chin.
Bu yo'lda yurmasan, uhasan.
Faqat unda ketmoqlik uchun,
O'zing bor-yo'g'ingdan kechasan.*

Shoira el-yurt xizmati uchun doimo uyg'oq, bedor bo'lish kerakligini misralar zamiriga singdirib boradi. "Yo'l xronotopi" orqali badiiy umumlashma fikrlarini bayon qiladi. Qolaversa, Halima Xudoyberdiyeva lirikasidagi badiiy bo'yqadorlik nihoyatda original. Uning she'riyati nafaqat o'z davri adabiy jarayoni, balki butun o'zbek she'riyatida yangi hodisa bo'ldi.

"Odil Yoqubov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon, Rauf Parfi, Halima Xudoyberdiyeva, Azim Suyun, Usmon Azim, Shavkat Rahmon kabi ijodkorlarning asarlari ana shu mushtoqlik va tashnalikni qondirguvchi ma'naviy-ruhiy buloqlar edi", degan fikrini to'la quvvatlash mumkin.

Keyingi vaqtlarda dunyo adabiyotshunosligida ijodkor konsepsiyasini turli rakurslarda o'rganish, uning poetik asoslari, shakl va mazmun, janr va badiiy uslubning estetik xossalari singari nazariy masalalarni tadqiq etish tamoyili yetakchilik qilmoqda. Shoira ijodini ana shunday yangicha konsepsiyalar asosida tahlil qilish yangidan yangi xulosalar taqdim etishi tabiiydir. Ijodkor milliy ruh ifodasini tasvirlashda xalq og'zaki ijodi,

qadriyatlar, milliy koloritni mahorat bilan tasvirlaydi.

Zamonaviy adabiyotda ham "shoir o'quvchining estetik ehtiyojiga monand she'rda tasviriylikka, his-tuyg'ularini vizual obrazlar asosida ulashishga intiladi".

"Ulug'bekka ko'ylak tikdim" she'rda egar-jabduq, G'irko'k, G'iro't, sut, don, qamchin kabi detallarni obraz darajasiga ko'tara oladi. "Hamqishloqlarim" she'rda yuqoridagi detallar – ona hamda Ona Vatan obrazlari yanada teranlashib, kengayib boradi. Saman ot, chavandoz, otlarning dupuri, ayvon, o'rmak obrazlari fikrimizga misoldir.

*Hazrati Navoiy-ku nazm bobida shoh o'tdi,
Mangu takror o'lmag'ay endi bu yangiroq o'tdi.
Ammo ko'ngil uyida yoqmasdan chiroq o'tdi,
Ammo bu shohir ko'ngil dog' otdi-ku, momojon,
Yo rab, shoh yigit umri toq o'tdi-ku,
Nodirai davron-ku surardilar davronni,
She'r ila kuylardi xalqiyu Umarxonni.
Nechun kun kelib u ham jallodg'a berdi jonni,
Hatto Mohlaroyimday oyim bebaxt, momojon,
Ayting, kimga baxt bergan bu taxt, Momojon.*

O'zbek adabiyotining takomilida Qur'oniy mavzularning sezilarli darajada ekanligini yaxshi bilamiz. Zotan, "...shoirimiz Xo'ja Ahmad Yassaviydan Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab, So'fi Olloyorgacha va boshqa ko'plab qalam ahli ijodida Qur'onning katta ta'siri bor".

*Ona elim, yer bag'irlab, cho'kkán el,
Hosilni ko'rmadi, faqat ekkán el,
Xudo nazar qilgan, nazar tekkan el
Tillaringdan uchgaymikin so'nggi oh,
Qo'llarimning kishani yo'q, yo Alloh!*

Haqiqiy ijodkor folklor materiallaridan ruh oladi, xalq dostonlari va ertaklarida mavjud obraz va timsollarni qayta ishlaydi, maqol va matallardagi oz so'zda teran mazmunni ifodalash usullaridan san'atkorona foydalanib, poetik jihatdan takomilga yetkazadi. Xalq og'zaki ijodi motivlarining badiiy sintezi ijodkor estetik tafakkuri takomilida alohida o'rin tutgan.

Shoirning ushbu she'ri, haqiqatdan ham, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Abdulqodir Bedil, Alisher Navoiy hikmatlariga kelbat beradi. Ohangi, ritmiga ko'ra yangilik bilan an'ana maromini sintezlaganga o'xshaydi. She'rda uzoq va yaqin tarixga oid muayyan voqealar, umumbashariy dalillar mazmuni metaforalashgan.

*Allohga yolvorib, bir munglig' xayol,
Xalqim deb yig'ladim qaddim bo'lib dol.
Xalqqa To'mariday bir yovqur ayol,
Xalqqa Temurday bir er deb yig'ladim.*

"Tabiiyki, boy adabiy an'anaga tayangan adabiyotning rivojlanish imkoniyatlari boshqalarga nisbatan yuqori bo'ladi. Masalan, xalqimizning boy adabiy-madaniy an'analari XX asr boshlarida kuzatilgan yangi o'zbek adabiyotining shakllanish jarayoni tez

kechishini ta'minladi" .

Halima Xudoyberdiyeva ijodining badiiy-konseptual asosini mumtoz adabiyotdan ilhomlanish, o'z davri shoirlari kabi milliy o'zlikka qaytishga intilish, inson qalbi va ruhiyatini teran his etish kabilar tashkil etadi. Bu kabi milliy va umuminsoniy masalalarni lirikada ifodalashda nafaqat badiiy, balki falsafiy, ijtimoiy, poetik tafakkur yuksak bo'lishi kerakligini shoira adabiy merosida

ko'rsatib ketdi. Qolaversa, shoiraning she'rlarida bir qancha xalq maqollari, ibratli so'zlar uchraydiki, bu shoira ijodiy konsepsiyasida va shaxsiyatida milliy ruhning teran ifodasidan darak beradi. Halima Xudoyberdiyeva ona va Vatan obrazini hech qachon ayro tasavvur qilmaydi. Uning nazdida onani chin qalbdan ardoqlagan avlod albatta, ona Vatanni ham shu qadar sevadi va e'zozlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davlatov O. Alisher Navoiy she'riyatida Qur'on oyatlari va hadislarning badiiy talqini. F.f.fr.d.Dist...avtoref, –T.:1 2019.
2. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. – T.:Fan, 2006
3. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. –T.: G'afur G'ulom NMIU. 2016. 211-b.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: Fan, 2007.
5. Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.:Akademnashr, 2018.
6. Quronov S. Oybek lirikasida badiiy sintezning ifodalanishi. – T.: Sharq yulduzi, 2015
7. Xudoyberdiyeva H. Saylanma. 1-jild –T: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyi, 2018.
8. Xudoyberdiyeva H. Saylanma. T.: Sharq nashriyoti, 2000.
9. Yo'ldosh Q. Erk va g'urur ohanglari /Yo'ldosh Q. So'z yolqini kitobida – T.: G'afur G'ulom, NMIU.2018.

Rufina Abdullayeva,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, o'zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi

UVAYSIY IJODIDA CHISTONNING O'RNINI

Annotatsiya : chiston har bir shoirning olam, odam va borliqni kuzatish, atrof-muhitni ilg'ash darajasini ko'rsatadi. Uning oddiy predmetlardan badiiy obraz yaratish salohiyatini aniqlash mezoni bo'lib xizmat qiladi. Uvaysiyning shoira sifatida shuhrat topishida chistonnavisligining alohida o'rne bor. Ushbu maqolada Uvaysiy lirikasida chistonning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar : *chiston, janr, badiiy timsol, ramziylik.*

Annotation : chiston shows the level of every poet's observation of the world, people and beings, and the environment. It serves as a criterion for determining the potential of creating an artistic image from ordinary objects. Chistonnavis has a special role in Uvaysiy's fame as a poet. This article talks about the importance of chiston in Uvaysiy's lyrics

Key words: *chiston, genre, artistic representation, symbolism.*

Аннотация : чистон показывает уровень наблюдательности каждого поэта к миру, людям и существам, окружающей среде. Он служит критерием определения возможности создания художественного образа из обычных предметов. Особая роль в славе Увайси как поэта принадлежит Чистоннавису. В данной статье говорится о значении чистона в лирике Увайси.

Ключевые слова : *чистон, жанр, художественное изображение, символика.*

Uvaysiy o'zbek adabiyotida eng ko'p chiston aytgan ijodkor sifatida e'tirof etiladi. Uning nashr etilgan devonlarida 13 ta chistoni bor. Ammo manbalarda uning 50 dan ortiq chistonlari ma'lumligi bayon etiladi. Akademik Avliyo Muhammadiyev o'z xotiralarda, hatto, shoiraning "Chistonlar to'plami"ni ko'rganini eslaydi. Bir nechta bizga noma'lum chistonlari nomlarini sanaydi: "Shoira enamning dugonasi bo'lgan. Chistonlar to'plami" ni sovg'a qilgan. Afsus, 1930-yillarda jonimizni asraymiz, deb arab alifbosida yozilgan juda ko'p qo'lyozmalarni yo'q qilib yuborganmiz. Men qovun tiligi, aravaning o'qi, qaychi, anor haqida o'nlab chistonlarni yod olganman". Ijodi mahorat cho'qqisi sanalgan Alisher Navoiy devoniga 10 ta chiston kiritilgan. Navoiy va Uvaysiy yaratgan chistonlarda o'zaro bog'liqlik sifatida "Anor" va "Qaychi" chistonlarini keltirish mumkin. Har ikkala ijodkor ham "Anor" va "Qaychi" nomli chistonlar yaratishgan. Uvaysiy chistonlarini bir, ikki, ba'zan uch bayt shaklida, Navoiy esa, asosan, qit'a shaklida yaratgan.

Navoiy ijodidagi chistonlar, asosan, hajmi jihatdan katta. Ular 6, 8, 10 misradan, faqat 2 tasi 4 misradan iborat. Navoiy chiston uchun tanlagan predmetni batafsil tavsiflaydi. Unga xos belgi, sifat va xususiyatlarni aniq ko'rsatadi. Inson hayotidagi o'rne va vazifasiga ham e'tibor qaratadi. Asar zamiriga jamiyatdagi, ijtimoiy hayotdagi hodisa va holatlarni singdirishga harakat qiladi. Tanlagan predmet yoki obraz vositasida jamiyat noqisliklarini fosh etadi.

Navoiyning devonida “Minqor” nomli chistoni bor. Shoir unda qaychining tuzilishi, shakli xususiyatlarini tavsiflash yo‘lidan boradi. Tasvir jarayonida har bir misrada o‘quvchini hayratlantirishga, chuqur fikrlatishga intiladi:

*Ne qushlar erkin alarkim, birardurur qanoti,
Qanotining uchida har birisiga minqor.*

*Biror ayog‘lari ham bor-u turfaroq bukim,
Ayog‘ uchida biror ko‘z ham ettilar izhor.*

*Qachon ayog‘larin almashtirurlar, ul soat
Qanot urarg‘a bo‘lurlar tayurdek tayyor.*

Qanot ko‘p urmoq ila bir kori ucharlari yo‘q,

Ucharda garchi koridur alarg‘a istizhor (Навоий, Хазойин ул-маоний, 2016).

Shoir qaychini shunday tasvirlaydi: Qanday ikki qushki, qanotlari bittadan. Har bir qanoti uchida tumshug‘i bor. Bittadan ayog‘i ham bor. Ammo ajablanarlisi shundaki, oyog‘i uchida bittadan ko‘zi ham bor. Oyoqlari harakatga kelganda esa, ular xuddi qushdek uchishga tayyor bo‘ladilar. Ammo ko‘p qanot urganlari bilan ucha olmaydilar. Garchi uchsalar ham, ularga, albatta, madad kerak bo‘ladi.

Navoiyning mahorati shundaki, qaychining shakli xususiyatlarini aniq, tushunarli va mukammal tasvirlagan. Shoir qaychining ko‘rinishini badiiy timsollarda moddiylashtirgan. Qush, qanot, oyoq, ko‘z, tumshuq timsollari shular jumlasidandir. Chiston 8 misradan iborat. Dastlabki 4 misrada shakl ko‘rinishi tasvirlanadi. Keyingi 4 misrada esa shu predmetning harakatlanishi nazarda tutiladi. Navoiy ushbu chistonda shoirona taxayyulning noyob qudratini namoyish eta olgan. O‘zbek mumtoz adabiyotida qaychining takrorlanmas, noyob tasvirini yaratgan. Uvaysiy chistonlarida esa xalqona soddalik, donishmandlik va hajm jihatdan qisqalik ko‘zga tashlanadi. Uning ham “Qaychi” deb nomlangan chistoni bor. U ikki misradangina iborat:

Ikki mahubeni ko‘rdum, ikkisini kindigi bir,

Ikkinin orasiga tushsang, topadursan kasir (Увайсий, Девон, 1963).

Shoira qaychining ikki oyog‘ini ikki do‘st timsolida moddiylashtirmoqda. Ular shunday qadrdon do‘stlarki, hech qanday holat bir-birlaridan ajratolmaydi. Bunday yaqinlikni ifodalash uchun xalq “kindigi bir” iborasini qo‘llaydi. Shoira shu xalq iborasini ustalik bilan qo‘llaydi. Xalq tomonidan ramziy ma‘noda aytilgan fikrdan shoira ikki – ham zohiriy, ham botiniy ma‘noda foydalanadi. Qaychining zohiran kindigi bir va botinan ham bir. Chunki barcha ish birgalikda amalga oshiriladi. Chistonning birinchi misrasida qaychining shakl xususiyati tasvirlanadi. Ikkinchi misrada esa uning vazifasiga e‘tibor qaratiladi. Uvaysiyning she‘riy uslubiga xos bo‘lgan ko‘p ma‘nolilik, ramziylik ushbu chistonda ham saqlangan (Xaqkulov, Uvaysiy шеърляти, 1992).

Shoira chistonda ham qaychi, ham do‘stlik haqidagi tasavvurni mujassamlashtirgan. Ikki mahbuba timsoliga katta ma‘naviy-ijtimoiy mohiyatni ham singdira olgan.

Qaychi – insonga do‘st. U xayrli amallarni bajaradi. Ammo uning orasiga tushib qolsangiz, ayamaydi. Shoira bu holatni insoniy munosabatlarga ham tatbiq etadi. Ya‘ni, do‘stlik - buyuk kuch. Agar unga rahna solinsa, xalaqit berilsa, o‘z qudratini ko‘rsatadi. Uvaysiy bunday nuqtai nazarni chistonga bejiz singdirmagan. Chunki uning Nodira bilan do‘stona munosabatiga, ustoz-u shogirdlik maqomiga hasad nigohi bilan boquvchilar ham yo‘q emas edi. Uvaysiy uslubidan boxabar o‘quvchi misralar zamiridagi dadil hukmni anglashi qiyin emas. Bu, ayniqsa, ziddiyatlardan xabardor shoira zamondoshlariga juda tushunarli bo‘lgan. Demak, “Qaychi” chistonida predmetning sifat va xususiyatlari aniq, tushunarli tasvirlangan. Shu bilan birga, shoira mahorati tufayli unga jiddiy insoniy munosabatlar, muhim ijtimoiy muammolar ham singdirilgan. Bu asarning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi. Navoiy va Uvaysiyning bir mavzuda yaratilgan “Anor” nomli chistonlari ham bor. Bularni qiyosan o‘rganganimizda har ikki shoir ijodining mushtarak va o‘ziga xos qirralari namoyon bo‘ladi. Ikkala shoir ham tabiatning mo‘jizaviy, noyob ne‘mati anorning sifat va xususiyatlarini mukammal tasvirlab bera olishgan. Navoiy anorni tavsiflashda ikki timsoldan foydalanadi. Birinchisi, cho‘g‘ to‘ldirilgan mijmar, ikkinchisi, durlarini makkor davron qonga “uyurgan” (aylantirgan) sadaf:

Ne mijmardur, to‘la axgar vale ul mijmar andomi,

Erur sun‘ ilgidan gohe musaddas, gah musamman ham.

Chiqar ravzandin axgari dudi-yu bu turfakim, oning

O‘tig‘a dud yo‘qtur, mijmarig‘a balki ravzan ham.

O‘t-u mijmar dema, bor ul sadafkim, durlarin oning

Uyurdi qong‘a davroni musha‘bid, charxi purfan ham.

Agar bu nav‘ emas, bas ne uchun barmoq kuchi birla

Bo‘shar jismi, oqar qoni, anga majruh o‘lub tan ham.

Nechakim tab‘i noridur va lekin me‘da norig‘a

Berur taskin, munung naf‘in topibmen voqian men ham. (Навоий, Хазойин ул-маоний, 2016).

Shoir timsol tanlashda anorning shakli, rangi va tuzilishini asos qilib oladi va nihoyatda nozik did bilan uning muqoyasasini topa oladi. Chiston o‘ziga xos kompozitsiyaga ega. Shoir, dastlab, anorni cho‘g‘ to‘la mijmarga o‘xshatadi. Mazkur timsol uning sifatlarini to‘liq mujassamlantiradi. Ammo shoir bu bilan qanoatlanmaydi. U anorga yanada mukammalroq qiyos izlaydi. Uni endi sadafga o‘xshatadi. Shoir bunda faqat anorning shakli emas, balki, uning uzoq davom etuvchi shakllanish jarayonini ham (sadafda dur paydo bo‘lgani kabi) nazarda tutadi.

Tabiatning go‘zal va mo‘jizaviy ne‘matlaridan biri anordir. Anor donalarining aqiq la‘llardek bir tekisda terilganligi, nafis pardaga o‘ralganligi va bu sirli go‘zallikning anor po‘sti ortida pinhonligi Tangrining mo‘jizasi deyish mumkin. Uvaysiy anorni olib unga she‘r yozar ekan, ko‘nglidan teran mulohazalar o‘tgani aniq:

*Ul na gumbazdur: eshigi, tuynugidan yo'q nishon,
Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur makon.
Sindurub gumbazni, qizlar holidin olsam xabar,
Yuzlarida parda tortig'liq, turarlar qon. (Uvaycuu,
Devon, 1963).*

Albatta, chistonda Uvaysiyning birinchi maqsadi o'quvchi tasavvurida anorni shakllantirish. U bu vazifani mukammal bajara olgan. Shoira anor shaklini eshik va tuynuksiz gumbazga, uning donalarini yuzlarida parda tortilgan, yurak-bag'ri qonga to'la "gulgunpo'sh" (qizil kiyimli) qizlarga mengzaydi. Uvaysiy chistonini kuzatib, o'ziga xos timsol qo'llash mahoratining guvohi bo'lamiz. Shoira anorning noyob, yangicha tasvirini yaratishga erishadi.

Uvaysiy anorni hech qanday shubhaga o'rin qoldirmay, aniq, tushunarli va ixcham shaklda tasvirlab bergan. Ammo Uvaysiyning she'rdan maqsadi shu bilan yakunlanmaydi. Shoira she'riy uslubiga xos bo'lgan ko'p ma'nolilik ushbu asarda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Adabiyotshunosligimizda "Anor" chistonining bu jihati e'tirof etilgan: "To'rt misraga sig'dirilgan katta mazmunga anor ta'rifinigina emas, balki to'rt devor orasida ovoz chiqara olmasdan faryod qilayotgan, qavat-qavat niqob orqasida yorug' olamni ko'rish imkoniyatidan mahrum etilgan millionlab mahzuna, munglig' ayollarning hayoti, taqdiri mujassamlashtirilgan. Anglashiladiki, shoira ikkinchi maqsadi anorning donalarini qizlarga qiyoslash orqali ularning erksiz qismatiga e'tiborni qaratish. Ammo shoira she'riyatining umumiy mohiyatidan kelib chiqib fikrlasak, uning chistondan ko'zlagan uchinchi maqsadini ham anglash qiyin emas (Komilov, Tasavvuf yohud komil inson axloqi, 1996).

Uvaysiyning ushbu chistonida anor foni dunyo tilsimlarini o'zida mujassamlashtirgan ramziy timsol darajasiga ko'tariladi. Shoira anorning tashqi ko'rinishini chek-u chegarasiz niliy gumbaz bo'lib ko'rinishini dunyoga qiyoslayapti: "Ul na gumbazdur: eshigi tuynugidin yo'q nishon". Qizil rang bag'riqonlik, hijron, ayriliq ramzi. Parda esa solik bilan Oloh vasli o'rtasidagi to'siq. Demak, xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ushbu to'rtlikda shu paytgacha biz talqin etib kelgan zohiriy mazmundan tashqari, teran falsafiy, botiniy g'oya ham mujassamlashtirgan. Shoira anorda dunyo timsolini tasavvur etyapti. Anor dunyoga o'xshaydi. U shunday bir gumbazki, na eshigi bor, na tuynugi. Unda ko'plab insonlar makon qurgan. Ularning holidan xabar olinsa, u yerdagi hayotning asl mazmuni haqida tafakkur qilinsa, haqiqat ayon bo'ladi: ilohiy visoldan mahrumlik. Bu yo'lda moddiy dunyoning to'siq, parda ekanligi. Shoira anor tuzilishida ilohiy visoldan foni dunyo pardasi bilan to'silgan, ayriliqdan bag'riqon kimsalar taqdirini

ko'rgandek bo'ladi. Anor tilsimotini, asrorini anglash uchun uning po'stini ochib, cheksiz kenglikka erishish kerak. Demak, anor biz uchun ibrat.

Uvaysiy chistonlarining asosiy qismida savol qo'yish usuli yetakchilik qiladi. Jumboq, asosan, birinchi misrada keltiriladi. Shoira topqirlik bilan qo'llagan so'rog'i o'quvchi diqqatini bir nuqtaga jamlashga xizmat qiladi. Shundan so'ng, nazarda tutilgan predmetning sifat, belgi va xususiyatlari ta'riflanadi. Shoira chistonlarida nazarda tutilgan har bir predmet badiiy obraz darajasiga ko'tarilgan. Ularning asosini metaforik o'xshatishlar tashkil etadi. Jumladan, eshigi tuynugi yo'q gumbaz, qanot-u pardalari qip-qizil, ko'zga ko'rinmas qush, qonxo'r ikki daryo, cho'tir yuzli kelin, boshi bilan yuruvchi oyog'i yo'q mavjudot, jazirama yozda issiq, yashil to'nda yuruvchi jonzot va yana ko'plab noyob taxayyulot mahsuli bo'lgan timsollar. Shoira deyarli barcha chistonlarida dastlabki misrada atalmishning shakliga e'tibor qaratadi. Uni tasvirlaydi. Keyingi misralarda esa uning holati, qilmishi, vazifasini ifodalashga o'tadi.

*Ikki mahbubni ko'rdum, bir-birinin ko'rmagan,
Ikkisining o'rtasiga, do'stlar, qil sig'magan*

(Kun va tun).

Bir-birin ko'rmagan ikki do'st. Ammo ularidan qil ham o'tmaydi. Ya'ni o'zaro juda qadrdon. Har doim yonma-yon va ayrilmas. Shu keltirilgan ta'riflarning o'zi o'quvchini tafakkur olamiga yetaklaydi. Ikki do'stning kimligini o'ylay boshlaydi. Shoira fikrini obrazli tarzda chuqur mantiq asosida ifodalaydi. Ikki mahbuba timsoliga istiora san'ati vositasida keng ma'no yuklaydi. Shoira chistonlarida xalqona uslub yaqqol seziladi. Qo'llangan har bir so'z sayqallangan va o'zining muqim o'rmiga ega. Hayotiy tajribalardan saralangan donishmandona xulosalar ifodalanadi. Ular zamiriga ba'zan yumor, ba'zan kinoya singdiriladi.

Uvaysiy chistonlarining barchasi esa nisbatan yengilroq ohangga ega ramali musammani mahzuv va ramali musaddasi mahzuv vaznlarida yaratilgan. Bu shoira uslubining xalq og'zaki ijodiga monandligini ko'rsatadi. U timsol tanlashda xalq og'zaki ijodi mahsullaridan, hikmat va naqlaridan unumli foydalanadi. Bu borada noyob iste'dodga ega ekanligini namoyish eta oladi. Chistonlarida zohiriy va botiniy mazmuni mujassamlashtirib ifodalashga harakat qiladi. O'zbek mumtoz adabiyotidagi chistonning tarixiy takomilida Uvaysiy ijodining beqiyos o'rni bor. Shoira uni mazmun –mundarija jihatidan ham, badiiy mahorat va shakl xususiyatlari nuqtai – nazaridan ham yuksak bosqichga ko'tarishga erishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilov N. Tasavvuf yohud komil inson axloqi. Birinchi kitob. (1996). –Toshkent : Yozuvchi.
2. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. (2016). - Тошкент : Янги аср авлоди.
3. Увайсий. Девон. (1963). Ф. Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. - Тошкент.
4. Ҳаққулов И. Увайсий шеърляти. (1992). - Тошкент: Фан.

Gulal LATIPOVA,
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
 va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*

O'ZBEK LUG'ATSHUNOSLIGINING XRONOLOGIYASI VA TOKSONOMIYASI

Annotatsiya: ushbu maqolada lug'atshunoslik tarixi, lug'atshunos olimlar hamda ularning ilmiy izlanishlari, hozirgi va qadimgi davr lug'atshunosligidagi farqli jihatlar, o'xshash jihatlar, lug'atshunoslik davrlashuvi aks ettirilgan. Xususan, lug'atshunoslikning paydo bo'lishi sabab va omillari sanab o'tilgan.

Kalit so'zlar: *lug'atshunoslik, tamoyil, xronologiya, klassifikatsiya, jadallashuv, ijtimoiy vazifa, frazeologik birlik.*

Аннотация: в статье отражена история лексикологии, учёные-лексикологи и их научные исследования, различия и сходства современной и древней лексикологии, периодизация лексикологии. В частности, перечислены причины и факторы возникновения лексикологии.

Ключевые слова: *лексикография, принцип, хронология, классификация, акселерация, социальная задача, фразеологизм.*

Annotation: this article reflects the history of lexicology, lexicological scientists and their scientific researches, differences and similarities between modern and ancient lexicology, periodization of lexicology. In particular, the causes and factors of the emergence of lexicology are listed.

Key words: *lexicography, principle, chronology, classification, acceleration, social task, phraseological unit.*

Turkiy tillar leksikografiyasi boy tarixga ega. Jumladan, o'tmish lug'atshunosligi o'ziga xos lug'at tuzish usullari, tamoyillari, so'zlarni qiyoslash stilistikasi jihatidan ajralib turadi. Bu kabi lug'atlarda so'z tanlash qonuniyatlari, so'zning ma'noviy tuzilishiga munosabat, so'zning semantik qirralarini ochish kabi masalalar bo'yicha hozirgi payt leksikograflari uchun ham muhim bo'lgan nazariy va amaliy ishlarning mavjudligi ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'zbek tilida turkiy va turkiy bo'lmagan leksik birliklarni aniqlashda, bu kabi so'zlarning kelib chiqish tarixini sharh etishda qo'lyozma lug'atlar ham zarur manba hisoblanadi. Lug'atshunoslik tarixiga qiyosan nazar tashlansa, lug'at tuzish nazariyasi va praktikasiga ma'lum bir sabablardan kelib chiqib yondashilganligi ko'zga tashlanadi. Shu tufayli ham original – takrorlanmaydigan lug'atlar yaratilgan. Ilmiy tadqiqotlarda lug'atshunoslik xronologiyasini uch asosiy davrga bo'lib o'rganish to'g'riroqligi ilgari surilgan:

Birinchi davr – XI – XV asrlar mobaynida turkcha-arabcha lug'atlar;

Ikkinchi davr – XV – XIX asrlar boshigacha tuzilgan turkiy va forsiy, bir qancha badiiy asarlar sharhiga bag'ishlangan lug'atlar;

Uchinchi davr – XIX asr boshidan XX asrning birinchi choragigacha bo'lgan muddatda tuzilgan o'zbek izohli lug'atlari.

Bu tasnif "O'zbek tili leksikologiyasi" kitobida esa to'rt davrga bo'linadi:

Birinchi davr – XI – XIV asrlar;

Ikkinchi davr – XV asrdan 1862-yilgacha;

Uchinchi davr – 1878–1917-yillar;

To'rtinchi davr – 1926-yildan hozirgi kungacha bo'lgan yillarni qamrab oladi.

Lug'atshunoslik xronologiyasi nechta davrga

klassifikatsiya qilinganligi unchalik muhimmas, eng ahamiyatlisi har bir davrda so'zlar ustida ma'lum bir darajada ahamiyatga molik ishlar amalga oshirilganligidadir. Shunday ishlardan birini qadimgi turkiy til va eski turkiy tilni o'rganishni boshlab bergan olim Mahmud ibn Husan Koshg'ariy bajargan. Ushbu olim tomonidan yozilgan "Devonu lug'otit turk" asari turkiy leksikografiyaning tamal toshini qo'ydi. H. Ne'matovning e'tirof etishicha, ushbu lug'at o'z davrida to'liq arab tilida ish yuritgan turkiy xalqlarning o'z ona tillarini qayta tiklanish va o'rganish bo'yicha so'zlik-qo'llanma sifatida yaratilgan. Asarda turkiy til va uning unutilgan so'zlarini tiklash bilan cheklanib qolinmasdan o'z davrigacha shakllangan urug' va qabilalar, ularning tillari, shevalari haqida zarur ma'lumotlar keltirilgan. Tilshunos Koshg'ariy o'z asarida tarjimai holi haqida ham qisman to'xtalib o'tadi. Mahmud Koshg'ariy ota-bobolarini so'z boshidagi "a" unlisini "ha" qilib so'zlovchi qabilalardan deb ko'rsatadi. Bundan tashqari M. Koshg'ariy tilshunos olimlardan Halil binni Ahmad, Ibn Jadariy, Iso Mig'ofiy, Ismoil Jovxariy, Muhammad Hiroviy kabilarning asarlarini chuqur o'rganganligi haqidagi ma'lumotlar ham uchraydi. Demak, tilshunos olimning asarni yaratishda chuqur bilimga ega ekanligi tahsinga loyiqdir. Turkiy tilni, tilda qo'llangan har bir so'z tarixini o'rganishga bag'ishlab yozilgan ilmiy asarlar – lug'atlar XII asrdan boshlab yaratila boshlandi. Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddimat ul-adab" (XII asr), Abu Hayyanning "Kitobul-idrok li-lisonul atrok", Muqannaning "Tarjumon turkiy va mug'uliy va forsiy" (XV asr), muallifi noma'lum "Attuhfatuz zakiya fil lug'otit turkiya" (XIV asr) kabi turkiy tilning lug'ati va grammatikasiga bag'ishlangan asarlar lug'atshunoslik tarixida qimmatli manba hisoblanadi. XV asr o'zbek tili lug'atchiligining to'liq ma'lumotlari, undagi so'zlar izohi, matn sharhi, etimologik kuzatishlarini

Alisher Navoiyning asarlari misolida ko'ramiz. So'z sharhi, uning o'zak va qo'shimchalari tahlili, shuningdek, omonim, sinonim qatorlar, ya'ni shakldoshlik va ma'nodoshlik ko'rinishlarining ilmiy tavsifini "Muhokamat ul-lug'atayn" asari bilan qiyoslab bilish mumkin. Adib asarlarini o'rganishda lug'atlarga murojaat qilishimiz tabiiy. Shoir asarlariga sharh berish, maxsus lug'atlar tuzish Navoiyning o'z zamonidan boshlanadi. Hiraviyning "Badoye ul-lug'at", "Abushqa" (XV asr), Muhammad Yaqub Chingining "Kelurnoma", Mirzo Mahdixonning "Sangoh", "Maboni ul-lug'ot" (XVIII asr), Fath Alixon Kojariyning "Lug'ati atrokiya" (XIX asr) Shayx Sulaymon Buxoriyning "Lug'oti chig'atoyi va turkiy usmoniy" (XIX asr) lug'ati va yana bir qancha so'zlik-lug'atlar lug'atchilik tarixida va Navoiy asarlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. XV–XVI asrlarda yaratilib bizgacha yetib kelgan "Lug'ati shohidiy", "Tuhfat ul-ushshoq", "Sahhoi Ajamiya", mashhur lug'atnavis qozi Lutfilloh ibn Yusuf tomonidan tuzilgan "Lug'ati Halimiy" kabi forsiy-turkiy, "Lahjat ul-lug'ot", "Xulosayi abbosiya", "Abushqa", Toli Hiraviy tartib bergan "Badoyi ul-lug'ot" kabi turkiy-forsiy lug'atlarni ikki tilli lug'atlarning eng noyob qatoriga kiritish mumkin. Hijriy 947 (milodiy 1540-1541)-yilda tuzilgan "Lug'ati Ne'matulloh" ham lug'atshunosligimizda muhim o'rin tutadi. Bu ba'zida tuzuvchining nomi bilan "Ne'matulloh" deb ham yuritiladi. Lug'atning ahamiyatli tomoni shundaki, u XVI asrgacha bo'lgan adabiy-tarixiy asarlarni, o'sha davr tili va leksik boyligini o'rganishda hamda bir qator keyingi davr lug'atlarining yaratilishi, yozilish tarixini aniqlashda ishonchli manba hisoblanadi. Lug'atda so'zboshi yozgan muallif o'z maqsadini quyidagicha ta'kidlaydi: "Nogoh bar xotiri fotirai in Bandai bechora be nihoyat ibn Ne'matulloh ibn Ahmad ibn Muborak ar-Rumiyo xutur kardaki, az kutubhon lug'ati forsiyi lug'athoi jam kunam va kitob sozamki, az in bechorai yodgor monand va boshadki, kori kasero shoyad", ya'ni biroq bu bandayi bechora Ne'matulloh ibn Ahmad binni Muborak ar-Rumiyning xayoliga forsiy lug'at kitoblaridan bir lug'at tuzmoq va kitob shakliga keltirmoq keldi, men bechoradan yodgorlik qolsin va shu bilan biror ishga foydam tegsin. S.I.Bayevskiyning ma'lumotlar berishicha, "Lug'ati Ne'matulloh"ning sakkiz nusxasi, shuningdek, "Lug'ati muntahabi Ne'matulloh", "Majmua al-lug'oti Ne'matulloh", "Majmua al-lug'ot" kabi nomlar bilan yuritiladigan uchta qayta ishlangan varianti ham mavjud. Ushbu lug'at XVII asrga oid katta forsiy-turkiy "Farhangi shuuri" lug'atini tuzishda muhim dastur bo'lib xizmat qilgan. Ammo ushbu lug'atning biror nusxasi haligacha nashr etilmagan. Lug'atchilik tarixining ikkinchi davrida yaratilgan ikki tilli turkiy-forsiy lug'atlardan biri "Lug'otit turkiy" hisoblanadi. "Lug'otit turkey" qo'lyozmasining birinchi va oxirgi sahifasidagi muhrida qayd etilishicha, hijriy 1193-yil yozuvi asosida shu sanada yaratilganligi ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari lug'at Hindistonda Bangola shahrida tartib berilganligi ham qayd etiladi. Unda, asosan, fe'l formalarning izohi

keltirilgan. Ma'lumki, eski o'zbek tiliga bag'ishlangan tarixiy yodnomalar, asosan, arab, fors va turkiy tilda yozilgan. Jumladan, Misr va Suriyada turkiy qabilalarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan tutgan mavqeyi bu yerda tarqalgan turkiy tillarni o'rganish zaruratini tug'dirdi. Bu zarurat tufayli arab tilida qadimdan qator filologik asarlar yaratilgan. Xususan, Abu Hayyomning "Kitob ul-idrok li-lison ul-atrok", muallifi noma'lum "Kitob at-tuhfa uz-zakiya fi lug'ot ut-turkiya", Jamoliddin Turkiyning "Kitob bulg'ot al-mushtaq fil-lug'atit turk val qipchoq" va boshqa ko'pgina yodnomalar vujudga keldi. Bu asarlarda turkiy xalqlar tilining lug'at sostavi va grammatik atrofiga aks ettirilgan.

Tilshunoslikning lug'at tuzish masalalarini ilmiy tadqiq qiluvchi va lug'at tuzish bilan shug'ullanuvchi soha leksikografiya yoki lug'atshunoslik deyiladi. Lug'atshunoslik maqsad va vazifasiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

a) ilmiy – leksikografiya nazariyasi bilan shug'ullanuvchi;

b) amaliy – lug'at tuzish ishlari bilan mashg'ulotlarini bo'luvchi.

Qolaversa, leksikografiya muhim ijtimoiy vazifalarni ham bajaradi. Bular quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

a) ona tili va boshqa tillarni o'rganishda xizmat qiladi;

b) tillaro munosabatlarni yaxshilaydi;

c) til leksikasini ilmiy tekshiradi va talqin qiladi.

Lug'atlarda so'zlarning ma'nolari, foydalanish qoidalari, moslik, talaffuz, imlo, frazeologik birliklar, sinonimlar, omonimlar, antonimlar, morfemalar va boshqalar – tilning turli xil hodisalari tasvirlanishiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi:

Ensiklopedik – bu lug'at turi so'zlarni izohlamaydi, balki obyektlar, narsalar, hodisalar orqali tavsiflab, tushuncha yoki voqelikni ko'rsatadi. Bu lug'at turi ham ikki xil bo'ladi: umumiy va maxsus.

Izohli – bu lug'at turi turli xil so'zlarning ma'nosi va har qanday tilning barqaror idiomatik iboralarini izohlaydi. Eng to'liq va anig'i akademik lug'at deb ham yuritiladi.

Grammatika – bu lug'at turi u yoki bu tilning lug'atiga oid bir yoki bir nechta guruhni bir necha grammatik asosga birlashtirishdir. Masalan, fe'llar, sifatlar, refleksi bo'lmagan so'zlarning lug'atlari mavjud.

So'z yasash va morfema – bu lug'at turi ma'lum bir so'zni hosil qilish so'zlarning ildizlari, suffikslari, prefikslari va shu kabilar bilan shug'ullanadi.

Moslik – bu lug'at turi kam tarqalgan bo'lib, maqsadli fikrni yanada stilistik jihatdan to'g'ri ifoda etish uchun jumalarni mos tanlash bilan bog'liq tomonlarini o'rganadi.

Tezours yoki ideografik – ushbu lug'atlarda ma'lum bir mavzu bo'yicha matn tuzishni osonlashtiradigan ma'noga yaqin guruhlariga bo'linadi.

Teskari – bu lingvistik tadqiqotlarni juda osonlashtiruvchi, so'zlar alifbo tarzida joylashtirilgan, ammo teskari tartibda, ya'ni o'ngdan chapga tomon boruvchi lug'at turidir.

Imlo va ortoepik – bu lug‘at turi imlo va urg‘u bilan yoki boshqa tilda so‘zlarning ro‘yxati zarur bo‘lganda kerakli variantlarini ko‘rsatib beradi.

Leksik – bu lug‘at turi leksikologiyadagi terminlar bilan ishlaydi.

Neologizmlar – bu lug‘at turi tilga yangi kirib kelgan so‘zlar bilan shug‘ullanadi.

Ikki tilli yoki tarjima – bu lug‘at turi bir so‘zning boshqa bir tildagi tarjimasi bilan ishlaydi.

Antropogonik – bu lug‘at turida insonlarning tegishli ismlari, shuningdek, ma‘lum bir tilda taxallus va taxalluslarining ro‘yxati keltiriladi.

Rezident – bu lug‘at turi shahar, viloyat yoki viloyat aholisini qanday nomlash bilan shug‘ullanadi.

Qisqartirish – bu lug‘at turi abbreviaturalar bilan ishlaydi.

Terminologik – bu lug‘at turi atamalar sharhi bilan shug‘ullanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanov B. “Javohir xazinalari. Qo‘lyozma lug‘atlar”. – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1989.
2. “O‘zbek tili leksikologiyasi”. – T.: Fan, 1981.
3. Hamidov Z. “Yozuv va majoziy ma‘nolarni sharhlovchi lug‘at”. O‘TA jurnali. 1999-yil, 1-son.

Dilafuz MAMATOVA,

Qo‘qon DPI o‘qituvchisi

mamatovadilafuz@gmail.com

O‘ZBEK SHEVA VA LAHJALARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tili shevalarining o‘ziga xos xususiyatlari va qipchoq lahjasida kuzatiladigan fonetik o‘zgarishlar haqida ma‘lumot berildi, ma‘lumotlar misollar asosida tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: qipchoq, fonetika, dialekt, juft unililar, birikmalar, so‘z yasovchi affikslar.

Аннотация: в данной статье была представлена информация об особенностях диалектов узбекского языка и фонетических изменениях, наблюдаемых в кипчакском диалекте, а также проанализированы данные на примерах.

Ключевые слова: кипчак, фонетика, диалект, двойные гласные, сложные слова, словообразовательные аффиксы.

Annotation: in this article, information was provided about the specific features of Uzbek language dialects and phonetic changes observed in the Kipchak dialect, and the data was analyzed based on examples.

Key words: Kipchak, phonetics, dialect, double vowels, compounds, word-forming affixes.

Kirish. Har bir til tarixiy taraqqiyot natijasida boyib boradi. Mazkur jarayon tilning o‘z ichki imkoniyatlari asosida va boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish orqali yuz beradi. Mamlakatlar va xalqlar o‘rtasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy munosabatlarning kuchayishi, ayniqsa, bir-biriga qo‘shni xalqlarning o‘zaro aloqalari natijasida bir tildan boshqasiga yangi tushunchalarni ifoda qilgan so‘z-atamalar qabul qilinadi. Bugungi globallashuv zamonida bu jarayon yanada kuchaydi.

O‘zbek sheva va lahjalarini o‘rganish hamisha dolzarb hayotiy ehtiyoj hosil qiladi. Binobarin, joriy ikki tushuncha nisbati til musaffoligini saqlash, nutqiy madaniyat taraqqiyotini ta‘min etadigan asosiy mezon sanaladi. Yurtboshimiz tashabbusi bilan tashkil qilingan Shevashunoslar markazi muammo amaliy yechimiga qaratilgan say‘-harakatlarni jipslashtirdi. Holbuki, sheva va lahjalar yashovchanligi 198 universal vosita – adabiy tilni bosqichma-bosqich boyitib borishga xizmat qiladi. Jumladan, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Oybek, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda yanglig‘ XX asr o‘zbek adabiyoti zabardast vakillari ijodida so‘z islohoti kuzatilib, o‘n mingga yaqin lug‘aviy birliklar xalq

arsenalidan o‘zlashib, adabiy til mulkiga aylanayozgan. Shu ma‘noda, shevalar umumxalq so‘zlashuv uslubi qadriyaviy mezonlarini belgilaydi.

Asosiy qism. O‘zbek tili turkiy tillar ichida ko‘p lahjaliligi bilan ajralib turadigan, shevalari bir-biridan keskin farqlanadigan tillardan biridir. O‘zbek tili qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalariga mansub shakllarga ega bo‘lib, asosan o‘g‘uz lahjasiga kiruvchi Xorazm shevasi boshqa shevalardan fonetik, leksik, morfologik jihatlariga ko‘ra farq qiladi. O‘zbek shevalarining leksikasini o‘rganish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Adabiy tilning shakllanishida bevosita ishtirok qilgan ba‘zi o‘zbek shevalarining unilari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Toshkent Farg‘ona tipidagi shahar shevalari hamda shahar shevalarining talaffuz va leksik-grammatik xususiyatlariga o‘xshash bo‘lgan qishloq shevalari adabiy tilning shakllanishida yetakchi rol o‘ynaydi. O‘zbek tili taraqqiyotining barcha davrlarida vujudga kelgan eng mukammal xususiyatlarni o‘zida aks ettirganligi sababli shahar shevalari yetakchi sheva hisoblanadi. V.V.Reshetov o‘zbek shevalarining tarixiy

lingvistik xususiyatlarini va ayrim dialektlarga qo'shni tillar (tojik, qozoq, turkman) munosabatini hisobga olgan holda o'zbek shevalari tasnifini tuzdi. U o'zbek xalqi tarkibida tarixiy-lingvistik jihatdan bir-biridan farq qiladigan uch dialekt borligini aniqlab, o'z navbatida bu dialekt birliklari o'zbek tili oilasida 3 lahjani vujudga keltirganligini ko'rsatib berdi. [1] 1. Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi bo'lib, uyg'ur tiliga yaqin, tojik tili bilan yaqin etno-lingvistik munosabatda bo'lgan. 2. Qipchoq lahjasi – qozoq, qoraqalpoq tillari bilan yaqin. 3. O'g'uz lahjasi – turkman tili bilan yaqin.

Turkiy til, jumladan, o'zbek tilining g'oyat boyligini, avvalo, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur singari bobokalonlarimiz isbotlab ketgan. Rus va ukrain, forsiyazon tillarga turkiy tillardan salmoqli so'zlar o'zlashgan.[2] Yevropa tillari ham ma'lum miqdorda bundan bebahra qolmagan. Tilimizda shunday so'zlar borki, ko'pchilik ularni boshqa tillardan o'tgan deb o'ylaydi. Aslida o'zimizniki bo'lgan bunday "jahongashta" so'zlar sal o'zgarib yana o'zimizga qaytgan.

Tilshunoslikda keng doirada ko'rib chiqadigan bo'lsak, dialektal matnlarning mavzuviy bo'linuvchanligida bir xillikni (insonlarning jamiyatda o'rni bilan uyg'unlikdagi tadrijiy o'sish jarayonini hisobga olgan holda) kuzatish mumkin. Biroq dunyo miqyosida oladigan bo'lsak, etnik aholining ijtimoiy hayotda tutgan o'rni bilan uzviy bog'liq ravishda uy-joy, uy xo'jaligi, siyosat, jamiyat hayoti, e'tiqod kabi tushunchalar sheva vakillarining dunyoqarashida bir xil o'rin egallamaydi (Bunga misol tariqasida birgina Tomsk hududidagi hamda O'zbekiston hududida yashovchi aholining yashash tarzini olish mumkin). U yoki bu tushunchalarning yuqori darajani egallashi mahalliy xalqning yashash tarzi, shug'ullanuvchi sohasiga bog'liq omildir. Barcha sheva vakillarining dialektal birliklarini umumiy mavzular sifatida quyidagicha ko'rsatib o'tish mumkin: 1) shaxsiy hayot (inson bilan bog'liq tushunchalar); 2) uy; 3) uy hayvonlari; 4) marosimlar; 5) e'tiqod; 6) siyosat; 7) ishlab chiqarish (qo'l mehnati); 8) ijtimoiy hayot kabi. Yuqorida keltirilgan makromavzulardan "insonning shaxsiy hayoti": ota-ona, bolalar, qarindosh, nikoh va oilaviy hayot, qishloqdoshlar; "uy xo'jaligi": bog', qurilish, mehnat qurollari; "e'tiqod": diniy marosim, bayram, urf-odat kabi o'z navbatida mikromavzularga bo'linish holatini kuzatish mumkin [Ivanov, 2017].

G'ozli Olim Yunusov o'zining ilmiy lingvistik, adabiy,

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Решетов В.В. Кураминские говоры Ташкентской области. Фонетическая и морфологическая система. АДД. Академия наук УзССР. – Т., 1952.
2. Irisqulov M.T. "Tilshunoslikka kirish". – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2009.
3. Ғози Олим Юнусов. Ўзбек лаҳжаларининг таснифида бир таҷриба. – Т.: Ўздавнашр, 1935. (лотин алифбосида).
4. O'zbek dialektologiyasi [Matn]: o'quv qo'llanma // Y. Saidov. – Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2022. 74-bet.

ijtimoiy faoliyati davomida ko'plab ilmiy kitob va qo'llanmalar yaratdi. Uning «O'zbek lahjalarini tasnifida bir tajriba» (1936), «O'zbek urug'laridan qatag'onlar va ularning tili» (1930), «O'zbek tili grammatikasi» (1936, qo'lyozma) kabi kitoblari fan taraqqiyotiga ma'lum bir hissa bo'lib qo'shildi. «Alpomish» dostoni shu olim tomonidan 1922-yilda birinchi bo'lib yozib olingan. Olim 1939-yilda vafot etgan. [3].

O'zbek adabiy tili xalq shevalaridan o'ziga kuch oladi, chunki sheva bo'lmasa, adabiy tilimizning kelajagi bo'lmaydi. Hayotiy ozuqa olib turadigan asosi bo'lmasa, har qanday adabiy til o'lik tilga aylanishi mumkin. Shuning uchun ham shevalar har qanday adabiy tilning asosiy hamda rivojlanish poydevoridir. Shevalarni ilmiy adabiyotlarda dialekt va sheva terminlari bilan atash kuzatiladi.

Har bir adabiy til o'zining tayanch dialektiga ega bo'ladi. To'g'ri, o'zbek adabiy tilining shakllanishida shevalarning barchasi u yoki bu darajada ishtirok etadi, lekin ma'lum shevalar adabiy til uchun asos, tayanch (baza) vazifasini bajaradi, ya'ni o'zbek adabiy tili muayyan dialekt va shevalardan leksik, fonetik, grammatik xususiyatlarni adabiy til fakti sifatida oladi hamda o'sha sheva va shevalar guruhi taraqqiy etishi bilan birga taraqqiy etadi, chunki sheva jonli til bo'lib, u doimo rivojlanishda, o'zgarishda bo'ladi.[4]

Tilshunoslikda leksika bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, lug'at xususiyatlariga ko'ra dialektal farqlar o'zbek tilida juda xilma-xildir. Shu sababli o'zbek tilining ayrim shevalari leksik xususiyatlarini o'rganish o'zbek dialektologiyasi oldidagi eng dolzarb va muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shevalar leksikasini o'rganish til tarixi va hozirgi zamon o'zbek adabiy tiliga aloqador masalalar, shuningdek, ba'zi so'z, affikslarning tarixi va genezisini belgilashda, leksik me'yorni aniqlashda, terminologiya, orfografiya masalalarini hal qilishda, o'zbek shevalarining atlasini tuzishda hamda o'zbek xalq shevalari lug'atining ko'p tomliligini yaratishda asosiy manbalardan hisoblanadi.

Xulosa. Dialektal so'zlarning zamonaviy qatlamlari sheva vakillari nutqida faol ishlatiladi. Sheva vakillari nutqidan yozib olingan dialektal matnlardan leksik tahlil qilish asosida ajratib olingan so'zlarning tarixiy etimologik qatlamlari to'g'risida fikr yuritganda tilimizda, xususan, shevalarda umumturkiy, o'zbekcha va o'zlashgan so'z (forscha, arabcha, ruscha so'z)lar borligi tabiiydir.

Anjela KUGANOVA,
Student, Chirchik State Pedagogical University

Dilafuz UMAROVA,
Scientific supervisor, Chirchik State Pedagogical University

IDENTIFICATION AND INTERPRETATION OF ENGLISH PHRASEOLOGICAL UNITS

Annotation: it is necessary to use English phraseological expressions and their Uzbek alternatives, or is it more useful to translate them literally? We will try to find an answer to the question.

Keywords: *lexical and phraseological units, methodological task, artistic image, translation functions.*

Annotatsiya: inglizcha frazeologik iboralar va ularning o'zbekcha muqobillaridan foydalanish kerakmi yoki ularni so'zma-so'z tarjima qilish foydaliroqmi? Savolga javob topishga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: *leksik va frazeologik birliklar, uslubiy vazifa, badiiy obraz, tarjima funksiyalari.*

Аннотация: необходимо использовать английские фразеологические выражения и их узбекские аналоги или полезнее переводить их буквально? Мы постараемся найти ответ на вопрос.

Ключевые слова: *лексические и фразеологические единицы, методическая задача, художественный образ, функции перевода.*

Language units primarily consist of lexical and phraseological tools, and translating these from one language to another poses significant challenges for interpreters. Phraseological units, in particular, are complex linguistic tools that integrate with the lexical components of a language. These units play a crucial role in conveying various methods of expression, especially as artistic and visual elements of speech. When translating these units, achieving a nuanced interpretation is essential, as it closely ties to preserving the figurative and emotional essence of the original artistic work.

The identification of phraseological units involves recognizing expressions that have a meaning different from the literal meanings of their individual words.

- Fixed Structure: The words in a phraseological unit are often fixed and cannot be altered without changing the meaning.

- Non-compositional Meaning: The meaning of the entire phrase is not the sum of the meanings of its parts.

- Cultural Specificity: Many idioms are culturally specific and may include references that are unique to a particular culture.

Interpreting phraseological units involves understanding their figurative meanings and contextual uses.

- Contextual Analysis: Examining the context in which the idiom is used to grasp its intended meaning.

- Cultural Knowledge: Being aware of cultural references and connotations that might affect interpretation.

- Equivalent Expressions: Finding equivalent expressions in the target language when translating, to preserve the meaning and impact.

Translation can be assessed through a scientific

and empirical analysis to ensure it aligns with the meaning and methodological functions of phraseological units in the target language. Like lexical units, phraseological expressions are complex and multifunctional, and cannot always be directly exchanged. In one context, phraseological equivalents or alternative options may work seamlessly, while in another, they may differ significantly in their methodological roles.

In these instances, a creative approach from the translator is crucial to avoid misinterpretations of the original text. Addressing phraseological issues and their variations across different languages is vital for translation practices. This is because the uniform functions of similar expressions across languages present significant challenges in translation, which are of great theoretical interest.

Phraseological expressions are particularly characteristic of artistic literature, as they frequently appear in the author's work. However, according to A.V. Fedorov, these speech patterns are not exclusive to artistic literature and should be considered important general linguistic elements, not just issues of fiction. When translating English phrases into Uzbek, should they be given alternatives or translated directly? If all phraseological expressions were translated literally, there would be no issue. However, in feature translation, the reflection of phraseology can be interpreted as follows:

- Replacing the phraseology of the circulation with the equivalents of translation

- To turn the language phraseology with alternative options in translation

- It is the translation of the phraseology of the language of citizenship (these are the general way to translate phrase phrases).

It is well-known that an author's unique style is

reflected in their writing, and even if ten translators of equal artistic talent translate the same work, ten distinct translations will emerge. This is because each translator interprets the author's style differently, and their own style inevitably influences the translation. For example, in the works translated by N.V. Gogol and A. Kahkhor, Kahkhor's style is noticeable, just as Mirzakalon Ismaili's touch is evident in L.N. Tolstoy's novels translated into Uzbek, and Mirtemir's essence shines through in the Uzbek translations of N.A. Nekrasov's poems. However, this does not imply that the translator imposes their style over the author's.

Capturing phraseology in translation is crucial for conveying the original work's national character and the author's style. Some scholars advocate for translating phraseological units as they are. Differences in translating these units are common and often seen as negative in translation theory. If several translators render the same phraseological unit with very similar or identical variants, it cannot be deemed a true translation.

However, it is important to recognize that some phraseological expressions have equivalents that can be translated consistently across different contexts. Yet, many cannot be translated with the same equivalent by all translators in every context, and it is unrealistic to expect this. Each translator leaves their mark while reflecting the author's style, especially when translating phraseological units. No two translators will produce identical translations of a work and its phraseology. Thus, blaming translators for differences in translating phraseological units means misunderstanding the nuances of literary translation.

Phraseological expressions, like proverbs, are not merely a collection of words but products of folk wisdom, imagination, and artistic creativity. They significantly influence the phraseology of many languages. Therefore, translators must be familiar with the cultures and linguistic richness of both source and target languages. Translation is an art that goes beyond merely copying words from a dictionary; often, dictionaries fail to capture the context and

nuance of the original text.

The classification of phraseological units is based on the motivational meanings and the semantic combination of their components. Following Academician V. V. Vinogradov, three main types are distinguished.

1. **Phraseological Agreements:** These are units whose overall meaning does not derive from the meanings of their individual words.

2. **Phraseological Combinations:** These units have an overall meaning that is influenced by their components, with one component being central.

Classification of Phraseological Units:

- **Lexical Type:** Refers to a phrase related to an independent word group.
- **Grammatical Type:** Involves the separation of a grammatical part of a sentence.

Phraseology is prevalent in both spoken language and literature, often encountered in translation. A phraseological unit is a valuable word combination that remains stable in composition and structure, functioning as a distinct lexical unit. Importantly, the meaning of a phraseological unit does not correspond to the sum of its individual words' meanings. The term "idioma," meaning "specific" in Greek, and "idioms" in English, describes these units.

Initially, some linguists believed phraseological units could not be translated into other languages. Today, to enhance the art of translation, linguists incorporate evidence from current and historical languages, as well as ethnographic data reflecting cultural specifics. Understanding the morals, customs, beliefs, and superstitions of people helps determine the origin of phraseology, whose content is its phraseological meaning.

Phraseological units constitute a significant part of every language's vocabulary and are ready for use as language units. Each language's phraseological units possess unique linguistic features, but universally, they enrich the language's lexical structure and convey emotional nuances. Proper use of phraseological units and homonyms in translation is crucial for achieving excellence in the field.

REFERENCES

1. Abdulaziz.A, Sodiqov.n, Bashakov.N, general linguistics. – T., 1979.
2. Jaki, S. (2014). Phraseological Substitutions in Newspaper Headlines. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins, 243. <https://doi.org/10.1075/hcp.46>
3. Musuev. Q. Fundamentals of translation theory. – T., 2005.
4. Rakhmatullayev.Sh. Current Uzbek literary language. 1978.
5. Salomov G'. Translation worries. – Tashkent: Fan, 1983.
6. Umarova D.R. "Translation problems of phrasal verbs". Academic Research in Educational Sciences, vol.1, ISSUE 3 ноябрь, 2020, 1(3), 844-848pp
7. www.ziyonet.uz.

Nigina QURBONOVA,
BuxDU mustaqil izlanuvchisi

SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDA JADIDLAR FAOLIYATI MASALALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Sadridin Ayniy asarlarida jadidlar faoliyati masalalariga oid ilmiy-nazariy tahlillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: G'iyosiddin "Tarixi inqilobi Buxoro", "Tarbiyayi atfol", L. Soloveychik, E. Fedorov, "Tarixi Salimi", "Tarixi Nofeyi, Ahmad Donish.

Аннотация: в статье представлен научно-теоретический анализ притч произведений Садриддина Айна.

Ключевые слова: Гиязиддин, «Историческая революция Бухары», «Тарбияй. атфол», Л. Соловейчик, Е. Федоров, «Тарихи Салими», «Тарихи Нофейй, Ахмед Дониш

Annotation: this article presents scientific-theoretical analyzes of the parables of the works of Sadridin Ainiy.

Key words: Ghiyaziddin, "Historical revolution of Bukhara", "Tarbiyai. atfol", L. Soloveitchik, E. Fedorov, "Tarihi Salimi", "Tarihi Nofeyi, Ahmed Donish.

Jadidlar o'z g'oyalarini o'zbekzabon aholi orasida targ'ib qilish maqsadida 1912-yil 11-iyuldan boshlab "Buxoroi sharif" gazetasiga qo'shimcha sifatida haftada ikki marta o'zbek tilida chiqadigan "Turon" gazetasini chiqara boshladilar. Sadridin Ayniy ta'kidlaydiki, "Buxoro va uning viloyatlari atrofidagi ayrim qishloqlarning o'zbekzabon aholisini hisobga olib, o'zbek tilida gazeta chiqarish masalasi tug'ildi. "Buxoroi sharif" tahririyatida yoshlar (jadidchilar – N.G.) yig'ilishida "Turon" ni turkiy tilda haftada ikki marta nashr qilish to'g'risida qaror qabul qildilar. "Turon" gazetasining birinchi soni 1912-yil 14-iyulda chiqqan. Shunday qilib, "Buxoroi sharif" haftada to'rt marta, "Turon" ikki marta chiqa boshladi. (Shavvol hijriy 1330-yil. 1912-yil sentabr). Gazetalarni nashr etish sheriklikka (Mirzo Muxiddin Mansurov boshchiligidagi Buxoro jadidlari shirkati – N.G.) o'tkazildi va Istanbul o'qituvchilar institutini bitirgan G'iyos-Maxdumiy Hasaniy muharrir etib tayinlandi.

Sadridin Ayniy "Buxoroi tarif" gazetasining yopilishi munosabati bilan katta taassuf bilan elegiya (marsiya) yozadi va unda buxorolik hur mutafakkirlarning o'z-o'zini bilish, mafkuraviy uyg'onish va birlikda gazetaning tarixiy ahamiyati haqida gapiradi. Ko'pgina tojik matbuoti tarixi tadqiqotchilari S.Ayniy so'zlariga tayanib, "Turon"ning birinchi soni chiqqan kunni 1912-yil 14-iyul deb noto'g'ri hisoblashadi va uning bosh muharriri G'iyosiddin deb atalgan. Maxdum Hasaniy (ba'zan G'iyos Husniy). Darhaqiqat, bu nashr hijriy 1330-yilning 9-shabonida nashr etilgan. 1912-yil iyul oyida esa Mirzo Siroj Hakim gazetaning birinchi sonida muharrir vazifasini bajaruvchiga imzo chekdilar. Keyin "Buxoroi tarif" ni boshqargan Mirzo Jalol Yusufzoda "Turon"ga muharrir bo'ldi. 1912-yil sentabrda ushbu nashr mustaqillikka erishgach, unga G'iyosiddin Maxdumiy Hasaniy muharrir etib tayinlandi. Kelajakda bir paytlar Mirzo Jalol Yusufzoda bilan birga "Buxoroi tarif" gazetasining hammuharriri bo'lgan Xaydarxo'ja

Mirbadalov "Turon"ning so'nggi sonigacha mas'ul muharrir bo'ldi.

Sadridin Ayniyning "Buxoroi Sharif"da chop etilgan maqolalari hamon katta qiziqish uyg'otmoqda. Xususan, S.Ayniyning "Sairi Navruzi dar Bukhoro" ("Buxoroda Navro'z bayrami") maqolasi "Sin. Ayn" gazetasining 8 va 9-sonlarida Buxoroda sharqona Yangi yil bayrami keng yoritilgan. 1

Jadidlar pedagogikaning didaktik tamoyillariga asoslanib, o'z mintaqasi xalq ta'limi tizimiga yangilik kiritdilar. Ular o'z maktablarining o'quv rejasini va dasturlariga haqiqiy umumta'lim fanlarini – ona tilida o'qish va yozishni, arifmetika, tarix, geografiya, tabiatshunoslik, rus tili va boshqalarni kiritdilar. Boshlang'ich maktab islohoti ijtimoiy hayotda jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Aholi va ta'lim darajasining oshishi, jadidchilik yangiliklari nafaqat o'rganishni osonlashtirdi, balki o'qish muddatini 6-7 yildan ikki-uch yilga sezilarli darajada qisqartirdi. Jadidchilik islohoti natijasida O'rta Osiyo xalq ta'limi va xalq pedagogikasi ma'lum bir qadam tashlab, insoniyat sivilizatsiyasining ilg'or insonparvarlik yutuqlariga yaqinlashdi.

S.Ayniyning "Buxoroi sharif" gazetasini nashr etilgan birinchi kundanoq o'quvchilar e'tiborini tortdi, degan so'zlari esga tushadi. Mirzo Jalol har bir sonida yorqin, hissiyotli, mazmunli maqolalar yozib, ularda ijtimoiy muammolar haqida yozgan, ularni hal etish yo'llarini ko'rsatgan. Mirzo Jalol chinakam buyuk publitsist edi, u islom ilmlarini o'qitish uslublarini yaxshi bilgan. Shuning uchun uning maqolalari keng kitobxonlar doirasiga ta'sir qildi. Buxoro aholisi o'z ona tilida adabiy va sodda tilda bitilgan bu satrlarni tabiatan qodir bo'lgan holda mehr bilan o'qidi" 1.

Jadidlarning xalq maorifidagi islohoti ularga yangi usuldagi maktablar uchun darslik va o'quv qo'llanmalarini nashr etish zaruriyatini taqozo etdi va bu hayotiy ahamiyatga ega bo'ldi. Jadidlar tomonidan o'quv-uslubiy kitoblarning to'planishi va nashr etilishi

→XX asr boshlarida O'rta Osiyoda ma'rifiy nashriyotda dunyoviy va boshqa yevropacha unsurlarning shakllanishiga xizmat qildi. Bu jarayonda O'rta Osiyo jadidchiligning ko'zga ko'ringan namoyandalari Saidrasul Aziziy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Saidahmad Vasliy, Abduqodir Shakuriy, Siddiqiy Adjiy, Sadridin Ayniy, Xoji Muin Shukrullo, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulvohid Munzim, Muhammadul Rasuliy, Isma'lo Rasuliy, Isma'diy ma'naviyatli kishilari

katta rol o'ynagan.

O'rta Osiyodagi jadidlar faoliyatidagi fenomenal hodisa milliy davriy nashrlarning nashr etilishi bo'ldi. U milliy ongning yuksalishi va mintaqadagi tub aholining uyg'onishida muhim rol o'ynadi. Jadidchilik matbuoti qisqa umr ko'rganiga qaramay, O'rta Osiyo jamiyati hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi va jadidchilik harakati tarixida katta ahamiyatga ega edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayniy S. Tarixi inkilobi Bukhoro.- Dushanbe: Adib, 1987.-110-bet.
2. Abdurauf (Fitrat). Istiqbol (Kelajak) va Buxoroi Sharif.-1912.- No 102.- 17-bet. Sholya, No 104.- 20 iyul, No 108.- 31- iyul, No 109.- 2- avgust, No 110.- 4-avgust.

Mushtariy TOJIBOYEVA,
NavDPI mustaqil izlanuvchisi

“MA’NAVIYAT” LEKSIK KATEGORIYASIGA OID TADQIQOTLARNING MAZMUN-MOHIYATI

Annotatsiya: maqolada “ma’naviyat” leksik kategoriyasining sistemasi, “ma’naviyat” leksik kategoriyasining iyerarxik munosabatlari, sistema sifatida mavzuiy guruhlariga bo'lib o'rganilishi, “ma’naviyat” leksik kategoriyasining sistemalaridan biri hisoblangan “ma’rifat” mavzuiy guruhining semantik xususiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: pog'onali munosabat, paradigmatic munosabat, leksik-semantik kategoriya, leksik tizim, “ma’naviyat” leksik kategoriyasi, “ma’rifat” umumiy semali atov birliklar tizimi

Annotation. this System is about the lexical category of "spirituality", in the article is said of hierarchical relations of the lexical category "spirituality" to be studied in thematic groups as a system it is about the tasks of fully revealing its internal system.

Key words: hierarchical relationship, paradigmatic relationship, lexical-semantic category, lexical system, lexical category "spirituality", "enlightenment" general noun system

Аннотация: в статье говорится о системе лексической категории «духовность», иерархических отношениях лексической категории «духовность», ее изучении на тематические группы как системы, задачах полного раскрытия ее внутренней системы.

Ключевые слова: иерархическое отношение, парадигматическое отношение, лексико-семантическая категория, лексическая система, лексическая категория «духовность», «просвещение», общеименная система

Mustaqillikkacha turli sohalar tadqiqi asosan, rus tilida olib borilganligi sababli milliy ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizning asosi bo'lgan, qolaversa, o'zbek tili leksikasining ichki tizimi va tuzilishi hisoblangan “ma’naviyat” leksik kategoriyasi qatlami milliy an'analarimizdan kelib chiqib yoritilmaganligi sababli leksik tizimda ba'zi “cheklovlar” qo'yildi. Xususan, o'zbek tilining 2 tomli izohli lug'atida aynan “ma’naviyat” leksemasiga o'rin berilmadi. Mazkur lug'atda “ma’naviy”, “ma’nan” leksemalari bilan cheklandi. Bundan tashqari, milliy manfaatlarni aks ettiradigan maxsus lug'atlarda kategoriyaga oid leksemalarga keng o'rin berilmaganligi ham bunga dalildir. Shu boisdan shaxs ma'naviy sifatlarini ifodalovchi til ifodalarning tizimli tadqiq etilishiga asoslar mavjud.

Eng avvalo, “ma’naviyat” tushunchasiga aloqador leksemalar alohida kategoriya sifatida hamda leksik tizim sifatida til sistemasini tashkil qiladi. Undagi barcha leksemalar “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasi maydonini tashkil etadi, ushbu maydonga bevosita aloqador o'zak(yadro) leksemalar, shuningdek, kategoriyani ma'naviy kengaytiruvchi, leksik xususiyatlarini yoritishga xizmat qiluvchi markazga oid leksemalarni aniqlash muhim tadqiqot hisoblanadi. Ushbu sferada “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasiga bilvosita aloqador periferiyani aniqlash mazkur maydonning leksik imkoniyatlarini belgilaydi.

Ushbu maydonning leksik kategoriyaga tegishli atov birliklari va ularga tegishli ma'nolari ma'naviyat yadrosidan ma'lum darajada uzoqlashgan, eskirgan,

o'rniga chetdan o'zlashgan yangi leksema kirib kelganligini kuzatish mumkin. Maydonga aloqador ma'noviy guruhning periferiyasidan o'rin olgan o'z va o'zlashgan leksemalarning semantik xususiyatlari ham to'la ochiqmaganligi, tadqiqotlar o'tkazishga asos bo'ladi. Bunday leksemalarning ma'nolari orasidagi aloqa "ma'naviyat" leksemasining ma'nolari orasidagi aloqadan ma'lum darajada uzoqlash holatlarni ham ko'rish mumkin. Ularning sintagmatik munosabatlari mazkur ma'nolarning nechog'lik ma'noviy kengligini matn orqali asoslash mavzu atrofidagi muhim jarayonlardir. Ma'noviy guruh bilan bilvosita bo'lsa-da, bog'lanadigan, ya'ni to'g'ridan to'g'ri maydonga aloqasi bo'lmagan leksemalar "chekka qism" maqomini olishi ham izlanishlarimiz natijasida aniqlandi.

"Ma'naviyat" leksik kategoriyasi birliklarining sinonimligi, antonimligi, gipo-giperonim munosabati, korelatsion xususiyatlari, ma'noviy guruhga ajratishga ko'ra turlari, leksik sathdagi qo'llanilishi o'zaro faol va nafaoligi bilan xarakterlanadi. Bunda atov birliklarning shakl va ma'no munosabati hozirgi umumiste'mol leksikadan farqlanadi. Ularning alohida uslubga xos ekanligi, tarixiy leksikadan ham tashkil topishi muhim rol o'ynashi mazkur kategoriyaning muhim xususiyatlaridan biridir.

Kategoriya tarkibidagi iyerarxik munosabatlar mazmunan sodda birlikning mazmunan kengaygan, murakkabroq bo'lgan ko'rinishida paydo bo'ladi va izohlanadi. Tilimizdagi ma'naviyatga oid leksik-semantik kategoriyalarning tuzilishini tavsiflovchi munosabatlar lingvistik birliklardan, lingvistik vositalardan ham foydalanish jarayonida paydo bo'ladi.

"Ma'naviyat" leksik-semantik kategoriyasining iyerarxik munosabati murakkab tizim sifatida ma'noviy guruh, mavzuiy guruh, ma'noviy uyalardan tashkil topadi, ular "ma'naviyat" leksik kategoriyaning sistemasini yuzaga keltiradi. "Ma'naviyat" leksik kategoriyasining iyerarxik aloqalarida tushunchalar turli darajalarga bo'linadi. Bosh rolda turuvchi tushuncha kamida bitta, qolgan hollarda bir nechta

bo'ysunuvchi tushunchani o'z ichiga oladi. Ana shu holda hosil bo'lgan tushunchalar tizimi bog'liqli aloqani yuzaga keltiradi.

Leksik kategoriya tarkibidagi leksemalar bir-biriga o'zaro leksik-semantik, sintaktik, kognitiv, assotsiativ xususiyatlari bilan bog'langan elementlarning tizim munosabatlari, ya'ni inventarizatsiyasi hisoblanadi.

Leksik kategoriya tarkibining yadrosi bir jinsli va tarkibiy unsurlarning turli tabiatligi bilan xarakterlanadigan elementlarni birlashtiradi. Leksik kategoriyaning tarkibiy qismlarida – ma'noviy guruh, mavzuiy guruh, ma'noviy uya, leksik kategoriya tizimi hosil bo'ladi, har bir guruh ichki bo'linishga ega bo'lishi mumkin. Bu yadro tarkibining semantik imkoniyatlariga bog'liq ekanligidan darak beradi.

Leksik kategoriyaning mazmuniy kengligi ramziy ma'noda "vertikal va gorizont" shaklga ajraladi. Ma'noviy guruhlar va mavzuiy guruhlar vertikal tuzilishda bo'ladi, uning tarkibiy qismlari gorizont munosabatlarda aks etadi.

"Ma'naviyat" leksik-semantik kategoriyasi birliklarini til korpuslarida teglash masalasi, "ma'naviyat" leksik-semantik kategoriyasi birliklarining ekstralingvistik razmetkasi, "ma'naviyat" leksik-semantik kategoriyasi birliklarini semantik teglash masalasi, "ma'naviyat" leksik-semantik kategoriyasi birliklari birlamchi birikuvchilarini modellashtirish korpus uchun muhim hisoblanadi.

Leksik kategoriya ma'no tarkibi makrokomponentlarga ajraladi, ular tarkibidagi o'z va ko'chma ma'nolar birlashib, yangi makrokomponentlarni hosil qiladi va ular alohida kategoriya tuzilishiga ega bo'ladi. "Ma'naviyat" umumiy semali atov birliklariga oid ba'zi istorizmlar va arxaizmlar e'tibordan chetda qolgan hamda ularning o'rniga mafkura neologizmlari kiritilgan. Izohli lug'atlarda keltirilgan illyustrativ misollar so'zlarning turli ma'no qirralarini ko'rsatishga, o'z navbatida, til egasi bo'lgan millatning dunyoqarashini namoyon etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev M.Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.488-b.
2. Mirziyoyev M.Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.48-b.
3. Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot modeli. Monografiya. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005. 192-b.
4. Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. 240-b
5. Hakimova M. Semasiologiya. – Toshkent: 2008. 100-b
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomli. 1-tom. – M.: Russkiy yazyk, 1981. 632-b.
7. Yuldashev F. O'zbek tilining "ma'naviyat" leksik-semantik kategoriyasi "e'tiqod" ma'noviy guruhi atov birliklari tizimi". Filol.fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Termiz: 2021. 17-b.
8. Yuldashev F. O'zbek tilining "ma'naviyat" leksik-semantik kategoriyasining semantikasi. Konferensiya materiallari. – Navoiy, 2023.

Zarifa MURODOVA,
O'zDJTU Roman-german
filologiyasi fakulteti talabasi

SINXRON TARJIMA VA UNING AHAMIYATI

Annotatsiya: maqolada tarjima tarixi va namoyondalari haqida ma'lumotlar berilgan. Tarjima turlari yoritilgan. Asosan, sinxron tarjimaga ko'proq urg'u berilgan. Sinxron tarjima qanday amalga oshirilishi hamda dolzarbligi xususida gap borgan.

Kalit so'zlar: *sinxron tarjima, sinxronist, nutq semantikasi, psixolingvistika, notiq nutqi, konferensiya, nutqiy-uslubiy.*

Annotation: the article provides information about the history and representatives of translation. Different types of translation are highlighted, with a particular emphasis on simultaneous translation. The article discusses how simultaneous translation is conducted and its relevance.

Key words: *simultaneous translation, simultaneous interpreter, speech semantics, psycholinguistics, speaker's speech, conference, rhetorical-stylistic*

Аннотация: в статье представлена информация об истории и представителях перевода. Описаны различные виды перевода, с особым акцентом на синхронный перевод. Обсуждаются методы выполнения синхронного перевода и его актуальность.

Ключевые слова: *синхронный перевод, синхронист, семантика речи, психолингвистика, речь оратора, конференция, риторико-стилистический.*

Hozirgi globallashuv jarayonida ko'p tillarni o'rganishga bo'lgan talab kundan kunga oshib bormoqda. Vaholanki, ma'lum tilni bilish uchun o'sha tilning tarixi, madaniyati, strukturasi va boshqa ma'lumotlarni bilish muhim sanaladi. Demak, bu ma'lumotlarni topish uchun shubhasiz tarjimaga yuzlanamiz va u orqaligina muhim ma'lumot va kerakli bilimlarni egallashimiz mumkin bo'ladi. Tarjima nima? U qanday amalga oshiriladi va qanday turlari mavjud? Tarjima inson faoliyatining qadimiy turlaridan bo'lib, turli tilli xalqlarning muloqotini amalga oshirishga yo'naltirilgan. Uzoq tarixga va o'ziga xos rivojlanish bosqichlariga ega tarjimonlik faoliyati faqat XX asrga kelib alohida fan, tilshunoslik bilimlarining bir sohasi sifatida shakllantirildi. XX asrda I va II jahon urushlari sababli bo'lib o'tgan global o'zgarishlar, fan va texnikaning rivojlanishi, xalqaro aloqalarning jadallashuvi va ko'pgina sotsiolingvistik omillar tarjima faoliyatining fan sifatida rivojlanishiga turtki bo'ldi. Tarjimashunoslikning o'ziga xos nazariya sifatida rivojlanishiga taniqli tilshunos va tarjimashunos olimlar V. Komissarov, A. Fyodorov, L. Barxudarov, Y. Retsker, G'. Salomov, Q. Musayev, Y. Nayda, J. Ketford va boshqalar katta hissa qo'shdi. O'zbek adabiyotida ham tarjimachilikka qo'l urgan namoyondalarimiz juda ko'pchilikni tashkil qiladi. Bular: Mahmud Koshg'ariy, Qutb, Rabg'uziy, Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy va boshqalardir. XX-asr o'zbek yozuvchilaridan A. Qodiriy, G'. G'ulom, Cho'lpon, Oybek, Mirtemir, M. Shayxzoda, Mirzakalon Ismoiliy, A. Muxtor, A. Oripov, E. Vohidov

va boshqalar badiiy tarjima sohasida ham ko'plab ishlar olib borishgan.

O'zbekistonda asos solingan tarjima maktablari tahsinga sazovor. Xususan, professor G'aybulla Salomovning dastlabki tadqiqotlari talabalik yillaridan boshlangan. U bu yo'nalishda bir qancha ilmiy ishlar yozdi va kitoblar chop ettirdi. Uning fikriga ko'ra, tarjima atamasi forscha "tarzabon" so'zining o'zgargan shaklidir. Tarzabon fors tilida "chiroyli so'zlovchi, notiq, tili burro kishi" degan ma'noni beradi. Asli arabcha bo'lgan bu so'z "tarjimon" shaklida bo'lib, undan "tarjimon", "tarjima" so'zlari kelib chiqqan. Bizga ma'lumki, har qanday til og'zaki va yozma nutqda ifodalanadi. Demak, tarjima shakliga ko'ra "yozma tarjima" va "og'zaki tarjima"ga bo'linadi. Yozma tarjima bu har qanday matn (og'zaki va yozma) ning yozma variantidir. Og'zaki tarjima esa har qanday (og'zaki va yozma) asarning og'zaki ko'rinishi hisoblanadi.

Qay shaklda o'g'irilishiga ko'ra, tarjima 4 turga bo'linadi va bunda materialning mohiyati, turi, shakli asos qilib olinadi. Bular: og'zaki -og'zaki, yozma-yozma, yozma -og'zaki, og'zaki-yozma. Og'zaki -og'zaki tarjimaning 2 turi mavjud: 1) izchil (ketma-ket), 2) sinxron tarjima. Ular bir biridan farq qiladi.

Izchil tarjimada: vaqt yetarli pauza (oraliq) vaqt berilishi, o'ylab puxta tarjima qilish imkoni, lozim bo'lsa aniqlashtirish kabi imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Sinxron tarjimada bu imkoniyatlar chegaralanganidir. Sinxron tarjima nima va uning tarixi qachonga borib taqaladi? Unga qachondan

murojaat qilyapmiz o'zi?

Anig'ini aytganda, sinxron tarjima XX asrga kelibgina qo'llanila boshlandi. XIX asr oxiri XX asrning boshlari insoniyat faoliyatining ko'plab sohalarida – sanoat, fan, savdo-sotiqda jadal rivojlanish bo'lgani bilan ajralib turadi. Xalqaro hamkorlik o'sib bora boshlagan, ham yangi shakllar kasb etgan. Keskin ortib borayotgan talabni qondira oladigan yangi aloqa imkoniyatlariga ehtiyoj sezila boshladi. Tarjimaning yangi turi - sinxron tarjimaga bo'lgan ehtiyoj XX asr boshlarida sezila boshlagan. Sinxron tarjima birinchi marta 1919-yilda Parijdagi tinchlik konferensiyasida qo'llanilgan. Sinxron tarjima g'oyasi amerikalik tadbirkor Edvard Fileynga tegishli bo'lib, u Millatlar Ligasida ketma-ket tarjima qilish juda uzoq vaqt talab qilishini payqagan va bu muammoni hal qilish yo'lini izlay boshlagan. 1925-yilda E.Filein Millatlar Ligasi kotibiyatiga tarjimaning yangi, vaqtni tejaydigan turini qo'llash taklifi bilan murojaat qiladi[3]. Shu tariqa sekinlik bilan hozirgi zamonaviy talqindagi ko'rinishiga ega bo'ldi.

Yurtimizda tarjimaning asosan, yozma turi taraqqiy etgan va bunga turli tarixiy davrlardan tortib oxirgi yuz yillikdan yozma tarjimaning ajoyib namunalarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Lekin so'nggi 30 yilni olsak, endilikda e'tibor og'zaki tarjima, shu jumladan, sinxron tarjimaga ko'proq qaratilayotganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, hozirgi davrda istalgan tildan, shu jumladan, o'zbek tilidan boshqa tilga, boshqa tildan o'zbek tiliga tezkor, bexato, adekvat, mantiqiy tarjima qila olish mahoratini shakllantirish dolzarblashib ulgurdi. O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi bilan bog'liq barcha qonun va dasturlarida zamon talablariga muvofiq bo'lgan barcha shart-sharoitlar, imkoniyatlar va asoslar belgilab qo'yilgan. Ushbu qaror asosida so'nggi yillarda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va boshqa bir qator oliy ta'lim muassasalarida sinxron tarjima nazariyasini o'qitish yo'lga qo'yildi. Bu albatta, rivojlangan davlatlar bilan raqobat qila olishimiz uchun yangi qadamlarimizdan biridir.

Sinxron tarjimaga chuqurroq nazar tashlasak, sinxron tarjima og'zaki tarjimaning eng qiyin hamda muhim turlaridan bir hisoblanib, unda tarjimon ketma-ket tarjimadan farqli o'laroq asliyat tilidagi notiq nutqini bir vaqtning o'zida tarjima tiliga tarjima qila borishi tushuniladi. Shubhasiz, bu sohani egallash uchun ba'zi ko'nikmalarga ega bo'lish talab qilinadi. Sinxron tarzda tarjimoni

olib boruvchilar sinxron tarjimon yoxud sinxronist deyiladi.

Sinxron so'zining izohi va ma'nolari:

1. Bir-biriga mos ravishda, ayni bir vaqtda, bab-baravar sodir bo'lgan yoki bo'ladigan, sinxronizmga, sinxronlikka ega bo'lgan.

Sinxron aylanish. Sinxron hodisalar.

Imo-ishoralar tilini, ayniqsa, sinxron tarjima va kinofilmlar o'girmasi bilan shug'ullanuvchi tarjimon-mutaxassislar aniq farqlamoqlari darkor.

2. Ayni bir davr tilini davr, vaqt omili va lisoniy o'zgarishlarga bog'liq bo'lmagan holda tavsiflashga oid, aloqador.

Sinxron tahrir.

Sinxron tarjimaning xususiyatlari:

Eshitish va gapirishning bir paytda sodir bo'lishi;
Vaqtning tig'izligi;

Tarjima tezligining notiq tomonidan boshqarilishi;

Sinxron tarjimaning notiq nutqi bilan o'z-o'zidan sodir bo'lishi.

Bunda bo'lajak sinxronist nutq faoliyatining ko'plab psixolingvistika qiyinchiliklarini yengib o'tish kerak. Bularning asosiylari: diqqat, xotira, fikrlash, tez fahmlashni rivojlantirish, aqliy harakatlarni boshqaruv tezligiga o'rgatish. Mana shu qobiliyatlarni o'zida jamlamay turib, sinxron tarjimaga qo'l urish mumkin emas.

Nima sababdan tarjima dasturi emas, qilingan mukammal tarjima afzalroq? Chunki tillar ko'p ma'nolikka boy. Muayyan tildagi har bir so'zning birdan ortiq ma'nosi bor, ulardan foydalanish esa vaziyatga bog'liq. Ingliz tilidagi har bir so'zni o'zbek tilidagi varianti bilan oddiygina bog'lab qo'ya olmasiz. Ma'noning mosligini faqatgina inson ongi seza oladi. Kompyuterda bunday qobiliyat yo'q, u faqat so'zning o'zinigina chiqara oladi. Bu inson tarjimasi va tarjima dasturi o'rtasidagi farqdir, to'g'ri tarjimoni yuzaga chiqarishda kompyuterlar insonlar bilan musobaqalasha olmasligining yana bir isbotidir ".(G'offurov.Tarjima nazariyasi. – Toshkent: 2012. 70-71 bet.)

Demak, sinxronistlarga bo'lgan talab dolzarbligicha qoladi, chunki har qanday texnika qanchalik mukammal yaratilmasin unda hissiyot yetishmaydi va inson o'rnini bosa olmaydi.

Odatda, sinxron tarjima amaliyoti maxsus uskunalar yordamida amalga oshiriladi. Ba'zida individual tinglovchilar uchun pichirlash texnikasi qo'llaniladi. Sinxron tarjima imkoniyati zamonaviy tillarda taxminan 50% ni tashkil qiladi. Unda so'zlar hech qanday yangi ma'lumot bo'lmagan so'zlar

ulushiga to'g'ri keladi, shu bilan birga, ma'lumotning bir qismi tinglovchilar tomonidan to'la to'kis qabul qilinmay qoladi.

Tarjima qilish paytida sinxron tarjimon ovoz o'tkazmaydigan quloqchin kiygan izolyatsiya qilingan kabinada bo'ladi, shunda o'z ovozi notiqning ovozini eshitishga xalaqit bermaydi. Qatnashchilar esa maxsus quloqchinlarda tarjimoni eshita boradilar. Sinxron tarjima texnologiyalaridan foydalangan holda, odatda, ko'p odamlar ishtirok etuvchi tadbirlar hamda kongress, konferensiya, seminar, prezentatsiya kabi katta konferens-zallarda yoki auditoriyalarda o'tkaziladi.

“Har bir til uning o'zigagina xos badiiy tasvir vositalariga ega. Tarjimada bu xususiyatlarni to'g'ri berish ba'zan ayni tarjimaning umumiy badiiy-estetik qimmatini belgilashda muhim omillardan biriga aylanadi. Bir tildagi lingvistik o'ziga xoslik yoxud afzallik vositasida ifodalangan fikrni bo'lak tillarga boshqa fonetik, morfologik, sintaktik yoki leksik-uslubiy vositalar bilan umuman berib bo'lmasligini bildirmaydi” (G'.Salomov.Tarjima nazariyasi asoslari. – T:1983.80- b.)

Ya'ni, bu holat til va nutq semantikasining sinxron tarjimaga oid muammolari sodir bo'lmasligi uchun quyidagi ba'zi narsalarga diqqat qaratishga undaydi:

“So'z ma'nosi va sinxron tarjima;

- ko'p ma'nolilik va sinonimiyaning sinxron tarjimaga ta'siri;
- so'z ma'nosining komponent tahlili va semantik moslashuv;
- axborotning semantik-mazmuniy strukturasi va uning ko'p ma'noliligi;
- axborotning temasi va remasi;
- axborotning mazmuniy tarkibi va sinxronchi

faoliyati;

- tilga oid implikatorlardan mazmuniy xulosa chiqarish;
- kognitiv-tezaurus usul yordamida xulosa chiqarish;
- situativ xulosa chiqarish;
- grammatik xulosa chiqarish;

Sinxron tarjimaga o'rgatishning metodik asoslari.” [Rahimov. G'.Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent : 2016. 154-164- b.]

Bo'lajak tarjimon radio va televizion dasturlarni, filmlarni, siyosiy sharh va ma'ruzalarni, ilmiy ommabop matnlarni badiiy filmlarni ko'rib, eshitib tarjima qilib borishni mashq qilishi lozim. Bundan ko'rinib turibdiki, sinxronist bo'lish sinchiklab o'rganishni, kuchli irodani va albatta katta mehnatni talab qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, hozirgi rivojlanib kelayotgan fan va texnika asrida sinxron tarjimaga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Davlatlar o'rtasida o'tkazilayotgan ko'p tilli anjumanlarda turli mavzularda muzokaralar olib boriladi. Bular ilm-fan, adabiyot, san'at, ma'daniyat va boshqa sohalarda o'zaro tajriba almashish, turli sohalar rivojiga hissa qo'shish hamda global muammolarga yechim topish borasida o'tkazilmoqda. Yuqorida ko'rsatilib o'tilgan sinxron tarjima haqidagi ma'lumotlar bo'lajak tarjimonlar uchun foydasi tegsa ajabmas. Shubhasiz, bu sohani egallash ancha mashaqqatli hisoblanib, kuchli iroda va qattiq mehnat talab qiladi. Bizning yurtimizdan ham kuchli sinxronistlar yetishib chiqishi uchun bu sohaga o'qitishni yanada kengaytirish kerak. Xususan, O'zbekistonda ko'p tillarda sinxron tarjimonlar yetishmaydi. Masalan: fransuz, ispan, nemis va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahimov. G'.Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2016.165- bet.
2. Salomov.G'.Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. 80- bet.
3. I.G'offurov.Tarjima nazariyasi. – Toshkent, 2012.70-71 bet.

Elektron resurslar

1. <https://izoh.uz/word/sinxron>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sinxron_tarjima
3. <https://zenodo.org/records/8054879/files/ARIMS1732.pdf?download=1>

Azizbek IBRAGIMOV,
Urganch davlat universiteti talabasi

ORZU URGANJIY RUBOIYLARIGA BIR NAZAR

Annotatsiya: ruboiy janri azaldan turkiy adabiyotda alohida o'ringa ega bo'lib, ko'plab shoirlar bu janrning go'zal namunalarini yaratganlar. Orzu Urganjiy ham o'zining bir qancha ruboiylari bilan adabiyotda alohida o'ringa ega. Ushbu maqolada Urganjiyning ruboiylari tahlilga tortildi, ularning mavzu va badiiyat jihatidan balog'atiga baho berildi.

Kalit so'zlar: *ruboiy, qofiya, qofiya turlari, mumtoz adabiyot, kamchilik, lirika, fors adabiyoti, mavzu, g'oya, she'riy vazn.*

Annotation: the rubai genre had a special place in Uzbek literature, and many poets have created excellent examples of this genre. Orzu Urganjiy is also important in literature thanks to his several rubai. This article analyzes the rubai of Urganji and evaluates their ideological and poetic maturity.

Key words: *rubai, rhyme, types of rhyme, classical literature, lackness, lyrics, Persian literature, theme, idea, poetic weight.*

Аннотация: жанр рубаи всегда занимал особое место в узбекской литературе, и многие поэты создали прекрасные образцы этого жанра. Орзу Урганжий также занимает особое место в литературе благодаря своим нескольким рубаям. В данной статье анализируются рубаи Урганжи, оценивается их идейная и поэтическая зрелость.

Ключевые слова: *рубаи, рифма, виды рифмы, классическая литература, недостаток, лирика, персидская литература, тема, идея, поэтический вес.*

O'tgan asrlar mobaynida shakllanib, sayqal topib kelayotgan sharq mumtoz adabiyotida shoirlarning iqtidorini o'lchashda ma'lum bir mezonlardan foydalaniladi. Ularning asosi fors adabiyotshunosligidagi "ilmhoye segona"— ilmlar uchligini tashkil etadi. Bu uchlik ilmi aruz, ilmi qofiya va ilmi bade' nomli uchta tarkibiy qismdan iborat bo'lib, shularni to'liq o'zlashtirmagan ijodkor keng davralarda tan olinmagan. Darhaqiqat, bu uchliksiz mumtoz adabiyotdagi biror misrani tasavvur etib bo'lmaydi. Xususan, aruz vaznining qoidalarini bilmay turib, ijod qilish mushkul bo'lganidek, qofiyaga rioya qilinmasa, badiiy malohat kasb etmasa, hech bir fikrga she'r deya nom bermoq mumkin emas. Bu asosiy mezonlardan boshqa yana bir qo'shimcha omil borki, bu ham yuqorida sanalganlarni to'ldiradi. Ya'ni ijodkorning xilma-xil janrlardan foydalana olish mahorati ham uning iste'dodini ko'rsatib beradi. Biz bugun tahlilga tortgan Orzu Urganjiy ijodi esa janriy jihatdan xilma-xildir. Shoirning bizgacha bor-yo'g'i 123 ta she'ri yetib kelgan, lekin ular orasida g'azal, qit'a, fard, muxammas, musaddas, muvashshah, ruboiy, masnaviy kabi janr namunalarini ham uchratamiz. Ushbu tadqiqotimizda Urganjiy ruboiylari borasidagi fikr-mulohazalarimizni taqdim etmoqchimiz.

"Ruboiy" so'zining adabiy termin sifatidagi izohiga yuzlanadigan bo'lsak, XV asr adabiyotshunosligida birinchilar qatorida bu haqida Navoiy hazratlari shunday fikr bildirganlar: "Ruboiy vaznikim, ani dubaytiy va tarona derlar, hazaj bahrining axram

va axrabidin istixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xushoyanda va nazmedur bag'oyat raboyanda" [1,157] Adabiyotshunos Y.Is'hoqov bu fikrlarni to'ldirgan holda atamani shunday izohlaydi: "Ruboiy (arabcha "to'rttalik") ikki bayt (to'rt misra)dan iborat bo'lib, hazaj bahrining axrab va axram (24ta tarmog'i) vaznlarida yozilgan, birinchi, ikkinchi, to'rtinchi misralari qofiyalangan lirik janr. To'rtala misra qofiyadosh bo'lsa, tarona deyiladi. Shuning uchun ham ruboiyni ba'zan dubaytiy va tarona ham deydilar" [4, 153]. Orzu ijodida ruboiylar bir qancha o'ziga xosliklarga ega. Birinchidan, ruboiylarda shart qilingan vaznning tugal istifodasiga yetarlicha e'tibor berilmagan. Ya'ni, vazniy buzilishlar yuzaga kelgan. Masalan, biz tadqiqot obyekti sifatida olgan to'plamdagi 25 ta ruboiyning to'rtinчисiga diqqat qaratamiz:

Yaxshilar xalq/ ichra yaxsh/i nom etar,
-V- -/ -V - -/ -V-
fo i lo tun / fo i lo tun / fo i lun

Tushsa bir muh/toj, ishing an/jom.etar.
-V- -/ -V - -/ -V-
fo i lo tun / fo i lo tun / fo i lun

Badtabiat/ sivilaga tush/sa ishing,
-V- -/ -V - -/ -V-
fo i lo tun / fo i lo tun / fo i lun

Ko'nglingi maj/ruh etib, bad/nom etar. [2,66]
-V- -/ -V - -/ -V-

fo i lo tun / fo i lo tun / fo i lun

Ko'rib turganingizdek, ushbu to'rtlik ramali musaddasi mahzuf vaznida yozilgan va ruboiy janriga mutlaqo daxlsiz. Sanoqli ruboiylar ichida bunday holat ko'plab uchraydi. Bizningcha, bu kabi qo'pol xato shoir tomonidan emas, to'plamni tuzuvchi tomonidan qilingan bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, Urganjiy ruboiylarida qofiya ham bir qancha o'rinlarda qoidaga nomuvofiq shaklda qo'llanilganini ko'rish mumkin:

Bo'rilarni agar qilsang himoya– (a)

Qo'ylar guruhiga yetkurdung ofat! (b)

Elga rahbar bo'lsa berahm, (c)

Fuqaroni qo'yimas hargiz farog'at. (b) [2,69]

Aslida, bu shakldagi she'rlarni hikmatlar qatoriga qo'shib qo'yilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Uchinchidan, ruboiylarda mavzu va g'oya jihatidan an'anaviylik, aniqrog'i, takroriylik juda ko'p.

Masalan,

Oldiga kelganni yer hayvonlar,

Og'ziga ne kelsa, der nodonlar.

Ahli donish agar so'z so'zlasa,

Bebaho gavhar bilur mardonlar. [2,68]

Bu ruboiydagi fikr Navoiy ijodida ham uchraydi. "Oldiga qo'yganni yemoq hayvonning ishi, Og'ziga kelganni demoq nodonning ishi" hikmatli so'zini eshitmagan inson deyarli uchramaydi. Urganjiy ham bu fikrni faqat shaklan o'zgartirgan. Ruboiylar orasida bu kabi oldingi o'tganlar aytib ketgan g'oya yoki fikrni o'z holicha bayon etish holatlari yana bir necha marotaba uchraydi.

Urganjiy ruboiylari mavzu jihatidan pand-nasihat ruhida yozilgan. To'plamda berilgan ruboiylarning barchasi biror didaktik maqsadni o'zida aks ettiradi. Ruboiy janri taraqqiyotiga nazar soladigan bo'lsak, mavzu jihatidan xilma-xillikka duch kelamiz. Ishqiy mavzudagi ruboiylar ham, maishiy hayot, pandnoma, orifona, rindona ruboiylar ham birdek uchraydi. Qit'a janrining asrlar osha didaktik fikrlarga xoslangani kabi ruboiylarda ham hikmatlar mavzusi yuqori o'rin tutadi. Bunday holni Navoiy ijodida ham, Bobur Mirzoda ham ko'rish mumkin.

Xususan, Navoiyning "Ahhob, yigitlikni g'animat tutingiz", "G'uribatda g'arib", "Ey umri aziz", "El qochsa birovdin" ruboiylari, Bobur Mirzoning "Hijron qafasida jon qushi ram qiladur", "Davron meni o'tkardi", "Har kimki vafo qilsa", "Ko'ngli tilag'an murodig'a" ruboiylari ushbu ulug' shoirlarning hayot haqidagi chuqur mulohazalarini aks ettiradi va asrlar mobaynida o'quvchilariga ibrat va dasturilamal bo'lib kelmoqda. Keyingi davr ijodkorlari qatorida Urganjiy ham o'zbek mumtoz ruboiyotida munosib iz qoldirishga harakat qilgan. Yuqorida sanab o'tilgan juz'iy kamchiliklarga qaramasdan shoirning ruboiylarini badiiy go'zallik namunasi sifatida tan olmaslikning iloji yo'q. Xususan, ilmi bade' bilimdoni shoir Orzu she'riy san'atlardan mohirlik bilan foydalangan. Bir-biriga qarama qarshi ma'noli so'z va jummalarni qo'llash san'ati - tazodning ko'pgina namunalarini ruboiylarda uchramiz:

Mansabing borinda barcha yordur,

Davlatning borinda xizmatkordur.

Nogahondin ketsa baxting, davlatning,

Do'ndirib yuz, barchasi bezordur. [2,68]

Ruboiydagi yor-bezor so'zlari o'zaro zidlanib, tazod san'atini hosil qilgan. Keyingi ruboiyda ham xuddi shunday holatning guvohi bo'lamiz:

Tarbiya o'g'rini ham to'g'ri qilur,

O'g'rilar to'g'rini ham o'g'ri qilur.

Har nechuk qiyshiq yog'ochdin soz uchun

Ustalar ishlab ani to'g'ri qilur. [2,68]

Bu ruboiyda esa to'g'ri so'zi ham o'g'ri so'zi bilan, ham qiyshiq so'zi bilan turli ma'no nozikliklari ila tazodni hosil qilgan.

Ko'rib turganimizdek, Orzu Urganjiy o'z davrining obro'li, fozil va ilmli kishilaridan bo'lganini uning butun ijodiy merosi tasdiqlaydi. Har to'kisda bir ayb, degan maqolni esda tutgan holda qaralsa, shoir ruboiylaridan ham olam ma'no va cheksiz go'zallik va ibrat topishimiz mumkin. O'zining qisqacha 123 ta she'rdan iborat ijodiy merosi bilan ham adabiyotimiz safidan munosib o'rin egallagan Urganjiy yosh avlod ma'naviyati rivojiga katta hissa qo'sha olishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy A. Mezon ul-avzon. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1967.
2. Orzu. Hikmatlar gulistoni. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot- matbaa birlashmasi , 2015.
3. Navoiy A. Hayrat ul-abror. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1989.
4. Is'hoqov. So'z san'ati so'zligi.—Toshkent:O'zbekiston, 2014.